

QO'QON UNIVERSITETI

*O'zbekiston Respublikasi
davlat mustaqilligining
30 yilligiga bag'ishlanadi!*

SH.I. MUSTAFAKULOV, G'.E. ZAHIDOV,
Q.A. ISAYEV, A.B. TO'QLIYEV

MAKROIQTISODIYOT

(darslik)



«Innovatsion rivojlanish
nashriyot-matbaa uyi»
Toshkent – 2022

UO'K: 330.101.541 (072)
KBK 65.012.2ya7
M 20

Sh.I.Mustafakulov, G'.I.Zahidov, Q.A.Isayev,
A.B.To'qliyev. Makroiqtisodiyot. Darslik. – T.: «Innovatsion
rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022 – 260 b.

ISBN 978-9943-7525-7-3

Ushbu darslikda makroiqtisodiy barqarorlik shartlari va iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy omillari, pul-kredit va fiskal siyosatning bugungi kundagi ahamiyati bilan bog'liq bilimlar bayon etilgan. Kitobning o'quvchilar tomonidan oson o'rganishlari hamda uning yanada jozibadorligini oshirish maqsadida makroiqtisodiyotga oid ilg'or xorijiy adabiyotlarning so'nggi nashrlaridagi topshiriqlar, masala-misollar va keyslaridan keng foydalanilgan.

Darslikda aks etgan nazariy-amaliy tushunchalar va makroiqtisodiy masalalar mavzular kesimida statistik tahlillar orqali talqin etilgan. Ushbu adabiyot iqtisodiyot sohasida ta'lim olayotgan bakalavriat bosqichi talabalari va shu sohaga qiziquvchi mutaxassislar uchun mo'ljallangan.

Mas'ul muharrir:

Saidaxror G'ulomov – O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Taqrizchilar:

Adham Bekmurodov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nosir Maxmudov – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti “Makroiqtisodiy tahlil va prognozlashtirish” kafedrasи professori, iqtisodiyot fanlari doktori

UO'K: 330.101.541 (072)
KBK 65.012.2ya7

ISBN 978-9943-7525-7-3

© «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», – 2022.

MUNDARIJA

MUQADDIMA.....	6
----------------	---

I BOB MAKROIQTISODIYOT FANIGA KIRISH

1.1. Iqtisodiyotning o'n tamoyili	11
1.2. Iqtisodiyotning bir butun sifatida faoliyat yuritishi. Iqtisodchi sifatida fikrlash.....	21
1.3. Makroiqtisodiyot fanining shakllanishi tarixi, predmeti va obyekti.....	22
1.4. Aylanaviy oqimlar hamda ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi modellari.	24

II BOB MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBLSASH

2.1. Milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda qo'llaniladigan asosiy makroiqtisodiy ko'satkichlar.....	34
2.2. Yalpi ichki mahsulot (Yalm) tushunchasi va uni hisoblash usullari	35
2.3 Milliy hisobchilik tizimidagi boshqa ko'satkichlar va ular o'rtaсидagi nisbat	39

III BOB MAKROIQTISODIYOT FANINING RIVOJLANISHIDA XALQARO SAVDO NAZARIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

3.1. Xalqaro savdoning zarurligini belgilovchi omillar va uning ko'rinishlari.	44
3.2. Mutlaq va nisbiy ustunlik nazariyalari.....	49
3.3. E.Xekshер va B.Olinning neoklassik konsepsiysi, Leontev paradoksi.....	53
3.4. Xalqaro savdoning zamonaviy nazariyalari.	60

IV BOB IQTISODIYOTNING DAVRIY RIVOJLANISHI: ISHCHI KUCHI, OUKEN QONUNI, INFLYATSIYA VA FILLIPS EGRI CHIZIG'I

4.1. Iqtisodiy davrlar, tebranishlar.....	68
4.2. Ishchi kuchi, Ishsizlik va uning turlari.....	70
4.3. Ishsizlikning tabiiy darajasi. Ouken qonuni	75
4.4. Inflyatsiya va uni hisoblash usullari.....	76

4.5. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi bog'liqlik. Fillips egri chizig'i, davlatning aksilinflyatsiya siyosati	81
--	----

V BOB

YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF MODELI, ISTE'MOL, JAMG'ARISH, INVESTITSIYA, YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF MODELI

5.1. Yalpi talab va unga ta'sir etuvchi omillar	88
5.2. Yalpi taklif: klassik va keynsian modellari.	92
5.3. Iste'mol va jamg'arish, ularning grafiklari va funksiyalari.	97
5.4. Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi foiz stavkasidan boshqa omillar. Akselerator modeli.	102

VI BOB

PUL BOZORI: PULGA BO'LGAN TALAB VA TAKLIF, PUL BOZORIDAGI MUVOZANAT

6.1. Pul tushunchasi va uning funksiyalari. Asosiy pul agregatlari.	109
6.2. Pulga talabning klassik va keynissian nazariyalari.....	113
6.3. Pul taklifi modeli. Pul multiplikatori	115
6.4. Pul bozoridagi muvozanat.	117

VII BOB

FISKAL (SOLIQ-BUDJET) SIYOSAT

7.1. Fiskal siyosatining mohiyati va usullari	124
7.2. Budjet – soliq siyosatining qisqa va uzoq muddatli maqsadlari, uning vositalari. Davlat xarakatlari multiplikatori.....	126
7.3. Soliq va balanslashgan budjet multiplikatorlari.	129
7.4. Diskretsion va nodiskretsion fiscal siyosat. Iqtisodiyotning ichki o'rnatilgan stabilizatorlari.	132

VIII BOB

MONETAR (PUL-KREDIT) SIYOSATI

8.1. Bank tizimi. Markaziy bank va tijorat banklari.	139
8.2. Monetar siyosatning maqsadlari va vositalari	145
8.3. Monetar siyosatning mexanizmi, uning soliq va valuta siyosati bilan aloqadorligi.	149



IX BOB TOVAR VA PUL BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT: IS-LM MODELI

9.1. IS-LM modelining mohiyati va xususiyatlari.....	156
9.2. IS-LM modelining asosiy o'zgaruvchilari va tenglamasi. IS va LM egri chiziqlari.....	157
9.3. IS-LM modeli doirasida budjet-soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligi.	161
9.4. IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanat.....	165

X BOB IQTISODIY O'SISH VA AHOLO FAROVONLIGI

10.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning o'lchanishi.....	170
10.2. Iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi omillar.	173
10.3. Iqtisodiy o'sishning neokeynscha modellarining umumiyl tavsifi.	177
10.4. Iqtisodiy o'sishning Xarrod-Domar modeli.....	179
10.5. Iqtisodiy o'sish va aholi farovonligi o'tasidagi bog'liqlik.	181

XI BOB TASHQI SAVDO SIYOSATI

11.1. Tashqi savdo siyosati va uning yo'nalishlari.....	186
11.2. "Ochiq" va "yopiq" iqtisodiyot tushunchasi iqtisodiyot modeli.	190
11.3. Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modeli.....	191
11.4. Tashqi savdoning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar.	192
11.5. Tashqi savdo siyosatining tarif va notarif usullari.....	194
11.6. Kapitalning xalqaro harakati va uning shakkli.....	200
11.7. Xorijiy investitsiyalar va ularning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati.....	201

XII BOB TO'LOV BALANSI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

12.1. To'lov balansi tushunchasi, xususiyatlari va uning tarkibiy tuzilishi	209
12.2. To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solish vositalari va usullari.....	215
12.3. Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati va uni davlat tomonidan tartibga solish usullari.....	220
12.4. Mamlakatda tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.	227
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	235
GLOSSARIY	236
ILOVALAR.....	251

MUQADDIMA

Giperraqobat va iqtisodiyotning raqamli transformatsiyalashushi sharoitida har bir mamlakat aholi daromadlarini oshirish, inflyatsiyani jilovlash, ishsizlikni qisqartirish, global bozorlar bilan samarali integratsiyalashuvni ta'minlash kabi masalalarga alohida urg'u beradi. Mazkur masala-muammolarning optimal yechimlarini topish asnosida makroiqtisodiy ko'satkichlarining barqarorligini ta'minlashga harakat qiladi. Ushbu tendensiyalar makroiqtisodiy ko'satkichlarni hisoblash, inflyatsiya va ishsizlik darajasini aniqlash, fiskal va monetar siyosatni samarali olib borish, iqtisodiy o'sish va aholi farovonligini ta'minlash, tashqi savdo siyosatini liberallashtirish singari masalalarni hal etishni taqozo etadi.

Jahon iqtisodiyotida yuz berayotgan global pandemik o'zgarishlar, sun'iy intellekt hamda raqamli texnologiyalarning rivojlanib borayotganligi mamlakatlar makroiqtisodiy siyosatini xalqaro andozalar asosida takomillashtirishni talab etadi. Ushbu jarayon esa, o'z navbatida, "Makroiqtisodiyot" fani oldida zamonaviy muammolarni hal etishga doir yangi vazifalarni belgilab beradi.

Yuqoridaagi fikrlarni e'tiborga olib, ushbu darslikda makroiqtisodiy barqarorlik shartlari va iqtisodiy rivojlanishning zamonaviy omillari yaxlit tizim sifatida tahlil qilinib, "Makroiqtisodiyot" fani ostida birlashtirildi. Shuningdek, kitobning har tomonlama zamonaviyligini ta'minlash, o'rganish usullarini soddalashtirish maqsadida mazkur fanga oid ilg'or xorij adabiyotlar, jumladan G.Menkyu, D.Romer asarlарining so'nggi nashrlaridagi muammoli topshiriqlar, vazifalar, masala-misollar va keyslardan keng foydalanilgan.

Mazkur kitobni o'rganish, undagi nazariyalarning mohiyatini chuqurroq anglab yetish uchun o'quvchidan iqtisodiyot nazariysi va iqtisodiy ta'lilotlar tarixi fanlaridan dastlabki bilimlarga ega bo'lishlik talab etiladi. Darslikda aks etgan nazariyamaliy tushuncha va makroiqtisodiyotga oid masalalar mavzular kesimida statistik tahlillar orqali talqin etilgan.

Darslik iqtisodiyot yo'nalishlari bo'yicha bakalavriat bosqichida tahsil olayotgan, tayanch iqtisodiy bilim va ko'nikmalarga ega bo'lgan, kelajakda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va iqtisodiy prognozlashtirishga oid sohalarda faoliyat olib borayotganlar, shuningdek, makroiqtisodiyot sohasida ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanayotganlar uchun ham foydali bo'lishini hisobga olib tayyorlangan.

Har bir bobdan o'rın olgan masalalar mantiqiy ketma-ketlikda, sodda tushuntirishlar hamda grafiklar orqali talqin etilgan. Shu bilan birga, olingan bilimlarni mustahkamlash maqsadida boblar va paragraflarning mazmunidan kelib chiqib, qo'shimcha topshiriqlar, masala va misollar ham kiritilgan.

Mavzularning yoritilishidagi mazkur usul va yondashuvlar kitobxonga har bir bob bo'yicha nazariy bilimlarini amaliy ko'nikmalar bilan boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek, darslik makroiqtisodiy bashoratlash, zamonaviy pul-kredit



tizimi, iqtisodiy xavfsizlik sohalari bo'yicha qo'shimcha bilim hosil qilmoqchi bo'lgan, mustaqil ta'lif bilan muntazam shug'ullanib kelayotgan o'quvchilarga ham mo'ljallangan bo'lib, mavzular izohi soddadan-murakkablikka, xususiylikdan-umumiylikka qarab shakllantirilgan.

Yuqoridagi holatlarni inobatga olgan holda, tayyorlangan mazkur darslik Siz aziz talaba-yoshlar va izlanuvchilar uchun makroiqtisodiyotda uchraydigan ziddiyatli muammo va masalalarni yechishga, ularning tub mohiyatini anglab yetishga ko'mak beradi, degan umiddamiz.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, darslikni o'qish davomida yuzaga chiqqan xatoliklar, ayrim tushuncha va kategoriyalarning asl mohiyati Siz o'ylagandek ravon bayon etilmagan bo'lsa, mualliflar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik sifatida baholab, uni quyidagi pochta manzillariga jo'natishingizni iltimos qilamiz: mustafaqulov_sh@mail.ru, qobilii.isaev@gmail.com yoki abdirauftukliev@gmail.com. Siz o'quvchilar tomonidan bildirilgan taklif va tavsiyalar kitobning keyingi nashrlarini tayyorlashda xizmat qiladi, degan umiddamiz.

Mualliflar mazkur darslikning dunyo yuzini ko'rishida yaqindan ko'maklashgan, jumladan materiallarni yig'ish va texnik ishlarni bajarishda ishtirok etgan izlanuvchilarga, qimmatli vaqtini ayamasdan zaruriy taklif va tavsiyalarini bergen barcha ustozlarga, taqrizchilarga o'zining samimiy minnatdorchiligini bildiradi!

I BOB

MAKROIQTISODIYOT

FANIGA KIRISH

- 1.1. IQTISODIYOTNING O'N TAMOYILI
- 1.2. IQTISODIYOTNING BIR BUTUN SIFATIDA FAOLIYAT YURITISHI.
IQTI SODCHI SIFATIDA FIKRLASH
- 1.3. MAKROIQTISODIYOT FANINING SHAKLLANISH TARIXI,
PREDMETI VA OBYEKTI
- 1.4. AYLANAVIY OQIMLAR HAMDA ISHLAB CHIQARISH
IMKONIYATLARI CHEGARASI MODELLARI

KIRISH

Iqtisodiyot so'zi yunoncha, «oikonomos» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, «uy xo'jaligini boshqarish» degan ma'noni anglatadi. Dastlab, bu so'zning haqiqiy ma'nosi o'ziga xos ko'rinishi mumkin.

Ammo aslida uy xo'jaliklari va iqtisodiyotning umumiy jihatlari ko'p. Uy xo'jaligini yuritishda ham ko'plab munozarali vaziyatlarga duch kelinadi. Qaysi uy xo'jaliklari a'zolari qanday vazifalarni bajarishi va har bir a'zosi buning evaziga nima olishlari to'g'risida qaror qabul qilishi kerak: kechki ovqatni kim pishiradi? Kim kir yuvadi? Kechki ovqatdan keyin qo'shimcha shirinlikni kim oladi? Mashinani kim boshqarishi kerak?

Xulosa qilib aytganda, uy xo'jaliklari har bir a'zoning qobiliyatları, sa'y-harakatlari va xohish-istikclarini inobatga olgan holda o'zining kam manbalarini (vaqt, shirinlik, avtoulovda yurishi) turli xil a'zolar orasida taqsimplashi kerak.

Uy xo'jaligi singari, jamiyat ham ko'plab bunday vaziyatlarga duch keladi. Jamiyat ayni vaziyatda qaysi ishlarni bajarish va ularni kim bajarishi to'g'risida qaror qabul qilishning biron-bir usulini topishi kerak. Jamiyat odamlarni (shuningdek, yerlarni, binolarni va mashinalarni) oziq-ovqat yetishtirish, boshqalarga kiyim tikish, kimlargadir esa kompyuter dasturlarini ishlab chiqarish kabi turli ishlarga ajratgandan so'ng, ular ishlab chiqaradigan tovar va xizmatlarni ham taqsimplashi kerak. Kim «tandir go'sht» iste'mol qiladi va kim qaynatilgan kartoshka iste'mol qiladi kabi qarorlarni qabul qilishi, kim Captiva haydaydi va kim avtobusga chiqishini hal qilishi kerak.

Jamiyat resurslarini boshqarishi juda muhim, chunki jamiyatda resurslar cheklangan. Shuning uchun odamlar istagan barcha tovar va xizmatlarni ishlab chiqara olmaydi. Uyning har bir a'zosi xohlagan narsasini ololmagani kabi, jamiyatdagi barcha shaxslar ham o'zi intilishi mumkin bo'lgan eng yuqori hayot darajasiga erisha olmaydi.

Iqtisodiyot bu, jamiyat o'zining cheklangan manbalaridan oqilona tarzda foydalangan holda boshqarishini o'rganadigan fandir. Ko'pgina rivojlangan mamlakatlarda resurslar diktator tomonidan emas, balki millionlab uylar va firmalarning birgalikdag'i tanlovi orqali taqsimlanadi. Shuning uchun iqtisodchilar odamlar qanday qaror qabul qilishlarini o'rganadilar: ular qancha ishlaydi, nimalarni sotib olishadi, qancha mablag' to'plashadi va o'z jamg'armalariga qanday sarmoya kiritadilar.

Shuningdek, iqtisodchilar odamlar bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishlarini o'rganadilar. Iqtisodchilar umuman iqtisodiyotga ta'sir ko'rsatadigan kuchlar va tendensiyalarni, shu jumladan o'rtacha daromadning o'sishini, ish topa olmaydigan aholining qismini va narxlarning ko'tarilish tezligini tahlil qiladi.

Iqtisodiyotni o'rganish ko'p qirralarga ega, ammo uni bir nechta markaziy g'oyalalar birlashtirgan. Quyida biz iqtisodiyotning o'n tamoyilini ko'rib chiqamiz. Avvaliga ularning hammasini tushunmasangiz yoki to'liq anglab yetishda muammolarga duch kelsangiz, tashvishlanmang. Ushbu g'oyalarni keyingi boblarda to'liqroq o'rganamiz. Bu yerda o'nta tamoyil sizga iqtisodiyotning mohiyati haqida umumiylar berish uchun kiritilgan.



1.1. IQTISODIYOTNING O'N TAMOYILI

Iqtisodiyot to'liq anglab yetishingizga hech qanday sirlar to'sqinlik qilmaydi. Butun iqtisodchilar ko'p sohada namuna qilib oladigan, og'zini to'ldirib gapiradigan Amerika Qo'shma Shtatlari iqtisodiyoti haqida gapiramizmi, yoki butun dunyo iqtisodiyoti haqida gaplashamizmi, iqtisod bu shunchaki odamlar guruhining hayoti davomida bir-biri bilan muomala qiladigan guruhlardir. Iqtisodiy faoliyat iqtisodiyotni tashkil etuvchi shaxslarning xatti-harakatlarini aks ettirgani sababli, iqtisodiyotni o'rganishni individual qaror qabul qilish to'g'risidagi to'rtta tamoyildan boshlaymiz.

1-tamoyil. Odamlar tanlovga duch keladilar. Odatda, biz doim o'zimizga yoq-qan narsani olish uchun o'zimizga yoqadigan boshqa bir narsadan voz kechishimizga to'g'ri keladi. Keling, o'zining eng qimmatbaho manbasini – o'z vaqtini qanday taqsimlashni hal qilishi kerak bo'lgan talabani tasavvur qilaylik.

U o'zining barcha vaqtlarini iqtisodni o'rganishga sarflashi, aksincha, psixologiyani o'rganishi, yoki ikki sohaga teng vaqtini ajratishi mumkin. U har bir soat uchun bitta mavzuni o'rganayotganda, boshqasini o'rganishga sarf qilishi mumkin bo'lgan bir soatni yo'qotadi.

Va u o'qishga sarflagan har bir soat uchun u uqlash, velosiped haydash, televizor ko'rish yoki yarim kunlik ish vaqtini sarf qilishi mumkin bo'lgan soatinini yo'qotadi.

Yana bir misol, ota-onalar oilaviy daromadlarini qanday sarflashni hal qilishmoqda. Ular oziq-ovqat, kiyim-kechak yoki oilaviy o'yin-kulgiga pullarini sarflashi, yoki ular oilaviy daromadlarining bir qismini nafaqaga chiqish yoki kollejda o'qish uchun ajratib qo'yishlari mumkin. Ushbu tovarlarning biriga qo'shimcha bir dollar sarflashga qaror qilganda, boshqa tovarlarga sarflash uchun bir dollar kamroq qoladi.

Odamlar jamiyatlar bo'lib birlashganda esa tanlovlар ham ancha kattalashadi. Bitta klassik misol keltirsak: Mamlakat o'z chegaralarini xorijiy tajovuzkorlardan himoya qilish uchun milliy mudofaaga (qurol-yarog') qancha ko'p mablag' sarflasa, o'z mamlakatida turmush darajasini yaxshilash uchun iste'mol mollariga shuncha kam mablag' sarflay oladi.

Zamonaviy jamiyatda, shuningdek, toza atrof-muhit va yuqori darajadagi daromad o'rtasidagi savdo-sotiq muhim ahamiyatga ega. Firmalarning ifloslanishini kamaytirishini talab qiladigan qonunlar mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar narxini oshiradi. Ushbu yuqori xarajatlar tufayli firmalar foydasi kamayadi, yoki foydani kamaytirmslik uchun ish haqi miqdori hajmini kamaytirishadi, mahsulotlarni yuqori narxlarda sota boshlashadi, eng ko'p qo'llaniladigan esa bu uchta yo'lни barchasini bir vaqtida qo'llashadi.

Shunday qilib, ifloslanishga qarshi qoidalalar toza atrof-muhit ta'minlashi va u sog'lig'imiz uchun foyda bo'lsa-da, ularni tartibga soladigan firma egalarining, ishchilarning va mahsulotni sotib olgan mijozlarning daromadlarini kamaytirish hisobiga amalga oshiriladi.

Jamiyat duch keladigan yana bir murosali holat samaradorlik va tenglik o'rta-sida. Samaradorlik shuni anglatadiki, jamiyat cheklangan resurslaridan maksimal darajada foydalanadi. Tenglik bu imtiyozlar jamiyat a'zolari o'tasida teng taqsim-lanishini anglatadi.

Boshqacha qilib aytganda, samaradorlik iqtisodiy pirogning hajmini bildiradi va tenglik pirogni alohida bo'laklarga bo'linishini anglatadi. Davlat siyosatini ish-lab chiqishda ushbu ikki maqsad ko'pincha bir-biriga zid keladi. Masalan, iqtisodiy boylikni taqsimlashni tenglashtirishga qaratilgan siyosatni ko'rib chiqing. Ushbu siyosatning ba'zilari, masalan, ijtimoiy sug'urta yoki ishsizlik sug'urtasi, jamiyat-dagi eng muhtojlarga yordam berishga harakat qiladi.

Boshqalar, masalan, shaxsiy daromad solig'i, moliyaviy jihatdan muvaffaqi-yatli odamlardan hukumatni qo'llab-quvvatlash uchun boshqalardan ko'ra ko'proq hissa qo'shishni so'rashadi. Ular ko'proq tenglikni ta'minlasa-da, ushbu siyosat sa-maradorlikni pasaytiradi. Hukumat boylardan kambag'allarga daromadlarni qayta taqsimlaganda, mehnat uchun haq to'lashni kamaytiradi; natijada odamlar kam ishlaydi va kam tovar va xizmatlar ishlab chiqaradi. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, hukumat iqtisodiy pirogni teng bo'laklarga ajratmoqchi bo'lganida, pirog kichrayib qoladi

Jamiyatda odamlar bugungi kichik moddiy yo'qotishlarga bardosh beraolishi keyingi katta yo'qotishlarni oldini olishini anglab yetishi va shunga qarab o'zлari qanday qarorlar qabul qilishi yoki qilishi kerakligini anglab yetishi zarur. Talaba psixologiyani o'rganishdan voz kechmasligi kerak, chunki bu bilan iqtisodiyotni o'rganish uchun vaqt ko'payadi. Jamiyat atrof-muhitni muhofaza qilishni to'xtatmasligi kerak, chunki ekologik qoidalarga amal qilish bizning moddiy turmushimizni ta'minlaydi. Kambag'allarga yordam berish mehnatni rag'batlantirishni buzayotganligi sababli ularnie'tiborsiz qoldirmaslik kerak. Shunga qaramay, odamlar o'zлari uchun mavjud bo'lgan variantlarni tushunsalargina yaxshi qaror qabul qilishlari mumkin.

2-tamoyil. Biro narsaning qiymati – unga erishish uchun voz kechilgan narsaning qiymatiga teng. Odamlar nimanidir tanlashda qaror qabul qilish jarayonida doim xarajatlari va foydalarini taqqoslashi talab etiladi. Biroq, ko'p hollarda, harakatning narxi birinchi bo'lib paydo bo'lishi mumkin bo'lgan darajada aniq emas. Oddiy misol universitetda o'qish qarorini ko'rib chiqamiz. Oliy ta'limni olishning asosiy afzalliklari intellektual boyinish va umr bo'yи yaxshi ish bilan asos-lanadi. Ammo xarajatlar qancha? Bu savolga javob berish uchun siz beixтиyor kitoblar, xona, yo'lkira va ovqat uchun sarflagan pulingizni qo'shasiz. Shunga qaramay, bu universitetda bir yil sarf qilganlaringizni hammasini anglatmaydi.

Ushbu hisoblashda ikkita muammo mavjud. Birinchidan, unga universitetga borish uchun sarflanadigan xarajatlar bo'lmagan ba'zi narsalar kiradi. Masalan, siz universitetga kirmadingiz deylik ham, sizga yotadigan joy va ovqatlanish uchun mablag' baribir kerak. Universitetda boshqa joylarga qaraganda qimmatroq bo'lgan darajadagina yuzaga kelgan farqni xarajatlarga qo'shish mumkin. Ikkinchidan, bu



hisoblash universitetda o'qishning eng katta xarajati sizning vaqtinigizni e'tiborsiz qoldiryapti. Bir yilingizni ma'ruzalar tinglash, darsliklar o'qish va maqolalar yozish uchun sarflaganingizda, bu vaqtini ish joyida ishlashga sarflay olmaysiz. Yuqoridagi jarayonlarni hisobga olgan holda Iqtisodiyotda obyektning potensial qiymati tushunchasi paydo bo'lgan.

Obyektning potensial qiymati – bu biror-bir buyumga ega bo'lish uchun voz kechilgan buyumning qiymatidir. Shunday ekan, qaror qabul qiluvchilar harakatlar bilan birga keladigan va yo'qotiladigan har qanday imkoniyatlarni xarajatlari to'g'risida xabardor bo'lishlari kerak.

3-tamoyil. Oqil odam chegarani o'ylaydi. Oqil odam iborasi iqtisodiyotda ishlatilishi biroz g'alati tuyulishi mumkin. Oqil so'zi ayni vaziyatda jamiyatdagi ba'zi odamlarni ajratib ko'rsatish uchun ishlatildi. Oqil odamlar mavjud imkoniyatlarni hisobga olgan holda o'z maqsadlariga erishish uchun tizimli va maqsadli ravishda qo'llaridan kelganicha harakat qilishadi. Iqtisodiyotni o'rganish jarayoningizda, firmalarning daromadni ko'paytirish uchun qancha ishchi yollash, qancha mahsulot ishlab chiqarish va sotish to'g'risidagi qarorlarni qabul qilish jarayonlarigi ko'p duch kelasiz. Bundan tashqari, maksimal darajada qoniqish darajasiga erishish uchun qancha vaqt ishlashni va natijada daromad bilan qanday tovar va xizmatlarni sotib olishni hal qiladigan shaxslarni uchratasiz.

Iqtisodchilarda chekli o'zgarish atamasi mavjud, ular bu atamani mavjud harakatlar rejasiga kichik qo'shimcha tuzatishni tavsiflash uchun ishlatishadi. Shuni yodda tutingki, margin «chekli» degan ma'noni anglatadi, shuning uchun marginal o'zgarishlar siz qilayotgan narsaning chekkalari atrofida tuzatishlardir. Ratsional odamlar ko'pincha marginal foyda va marginal xarajatlarni taqqoslash orqali qaror qabul qilishadi.

Masalan, do'stingizga mobil telefon orqali qo'ng'iroq qilishni o'ylayapsiz va deylik u bilan 10 daqiqa suhbatlashishingiz sizga taxminan 7 dollar foyda keltiradi. Uyali telefon xizmati oyiga 40 dollar va har qanday qo'ng'iroq uchun daqiqasiga 0,50 dollar turadi. Siz odatda, oyiga 100 daqiqa gaplashasiz, shuning uchun oylik to'lovingiz \$ 90 ni tashkil etadi (100 daqiqada bir daqiqaga 0,50 dollar, shuningdek, belgilangan 40 AQSH dollari). Bunday sharoitda siz qo'ng'iroq qilishingiz kerakmi? Siz quyidagicha fikr yuritishga moyil bo'lishingiz mumkin: «Men har oy 100 daqiqali qo'ng'iroq uchun 90 dollar to'laganim sababli, telefonning o'rtacha daqiqasi menda 0,90 dollar turadi. Shunday qilib, 10 daqiqali qo'ng'iroq 9 dollar turadi. Ushbu 9 dollarlik narx 7 dollarlik imtiyozdan kattaroq bo'lganligi sababli, men qo'ng'iroqni o'tkazib yuboraman».

Biroq, bu xulosa noto'g'ri. 10 daqiqalik qo'ng'iroqning o'rtacha narxi 9 AQSH dollarini tashkil etsa-da, qo'shimcha qo'ng'iroq qilsangiz, sizning xarajatlaringiz kamayib boradi. Siz faqat marginal foyda va marginal xarajatlarni taqqoslash orqali to'g'ri qaror qabul qilasiz. 7 dollarlik marginal foyda 5 dollarlik marginal narxdan kattaroq bo'lgani uchun siz qo'ng'iroq qilishingiz kerak.

4-tamoyil. Odamlar rag'batga ta'sirchandirlar. Rag'batlantirish – bu odamni harakatga undovchi narsa (masalan, jazo yoki mukofot umidlari). Jamiyatdagi odamlar xarajatlar va foydalarni taqqoslash orqali qaror qabul qilganliklari sababli, ular rag'batlantirishlarga ta'sirchan bo'lleshadi. Iqtisodiyotni o'rganishda rag'batlantirish asosiy o'rinni tutadi.

Masalan, olma narxi ko'tarilganda, odamlar kamroq olma iste'mol qilishga qaror qilishadi. Shu bilan birga, olma bog'lari ko'proq ishchilarni yollashga va ko'proq olma yig'ishga qaror qilishadi. Boshqacha qilib aytganda, bozordagi narxning yuqoriligi xaridchlarning kam iste'mol qilishiga va sotuvchilarga ko'proq mahsulot ishlab chiqarishga turki beradi. Ko'rib turganimizdek, narxlarning iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilarning xatti-harakatlariga ta'siri bozor iqtisodiyoti kam manbalarni qanday taqsimlashida hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Davlat siyosatchilari rag'batlantirish to'g'risida hech qachon unutmasliklari kerak: Ko'p siyosatchilar tomonidan qabul qilingan qarorlar odamlar duch keladigan xarajatlar yoki imtiyozlarni o'zgartiradi, natijada o'z-o'zidan ularning xatti-harakatlari o'zgaradi.

Masalan, benzinga solinadigan soliq, odamlarni kichikroq, yoqilg'i tejaydigan avtoulovlarni haydashga undaydi. Yevropada benzin solig'i yuqori bo'lganligi uchun ham, benzin solig'i kam bo'lgan AQSHga qaraganda kichikroq avtoulovlarni haydashadi. Yoqilg'iga solinadigan soliq ham odamlarni avtoulovlargacha, jamoat transportlariga o'tirishga va o'zlarini yashaydigan joyga yaqin yashashga undaydi. Agar soliq kattaroq bo'lsa, ko'proq odamlar gibrildi avtomobilarni haydashadi, Soliqlar ortib borishi bilan esa ular elektr mashinalarga o'tishadi.

Mamlakat tomonidan chiqarilayotgan har bir qarorlar rag'batlantirishga qanday ta'sir qilishini o'yłamasalar, ular ko'pincha kutilmagan oqibatlarga duch kelishadi. Masalan, avtoulov xavfsizligi bo'yicha davlat siyosatini ko'rib chiqaylik. Bugungi kunda barcha avtomobillardagi xavfsizlik kamarlari 60 yil oldin mavjud emas edi. 1965-yilda Ralf Naderning «Har qanday tezlikda xavfli» nomli jamoat xavfsizligi to'g'risidagi kitobi juda ko'p munozaralarga sabab bo'ldi.

Shundan keyingina AQSH Kongressi va bir qator mamlakatlarda xavfsizlik kamarlaridan yangi avtomobillarda standart uskunalar sifatida foydalanish talab qilinadigan qonunlar paydo bo'ldi. Xavfsizlik kamari to'g'risidagi qonun avtoulov xavfsizligiga qanday ta'sir qiladi degan savolga bir tomonlama javobimiz aniq. Biror kishi xavfsizlik kamarini taqib olganida, avtohalokatdan omon qolish ehtimoli ortadi. Ammo jarayon bu bilan tugamaydi, chunki qonun rag'batlantirishni o'zgartirish orqali xatti-harakatlarga ham ta'sir qiladi.

Bu yerda tegishli xatti-harakatlar haydovchilarning mashinalarini boshqarish tezligi va ehtiyyotkorligidir. Sekin va ehtiyyotkorlik bilan haydash qimmatga tushadi, chunki u haydovchining vaqtini va kuchidan foydalanadi. Shunday ekan odamlar doim xavfsizroq haydashdan, tezlik va foydani taqqoslab borishadi. Natijada, xavfsizlikni oshirish foydasi katta bo'lganda, ular sekinroq va ehtiyyotkorlik bilan haydashadi. Masalan, yo'llar muzli bo'lsa, odamlar yo'l sharoitlari aniq bo'lgan vaqtidan ko'ra ehtiyyotkorlik bilan va pastroq tezlikda harakatlanishadi.

Xavfsizlik kamari to'g'risidagi qonun haydovchining xarajatlari va foydasini hisoblashni ijobjiy tomonga o'zgartirgani ma'lum. Xavfsizlik kamarlari baxtsiz hodisalaridan kelishi mumkin bo'lgan zararlarni kamaytiradi, shikastlanish yoki o'lim ehtimoli singari ko'rsatkichlarni. Boshqacha qilib aytganda, xavfsizlik kamarlari tufayli sekin va ehtiyyotkorlik bilan haydashdan keladigan foya bir munkha kamayadi, chunki endi xavfsizlikning bir qancha miqdori kamar orqali ta'minlanadi.

Jamiyatda odamlar xavfsizlik kamarlarining paydo bo'lishini, yo'l sharoitining yaxshilanishidan keladigan sabablarga o'xshatishadi, chunki yo'llarning ham tekis va ravon bo'lishi tezroq va kamroq ehtiyyotkorlik bilan haydashga olib keladi.

Iqtisodchi Sem Peltzman 1975-yilgi klassik tadqiqotlari natijasi shuni ko'rsatadiki, avtoulov xavfsizligi to'g'risidagi qonunlar ushbu ta'sirlarning doimo ozgina bo'sada aksini ko'rsatadi, jumladan, xavfsizlik kamari to'g'risidagi qonunning natijasi ham. Kamar tatbiq etilgandan so'ng mamlakatlarda yo'l harakati qoidalarini buzilishi sonlari ko'paygan, va bu o'z-o'zidan piyodalarga salbiy ta'sir ko'rsatgan, chunki ularning avariyyaga uchrashi ehtimoli ko'paygan, lekin (haydovchilardan farqli o'laroq) qo'shimcha himoyalanishda ular afzallikkarga ega emas. Dastlab ushbu rag'batlantirish va xavfsizlik kamarlarining muhokamasi bo'sh spekulyatsiya bo'lib ko'rinishi mumkin. Shunga qaramay, Peltzmanning dillariga ko'ra, ushbu qonunlar har bir baxtsiz hodisa tufayli kamroq o'limga olib keladi, lekin ko'proq baxtsiz hodisalarga qayd etiladi degan to'xtamga kelingan.

To'g'ri, Peltzmanning avtoulov xavfsizligini tahlil qilish nazariyasi – bu odamlar rag'batlantirishga javob beradigan umumiyl prinsipining ancha ziddiyatli namunasidir. Shunga qaramay, har qanday siyosatni tahlil qilishda biz nafaqat to'g'ridan, to'g'ri ta'sirlarni, balki rag'batlantirish orqali ishlaydigan unchalik aniq bo'lмаган bilvosita ta'sirlarni ham hisobga olishimiz kerak. Agar siyosat rag'batlantirishni o'zgartirsa, bu aniq odamlarning xatti-harakatlarini o'zgartirishga olib keladi.

5-tamoyil. Savdo hammaga foydali. Siz bugungi kunda xitoyliklar va Amerika Qo'shma Shtatlari jahon iqtisodiyotidagi asosiy raqiblar deb eshitgan bo'lishingiz uchun aynan iqtisodchi bo'lishingiz shart emas. Qaysidir ma'noda jamiyat tomonidan ilgari surilgan bu fikr to'g'ri ham, chunki Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy firmalari ko'plab bir xil turdag'i tovarlarni ishlab chiqaradilar. Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy kompaniyalari bir xil xaridorlar uchun kiyim-kechak, o'yinchoqlar, quyosh batareyalari, avtomobil shinalari va boshqa ko'plab narsalar uchun raqobatlashadi.

Shunga qaramay, mamlakatlar o'rta sidagi raqobat haqida o'ylashda bir to'xtamga kelishda shoshmagan ma'qul. Amerika Qo'shma Shtatlari va Xitoy o'rta sidagi savdo-sotiq bir tomon g'olib, ikkinchi tomon yutqazadigan sport musobaqalariga o'xshamaydi. Darhaqiqat, buning aksi o'laroq: ikki mamlakat o'rta sidagi savdo har bir mamlakatni yaxshi ahvolga keltirishi mumkin. Buning sababini yaxshiroq tu-shunishingiz uchun sizning oilangizga savdo qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqaylik. Sizning oilangiz a'zosi ish izlayotganida, u ish izlayotgan boshqa oilalar a'zolariga qarshi raqobatlashadi. Har bir oila eng yaxshi tovarlarni eng arzon narxlarda sotib olmoqchi bo'lganligi sababli, oilalar do'konga borishda ham o'zaro raqobatlashadi.

Qaysidir ma'noda iqtisodiyotdagи har bir oila boshqa barcha oilalar bilan raqobatlashadi. Ushbu raqobatga qaramay, sizning oilangiz o'zini boshqa barcha oilalar dan ajralib yakka tarzda harakatlanolmaydi.

Agar shunday bo'lsa, oilangiz o'z ovqati uchun polizda ekinlarni o'stirishi, kiyimlarini o'zi tikishi va uyni ham o'zi qurishi kerak edi. Shubhasiz, sizning oilangiz boshqalar bilan savdo qilish qobiliyatidan ko'p yutuqlarga erishadi. Savdo har bir odamga u xohlagan dehqonchilik, tikuvcilik yoki uy qurish bo'lsin, eng yaxshi qiladigan ishlarga ixtisoslashishga imkon beradi. Boshqalar bilan savdo-sotiq qilish orqali odamlar turli xil tovar va xizmatlarni arzon narxlarda sotib olishlari mumkin.

Oilalar singari, mamlakatlar ham bir-biri bilan savdo qilish imkoniyatidan foydalanadilar. Savdo mamlakatlarga eng yaxshi qiladigan ishlariga ixtisoslashishga va turli xil tovarlar va xizmatlardan bahramand bo'lishga imkon beradi. Xitoyliklar, shuningdek, fransuzlar, misrliklar va braziliyaliklar Amerika Qo'shma Shtatlarining raqobatchilari o'laroq, jahon iqtisodiyotdagи sheriklaridir.

6-tamoyil. Bozorlar iqtisodiy faoliyatini tashkil qilishning yaxshi yo'li.

Sovet Ittifoqi va Sharqiy Yevropada kommunizmning qulashi 1980-yillarning oxiri va 1990-yillarning boshlarida o'tgan asrning eng transformatsion voqealridan biri bo'lgan. Kommunistik mamlakatlar hukumat iqtisodiyotning kam manbalarini taqsimlashda eng yaxshi mavqega ega deb hisoblagan.

Ushbu markaziy rejalashtiruvchilar qanday tovar va xizmatlar ishlab chiqarilishi, qancha ishlab chiqarilishi va ushbu tovar va xizmatlarni kim ishlab chiqarishi va iste'mol qilishi to'g'risida uzluksiz tarzda qarorlar qabul qilgan. Markaziy rejalashtirishning nazariyasi shundan iborat ediki, faqat hukumat iqtisodiy faoliyatni butun mamlakat uchun iqtisodiy farovonlikni ta'minlaydigan tarzda tashkil qilishi mumkin edi. Ilgari markazlashgan rejali iqtisodiyotga ega bo'lgan ko'pgina mamlakatlar bu tizimdan voz kechib, aksincha, bozor iqtisodiyotini tanladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida markaziy rejalashtiruvchining qarorlari millionlab firmalar va uy xo'jaliklari qarorlari bilan almashtiriladi. Firmalar kimni yollashi va nima qilish kerakligini hal qilishadi. Uy xo'jaliklari qaysi firmalarda ishlashni va daromadlari bilan nima sotib olishni hal qilishadi. Ushbu firmalar va uy xo'jaliklari bozorda o'zaro ta'sir o'tkazadilar, bu yerda narxlar va shaxsiy manfaatlar ularning qarorlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

Bir qarashda, bozor iqtisodiyoti muvaffaqiyatlari hayratlanarli. Bozor iqtisodiyoti sharoitida hech kim butun jamiyatning iqtisodiy farovonligini qidirmaydi. Erkin bozorlarda ko'plab tovar va xizmatlarning xaridorlari va sotuvchilari mavjud va ularning barchasi birinchi navbatda o'zlarining farovonligidan manfaatdor. Shunga qaramay, markazlashmagan qarorlarni qabul qilish va manfaatdor qaror qabul qiluvchilarga qaramasdan, bozor iqtisodiyoti umumiy iqtisodiy farovonlikni rivojlantirish uchun juda muvaffaqiyatli ekanligini isbotladi.

Iqtisodchi Adam Smit 1776-yilda nashr etilgan «Xalqlar boyligining tabiatini va sabablarinining tadqiqi» kitobida barcha iqtisodiyot sohalarida eng mashhur kuzatuvlardan birini o'tkazgan va keltirib o'tgan: Bozorlarda o'zaro aloqada bo'lgan



uy xo'jaliklari va firmalar xuddi «ko'rinmas qo'l» tomonidan boshqarilayotgandek harakat qilishadi. Ular o'z manfaatlari yo'lida umumiyo manfaatni qondirishadi.

Bizning ushbu kitobdagagi maqsadlarimizdan biri esa bu ko'rinmas qo'lning o'z sehrini, ya'ni qanday ishlashini tushuntirib berishdir. Iqtisodiyotni o'rganish davomida siz narxlar ko'rinmas qo'lning iqtisodiy faoliyatni boshqaradigan vositasi ekanligini bilib olasiz. Har qanday bozorda xaridorlar qancha talab qilish kerakligini belgilashda narxga qarashadi, sotuvchilar esa qancha yetkazib berishni tanlashda narxga qarashadi. Smitning buyuk tushunchasi shunda ediki, narxlar ushbu individual xaridorlar va sotuvchilarni ko'p hollarda butun jamiyat farovonligini maksimal darajaga ko'tarish yo'lidagi natijalarga yo'naltiradi.

Smitning yana bir muhim xulosalaridan biri shuki: agar hukumat narxlarni tabiiy ravishda talab va taklifga moslashtirishiga to'sqinlik qilsa, bu ko'rinmas qo'lning iqtisodiyotni tashkil etadigan uy xo'jaliklari va firmalarning qarorlarini muvofiqlashtirish qobiliyatiga to'sqinlik qiladi.

Ushbu xulosa soliqlarning resurslarni taqsimlanishiga nima uchun salbiy ta'sir ko'rsatishini tushuntirib beroladi. Ular narxlarga ko'rsatadigan ta'siri bilan uy xo'jaliklari va firmalarning qarorlari buziladi. Shuningdek, narxlarni to'g'ridan, to'g'ri boshqaradigan siyosati kommunizmning barbod bo'lishi sababini ochib beradi.

Kommunistik mamlakatlarda narxlar bozorda aniqlanmagan, balki markaziy rejashtiruvchilar tomonidan belgilab qo'yilgan. Ushbu rejashtiruvchilar iste'molchilarning didi va ishlab chiqaruvchilarning xaratatlari to'g'risida kerakli ma'lumotlarga ega emas edilar, bu bozor iqtisodiyoti sharoitida narxlarda aks etishi kerak bo'lgan. Shundan keyin markaziy rejashtiruvchilar muvaffaqiyatsizlikka uchradи, chunki ular iqtisodiyotni bir qo'lini orqasiga bog'lab – bozorning ko'rinmas qo'li bilan boshqarishga harakat qilishdi.

7-tamoyil. Hukumat bozor faoliyatini yaxshilash olishi mumkin. Agar bozorning ko'rinmas qo'li shunchalik muvaffaqiyatli bo'lsa, nega bizga hukumat kerak? Iqtisodiyotni o'rganishdan yana bir maqsadi hukumat siyosatining iqtisodiyotdagi to'g'ri roli va ko'lami to'g'risida fikringizni takomillashtirishdir.

Hukumatga muhtojligimizning asosiy sabablari shundaki, ko'rinmas qo'l o'z ishini faqat hukumat qonunlar oldida hamma tengligini ta'minlab berishi va bozor iqtisodiyoti uchun muhim bo'lgan institutlarni saqlab turishi sharti bilan ko'rsatishi mumkin. Eng muhimi, bozor iqtisodiyotida mulkka egalik qilish va uni boshqarish huquqini ta'minlab beroladigan institutlarga ehtiyoj mavjud.

Keling yanayam aniqroq tushunishingiz uchun misollar keltiramiz: Dehqon, agar u hosilini o'g'irlashni kutsa, u biror nima yetishtirmaydi; mijozlar ketishidan oldin pul to'lashiga ishonch bo'lmasa, restoran ovqat bermaydi; va agar juda ko'p potensial mijozlar noqonuniy nusxalarini olish orqali pul to'lashdan qochishsa, kino kompaniyasi filmlar yaratmaydi. Hammamiz ishlab chiqargan narsalarimiz ustidan o'z huquqlarimizni ta'minlash uchun hukumat tomonidan taqdim etilgan politsiya va sudlarga ishonamiz va ko'rinmas qo'l ham shu jarayonlarni amalga oshsagina ishlaydi.

Hukumatning iqtisodiyotga aralashishi va odamlar o'zлari tanlaydigan resurslarni taqsimlashni o'zgartirishi uchun yuqorida aytib o'tganimizdek ikkita keng asos mavjud: samaradorlikni oshirish yoki tenglikni ta'minlash.

Avvalo samaradorlik asosini ko'rib chiqaylik. Garchi ko'rinnmas qo'l, odatda, bozorlarni iqtisodiy hajmini maksimal darajada oshirib, resurslarni taqsimlashni eng muvaffaqiyatli darajadagi miqdorga olib kelsa ham, buni har doim ham to'g'ri taqsimlash deb bo'lmaydi. Iqtisodiyotda bozor muvaffaqiyatsizligi atamasi mavjud. Bozor muvaffaqiyatsizligi – bozor o'z-o'zidan resurslarni samarali taqsimlay olmaydigan vaziyatni anglatadi. Bozor muvaffaqiyatsizliklarining mumkin bo'lgan sabablaridan biri bu tashqi ta'sir, ya'ni bozordagi bir kishining xatti-harakatlari atrofdagi odamning farovonligiga aks ta'sir ko'rsatishi. Tashqi ta'sirning klassik namunalaridin biri ifloslanishdir. Deylik, tovar ishlab chiqarish havoni ifloslantirib va fabrikalar yaqinida yashovchilar uchun sog'liq muammolarini tug'dirmoqda, o'zidan o'zi bunaqa vaqtida ishlab chiqaruvchini bozor o'z holiga tashlab qo'yadi va bu xarajatlarni hisobga olmaydi. Erkin bozorning barbod bo'lishining yana bir mumkin bo'lgan sababi – bu yakka shaxsning, firmaning (yoki kichik guruhning) bozor narxlariga noo'rin ta'sir o'tkazish qobiliyati paydo bo'lishidir. Masalan, shaharda hamma suvga muhtoj bo'lsa, lekin bitta quduq bo'lsa, quduq egasi qattiq raqobatga duch kelmaydi, chunki ko'rinnmas qo'l, odatda, o'z manfaatini ko'zlashni nazarda tutadi va ushbu imkoniyatdan foydalanib, suv chiqishini cheklashi, keyin yuqori narxni talab qilishi mumkin. Tashqi ta'sirlar yoki noo'rin narxga ta'sir o'tkazish kuchi mavjud bo'lganda, yaxshi ishlab chiqilgan davlat siyosati iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkin.

Endi hukumatning tenglikni ta'minlash siyosatini ko'rib chiqsak, hatto ko'rinnmas qo'l samarali natijalarga erishgan taqdirda ham, iqtisodiy farovonlikda katta farqlar yuzaga kelishi mumkin. Bozor iqtisodiyoti odamlarni boshqa odamlar to'lashga tayyor bo'lgan narsalarni ishlab chiqarishga rag'batlantiradi. Dunyoning eng yaxshi basketbolchisi, dunyoning eng yaxshi shaxmatchisidan ko'proq daromad oladi, chunki odamlar basketbolni tomosha qilish uchun shaxmatdan ko'proq pul to'lashga tayyor. Ko'rinnmas qo'l har kimda yetarli oziq-ovqat, munosib kiyim-kechak va yetarli tibbiy yordamga ega bo'lishni ta'minlamaydi.

Ushbu tengsizlikni bartaraf etish uchun esa hukumat aralashuvi talab qilinadi. Amalda, daromad solig'i va ijtimoiy ta'minot tizimi kabi ko'plab davlat siyosati iqtisodiy farovonlikni teng taqsimlashga erishish uchun amalga oshiriladi. Hukumat bozor natijalarini yaxshilashi mumkin degani, u har doim ham shunday bo'lishini anglatmaydi. Chunki davlat siyosati benuqson farishtalar tomonidan boshqarilmaydi, balki mukammal bo'limgan siyosiy jarayon tomonidan amalga oshiriladi. Ba'zida hukumat siyosati shunchaki siyosiy qudratni bildirishi. Ba'zan hukumat siyosatini to'liq ma'lumotga ega bo'limgan yaxshi niyatli rahbarlar amalga oshirishi mumkin. Iqtisodiyotni o'rganayotganda siz hukumat siyosati samaradorligini yoki tengligini targ'ib qilolayotgani yoki qandaydir kamchiliklarga yo'l qo'yayotganini to'g'ri anglay olishingiz muhim ahamiyat kasb etadi.

8-tamoyil. Mamlakatning turmush darajasi uning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liq. Dunyo bo'ylab turmush darajasidagi farqlar hayratlanarli. 2020-yilda o'ttacha amerikalikning daromadi taxminan 53000 dollarni tashkil etdi. Xuddi shu yili o'zbekistonlik o'ttacha atigi 2300 dollar ishlab topdi¹. O'ttacha daromadning bu darajadagi katta farqi, hayot sifatining turli o'lchovlarida aks etadi. Yuqori daromadli mamlakatlar fuqarolari kam ta'minlangan mamlakatlar fuqarolariga qaraganda ko'proq televizor ko'rishadi, yaxshiroq avtomobillar haydashadi, yaxshi ovqatlanishadi, sog'lig'iga e'tiborliroq bo'ladi va nisbatan uzoq umr ko'radi.

Vaqt o'tishi bilan esa turmush darajasidagi o'zgarishlar ham ortib bormoqda. Qo'shma Shtatlarda daromadlar tarixan yiliga qariyb 2 foizga o'sib borishi ku-zatilgan. Ushbu ko'rsatkich bo'yicha o'ttacha daromad har 35 yilda ikki baravar ko'payadi, o'tgan asrda AQSHning o'ttacha daromadi sakkiz baravarga o'sgan.

Mamlakatlar orasida va vaqt o'tishi bilan turmush darajasidagi bu katta farqlarni nima bilan izohlash mumkin? Javob hayratlanarli darajada sodda. Hayot darajasidagi deyarli barcha xilma-xillik mamlakatlarning unumidorligi, ya'ni har bir ishchi kuchi tomonidan ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori farqiga bog'liq. Ishchilar soatiga ko'p miqdordagi mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishlari mumkin bo'lgan mamlakatlarda ko'pchilik odamlar yuqori turmush darajasidan bahramand bo'lishadi; ishchilar kam ishlab chiqaradigan mamlakatlarda, ko'pchilik odamlar past turmush darajasiga tushib qolishadi. Shunday ekan, millat mahsulorligining o'sish sur'ati uning o'ttacha daromadining o'sish sur'atini belgilaydi. Unumidorlik va turmush darjasini o'ttasidagi asosiy munosabatlar oddiy, ammo uning natijalari juda kengdir. Mehnat unumidorligi turmush darajasini belgilovchi asosiy omil bo'lib hisoblanadi.

Ba'zi iqtisodchilar o'tgan asrda amerikalik ishchilarning turmush darajasining ko'tarilishiga sabab qilib kasaba uyushmalari yoki eng kam ish haqi to'g'risidagi qonunlarni ko'rsatishadi. Ba'zilar esa Yaponiya va boshqa mamlakatlardagi raqobatning kuchayishini sabab qilib keltirishadi. Ammo, o'sishga sabab bo'lgan haqiqiy omil chet el raqobati emas, balki Qo'shma Shtatlarda mahsulorlikning o'sishi edi. Unumidorlik va turmush darjasini o'ttasidagi bog'liqlik davlat siyosatiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Har qanday hukumat siyosatining turmush darajasiga ta'sir qilishi mamlakatdagi tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qibiliyatiga borib taqaladi. Hayot darajasini oshirish uchun siyosatchilar ishchilarning yaxshi ma'lumotga ega bo'lishlari, tovar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun zarur vositalarga ega bo'lishlari va mavjud bo'lgan eng yaxshi texnologiyalardan foydalanishlarini ta'minlab berishi va shu orqali mahsulorlikni oshirishi lozim.

9-tamoyil. Mamlakatda umumiyl pul hajmining oshishi narxlar darajasini oshiradi. 1921-yil yanvar oyida Germaniyada bir kunlik gazeta 0,3 markaga teng edi. Oradan ikki yildan kamroq vaqt o'tgach, ya'ni 1922-yil noyabr oyida o'sha gazeta 70 000 000 markani tashkil etdi. Ayni shu davrda iqtisodiyotdagi boshqa

¹ Ma'lumotlar «Trading Economics» rasmiy saytidan olindi. Manba: <https://tradingeconomics.com>

barcha narxlar shunga o'xshash darajada ko'tarilgan. Ushbu epizod inflyatsiya, ya'ni iqtisodiyotdagi narxlarning umumiy darjasasi o'sishining tarixdagi eng ajoyib namunalaridan biri hisoblanadi.

Inflyatsiya ishsizlik kabi juda noxush iqtisodiy hodisadir. Ishsizlik barchaga tegishli bo'lmasligi mumkin, ammo narxlarning umumiy darjasining ko'tarilishi jamiyatni har bir a'zosiga ko'p qiyinchiliklar tug'dirishi shubhasiz. Inflyatsiya davrida iste'mol tovarlarining narxi ish haqiga nisbatan tezroq o'sadi.

Inflyatsiya og'ir oqibatlarga olib keluvchi iqtisodiy hodisa hisoblanadi, chunki inflyatsiya paytida tovarlarning kelajakdagi narxini oldindan bilish qiyin, bu esa har qanday iqtisodiy hisob kitob ishlarini qiyinlashtiradi.

AQSHning o'ttiz sakkizinchı Prezidenti Jerald Ford inflyatsiyani «birinchi raqamli dushman» deb atagan. Chunki yuqori inflyatsiya jamiyatga turli xil xarajatlarni keltirib chiqaradi, inflyatsiyani past darajada ushlab turish butun dunyodagi iqtisodchilarning maqsadi hisoblanadi.

Inflyatsiyaga nima sabab boladi? Katta yoki doimiy inflyatsiyaning deyarli barcha holatlarida pul miqdorining o'sishi asosiy sabab hisoblanadi. Hukumat katta miqdordagi pul hajmini iqtisodiyotga chiqarganda, pulning qiymati tushadi.

10-tamoyil. Inflyatsiya va ishsizlik o'rtaida qisqa muddatli bog'liqlik mavjud.

Aksariyat iqtisodchilar pul inyeksiyasining qisqa muddatli ta'sirini quydagicha ta'riflaydilar:

- Iqtisodiyotda pul miqdorini ko'paytirish xarajatlarning umumiy darjasini va shu bilan tovar va xizmatlarga talabni oshiradi.
- Talabning yuqoriligi vaqt o'tishi bilan firmalarning narxlarini ko'tarishiga olib keladi, shu bilan birga, bu ularni ko'proq ishchilarni jalg qilishga va ko'proq tovar va xizmatlarni ishlab chiqarishga undaydi.
- Firmalarning ko'proq ishchilarni yollashi o'z-o'zidan ishsizlikning kamayishini anglatadi.

Yuqoridagi ketma-ketlikdan shuni xulosa qilish mumkinki: Inflyatsiya va ishsizlik o'rtaсидаги qisqa muddatli bog'lanish mavjud.

Garchi ba'zi iqtisodchilar bu fikrlarga hali ham shubha qilishsa-da, ko'pchilik iqtisodchilar inflyatsiya va ishsizlik o'rtaсидаги qisqa muddatli bog'liqlikni to'g'ri qabul qiladi.

Hukumat turli vositalaridan foydalangan holda inflyatsiya va ishsizlik o'rtaсидаги qisqa muddatli bog'liqlikdan unumli foydalanishi mumkin. Hukumat bu orqali soliq va bosib chiqarilishi mumkin bo'lgan pul miqdorini o'zgartirib, tovar va xizmatlarga bo'lgan umumiy talabga ta'sir ko'rsata oladi. Talabning o'zgarishi, o'z navbatida, iqtisodiyot qisqa muddatda boshdan kechiradigan inflyatsiya va ishsizlik kombinatsiyasiga ta'sir qiladi. Iqtisodiy siyosatning ushbu vositalari potensial darajada kuchli bo'lganligi sababli, siyosatchilar ularni iqtisodiyotni boshqarish uchun qanday ishlatishi kerakligi, keyingi boblarimizning munozaralar mavzularidan biri bo'lib qoladi.



1.2. IQTISODIYOTNING BIR BUTUN SIFATIDA FAOLIYAT YURITISHI. IQTISODCHI SIFATIDA FIKRLASH

Har bir soha o'z tiliga va o'ziga xos fikrlash tarziga ega. Matematiklar aksiomalar, integrallar va vektorlar haqida gapirishadi. Psixologlar extrovert, introvert insonlar va kognitiv kelishmovchiliklar haqida, dasturchilar esa server, back end, front end haqida suhbatlashganini guvohi bo'lgansiz. Xuddi shunday, Iqtisodchilar ham bulardan farq qilmagan holda, talab, taklif, elastiklik, soliq yuki atamalarini va shunga o'xshash siz uchun mutloq noma'lum bo'lgan so'zlarni ko'p ishlatalishadi.

Bular iqtisodchi tilining shunchaki bir qismidir. Kelgusi boblarda siz ko'plab yangi atamalar va iqtisodiyotda ko'p qo'llaniladigan ba'zi tanish so'zlarni uchratasiz. Avvaliga bu yangi tildagi yangi tushunchalarga beparvolik bilan yondasharsiz, ammo keyinchalik anglab yetasizki, bu tushunchalarning qiymati ancha yuqori, chunki ular siz yashayotgan dunyo haqida yangicha va foydali fikrlashni taqdim etib boradi.

Ushbu kitobning maqsadi sizga iqtisodchining fikrlash tarzini o'rganishda yordam berishdir. Bir kechada siz matematik, psixolog yoki huquqshunos bo'la olma-ganizing kabi, iqtisodchi kabi fikr yuritishni o'rganish ham biroz vaqt talab etadi. O'rganish davomida nazariy bilimlar, amaliy tadqiqotlar va iqtisodiy misollarning kombinatsiyasining uyg'unligida ushbu kitob sizga iqtisodiy mahoratingizni rivojlantirish va amalda qo'llash uchun keng imkoniyat beradi.

Iqtisodiyotning mohiyatini o'rganishdan oldin, iqtisodchilar biz yashayotgan dunyo bilan qanday munosabatda bo'lishi haqidagi umumiylar ma'lumot bir muncha foydalidir. Ushbu bobda sohaning metodikasi iqtisodchilar qanday savolga duch kelishlari haqida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Iqtisodchilar odatda o'z mavzularidagi muammoli taraflarini olimning obyektivligi bilan hal qilishga harakat qilishadi. Ular iqtisodni o'rganishga xuddi fizik materiyani o'rganishga, biolog esa hayotni o'rganishga yondashgandek yondashishadi. Iqtisodchilar o'z nazariyalarini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi yangi nazariyalarni tuzadilar, ma'lumotlar to'playdilar va jarayon so'ngida tahlil qiladilar.

Yangi o'rganayotganlar uchun iqtisod – bu fan degan da'vo g'alati tuyulishi mumkin. Axir iqtisodchilar probirkalar yoki teleskoplardan foydalanib moddiy narsalar ustidan ishlar olib borishmaydi, yoki ular yaratayotgan nazariyalar boshqa fanlardagi nazariyalar singari barchaga tushunarli bo'lmasligi mumkin.

Lekin shuni anglab yetish lozimki, Ilm-fanning mohiyati bu ilmiy uslub hisoblanadi. Iqtisodiyot fani esa dunyoning qanday ishlashi haqidagi nazariyalarni nomutanosib tarzda ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish bilan shug'ullanadi. Bu tadqiqot usuli, xuddi yerning tortishish kuchi yoki turlarning evolutsiyasini o'rganish kabi, mamlakat iqtisodiyotini o'rganishda ham qo'llaniladi. Shu orinda

Albert Eynshteynning² dunyo fanlari haqidagi ushbu jumlasini keltirib o'tishni lozim topdik: «Butun fan kundalik tafakkurni takomillashtirishdan boshqa narsa emas».

Eynshteynning fikri iqtisod kabi ijtimoiy fanlar uchun ham, fizika kabi tabiiy fanlar uchun ham to'g'ri bo'lsa-da, ko'pchilik jamiyatga ilmiy nuqtayi nazardan qarashga odatlanmagan. Keling, iqtisodchilar iqtisodiyotning qanday ishlashini o'rganish uchun fan mantig'ini tushunib yetish uchun foydalanadigan usullarini muhokama qilaylik.

17-asrning mashhur olimi va matematik Isaak Nyuton, bir kuni daraxtdan olma tushganini ko'rib, qiziqib qoladi. Bu kuzatuv Nyutonga tortish nazariyasini ishlab chiqishga turki berdi, u nafaqat yerga tushgan olma, balki koinotdagi har qanday ikkita narsaga ham tegishli edi. Nyuton nazariyasi kuzatuvni tushuntirishda juda ajoyib misol va u hali ham butun dunyo bo'ylab bakalavriat kurslarida o'qitiladi.

Nazariya va kuzatish o'rtasidagi bu o'zaro ta'sir iqtisodiyotda ham uchraydi. Iqtisodchi narxlar tez o'sayotgan mamlakatda yashashi uni bu jarayonni kuzatishi va inflyatsiya nazariyasini ishlab chiqishga undashi mumkin. Nazariya, yuqori inflyatsiya hukumat haddan tashqari ko'p pul bosib chiqarganda paydo bo'lishini tasdiqlab turgan bir paytda, bu nazariyani sinab ko'rish uchun iqtisodchi turli mamlakatlarning narxları va pullari haqidagi ma'lumotlarni to'plashi va tahlil qilish orqali so'nggi xulosani chiqarishi mumkin. Agar pul miqdorining o'sishi narxlarning o'sish sur'ati bilan mutlaqo bog'liq bo'limganida, iqtisodchi bu inflyatsiya nazariyasining to'g'riliqiga shubha qila boshlardi. Agar pulning o'sishi va inflyatsiya xalqaro ma'lumotlarda bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lsa, iqtisodchining nazariyasi yana bir bor o'z tasdig'ini topadi.

Iqtisodchilar yechimlarga aynan yetishning iloji bo'limgan holatlarda vaziyatga taxminlar qilishadi: taxminlar murakkab dunyoni soddallashtirishi va tushunishni osonlashtirishi mumkin. Xalqaro savdoning ta'sirini o'rganish uchun, masalan, dunyo faqat ikki mamlakatdan iborat va har bir mamlakat faqat ikkita tovar ishlab chiqaradi deb taxmin qilishimiz mumkin.

Aslida, har biri minglab turli xil tovarlarni ishlab chiqaradigan ko'plab mamlakatlar mavjud. Ammo faqat ikkita mamlakat va ikkita tovarga ega bo'lgan dunyoni ko'rib chiqib, biz o'z fikrimizni muammoning mohiyatiga qaratishimiz mumkin. Bu sodda tasavvur dunyosida xalqaro savdoni tushunganimizdan so'ng, biz ya-shayotgan murakkab dunyoda xalqaro savdoni yaxshiroq tushuna boshlaymiz.

1.3. MAKROIQTISODIYOT FANINING SHAKLLANISH TARIXI, PREDMETI VA OBYEKTI

Iqtisodiyot sohasi an'anaviy ravishda ikkita keng maydonga bo'linadi. Mikroiqtisodiyot – bu uy xo'jaliklari va firmalarning qanday qarorlar qabul qilishlari va ularning ma'lum bozorlarda o'zaro ta'sirini o'rganish bilan shug'ullanadigan fan bo'lsa, Makroiqtisodiyot bu, keng iqtisodiy hodisalarini o'rganadigan fandir. Misollar bi-

² Fizik nazariyotchi olim



Ian tushuntiradigan bo'sak, mikroiqtisodchi Toshkent shahridagi uy -joy ijarasini nazorat qilish, O'zbekistondagi raqobat muhitining mamlakat avtomobilsozligiga ta'siri yoki matabga majburiy o'qishning ishchilar daromadiga ta'sirini o'rganishi mumkin. Makroiqtisodchi esa hukumat qarz olishining oqibatlarini, vaqt o'tishi bilan iqtisodiyotdagi ishsizlik darajasidagi o'zgarishlarni yoki turmush darajasining o'sishiga yordam beradigan muqobil siyosatni o'rganadi.

Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Umumiyligi iqtisodiyotdagi o'zgarishlar millionlab kishilarning qarorlaridan kelib chiqqanligi sababli, mikroiqtisodiy qarirlarni hisobga olmasdan makroiqtisodiy o'zgarishlarni tushunish mumkin emas. Masalan, makroiqtisodchi daromad solig'ining kamayishi tovar va xizmatlarning umumiyligi ishlab chiqarishiga ta'sirini o'rganishi mumkin. Ammo bu masalani tahlil qilish uchun u soliqlarning kamayishi uy-joy mulkdorlarining tovar va xizmatlarga qancha sarflash to'g'risida qarorlariga qanday ta'sir qilishini ko'rib chiqishi kerak.

Kelib chiqish jihatidan makroiqtisodiyot ham mikroiqtisodiyot kabi iqtisodiyot nazariyasi fanining bir bo'limi hisoblanadi. Makroiqtisodiyot so'zi Grekchadan olingan bo'lib, «makro» «katta», «iqtisodiyot» so'zi esa «xo'jalik yuritish» degan ma'noni anglatadi. Birinchi bor «makroiqtisodiyot» atamasini 1933-yilda taniqli norveg olimi iqtisodchi matematik, ekonometrika fani asoschilaridan biri, Nobel mukofoti sovindori Ragnar Frishning ilmiy maqolalarida qo'llanilgan.

Ammo, zamонавиy makroiqtisodiy nazariyaning fundamental asoslarini Kembridj maktabi vakili taniqli ingliz iqtisodchisi Djon Meynard boshlab berdi. 1936-yilda Keyns makroiqtisodiy tahlil asosiga qurilgan «Bandlik, foiz va pullarning umumiyligi nazariyasi» nomli kitobini keng ommaga taqdim etdi. Keyns ishining ahamiyati iqtisodiy bilimlar olamida shunchalik buyuk ediki, iqtisodiy adabiyotlarda shu vaqtgacha an'anaviy ravishda yagona mavjud bo'lgan iqtisodiy voqeijklarni klassik yondashuv asosida o'rganuvchi, ya'ni mikroiqtisodiy tahlil (klassik modelga) qarshi turuvchi keynscha makroiqtisodiy model yuzaga keldi.


Yakka tartibdagи bozorlarda alohida xo'jalik yurituvchi subyektlarning (iste'molchi yoki ishlab chiqaruvchi) iqtisodiy hulq-atvorini o'rganuvchi mikroiqtisodiyotdan farqli o'laroq, makroiqtisodiyot iqtisodiyotni bir butun yaxlitlikda o'rganadi, butun iqtisodiyot uchun umumiyligi bo'lgan muammolarni tadqiq qiladi hamda yalpi ichki mahsulot, milliy daromad, yalpi talab, yalpi taklif, yalpi iste'mol, investitsiyalar, umumiyligi narx darajasi, ishsizlik darajasi, davlat qarzi va boshqa shu kabi yalpi miqdorlar bilan bog'liq masalalarni inobatga oladi.

Makroiqtisodiyot o'rganadigan asosiy muammolar bo'lib iqtisodiy o'sish va uning sur'atlari; iqtisodiy davr va uning sabablari; bandlik darajasi va ishsizlik muammolari; umumiyligi narx darajasi va inflyatsiya muammolari; foiz stavkasi darajasi va pul muomalasi muammolari; davlat budgeti holati, budget taqchillagini moliyalashtirish muammosi va davlat qarzi muammosi; to'lov balansi holati va valuta kursi muammolari; makroiqtisodiy siyosat kabilalar hisoblanadi.

Mikroiqtisodiyot va makroiqtisodiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikka qaramay, bu ikki soha bir-biridan farq qiladi. Ular turli savollarga javob berishgani uchun, har bir sohaning o'ziga xos modellari bor, ularning ba'zilari bilan esa quyida tanishishingiz mumkin.

1.4. AYLANAVIY OQIMLAR HAMDA ISHLAB CHIQARISH IMKONIYATLARI CHEGARASI MODELLARI

Dastlab aylanaviy oqimlar modeliga to'xtaladigan bo'lsak. Ushbu model iqtisodiyotdagi tovarlar aylanmasining mohiyatini ochib beradi. Mamlakat iqtisodiyotida tovarlar aylanmasi ikkiga bo'linadi: uy xo'jaliklari va firmalar. Uy xo'jaliklari o'z resurslarini, ya'ni ishchi kuchi, kapital va yerni firmalarga sotib daromad qiladilar va bu daromadlarini firmalardan tovarlar va xizmatlar olishga sarflaydilar. Firmalar esa o'zlarining tovar va xizmatlarini sotib undan tushgan daromadni uy xo'jaliklaridan resurslarni sotib olishga ishlatadilar.



1.4.1-chizma. Sof bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanaviy oqimlar modeli

Yuqorida keltirilgan 1.4.1-chizmadan ko'rinib turibdiki, nima iste'mol qilish kerak? Nima ishlab chiqarish kerak? kabi savollarga uy xo'jaliklari javob beradi. Uy xo'jaliklarining qaroridan kelib chiqib, firmalar ishlab chiqarish rejalarini tuzishadi.

Uy xo'jaliklari ishlab chiqarish uchun zarur bo'lган barcha iqtisodiy resurslarni resurslar bozoriga yetkazib beradilar, korxonalar esa bu resurslarni sotib olib turli xil mahsulotlarga, xizmatlarga aylantiradilar, so'ngra esa ularni tayyor mahsulotlar va xizmatlar bozoriga yetkazib beradilar. Ayni paytda, «resurslar – tovarlar va xizmatlar» oqimiga qarama-qarshi yo'nalishda «daromadlar – xarajatlar»ning ham aylanaviy oqimi amalgalashirildi. Ya'ni, uy xo'jaliklari o'zлari yetkazib bergen iqtisodiy resurslar evaziga daromad oladi hamda ularni tovarlar va xizmatlar iste'mol qilish uchun sarflaydilar yoki aksincha, korxonalar resurslar uchun sarf-xarajatlar qiladilar hamda tayyor mahsulotlarni sotish evaziga daromad oladilar.

Bozor tizimida muvofiqlashtirish masalalarini ishlab chiqarish resurslari bozori va iste'mol ne'matlari bozori hal qilsa, sotuvchilar va xaridorlar bozorning ikkitan qaror qabul qiluvchi subyektlari hisoblanadi.

Bozorda har bir ne'matning muvozanat narxi va muvozanat miqdori bilan ta'minlanishi qarorlarning muvofiqligini anglatadi. Narx talab va taklif natijasidan aniqlanib, uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan qabul qilinadigan qarorlarni muvofiqlashtirish uchun muhim axborot bo'lib hisoblanadi. Ushbu usul orqali olingan axborotlar bir vaqtning o'zida jamiyatdagi noyob ne'matlarni taqsimlash muammosini hal etish uchun muhim ahamiyatga egadir.


Masalan, o'simlik yog'ining narxini oshishi xaridorlar uchun o'simlik yog'ini iste'mol qilishni kamaytirish to'g'risida signal bo'lsa, firmalar uchun o'simlik yog'ini ishlab chiqarishni oshirish va bozordagi muvozanatni tiklash to'g'risidagi muhim axborotdir.

Bozor muvofiqlashtirishdan tashqari ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar qarorlarini vaqt bo'yicha tartiblashtiradi. Bu kelajakdagi ne'matlar (fyuchers) bozorining vujudga kelishi bilan bog'liqdir. Kelajakdagi ne'matlarning oldi-sotdisi, ularning narxlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishga, ularning kelajakda nisbatan noyobligi to'g'risida axborot beradi. Iste'molchilar va ishlab chiqaruvchilar bunday narx axborotlariga ko'ra, o'zlarining joriy xo'jalik rejalarini qayta ko'rib chiqadilar va o'zlarining iqtisodiy harakatlarini tartibga soladilar.

Har qanday iqtisodiy tizimda tovarlar va xizmatlarni takror ishlab chiqarish umumiylarini resurslar, tovar va xizmatlar, daromadlar hamda xarajatlarning doiraviy oqimi modeli ko'rinishida tasavvur qilish mumkin. Bu sodda model makroiqtisodiy tahlil asosini tashkil etadi. Faqat xususiy mulkka tayangan (ya'ni davlat ishtiroki mavjud bo'lмаган) yopiq iqtisodiyotda bunday doiraviy oqimi firmalar va uy xo'jaliklari o'rтasida amalgalashirildi (1.4.1-chizma).

Iqtisodiyotda resurslar hamda tovarlar va xizmatlar oqimi jami taklifni, daromadlar va xarajatlar oqimi jami talabni ko'rsatadi. Davlat ishtiroki mavjud bo'lмаган yopiq iqtisodiyotda yalpi talab va yalpi taklifning o'zaro teng bo'lishi firmalarining yalpi sotuvi, yoki yalpi ishlab chiqarishi hajmi uy xo'jaliklarining yalpi

daromadlariga teng bo'lishi shaklida namoyon bo'ladi. Bu muvozanatning buzilishi ishlab chiqarishning pasayishi, inflyatsiya va ishsizlik darajalarining ko'tarilib ketishiga sabab bo'ladi. Davlat aralashuvi mavjud bo'lgan iqtisodiyotda bu model ancha murakkab ko'rinish oladi (1.4.2-chizma).



1.4.2-chizma. Davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi aylanaviy oqimlar modeli.

Bunday iqtisodiyotda aylanaviy oqimning uzlusizligi ham bozor mexanizmlari orqali, ham davlat aralashuvi orqali ta'minlanadi. Bunda hukumat ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilarning harakatini bevosita boshqarmaydi, balki resurslar va tovarlar bozorlarida qatnashish orgali ularning iqtisodiy faoliyatiga qulay sharoitlar yaratadi.

Davlat firmalar va uy xo'jaliklarini soliqqa tortish bilan birga firmalarga subsidiyalar berish, aholiga transfert to'lash orqali ularning xarid qobiliyatini oshirib bora-di. Ayni paytda davlat resurslar hamda tovarlar va xizmatlar bozorida sotib oluvchi sifatida ishtirok etadi. Davlat o'z ishtiroki bilan firmalarning ishlab chiqarish hajmlari va uy xo'jaliklarining tovarlar va xizmatlar xarid qilish qobiliyat o'zaro mos kelmagan hollarda ro'y beradigan iqtisodiy tebranishlarni tartibga solib turadi.


Ochiq iqtisodiyot sharoitida aylanaviy oqimlar modeli yanada murakkablashadi. Endi unda to'rtinchi makroiqtisodiy subyekt – tashqi dunyo ham paydo bo'ladi. Chet el investitsiyalarining kiritilishi va xorijga investitsiya qilish, eksport va import operatsiyalari, moliyaviy bozor orqali jamg'armalarning investitsiyalarga oqib o'tishi va moliyaviy mablag'larning qayta taqsimlanishini e'tiborga olsak ko'rib o'tilgan model (1.4.2-chizma) mukammal emasligiga iqror bo'lamiz.

Lekin ushbu ko'rinishda ham bu model makroiqtisodiy jarayonlarni yaxlit holda tasavvur qilishga imkon beradi. Aylanaviy oqimlar modelidan chiqariladigan xulosa shuki, davlat, firmalar, uy xo'jaliklari va tashqi dunyoning yalpi xarajatlari yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng bo'lishi resurslar, tovarlar va xizmatlar oqimlari (ya'ni real oqim) bilan daromadlar va xarajatlar oqimlari (ya'ni pul oqimlari) o'zar o'zarliqda o'sishiga olib keladi.

Bu esa o'z navbatida, yalpi daromadlarning oshishiga sabab bo'ladi. Kattaroq hajmdagi yalpi daromadlar unga mos hajmdagi yalpi xarajatlarni belgilab beradi. Iqtisodiyot barqaror rivojlanib borishi uchun yalpi xarajatlar to'xtovsiz o'sib borishi shart. Bu vazifa budjet-soliq siyosati vositalari bo'lgan soliqlarni hamda davlat xarajatlarini o'zgartirish hamda pul-kredit siyosati vositalari yordamida pul masasini o'zgartirish orqali bajariladi.

Iqtisodiy modellarning aksariyati, aylanaviy oqimlar modelidan farqli o'laroq, turli xil matematik usullar (grafik, formula) yordamida ifodalanadi. Keling, misol tariqsida, ishlab chiqarish imkoniyatlari modelini ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, iqtisodiyotda faqat ikkita tovar – avtomobil va kompyuter ishlab chiqarilsin. Ushbu holatda avtomobil va kompyuter ishlab chiqarish sanoati birgalikda iqtisodiyotning barcha ishlab chiqarish omillaridan foydalanadilar. Ishlab chiqarish imkoniyatlari deb esa, iqtisodiyot ixтиyorida turgan barcha mavjud bilimlar va resurslardan foydalangan holda bu ikki mahsulotni maksimal hajmda ishlab chiqarish mumkinligiga aytildi.



1.4.3-chizma. Ishlab chiqarish imkoniyatlari modeli

1.4.3-chizmada iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi ko'rsatilgan. E'tibor berib qarasangiz, shuni anglab yetish mumkinki, agar iqtisodiyot barcha resurslarini avtomobilsozlikda ishlatsa, u faqatgina 1000 ta mashina ishlab chiqara oladi xolos. Aksincha, agar u butun resurslarini kompyuter sanoatida ishlatsa, faqatgina 3 mingta kompyuter ishlab chiqarishi mumkin. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasining ikkita oxirgi nuqtasi aynan bir mahsulotga o'ta ixtisoslashgan tarzdagi ishlab chiqarilgan mahsulotlarning maksimal miqdorini ifodalarydi.

Ba'zida esa iqtisodiyot o'z resurslarini ikki sanoat o'rtaida taqsimlab, ham mashinalar, ham kompyuterlar ishlab chiqaradi. Lekin bir narsa aniqki, qaysidir mahsulotning ishlab chiqarish hajmi ko'payib borar ekan bu ikkinchi mahsulotga teskari ta'sir ko'rsatadi, ya'ni ikkinchi sanoat mahsulotining miqdori kamayib boradi.

Masalan, mamlakatda A nuqtada ko'rsatilgan 1200 ta mashina va 4400 ta kompyuterni ishlab chiqarishi miqdoridan ishlab chiqarishning ba'zi omillarini kompyuter sanoatidan avtomobil sanoatiga o'tkazish orqali 1400 ta mashina va 4000 ta kompyuter ishlab chiqarishga o'tishi mumkin (B nuqta bilan ifodalanadi).

Iqtisodiyotda resurslar cheklangan bo'lganligi sababli, har ikki mahsulotni maksimal miqdorda ishlab chiqarish mumkin emas. Masalan, ikki tarmoq o'rtaida qanday resurslar taqsimlanmasin, iqtisodiyot C nuqta bilan ifodalanadigan avtomobillar va kompyuterlar miqdorini bir vaqtida ishlab chiqara olmaydi, chunki mashinalar va kompyuterlarni ishlab chiqarish texnologiyasini hisobga olsak, iqtisodiyot yetarli omillarga ega emas.

Shu sababli resurslardan oqilona foydalanish juda muhim hisoblanadi. Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi (ichkaridan emas) ishlab chiqarishning eng samaradorlik yuqori darajasini ko'rsatadi.

Buni yanayam aniqroq tushunib yetish uchun, faraz qilaylik iqtisodiyot shunday nuqtada ishlab chiqarayotgan bo'lsinki, ikkinchisidan kam ishlab chiqarilmasdan, ko'proq mahsulot ishlab chiqarishning iloji yo'q. Bunga A nuqta misol bo'ladi va bunda barcha ishlab chiqarish resurslaridan to'liq foydalanilyapti, endi D nuqtaga e'tiborimizni qarataylik, bu nuqta iqtisodiyotdagি samaradorlik darajasi past bo'lgan ishlab chiqarish jarayonini ko'rsatadi. Ushbu nuqtada iqtisodiyot mavjud resurslardan ko'ra kamroq ishlab chiqaradi: u atigi 600 ta mashina va 2000 ta kompyuter ishlab chiqaradi. Bunga esa, odatda, keng tarqalgan ishsizlik kabi muammolar sabab bo'ladi, Agar samarasizlik sabab bo'layotgan omil topilsa, iqtisodiyot ikkala tovar ishlab chiqarishni ham o'z potensiali darajasiga olib chiqishi, ya'ni ko'tarishi mumkin ko'paytirishi mumkin. Bu esa o'z-o'zidan iqtisodiyot holat D nuqtadan A nuqtaga o'tdi deganidir, buning natijasida esa avtomobil ishlab chiqarishi 600 dan 1200 gacha, kompyuter ishlab chiqarish esa 2000 dan 4400 gacha oshishi mumkin.

Ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasi modeli mamlakatlarning murakkab iqtisodiyotini nisbatan ancha soddarоq tarzda asosiy va kuchli g'oyalarni ochib beradi.



Takrorlash uchun savollar


- 1>** Iqtisodiyotning o'n tamoyili ichidan individual qaror qabul qilish to'g'risi-dagilar qaysilar?
- 2>** Hukumatining bozor iqtisodiyotiga aralashuvi qanchalik to'g'ri?
- 3>** Mamlakatda narxlar oshishining asosiy sababi nimada?
- 4>** Birinchi bor «makroiqtisodiyot» atamasi kim tomonidan qo'llanilgan?
- 5>** Bozorning qaror qabul qiluvchi subyektlari qaysilar?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1>** Iqtisodiyotning 8-tamoyili, ya'ni mamlakatning turmush darajasi uning tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyatiga bog'liqligini o'z misolin-giz yordamida tushuntirib bering!
- 2>** Ishlab chiqarish imkoniyatlari modelini boshqa ikki mahsulot orqali tushuntirib bering va nega har ikki mahsulotni bir vaqtning o'zida maksimal tarzda ishlab chiqarib bo'imaslik sababini keltiring!

Qo'shimcha topshiriq

1) Quyida "Davlat aralashuvi mavjud iqtisodiyotdagi aylanaviy oqimlar modeli" keltirilgan



Yuqoridagi chizmada keltirilgan raqamlarda ifodalangan nomlarni toping.

- | | |
|---------|----------|
| 1._____ | 9._____ |
| 2._____ | 10._____ |
| 3._____ | 11._____ |
| 4._____ | 12._____ |
| 5._____ | 13._____ |
| 6._____ | 14._____ |
| 7._____ | 15._____ |
| 8._____ | 16._____ |

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Iqtisodiyot – bu jamiyat o'zining cheklangan manbalaridan oqilona tarzda foydalangan holda boshqarishini o'rorganadigan fandir.

Makroiqtisodiyot – mamlakat iqtisodiyoti, umuman milliy xo'jalikka oid katta miqyosdagi iqtisodiy hodisalar va jarayonlarni o'rorganuvchi fan.

Mamlakatning iqtisodiyoti holati va rivojlanishini ifodalovchi umumlashgan ko'rsatkichlar tizimi – milliy boylik, yalpi ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, sof milliy mahsulot, milliy daromad, aholi daromadlari, davlat va xususiy investitsiyalar yig'indisi, muomaladagi jami pul miqdori va sh. k. jami xo'jalik bo'yicha jamlanma, umumlashtiruvchi ko'rsatkichlar Makroiqtisodiyot o'rorganadigan obyektlar hisoblanadi.

Mikroiqtisodiyot – inson, oila, korxona (firma) yoki tarmoq darajasidagi iqtisodiyot. Mikroiqtisodiyot makroiqtisodiyot bilan uzviy bog'liq. Mikroiqtisodiyot ishlab chiqarish jarayonida bozor subyektlari o'rtasida bo'ladigan taqsimot, almashuv va moddiy mablag'lар taqsimoti munosabatlarni o'rorganadi. Mikroiqtisodiyot ishlab chiqaruvchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarni ham o'rorganadi. Mikroiqtisodiyotning asosiy bo'limlari: firma va iste'mol nazariyalari, bozor tarkibi, infratuzilmalar, monopoliya va raqobat muammolari, daromad taqsimoti, davlat va xususiy biznesning o'zaro bog'liqligi, mehnat bozori tahlili, talab va taklif o'rtasidagi nisbat, ish haqi va mehnat unumdarligi hisoblanadi.

Ochiq iqtisodiyot – tashqi iqtisodiy bozorda keng savdo-iqtisodiy va moliyaviy aloqalarga ega bo'lgan iqtisodiyot. Tovar va xizmatlarning eksport importi hamda moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiruvchi iqtisodiyot. Ochiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqib turadi va unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi $U=Sh+I+G+NX$, bunda U – milliy mahsulot, Sh – shaxsiy iste'mol uchun xarajatlar, I – korxonalarning yalpi investitsiyalari, G – davlatning tovar va xizmatlarni sotib olish bilan bog'liq xarajatlari, NX – sof eksport.

Subsidiya – muhtoj xo'jaliklarga alohiga yordam ko'rsatish uchun davlat iqtisodiy sarflarining turi. Dotatsiya subsidiyaning bir turi hisoblanadi. U iqtisodiyotni tartibga solish vositasi bo'lib, uning maqsadi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etishda moliyaviy yordam ko'rsatishdir. Masalan, o'ta muhim ilmiy-texnikaviy ishlari, ekologik muammolarni hal etishda qatnashadigan korxonalar, eksportni ko'paytirish yoki kamaytirish uchun tovarlar zaxirasini hosil etishda subsidiyalardan foydalilanadi. Subsidiya ikki yo'l bilan berilishi mumkin:

- bevosita budjetdan qaytarib bermaslik sharti bilan pul ajratish;
- davlat tomonidan har xil imtiyozlar berish (soliq va bojlarni kamaytirish, davlat tomonidan kamaytirilgan stavkada qarz berish va boshqalar).

Transfert to'lovlar – evaziga hech qanday tovar yoki xizmatlar olinmaydigan davlat xarajatlari (pensiya, stipendiyalar, ishsizlik nafaqasi va boshqalar).

II BOB

MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR VA ULARNI HISOBBLASH

- ▶ 2.1. MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR
- ▶ 2.2. YALPI ICHKI MAHSULOT (YAIM) TUSHUNCHASI VA UNI HISOBBLASH USULLARI.
- ▶ 2.3. MILLIY HISOBCHILIK TIZIMIDAGI BOSHQA KO'RSATKICHLAR VA ULAG O'RТАSIDAGI NISBAT

KIRISH

Inflyatsiya sur'atlarining jilovlanishi, davlat budgeti taqchilligini tan olingan me'yordan ham past darajada bo'lishini ta'minlanishi iqtisodiyotimizga kiritiladigan investitsiyalar ko'lamining oshishi, tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni kengaytirish hamda aholi real daromadlarini o'stirishning muhim sharti hisoblanadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy taraqqiyot jarayonlari iqtisodchi kadrlardan makroiqtisodiy nazariya va eng zamonaviy makroiqtisodiy konsepsiylar bilan yaxshi tanish bo'lishni, makroiqtisodiy tahlil malakasiga, nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash ko'nikmalariga ega bo'lishni talab etadi.

Shu sababli ham makroiqtisodiy jarayonlarning qonuniyatlarini, makroiqtisodiy muammolarni, makroiqtisodiy siyosat yuritgan holda ularni yechish yo'llarini turli modellar vositasida mantiqiy izchillikka amal qilgan holda tahlil qilish, dolzarb vazifadir.

2.1. MILLIY IQTISODIYOTNI TAHLIL QILISHDA QO'LLANILADIGAN ASOSIY MAKROIQTISODIY KO'RSATKICHLAR

Hukumat statistik raqamlardan rivojlanish darajasini monitoring qilish va iqtisodiy siyosatni shakllantirish maqsadida foydalanadi.⁶ Alovida firmalar faoliyatiga baho berishda qo'llaniladigan ko'rsatkichlardan farqli tarzda bu ko'rsatkichlar milliy iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatiga umumiy baho berish, makroiqtisodiy tahlil o'tkazish, mamlakat iqtisodiyotining jahon xo'jaligida raqobatga bardoshliligi darajasini aniqlash imkonini beradi.

Bu ko'rsatkichlarga quyidagilar kiradi:

Yalpi ichki mahsulot (YALM), Sof ichki mahsulot (SIM), Yalpi milliy daromad (YaMD), Sof milliy daroimad (SMD), shaxsiy daromad (ShD), Shaxsiy tasarrufidagi daromad (ShTD), Iste'mol (C), Jamg'arish (S) ko'rsatkichlarning hajmi va o'sish sur'atlari;



Davlat budgeti taqchilligi va inflyatsiya sur'ati kabi ko'satkichlar umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilsa, YaIM, SIM, YaMD, SMD, ShD, ShTD, C, S ko'satkichlari milliy ishlab chiqarishning parametrlarini va dinamikasini tahlil etishda foydalaniladi.

Bu ko'satkichlar iqtisodiyotning barcha subyektlari faoliyatlarini natijasi sifatida aniqlanib, ularni hisoblashning asosini Milliy hisobchilik tizimi (MHT) tashkil etadi. MHT mamlakat buxgalteriyasi vazifasini o'tagani holda uning standartlaridan kelib chiqqan holda makroiqtisodiy ko'satkichlarni hisoblash, mamlakatlararo taqqoslovlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Mamlakat iqtisodiyotining haqiqiy holatini o'rganish, unga tizimli baho berish uchun yuqorida sanab o'tilgan barcha ko'satkichlardan foydalanish zarur, aks holda, bir tomonlama yondashuvga yo'l qo'yilishi mumkin.

2.2. YALPI ICHKI MAHSULOT (YAIM) TUSHUNCHASI VA UNI HISOBBLASH USULLARI

Makroiqtisodiy statistika va tahlilda uzoq davr mobaynida yalpi milliy mahsulot va yalpi ichki mahsulot ko'satkichlaridan baravar foydalanib kelindi. Har ikkala agregat ko'satkich ham mamlakatdagi iqtisodiy faoliyik darajasini xarakterlasada kapital va ishchi kuchi migratsiyasi mavjudligi sababli ular o'zaro farq qilishadi.

Bugungi kunga kelib Milliy hisobchilik tizimini qo'llaydigan deyarli barcha davalarda yalpi ichki mahsulot ko'satkichi asosiy makroiqtisodiy ko'satkich sifatida tan olindi.

Ko'pgina iqtisodiy adabiyotlarda YaIMga ishlab chiqarilishida qo'llanilgan resurslar qaysi davlatga tegishliligidan qat'i nazar, mamlakatning jug'rofiy hududida yaratilgan pirovard tovarlar va xizmatlarning bozor baholari yig'indisi deb ta'rif berib kelingan.

1993-yilda qabul qilingan (2008-yilda yangi tahrir) BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YaIM) tushunchasiga aniqliklar kiritildi.

Yangicha talqiniga ko'ra:³

YaIM ning «ichki» deb atalishiga sabab uning mamlakat rezidentlari tomonidan yaratilishidir. Rezident deganda faqatgina mamlakatning yuridik va jismoniy shaxslari tushunilmaydi. Chunki mamlakat yuridik shaxsi boshqa mamlakat hududida bir yildan ortiq faoliyat yuritsa, o'sha mamlakat rezidenti deb qaraladi.

«Milliy tegishliliqi va fuqaroliligidan qat'i nazar, mazkur mamlakatning iqtisodiy hududida iqtisodiy manfaat markaziga ega bo'lgan (ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanadigan, yoki mamlakat hududida bir yildan ortiq yashayotgan) barcha iqtisodiy birliklar (korxonalar, uy xo'jaliklari) rezident hisoblanishadi»⁴.

³ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013):

⁴ Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник.-10-е изд.перераб. и доп. -М.: Издательство «МФПУ Синергия», 2013. с. 25.

Elchixonalar va harbiy bazalar o'zlarini tegishli bo'lgan mamlakatlarning iqtisodiy makoni bo'lib qolaveradilar. Aynan shu jihat YalMni hisoblashda iqtisodiy va jug'rofiy hudud o'rtaсидаги farq deb qaraladi.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakat hududida ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiy yig'indisidan iborat.

YalM uch xil usul bilan hisoblanadi:

1
Ishlab
chiqarish
usuli

2
Xarajatlar
usuli

3
Daromadlar
usuli

Har uchala usul bilan hisoblangan YalM ko'satkichi hajmi statistik xatolar istisno etilganda o'zaro teng bo'lishi lozim. Shu bilan birga har uchala usul bilan YalM ko'satkichi hisoblashda o'ziga xos talablarga amal qilinishi talab etiladi.⁵

Yalpi ichki mahsulotni hisoblashning asosiy shartlari quyidagilar:

- yakuniy tovarlar va xizmatlar bahosini ifodalaydi;
- bozor baholarida hisoblanadi;
- faqat joriy yilda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar bahosini o'z ichiga oladi;
- sof moliyaviy bitimlar bahosini o'z ichiga olmaydi.

Yalpi ichki mahsulotni hisoblash usullari YalMni ishlab chiqarish usulida aniqlash. Ishlab chiqarish usulida hisoblangan YalM yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishning turli bosqichlarida qo'shilgan qiymatlar yig'indisi sifatida aniqlanadi. YalMni bu usulda aniqlash statistik jihatdan qulay bo'lishi bilan birga uni hisoblashning muhim shartiga amal qilish, ya'ni bir qiymatni ikki bor hisobga olish, yoki oraliq mahsulot qiymatini YalMga kiritib yuborishning oldini oladi.

Ishlab chiqarish hajmini to'g'ri hisoblash uchun joriy yilda ishlab chiqarilgan tovar va ko'satilgan xizmatlar qiymati bir marta hisobga olinish kerak. Ko'pgina mahsulotlar bozorga borguncha bir nechta ishlab chiqarish bosqichini o'taydi. Shu sababli YalMda ayrim mahsulotlarni ikki va undan ko'p marta hisobga olmaslik uchun, faqat pirovard mahsulotning bozor qiymati hisobga olinadi, oraliq mahsulotlar esa hisobga olinmaydi.

⁵ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY: Worth Publishers, 2013): 21-23



Yakuniy tovarlar va xizmatlar deganda, ularning ishlab chiqarish, yoki ichki ayirboshlash siklidan chiqqan, yakuniy iste'mol, jamg'arish yoki eksport uchun foydalaniladigan qismi tushuniladi.

Qo'shilgan qiymat tovar va xizmatlarning sotish bahosi bilan ularni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan xarajatlar o'rtaсидаги farq ko'ринишда aniqlanadi.

Yakuniy tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarishda sarflangan oraliq tovarlar va xizmatlar bahosi YalMga qo'shilmaydi.

Ishlab chiqarish usulida aniqlangan YalM ko'rsatkichining strukturasini va undagi siljishlarni tahlil qilish juda muhim xulosalar beradi. Alovida tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymatdag'i ulushi, bu ulushning o'zgarishi bu mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi va kutilayotgan istiqboliga baho berish imkonini beradi. YalMni xarajatlar bo'yicha hisoblash. Bu usul yakuniy foydalanish usuli deb ham yuritilib, unda YalMni hisoblash uchun yakuniy mahsulotlarni sotib olishga qilingan barcha xarajatlar o'zaro qo'shib chiqiladi. Bu xarajatlar quyidagicha guruhlanadi:

I

Yalpi ichki xususiy investitsiya xarajatlari (I):

- asbob-uskunalar, mashinalarni yakuniy sotib olishga;
- korxonalar, inshootlar, turar-joy binolarini qurishga sarflangan;
- tovar zaxiralari o'rtaсидаги farqlar yoki zaxiralarning o'zgarishi.

Xn

Sof eksport (Xn):

- mamlakatning import va eksport operatsiyalari bo'yicha xarajatlar o'rtaсидаги farq

G

Tovar va xizmatlarning davlat xaridi (G).

Bu guruh xarajatlariga mahalliy va markaziy boshqaruv hokimiyyati idoralari tomonidan korxonalarning pirovvard mahsulotlari va resurslari xaridi (avtomobil yo'llari va pochta muassasalari qurilishi, davlat korxonalarida to'lanaдigan ish haqi) xarajatlar kiritiladi.

Lekin shu о'rinda ta'kidlash lozimki, bu xarajatlarga davlat transfert to'lovlar kiritilmaydi.

C

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (C):

- uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;
- kundalik foydalaniladigan iste'mol buyumlari sotib olishga;
- iste'mol xizmatlari to'loviga.

YalMni xarajatlar orqali hisoblash formulasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\text{YalM} = \mathbf{C} + \mathbf{I} + \mathbf{G} + \mathbf{Xn}$$

YalMni daromadlar (taqsimot usuli) bo'yicha hisoblash. YalMni daromadlar bo'yicha aniqlashda yakuniy mahsulotni ishlab chiqarish jarayonida rezident-ishlab chiqarish birliklari tomonidan, qo'shilgan qiymatlar hisobidan, to'langan dastlabki daromadlar qo'shib chiqiladi.

YalMni daromadlari yig'indisi ko'rinishida hisoblashda asosan quyidagi ko'rsatkichlardan foydalilanadi:

- sof bilvosita soliqlar (T_n) – bilvosita soliqlar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksizlar, bojxona bojlari) va subsidiyalar hajmlari o'rtasidagi farq;

- yollanma ishchilarning ish haqlari (W) – xususiy va davlat kompaniyalarining yollanma ishchilarga hisoblagan barcha turdagi mehnat haqi to'lovlarining nominal miqdori plus ish beruvchilar tomonidan ish haqi fondiga nisbatan hisoblanib to'lanadigan ijtimoiy sug'urta ajratmalari.

O'zbekiston Respublikasida bu ajratma normasi 2005-yilda ish haqi fondiga nisbatan 31 foiz bo'lgan bo'lsa, 2006-yildan boshlab 25 foiz qilib belgilandi, 2017-yildan boshlab 15–25 foiz atrofida qilib belgilandi.

- Korporatsiyalarning yalpi foydasi + nokorporativ korxonalar daromadi (R).

Nokorporativ korxonalar – kichik hajmdagi, uy xo'jaliklariga tegishli korxonalar bo'lib, ularda korxona foydasi va korxona egasining ish haqi elementlari o'zaro qo'shilib ketgan bo'ladi. Bu holat aralash daromad atamasini qo'llashga sabab bo'ladi.

$R =$ Korporatsiyalarning sof foydasi (R_1) + nokorporativ korxonalar sof daromadlari (R_2) + amortizatsiya (A);

YalMni daromadlar ko'rinishida yalpi qo'shilgan qiymatni ko'rsatilgan uch guruhga bo'lib topish mumkin:

$$\text{YalM} = \mathbf{Tn} + \mathbf{W+R}$$

Olingen dastlabki daromadlar qayta taqsimlanishi natijasida dividend, renta, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalardan olingen reinvestitsiya ko'rinishidagi daromadlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, YalMni daromadlar ko'rinishida aniqlashda, iqtisodiy nazariyada, daromadlarni quyidagi komponentlarga bo'lish ko'zda tutiladi:

- amortizatsiya (A);
- bilvostia soliqlar (T);
- yollanma ishchilarning ish haqlari (W);
- ijara haqi to'lovi va renta ko'rinishidagi daromadlar (R_1);
- kapital uchun olingen foiz daromadlari (R_2);
- mulkdan keladigan daromad (nokorporativ korxonalar daromadi) (P_1);
- korporatsiya foydasi (P_2).

Korporatsiyalar foydasi o'z navbatida quyidagilarga bo'linadi:

- a) korporatsiyasi foydasidan to'lanadigan soliqlar ($P_{2,1}$);



- b) hissadorlar o'rtasida taqsimlanadigan dividendlar ($P_{2,2}$);
- c) korporatsiyaning taqsimlanmagan foydasi ($P_{2,3}$).

Keltirilgan yondashuvga ko'ra:

Xarajatlar va daromadlar ko'rinishida hisoblab topilgan Yalm hajmi o'zaro mos keladi. Chunki milliy iqtisodiyot doirasida bir subyekt tomonidan qilingan har qanday xarajat ikkinchi subyekt uchun daromad bo'lib tushadi.

2.3. MILLIY HISOBCHILIK TIZIMIDAGI BOSHQA KO'RSATKICHLAR VA UALAR O'RTASIDAGI NISBAT

Milliy hisobchilik tizimiga ko'ra milliy iqtisodiyot rivojlanishini tahlil etish uchun Yalm ko'rsatkichidan boshqa yana bir qator ko'rsatkichlardan foydalilanildi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga Yalpi milliy daromad (YaMD) ko'rsatkichi ham kiradi. Bu ko'rsatkich MHTning oldingi ko'rinishida hisoblangan Yalpi milliy mahsulot (YaMM) ko'rsatkichi bilan mohiyatan bir xil.

YaMD – mamlakat rezidentlari tomonidan, mamlakatda va mamlakat tashqarisida, ishlab chiqarishda ishtirok etish va mulkdan olgan boshlang'ich daromadlari yig'indisidir.

Yalm va YaMD ko'rsatkichlari o'rtasidagi farqni quyidagi formula ko'rinishida tasavvur etish mumkin:

$YaMD = Yalm + \text{mamlakat rezidentlari tomonidan xorijdan olingen daromadlari} - \text{nerezidentlarning mamlakatdan xorija ja'natgan daromadlari.}^{15}$

Yalm va YaMD ning prinsipal farqlari shundaki ulardan birinchisi mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlar oqimini o'lchasa, ikkinchisi ular olgan boshlang'ich daromadlarni o'lchaydi.

Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) ko'rsatkichlari Yalm va YaMD ko'rsatkichlaridan amortizatsiya (iste'mol qilingan asosiy kapital) summasi miqdoriga farq qiladi.

$$\text{SIM} = Yalm - A \quad \text{SMD} = YaMD - A$$

Makroiqtisodiy tahlilda, shuningdek, MHTga kirmagan Shaxsiy daromad (ShD) ko'rsatkichi ham q'llaniladi.

$ShD = SMD - [ISA (\text{ijtimoiy sug'urta ajratmalari}) + T (\text{bilvosita soliqlar}) + (R1.1) \text{ korporatsiya foydasiga soliqlar}] + R1.3 (\text{Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi} + \text{biznesning foiz daromadlari}) + \text{transfert to'lovlar} (TR) + \text{foizlar ko'rinishida olingen shaxsiy daromad}^{17}.$ Foizlar ko'rinishida aholi olgan daromadga davlat qarzlar bo'yicha olingen foiz daromadlari ham kiritiladi.

Shaxsiy daromaddan aholi to'laydigan daromad solig'i, mulk solig'i va ayrim nosoliq to'lovlarini ayirib tashlab shaxsiy tasarrufdagi daromad (ShTD) ko'rsatkichi topiladi.

ShTD uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol (C) va jamg'arish (S) uchun ishlatiladi.

$$\text{ShTD} = C + S$$

Makroiqtisodiy tahlilda uy xo'jaliklarining ShTD va Yalpi milliy tasarrufdag'i daromad (YaMTD) ko'rsatkichlari o'zaro farqlanadi.

YaMTD= YaMD + Xorijdan olingen sof transferlar

Xorijdan olingen sof transferlar = Mamlakat tashqarisidan olingen transferlar – Mamlakatdan tashqariga berilgan transferlar.

Yalpi milliy tasarrufidagi daromad yakuniy iste'mol va milliy jamg'armish uchun ishlataladi.

YaMTD= Yakuniy iste'mol +Milliy jamg'armalar

Yakuniy iste'mol uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlaridan tashqari hukumatning iste'molga xarajatlarini ham o'z ichiga oladi.

Takrorlash uchun savollar

- 1 >** Umumiy makroiqtisodiy vaziyatga baho berishda qo'llanilladigan ko'rsatkichlarni tavsiflab bering.
- 2 >** Sof ichki mahsulot (SIM) va Sof milliy daromad (SMD) o'rtaсидаги farqni izohlab bering.
- 3 >** Iqtisodiyotda reinvestitsiya ko'rinishidagi daromadlar qanday paydo bo'ladi?
- 4 >** YalMni xarajatlar orqali hisoblash formulasida aynan qaysi xarajatlar keltirilgan?
- 5 >** Shaxsiy tasarrufdag'i daromad (ShTD) ko'rsatkichi qanday topiladi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1 >** 1993-yilda qabul qilingan (2008- yilda yangi tahrir) BMT MHTning yangi talqiniga ko'ra Yalpi ichki mahsulot (YalM) tushunchasining aniqlashtirilishini tavsiflab bering.
- 2 >** Yalpi ichki mahsulot hamda Yalpi milliy daromad o'rtaсидаги o'xshash va farqli jihatlarni aniqlang.



Masalalar

1> YaIM 6000 pul birligiga, iste'mol xarajatlari 4200 pul birligiga, davlat xarajatlari 900 pul birligiga, sof eksport esa 120 pul birligiga teng.

- Quyidagilarni hisoblang: a) yalpi va sof investitsiyalar hajmi;
 b) eksport 450 pul birligiga tengbo'lsa import hajmini;
 d) amortizatsiya 200 pul birligiga teng bo'lsa SIMNi.

2> Jadval ma'lumotlari bo'yicha quyidagilarni hisoblang:

- ❖ xarajat oqimlari bo'yicha YaIM hajmi;
- ❖ daromad oqimi bo'yicha YaIM hajmi (MHTning eski talqiniga ko'ra);
- ❖ SIM hajmi;
- ❖ MD hajmi

Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	15
Sof eksport	23
Dividendlar	98
Korporatsiyalar foydasiga soliq	12
Tovar va xizmatlarning davlat tomonidan sotib olinishi	1000
Alohiba qo'yilmalardan daromad	340
Foiz	400
Ijara to'lovi	25
Yalpi xususiy ichki investitsiyalar	610
Yollanma ishchilarning ish haqi	3140
Biznesga bilvosita soliqlar	400
Iste'mol qilingan kapital hajmi	500
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	330

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Amortizatsiya – 1) eskirishning qiymatdagi ifodasi bo'lib, asosiy vosita aktivining butun xizmati davomida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlariga qo'shiladigan amortizatsiya qiymatini tizimli ko'rinishda taqsimlash; 2) asosiy fondlar qiymatini asta-sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rnini qoplashga ishlatilishi.

1. Mashina, asbob-uskuna, bino va shu kabilarning eskirishiga qarab, ularning bahosini kamaytirib borish; ularning shu chegirilgan qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shib borish. 2. Alohiba shaxs yoki tashkilotning o'z qarzini asta-sekin, darajama-daraja to'lash majburiyatidan qutulishi – 3.Qarz majburiyatining yo'qotilishi, o'chirilishi oqibatida uning bekor qilinganligini tan olish.

Bilvosita soliqlar – tovar mol-mulki narxidan qimmatga, ustiga qo'yib sotish yordamida davlat xazinasiga kelib tushadigan soliplardir. Masalan, aksizlar, bojlar va boshqalar.

Budjet taqchilligi – moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat budgetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Qo'shilgan qiymat – ishlab chiqaruvchi narxida baholangan va undan sotib oluvchi narxidagi oraliq iste'mol qiymati chegirib tashlangach hosil bo'ladigan narx.

Shaxsiy daromad – jismoniy shaxslarning soliq to'lagunga qadar daromadi.

Sof eksport – tovar va xizmatlarning eksporti va ularning importi o'tasidagi ayirma: eksport –import = sof eksport.

Sof ichki mahsulot (sof milliy daromad) – makroiqtisodiy ko'rsatkich bo'lib, YaIM (YaMD)dan amortizatsiya ajratmalarini miqdorini ayirib tashlash yo'li bilan to'piladi.

Sof milliy daromad – mamlakat rezident birliklarining yangitdan yaratgan daromadidir.

Yalpi ichki mahsulot – mamlakat hududida ma'lum muddat davomida ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiylig'i indisi dan iborat.

Yalpi milliy daromad – shu mamlakat rezidentlarining shu mamlakatning va xorijiy mamlakatlarning YaIMni yaratish davomida olgan birlamchi daromadlari (mulkdan olgan soliq bilan birga)ning yig'indisi.

III BOB

MAKROIQTISODIYOT FANINING RIVOJLANISHIDA XALQARO SAVDO NAZARIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI

- 3.1. XALQARO SAVDONING ZARURLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR
VA UNING KO'RINISHLARI
- 3.2. MUTLAQ VA NISBIY USTUNLIK NAZARIYALARI
- 3.3. E.XEKSHER VA B.OLINNING NEOKLASSIK KONSEPSIYASI,
LEONTEV PARADOKSI
- 3.4. XALQARO SAVDONING ZAMONAVIY NAZARIYALARI

KIRISH

Globallashuv jarayoni tufayli tashqi bosimning kuchayishiga qaramasdan mamlakatlarda eng muhim iqtisodiy qarorlar tashqaridan emas, balki milliy hukumatlar tomonidan qabul qilinmoqda. Shuning uchun ham jahon xo'jaligini hamda jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mayjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga hamda xalqaro savdoning klassik nazariyalariga tayanish lozim.

Jahon bozori konyunkturasinin murakkablashib borishi va xalqaro savdoning raqamli transformatsiyalashivi xalqaro iqtisodiyot fani hamda zamonaviy savdo qoidalari rivojlanishining asosiy xususiyatlarini belgilab berdi. Shuning uchun ham jahon xo'jaligini hamda jahon iqtisodiyotini tahlil etishda sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarda mayjud iqtisodiy rivojlanish tendensiyalariga tayanish lozim.

Bugungi kunda TMKlar jahon iqtisodiyotining muhim mustaqil qismiga aylanishdi va ular hissasiga jahon yalpi ichki mahsulotining 1/5-1/4 qismi to'g'ri kelmoqda. TMKlarning aksariyat qismi o'z mamlakatlari ichki bozori uchun ishlashlariga qaramasdan globallashuv jarayonining harakatlantiruvchi kuchi hisoblanishadi.

Globalashuv jahonni yagona bozorga aylantirishi vositasi sifatida TMKlar uchun manfaatli hisoblanadi, chunki ular ushbu bozorda eng kuchli xo'jalik subyektlari sanalishadi. Bugungi kunda butun dunyoda sodir bo'layotgan pandemiya sharoitida O'zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi mavqeyini oshirishda eng avval jahon bozoridagi o'mni yanada mustahkamlash va buning zamirida mikro va makroiqtisodiy tendensiyalarni hisobga olgan holda iqtisodiy barqarorlikka erishishimiz va bu borada chuqur bilimlarni egallashimiz va kelajak avlodga ushbu bilimlarni singdirishimiz zarur, bu orqali davlatimizning dunyo xalqaro mehnat taqsimotidagi o'rnnini yanada oshirishda o'zimizning kichik hissamizni qo'shgan hisoblanamiz.

3.1. XALQARO SAVDONDING ZARURLIGINI BELGILOVCHI OMILLAR VA UNING KO'RINISHLARI

Hozirgi kunda qo'llanilayotgan xalqaro savdoning standart modeli chegaraviy qadriyatlar va iqtisodiy tizimning umumiyy muvozanat konsepsiyalardan foydalishga asoslangan klassik nazariyalarining asosiy prinsiplarini ishlab chiqadigan turli xil nazariyalarni birlashtiradi. Standart modelning asosiy tushunchalarini inglez iqtisodchilari Frensis Edgyuort, Alfred Marshall va Gotfrid Xablyerlar ishlab chiqdilar.

Standart model asoslari. Standart model, shuningdek, xalqaro savdoning klassik nazariyalariga ko'ra, jahon iqtisodiyoti ikki mamlakat tomonidan ifodalanaadi, ularning har birida ikkita mahsulot ishlab chiqariladi. Bundan tashqari, standart



modelda quyidagi taxminlar qo'llaniladi: iste'molchilar iste'mol jarayonini maksimal darajada oshirishga intilishadi; effekt va ishlab chiqaruvchilar daromadni maksimal darajada oshirishga intilishadi; ichki va jahon bozorlarida mukammal raqobat mavjud bo'lib, unda muvozanat narxi ishlab chiqarishning minimal qiyomatiga mos keladigan darajada belgilanadi.

Xalqaro mehnat taqsimoti neoklassik nazariyalari o'rtaida amerikalik iqtisodchi G.Xabyerlyerning muqobil xarajatlar modeli yetakchi o'rinni tutadi. U har bir mamlakat uchun barcha resurs va eng yaxshi texnologiyalardan foydalan-gan holda ikki turdag'i tovarni qanday nisbatda ishlab chiqara olishi mumkinligini ko'sratuvchi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'idan foydalanishni taklif etadi. Bu qarashlarga ko'ra, har bir mamlakat boshqa mamlakatlarga taqqoslaganda yuqori texnologiyaga ega bo'lgan tarmoqlardagi mahsulotlarni eksport qiladi. Keyinchalik ilg'or texnologiya muqarrar ravishda dunyo bo'y lab tarqalib, texnologiyadagi farqlar yo'qoladi, eksport pasayib, jahon savdosini tarkibiy tuzilishida keyingi o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

R.Vernonning tovarning hayotiy sikli nazariyasida mamlakatning jahon savdosidagi muvaffaqiyati ichki bozorga bog'liqligi ta'kidlanadi. Vernon nazariyasiga ko'ra mahsulotlarning ba'zi bir turlari to'rt bosqichdan iborat sikldan o'tadi (joriy etish, o'sish, yetuklik, pasayish), ularni ishlab chiqarish esa xalqaro miqyosda siklning bosqichidan kelib chiqqan holda siljiydi. R.Vernon AQSHning yangi va istiqbolli tovarlarning ahamiyatli miqdorini ishlab chiqarishda yetakchilik qilishi sabablarini ochib berishga harakat qildi. U milliy bozorda xorijiy bozorga nisbatan ertaroq paydo bo'lgan tovarlarga talab AQSHning texnologik ustunligiga olib kelishini ta'kidladi. Amerika firmalari ishlab chiqarishning rivojlanishi bosqichida bu yangiliklarni eksport qiladi, ularga bo'lgan talabning o'sishi bilan esa xorijiy mamlakatlarda ishlab chiqarishni tashkil etadi. Yangi texnologiyaning tarqalishi bilan xorijiy korxonalar ham yangi tovarlarni ishlab chiqarishni o'zlashtirib, ularni AQSHga olib kela boshlaydilar. «Tovar sikli» tushunchasi milliy va tashqi bozorlarning o'zaro bog'liqligini izohlovchi nazariyaning asosiga aylandi. Xalqaro mehnat taqsimoti va jahon savdosini tarkibiy tuzilishining samaradorligi mustaqillik, o'zaro bog'liqlikni tushuntirishga yordam beradi.

Yuqori iqtisodiy mustaqillik ba'zi bir tovar, xizmat va texnologiyalarni mavjud bo'lmasligini bildiradi, shunga ko'ra hozirda hech bir mamlakat to'liq mustaqillikka intilmaydi. Biroq, ko'plab mamlakatlar xalqaro mehnat taqsimoti tizimiga kirish hamda tashqi savdo tarkibini shakllantirishda talab va taklif ustidan xorijiy nazoratning or'natilishi xavfini past darajada bo'lishiga harakat qiladilar.

Tashqi savdoga ishlab chiqarish omillarining o'sishi ta'sir qiladi. Omillar taklifi o'sishining tashqi savdoga ta'siri qaysi omillar o'sib borishi bilan belgilanadi: asosan import bilan raqobatlashadigan tarmoqlarda ishlaydiganlar yoki eksport tarmoqlari. Shuning uchun ular ajralib turadilar, eksportga yo'naltirilgan o'sish – eksport uchun tovarlar ishlab chiqarishni ko'payishi va import o'rnnini bosuvchi o'sish – mamlakatga import qilinadigan mahsulotlar ishlab chiqarishning o'sishi.

Chet elda eksportga yo'naltirilgan o'sish, bizning savdo sharoitlarimizni yaxshilash orqali biz uchun foydalidir va u yerda import o'rnni bosuvchi o'sish bizning ayirboshlash shartlarimizni ham yomonlashtiradi. Bizning eksportga yo'naltirilgan o'sishimiz ham ushbu shartlarni yomonlashtiradi, o'sishdan to'g'ridan to'g'ri foya kamaytiradi, import o'rnni bosuvchi o'sish esa aksincha, ularni yaxshilaydi va o'sishning ikkinchi darajali ta'siriga aylanadi.

Shuning uchun, muammoga e'tibor berishingiz kerak halokatli o'sish qachon eksportning kengayishi savdo sharoitlarining shunchalik yomonlashishiga olib keladiki, millat farovonligi pasayadi. Ushbu muammoni birinchi bo'lib 1958-yilda amerikalik iqtisodchi J.Bagvati tahlil qilgan. Bu aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun paydo bo'lishi mumkin, bu yerda iqtisodiy o'sish uchun imkoniyatlar xomashyo qazib olish va eksport qilishni kengaytirish bilan bog'liq. Jahon bazorida xomashyoga talab ko'pincha past elastiklik bilan tavsiflanganligi sababli, eksportning fizik hajmining tez o'sishi xomashyoning jahon narxlarining shunday pasayishiga olib keladi, bu esa iqtisodiy o'sishning o'zi ta'sirini bekor qiladi.

Tashqi savdoning ishlab chiqarish omillari egalarining daromadlariga ta'siri. Ushbu ta'sir vaqt omiliga bog'liq. Qisqa vaqt ichida mamlakat (AQSH) g'alla ishlab chiqarishga ixtisoslashgan, unga va yerga narxlar o'sib bormoqda, bu esa yer egalarining daromadlarini oshiradi. Qishloq xo'jaligi ishchilarining ish haqi ham o'sib bormoqda, chunki ularni yetkazib berish qisqa vaqt ichida cheklangan.

Har qanday mamlakatning iqtisodiy rivojlanish tarixini o'rganib shunga amin bo'lasizki, ulardan hech biri doimo barqaror rivojlanmagan. Barqaror iqtisodiy rivojlanishning sharti bo'lib xizmat qiladigan muvozanat ta'minlanishi uchun, ijtimoiy ishlab chiqarish va iste'mol, yalpi talab va yalpi taklif bir-biriga teng bo'lishi lozim. Biroq bozor iqtisodiyotida muvozanat holati vaqtি-vaqtি bilan buzilib turadi.

Har bir mamlakat iqtisodiyotining o'ziga xos rivojlanish va pasayish davrlari mavjud. Bunda iqtisodiyotning yuksalish davri pasayish hamda turg'unlik davrlari bilan almashadi.

Iqtisodiy davrlarga aniq tarif esa quyidagicha:


Iqtisodiy davr – ishlab chiqarish, bandilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishiga aytildi.

Iqtisodiy davrlar bir-biridan o'tish davrining davomiyligi va faolligi bilan farq qilishi mumkin ammo, barcha davrlar iqtisodiy faoliydarajasiga ko'ra bir xil bosqichlardan tashkil topadi (4.2.1-rasm).

Iqtisodiy davrlar quyidagi bosqichni o'z ichiga oladi. Birinchi bosqich iqtisodiy rivojlanishning eng yuqori darajasiga erishilgan bosqich bo'lib, u «cho'qqi» deb ataladi. Bu iqtisodiyotda ish bilan to'liq bandlik, ishlab chiqarish to'la quvvatda ishlayotganligi, shuningdek, mahsulotlarning baho darajasining o'sish holati kuzatiladi.



Keyingi bosqich «pasayish» bosqichidir. Bunda ishlab chiqarish va bandlik darajalari kamayadi, ammo bahoning o'sish darajasi pasaymaydi. Bu bosqich faol va uzoq davom etsagina bahoning o'sish darajasi sustlashishi mumkin. Pasayishning quyi nuqtasida ishlab chiqarish va bandlik eng quyi darajaga tushadi va turg'unlik davri boshlanadi.



4.1.1-chizma. Iqtisodiyotning davriy rivojlanishi

«Ko'tarilish» bosqichi, bu bosqichda ishlab chiqarish va bandlik darajasi asata-sekin oshib, ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va to'liq bandlik darajasiga erishiladi.

Iqtisodiy davrlar amalda iqtisodiyotning hamma sohalariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Iqtisodiyot tarkibiy qismalarining o'zaro bog'liqligi sababli uning hech bir sohasi inflyatsiya to'lqini yoki turg'unlikning nohush oqibatlaridan chetda qolmaydi. Ammo shuni e'tiborga olish zarurki, iqtisodiy davr alohida shaxslar turmush darajasi va korxonalar iqtisodiy faolligiga turli darajada ta'sir ko'rsatadi. Odatta, iqtisodiy inqirozlardan sanoatning ishlab chiqarish vositalari va uzoq muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaradigan tarmoqlar ko'proq zarar ko'radi.

Uy-joy va sanoat binolari qurilishi, og'ir mashinasozlik hamda investitsion tovarlar, avtomobillar, maishiy xo'jalik buyumlari va shunga o'xshash tovarlar ishlab chiqarish bilan bog'liq sanoat tarmoqlari va ularda band bo'lgan ishchilar inqiroz davrida og'ir oqibatga uchraydi. Biroq, bu tarmoqlar davrlarning yuksalish fazasida o'zining rivojlanishi uchun yuqori darajada rag'bat oladi.

Iqtisodiyot qiyinchilikni boshidan kechira boshlaganda ishlab chiqaruvchilar ko'pincha, zamonaviy uskunalarni sotib olishni va yangi zavodlar qurishni to'xtatadi yoki qandaydir muddatga kechiktirishi mumkin. Bunday konyunktura sharoitida investitsion tovarlar zaxiralarini ko'paytirish hech qanday iqtisodiy mazmunga ega emas, aksincha korxonalar mavjud ishlab chiqarish quvvatlaridan ancha to'lar oq foydalanishlari mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy jihatdan qulay davrlarda, ya'ni iqtisodiy davrlarning jonlanish va yuksalish fazalarida ishlab chiqarish vositalari odatda ular to'liq eskirgunga qadar almashtiriladi. Ammo tanazzul davri kelganida, korxonalar o'zining eskirgan uskunalarini ta'mirlab, ularni ishga tushiradi. Shu sababli bu davrda ishlab chiqarish vositalariga investitsiyalar keskin qisqaradi. Ortiqcha ishlab chiqarish quvvatlari mavjud bo'lgan ayrim korxonalar, hatto iste'mol qilingan asosiy kapitalining o'rnnini qoplashga ham harakat qilmaydi.

Qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari iqtisodiy davrlarning salbiy oqibatlarini nisbatan kamroq darajada sezadi.

Aholi yoki keng iste'molchilar qatlamiga iqtisodiy davrlar turlicha ta'sir ko'rsatadi. Tanazzul davri boshlanganda, doimiy daromad oluvchi iste'molchilar oila budgetini qisqartirishlariga to'g'ri keladi, maishiy texnika va avtomashina kabi uzoq muddat foydalaniladigan tovarlarni xarid qilishni to'xtatadi. Har qanday sharoitda ham oila a'zolari yeb-ichishi va kiyinishi zarurligi tufayli, oziq-ovqat mahsulotlari va kiyim-kechaklar, ya'ni qisqa muddatda foydalanadigan iste'mol tovarlarni xarid qilishni to'xtatish mumkin emas. Faqat, bunday tovarlarni xarid qilish miqdori qandaydir darajada kamayishi mumkin.

Investitsion tovarlar va uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi ba'zi firmalarga monopolligi ayni shunday paytda asqatadi, aksincha ma'lum davr davomida narxning pasayishiga qarshi tura olgan, talabning kam holatida ham ishlay olgan firmalar esa ayni shunday paytlarda monopolga aylana boshlaydi.

Talabning kamayishi birinchi navbatda ishlab chiqarish va bandlik darajasi ga ta'sir ko'rsatadi. Bunga teskari bo'lgan holatni qisqa muddatli foydalaniladigan iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlarida kuzatish mumkin. Bu tarmoqlarning ko'pchiligi o'zlarining raqobatga layoqatsizligi va ishlab chiqarish markazlashuv darajasining pastligi bilan tavsiflandi. Shu sababli ular iqtisodiy davrlarning salbiy oqibatlariga qarshi tura olmasligi mumkin va mahsulotlariga talabning pasayishi ishlab chiqarish darajasiga qaraganda narxlarda ko'proq aks etadi.

Demak, kapitalning to'planishi yuqori darajada bo'lgan tarmoqlarda ishlab chiqarish hajmining keskin pasayishi va narxlarning nisbatan sekin tushishi, to'planish darjasini past bo'lgan tarmoqlarda narxlarning sezilarli tushishi va mahsulot ishlab chiqarish hajmining nisbatan kam qisqarishi kuzatiladi.

4.2. ISHCHI KUCHI. ISHSIZLIK VA UNING TURLARI

Ishchi kuchi bu inson aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lib, jamiyatning asosiy ishlab chiqaruvchi kuchi hisoblanadi. Ishchi kuchi atamasi mehnat qobiliyatiga ega bo'lgan kishilar uchun xosdir. Lekin ishchi kuchi insonning aynan



o'zi emas yoki uning qilayotgan mehnati ham emas, uning qobiliyatidan iboratdir. Jamiyatning milliy mahsuloti hisobiga ishlab chiqarishning moddiy-ashyoviy omillarigina emas, balki shaxsiy omili, ya'ni ishchi kuchi ham takror ishlab chiqariladi.

Ishchi kuchining miqdori mamlakat aholisining mehnat faoliyatiga layoqatli bo'lgan qismi orqali ifodalanib, u ishchi kuchi resurslari deb ham ataladi. Insonning ishchi kuchi resurslari tarkibiga kiritilishining asosiy mezoni bo'lib uning yoshi va mehnatga bo'lgan qobiliyati hisoblanadi.

Odatda ishchi kuchi resurslari tarkibiga 16 yoshdan 60 yoshgacha bo'lgan erkaklar, 16 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan ayollar kiritiladi. Lekin ijtimoiy ishlab chiqarish va boshqa sohalarda band bo'lgan nafaqaxo'rlar ham ishlashi mumkin. Ishchi kuchi resurslarining faol va potensial qismi farqlanadi.

Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan shaxslar ishchi kuchi resurslarining faol qismi hisoblansa, ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiyotganlar va vaqtinchalik uy xo'jaligidagi band bo'lganlar potensial qismi hisoblanadi. Ishchi kuchini takror hosil qilish insonning jismoniy kuchlari va aqliy qobiliyatlarini uzluksiz qayta tiklab va ta'minlab turish, ularning mehnat malakasini muttasil yangilab va oshirib borish, umumiy bilim va kasbiy darajasi o'sishini ta'minlash demakdir.

Ishchi kuchini takror yaratish xodimlarni ishlab chiqarishga jalb etishni, tarmoqlar, korxonalar, mintaqalar o'rtaida ishchi kuchi resurslarini taqsimlash va qayta taqsimlashni, ularning xodimlarga bo'lgan ehtiyojlari qondirilishini va ayni paytda mavjud ishchi kuchining ish bilan to'la va samarali band bo'lishini ta'minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmini yaratishni ham o'z ichiga oladi. Ishchi kuchini takror hosil qilish nisbatan mustaqil iqtisodiy va ijtimoiy muammo bo'lib, bu muammoning ayrim tomonlari aholining tabiiy harakatlari shaklida namoyon bo'ladi.

Shu sababli ishchi kuchini takror hosil qilishning asosi aholining tabiiy ko'pa'yishi hisoblanadi. Ishchi kuchi insonning mehnatga bo'lgan aqliy va jismoniy qobiliyatlarining yig'indisi bo'lganligi uchun bozor iqtisodiyoti davrida inson emas, mehnat jarayoni ham emas, balki ishchi kuchi tovar sifatida sotiladi, uning boshqa tovarlar kabi qiymati va nafliligi mavjuddir va binobarin, uning bozori bo'ladi. Shuning uchun hozirgi kunda keng qo'llanilayotgan mehnat bozori tushunchasi o'rniiga ishchi kuchi bozori, mehnat resurslari o'rniiga ishchi kuchi resurslari de'yiladi. Ishchi kuchi resurslarining soni va sifati mamlakat aholisining soni hamda jinsi va yoshi jihatidan tarkibi bilan belgilanadi. Bular esa o'z navbatida aholining tabiiy harakatlanishiga bog'liq bo'ladi.

Ishchi bozorida ham xuddi boshqa resurslar bozori kabi ish kuchiga talab va ishchi kuchi taklifi tushunchalari mavjud. Bozorda ishchi kuchiga to'lanadigan ma'lum bir ish uchun haq miqdori oshib borsa talab unga teskari ravishda tushib boradi, ya'ni ishchi kuchiga talab o'z-o'zidan qisqaradi va ishchi kuchi taklifi ortib boradi, aksincha ish uchun to'lanishi kerak bo'lgan haq miqdori kamayishi bilan ishchi kuchiga talab oshib boradi va ishchi kuchi taklifi kamayadi. Mamlakat ishchi kuchi bozorida ishchi kuchiga bo'lgan talabning taklifga nisbatan kamligi ishsizlikni keltirib chiqaradi.

Ishsizlik mamlakat aholisiga bevosita ta'sir qiladigan salbiy jarayondir, tabiiyki insonlar uchun o'z ishlab turgan ishini yo'qotishi, yashash sharoitining pasayishiga va ba'zida psixologik tushkunlikka va jamiyatdagi katta noroziliklarga sabab bo'la-di. Shu sababdandir balki, ko'plab siyosatchilar tomonidan debatlarda ishsizlik asosiy mavzuga aylanadi.

Ishsizlik darajasi deb ishsizlar sonini ishchi kuchi soniga nisbatiga (% hisobi-da) aytildi va uni quyidagi formula bilan aniqlash mumkin:

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{\text{ishsizlar soni}}{\text{ishchi kuchi soni}} * 100$$

Har kuni dunyoning har xil nuqtalarida odamlar o'z ishlarini yo'qotishadi, tash-lab ketishadi yoki aksincha ba'zi ish izlab yuran ishsizlar ishlarga joylashishadi. Umuman olganda iqtisodiyotda bu holat odatiydek, biroq ishsizlikning tabiiy dara-jasini nimalar belgilashini va qaysi omillar qay tarzda ta'sir ko'rsatishini qisqa qilib aytib bo'lmaydi, shu sababli quyida bu tushunchalarga kengroq yondashamiz va ishchi kuchi dinamikasi modelini keltirib o'tamiz. Keling L ishchi kuchi sonini bel-gilasin, E esa ishlayotgan ishchi kuchi soni va U ishsizlar soni bo'lsin. O'zi-o'zidan ma'lumki, ishchi kuchi ishsizlar va ish bilan bandlarning yig'indisiga teng bo'ladi:

$$L=E+U$$

Ishsizlik darajasi mamlakatdagi ishsizlar sonining umumiyl ishchi kuchiga nis-bati oraliq aniqlanadi, ya'ni quyidagicha;

$$\text{Ishsizlik darajasi} = \frac{U}{L}$$

Ishsizlik darajasiga qanday omillar ta'sir qilishini ko'rshimiz uchun, ishchi ku-chi sonini, ya'ni L ni (constant) o'zgarmas va ishchi kuchidagi ish bilan bandlar E va ishsizlar U o'tasidagi shaxslarning ikki shaxslar davrasidan bir-biriga ko'chib o'tishi orqali izohlaymiz!

Keling s ishdan ayrilishning darajasini etib belgilasin, ya'ni ish bilan aholining har oyda ishini yo'qotgan yoki tashab ketganlar qismi. F ish topish darajasini ifodalasin, ya'ni ishsiz shaxslarning har oyda ish topadigan qismi. Shunda ishdan ayrilish (Job separation) darajasi s va ish topish (job finding) darajasi f birgalikda ishsizlik darajasini ko'rsatib beradi. Agar mamlakatda ishsizlik darajasi ma'lum bir davrda bir xil darajani qayd etsa, bunday holat ishchi kuchi bozori barqaror bo'lgan vaziyat hisoblanadi, unda ish topadigan odamlar soni f (U), ishini yo'qotgan odamlar soni s (E)ga teng bo'lishi kerak. Bunday barqaror holatni quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$fU=sE$$

Yuqoridagi tenglamadan ishsizlikning barqaror darajasini topishda foydala-nishimiz mumkin. Ishchi kuchi haqidagi ta'rifimizdan, $E=L-U$ ni tengligini olsak, bunda ish bilan bandlar soni ishchi kuchidan ishsizlar sonini ayirmasiga tengligi kelib chiqadi. Shundan barqarorlik sharoitida E ni ($L-U$) bilan almashtirish orqali quyidagicha tenglikka ega bo'lamiz:

$$fU=s(L-U)$$

Keyin, tenglamaning har ikkala tarafini L ga bo'lamiz:



$$f \frac{U}{L} = s(1 - \frac{U}{L})$$

Endi, yuqorida keltirganimizdek U/L ishsizlik darajasi ekanligini hisobga olsak va ushbu tenglikdan foydalanib ishsizlik darajasini ishdan ayrilish (Job separation) darajasi s va ish topish (job finding) darajasi f bilan ifodalashimiz mumkin. Buning uchun o'ng tarafdagagi qavslarni ochib yuboramiz, so'ng tenglamadan U/L ni topamiz. Birinchi qadamda tenglamaning o'ng tarafidagi qavsni ochib olamiz:

$$f \frac{U}{L} = s - s \frac{U}{L}$$

Ikkinci qadamda ishsizlik darajasini ifodalovchi U/L ifodasini o'ng tomonga o'tkazib oldidagi koeffitsiyentlarini qavs ichiga umumiylashtiramiz:

$$\frac{U}{L}(f + s) = s$$

Va nihoyat uchinchi qadamda chap tarafdagagi qavsni o'ng tomonga o'tkazish orqali, so'nggi, bizga kerakli tenglamaga ega bo'lamiz:

$$\frac{U}{L} = \frac{s}{f + s}$$

Bu tenglama barqarorlik sharoitidagi ishsizlik darajasining ishdan ayrilish (job separation darajasi) s va ish topish (job finding) darajasi f ga bog'liqligini ko'rsatadi. Yuqoridagi bog'liqlikdan ko'rinish turibdiki, ishdan ayrilish (Job separation) darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi ham shuncha yuqori bo'ladi. Ish topish (Job finding) darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, ishsizlik darajasi shunchalik past bo'ladi.

Ihsizlikning tabiiy darajasini pasaytirishni maqsad qilgan har qanday mamlakat siyosati ishdan ayrilish (job separation) darajasini kamaytirishi yoki ish topish (job finding) darajasini oshirishi lozim. O'z navbatida, ishdan ayrilish va ish topish darajasiga ta'sir qiladigan har qanday siyosat shuningdek ishsizlikning tabiiy darajasini o'zgartiradi. Bu model ishsizlik darajasini ishdan ayrilish va ish topish darajasiga bog'liqligini ko'rsatib berolsada, u markaziy savolga to'liqligicha javob berolmaydi.

Iqtisodiyotning barqarorligi va sog'lomligini aks ettiruvchi ko'rsatkichlardan biri ishsizlik darajasi hisoblanadi. Biroq, har qanday mamlakatda doimiy ravishda ma'lum darajada ishsizlik mavjud bo'ladi. Yuqorida aytganimizdek, mehnatga layoqatli bo'lib, ishlashni xohlagan, lekin ish bilan ta'minlanmaganlar ishsizlar deyiladi. Namoyon bo'lish xususiyati va vujudga kelish sabablariga ko'ra ishsizlik friksion, tarkibiy, siklik, institutsional, texnologik, regional, yashirin va turg'un ishsizlik turlariga bo'linadi.

Kishilar turli sabablar (yangi yashash joylariga ko'chib o'tish, ishining mazmu ni va tavsifi yoqmay qolishi, nisbatan yuqoriroq ish haqi olishga intilish va bosh-qalar)ga ko'ra o'z ishlarini almashtirib turadilar. Biroq, bir ishdan boshab, boshqa biriga joylashgunga qadar orada ma'lum vaqt o'tadi. Aynan shu vaqt oralig'idagi,

ya'ni bir ishdan bo'shab yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan davrdagi ishsizlik friksion (oraliq) ishsizlik deyiladi.

Ko'p sabablarga ko'ra, uy xo'jaliklari va firmalar talab qiladigan tovarlar turlari vaqt o'tishi bilan o'zgarib boradi. Tovarga bo'lgan talabning ko'chishi sabab, o'sha tovarlarni ishlab chiqaridigan mehnatga ham talab ko'chadi. Korxonalarda konveyer usulini yo'lga qo'yilishi, ko'plab ishlab chiqaruvchilarning ishchi kuchiga talabini kamaytirdi. Ayni hozirgi davrda, elektronika sanoatidagi mehnatga talabni oshirdi. Shunga o'xshab, har xil hududlar har xil mahsulotlar ishlab chiqarganligi sababli ishchi kuchiga talab mamlakatning bir qismida oshayotgan, boshqa bir qismida tushayotgan bo'lishi mumkin. Yana bir oddiy misol 2021-yilda O'zbekistonda Yog' narxidagi keskin ko'tarilish yog' ishlab chiqaruvchi korxonalardagi ishchi kuchiga talabning o'sishiga sabab bo'lishi mumkin, ammo Covid-19 pandemiyasi tufayli neft narxining keskin tushishi neftni qazib olish, qayta ishlash sanoatida band bo'lgan ishchilarga talabni kamaytiradi.

Iqtisodchilar hududlar yoki sanoatlar orasidagi talabning tuzilishidagi o'zgarishlarni sohaviy ko'chish deb atashadi. Ayni damda sohaviy ko'chishlar har doim sodir bo'layapti va ishchilardan sohasini o'zgartirishga ko'p vaqt ketganligi sababli, har doim friksion ishsizlik mavjud bo'ladi. Sohaviy ko'chishlar, ishdan ayrilish va ish topish ishsizlikning yagona sababi emas. Yana bir sabab firma va korxonalarning inqirozga uchrashidir, turgan gapki, bu yerda ishlayotgan boshqa ish qidirib boshlashadi. Ishchilar shuningdek karyerasini o'zgartirish maqsadida yoki mamlakatning boshqa qismiga ko'chish uchun ishdan ketishlari mumkin. Ishdan ajralishning sabablariga qaramasdan, bu ishchilardan yangi ish topish uchun vaqt va mashaqqat ketadi. Toki firma va korxonalar orasidagi ishchi kuchiga talab va taklif o'zgarayotgan ekan, friksion ishsizlik mavjud bo'ladi.

Ma'lumki, iqtisodiyotning rivojlanishi bilan uning tarkibida turli o'zgarishlar ro'y beradi. Yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga qo'llanishi natijasida ba'zi bir tarmoq va soha mahsulotlariga bo'lgan talab qisqarib, zamonaviy mahsulot turlariga talab o'sadi. Bu esa yalpi ishchi kuchi tarkibida ham ma'lum o'zgarishlarning ro'y berishini taqozo etadi. Natijada ba'zi bir kasb yoki mutaxassislik turlaridagi ishchilarga talabning qisqarishi yoki umuman yo'qolishi ularning o'z kasb va mutaxassisliklarini o'zgartirish yoki shunday kasblarga talab saqlanib qolgan joylarga ko'chib o'tishga majbur qilib qo'yadi. Ular yangi kasb va mutaxassislikni o'zlashtirib yoki boshqa joyga ko'chib o'tib, yangi ishga joylashgunga qadar bo'lgan ishsizlik **tarkibiy ishsizlik** deb ataladi. Tarkibiy ishsizlik friksion ishsizlikka qaraganda uzoqroq davom etadi hamda ko'proq ma'lum xarajatlarni taqozo etadi. Uning uzoq muddat (odatda 6 oydan ko'proq) davom etishi yangi kasb turini o'zlashtirish yoki malaka oshirish bilan, ma'lum xarajat talab qilishi esa, eski kasb turi bilan shug'ullanish istagi saqlanib qolgan holda, yashash joylarini o'zgartirish bilan bog'liq bo'ladi.

Friksion va tarkibiy ishsizlik, iqtisodiyotdagi rivojlanish har qanday holatidan qat'i nazar, ma'lum darajada barcha mamlakatlarda mavjud bo'ladi. Shu sababli, friksion va tarkibiy ishsizlik birgalikda **ishsizlikning tabiiy darajasini** tashkil qiladi.

Davriy ishsizlik – iqtisodiy davrning inqiroz fazasi bilan bog'liq bo'lib, u ishlab chiqarishning pasayishi va yalpi talabning qisqarishi natijasida vujudga keladi. O'z tovar va xizmatlariga nisbatan talabning qisqarishiga duch kelgan tadbirkorlar ishlab chiqarish hajmini kamaytirish maqsadida ishchilarni ishdan bo'shata boshlaysilar. Shu tariqa iqtisodiyotda davriy ishsizlik paydo bo'ladi. Davriy ishsizlik haqiqiy darajadagi ishsizlikning tabiiy darajadan farqlanishini ko'rsatadi. Ihsizlikning bu turi majburiy ishsizlik hisoblanadi va iqtisodiy davrlarning yuksalish fazasida mavjud bo'lmaydi.

«To'liq bandlilik» tushunchasi iqtisodiyotda ishsizlikning mutloq mavjud bo'lmasligini bildirmaydi. Iqtisodchilar friksion va tarkibiy ishsizlikning bo'lishini tabiiy deb hisoblaydi, shu sababli «to'liq bandlilik» ishchi kuchining 100% dan kam qismini tashkil qiluvchi miqdor sifatida aniqlanadi. Aniqroq aytganda, to'liq bandlilik sharoitida ishsizlik darjasini friksion va tarkibiy ishsizlar soniga teng bo'ladi. Davriy ishsizlik nolga teng bo'lganda to'liq bandlilik sharoitidagi ishsizlik darajasiga erishiladi. «To'liq bandlilik» sharoitidagi ishsizlik darjasini ishsizlikning tabiiy darjasini deb ham ataladi. Ihsizlikning tabiiy darjasini bilan bog'liq bo'lgan milliy ishlab chiqarishning real hajmi, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini ko'rsatadi.

Ish bilan to'liq bandlilik yoki ishsizlikning tabiiy darjasini ishchi kuchi bozori muvozanatiga erishganda, ya'ni ish izlovchilar soni bo'sh ishchi o'rinnari soniga teng kelganda vujudga keladi. Ihsizlikning tabiiy darjasini qandaydir darajada iqtisodiy jihatdan maqbul hisoblanadi. Chunki «friksion» ishsizlarga mos keluvchi ish o'rinnarini topish, «tarkibiy ishsizlarga» ham yangi kasbni o'zlashtirish yoki yangi yashash joyida ish topish uchun ma'lum vaqt kerak bo'ladi.

«Ihsizlikning tabiiy darjasini» tushunchasi ma'lum bir aniqliklar kiritishni talab qiladi.

Birinchidan, bu tushuncha iqtisodiyot har doim ishsizlikni tabiiy darajasida amal qilishi va shu orqali o'zining ishlab chiqarish imkoniyatini ro'yobga chiqarishini bildirmaydi. Chunki, ko'pincha ishsizlik darjasini tabiiy darajadan ortiq, ayrim hollarda, masalan, ish vaqtidan ortiqcha ishslash va o'rindoshlik ishlarida band bo'lish natijasida tabiiy darajadan past ham bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, ishsizlikning tabiiy darjasini o'z-o'zicha doimiy miqdor hisoblanshi shart emas, u tarkibiy o'zgarishlar (qonunlar va jamiyat urf-odatlaridagi o'zgarishlar) oqibatida o'zgarib turishi mumkin.

4.3. ISHSIZLIKNING TABIIY DARJASI. OUKEN QONUNI

Ihsizlikning tabiiy darjasini holatida mamlakatdagi barcha resurslardan to'laligicha foydalanish orqali yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulotlarning umumiyligi hajmiga mamlakat iqtisodiyotining ishlab chiqarish potensiali deb ataladi. Potensial YAIM hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutloq yo'q deb emas, balki ishsizlik mavjud, biroq u tabiiy darajada deb hisoblanadi.

Mamlakatning ishlab chiqarish potensiali, potensial Yalm ko'satkichi bilan o'lchanadi. Mamlakatda iqtisodiy muvozanatlarning buzilishi tufayli, iqtisodiy pasayish davrida mamlakat o'z iqtisodiy potensialidan to'liq foydalana olmasdan, yaratilgan haqiqiy Yalm hajmi (Yh) potensial Yalm (Yp) hajmidan kamroq bo'ladi. Ya'ni mamlakatlar Yalpi ichki mahsulotidan uzilish sodir bo'ladi.

$$YaU = \frac{Yh - Yp}{Yp}$$

Potensial Yalm*ni hisoblashda mamlakatda ishsizlik mutlaqo yo'q deb emas, balki mavjud, biroq u tabiiy darajada, deb hisoblanadi. Ishsizlik darajasining oshishi natijasida iqtisodiyot potensial Yalm hajmini ololmaydi. Shu sababli mamlakat miqyosida ishsizlikni uning tabiiy darajasida saqlab qolish va tartibga solish iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Mamlakatda ishsizlikning haqiqiy darjasini uning tabiiy darajasidan qanchalik yuqori bo'lsa, Yalm uzilishi shuncha ko'p bo'ladi:

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali deb barcha mavjud resurslardan to'liq foydalangan holda, ishsizlikning tabiiy darjasini holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmiga aytildi.

Shuning uchun ham potensial hajmdagi Yalm* haqiqiy Yalm dan katta bo'ladi. Ishsizlikning birinchi oqibati – potensial Yalm darajasidan ortda qolish, ya'ni mahsulotni yetarli ishlab chiqarmaslikdir. 1960-yilda amerikalik iqtisodchi A.Ouken ushbu fenomen ustida tadqiqotlar o'tkazdi. Ulkan statistik materialni tahlil qilib chiqqach, u quyidagi xulosaga keldi: davriy ishsizlik ko'satkichi bilan amaliy Yalmning potensial Yalm darajasidan ortda qolishi o'rtaida barqaror o'zaro bog'liqlik mavjud ekan. U o'z hisob-kitoblari asosida Ouken qonuni deb nomlangan qoidani asoslab berdi.

Ouken qonuni quyidagicha: agar ishsizlikning amaldagi darjasini ishsizlikning tabiiy darajasidan 1 foizga yuqori bo'lsa, joriy Yalmning potensial Yalm ko'satkichdan ortda qolishi 2,5 foizni tashkil qiladi. Boshqacha qilib aytganda, siklik ishsizlikning har bir foizi Yalm bo'yicha 2,5 foiz ortda qolishga sabab bo'ladi. Massalan, berilgan muddat (yil) mobaynida siklik ishsizlik 3 foizni tashkil qilgan bo'lsa, joriy Yalmning potensial Yalm ko'satkichdan ortda qolishi 7,5 foizga tengdir.

2,5 soni Ouken soni, Ouken parametri (ko'satkichi) yoki Ouken koeffitsiyenti deb ataladi. Statistikaning ko'satishicha, bu koeffitsiyent turli mamlakatlarda va turli davrlarda 2 bilan 3 orasida o'zgarib turishi mumkin. Uning qiymati mehnat omilining mahsulotni ishlab chiqarishdagi ahamiyatiga bog'liqidir.

4.4. INFLYATSIYA VA UNI HISOBBLASH USULLARI

Hozirgi zamondagi inflyatsiyasi nafaqat tovarlar va xizmatlarga bo'lgan baholarning muntazam o'sishi natijasida, pulning sotib olish qobiliyatini pasayishi bilan bir q-

torda ishlab chiqarish jarayonidagi nomutanosiblik, pul muomalasi, moliya hamda kredit sohasidagi salbiy omillar bilan tasniflanadi.

Inflyatsiyaning yuzaga chiqishining asosiy sabablari bo'lib iqtisodiyot tarmoqlari, jamg`arma va istemol, talab va taklif, davlat daromadlari va xarajatlari, xo'jaliklarning pul massasi va unga bo'lgan talabi o'rtaisdagi mutanosiblik hamda markaziy bankning kredit ekspansiyasi hisoblanadi. Ushbu ta'kidlab o'tgan omillar o'z mohiyatiga asosan inflyatsiyaga, uning darajasiga turlicha ta'sir etishi mumkin.

Inflyatsiyani keltirib chiqaruvchi asosiy omillar investitsion faollikning oshishi natijasida iqtisodiyotda vujudga keladigan yuqori talab va tartibga solinadigan narxlarning liberalallashtirilishidadir. Bunda davlat korxonalarining isloh qilinishi (sh.j. xususiy lashtirishi) doirasida kapital qo'yilmalar hajmining o'sishi investitsion faollikni rag'batlantiruvchi asosiy omil bo'ladi.

Bugun siz muzqaymoq yeyish uchun o'rtacha 4000 so'm (har bir donasiga) xarajat qilasiz (2021-yil), qizig'i shundaki orangizda 15 yil oldin ham muzqaymoqni sevib yeganlar mavjud va ular aynan shunga o'xshash muzqaymoqqa 15 yil oldin o'rtacha 400 so'm atrofida pul to'lashgan. To'g'ri hozir bu kabi misollar hech kimni hayratlantirmaydi. Zamonaviy iqtisodiyotlarda ko'plab mahsulotlarning narxlari vaqt o'tishi bilan o'sishga moyildir. Ushbu jarayon, ya'ni ma'lum davr mobaynida mamlakatda narxlар o'rtacha (umumiyl) darajasining barqaror o'sishi, pulning xarid qobiliyatini uzoq muddatli pasayishi inflyatsiya deb ataladi.

Inflyatsiya so'zi lotinchadan olingen bo'lib «inflatio – shishish, bo'rtish, taranglashish» degan ma'noni anglatadi. Bu atama ilk bor Shimoliy Amerikada 1861–1865-yillardagi Fuqarolar urushi davrida qo'llanildi. Inflyatsiyaning atamasi muomaladagi qog'oz pul massasining tovarlarning real taklifiga nisbatan haddan ziyod ko'payib ketishi holatini izohlangan. Ammo inflyatsiyaning bunday tavsifi mukammal emas edi va uning sabablarini ochib berolmasdi. Umuman olganda inflyatsiya pul muomalasi qonunlarining buzilishi sabab makroiqtisodiy muvozanatning izdan chiqishi, talab va taklif nomutanosibligini anglatadi.

Inflyatsiya bozor iqtisodiyotini izdan chiqaruvchi asosiy omillardan biridir, uning sur'ati qanchalik yuqori bo'lsa, iqtisodiyotga xavf shunchalik katta bo'ladi. Ayniqsa, bir iqtisodiy tizimdan ikkinchi bir iqtisodiy tizimga o'tayotgan mamlakatlarda inflyatsiyaning iqtisodiyotga ta'siri ancha xavfli. Chunki, bu davrda narxlarning erkinlashuvi va shu sababdan ularning umumiyl darajasi keskin oshib ketish ehtimoli ancha yuqoridir.

Yana bir qiziq hodisa shundaki, inflyatsiya davrida ham barcha tovarlarning narxlari oshib ketavermaydi: ayrimlariniki stabil o'zgarmasdan tursa, ba'zi mahsulotlarning narxi tushib borishi mumkin.

Keynschlar maktabi namoyandalari bunday nomutanosiblikning sababi to'liq bandlik sharoitida talabning ortib ketishida deb bilishadi. Shu sababli ular ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi past bo'lsa budjet taqchilligi va qo'shimcha pul chiqarish yo'li bilan xarid qobiliyatini, boshqacha aytganda, yalpi talabni ko'paytirish inflyatsiyaga olib kelmaydi deb hisoblashishadi.

Neoklassik yondashuv tarafдорлari inflyatsiyaning manbayi ishlab chiqarishning uzluksiz o'sib borishida, ishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishida deb bilishadi.

Bundan bir narsani anglab yetish mumkinki, keynschilar inflyatsiyaga talab tomonidan, neoklassiklar esa taklif tomonidan yondashishgan.

Agar mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar hajmi yalpi talabga nisbatan sekinroq o'ssa, yoki yalpi talab ko'paygani holda o'zgarmasdan tursa, bu nomutanosiblik narxlar darajasining ko'tarilishi orqali bartaraf etiladi. Natijada pul birligining xarid qobiliyati pasayadi va milliy iqtisodiyotning qo'shimcha pul massasiga ehtiyoji paydo bo'ladi.

Inflyatsiya nafaqat pul muomalasining izdan chiqishi, balki butun takror ishlab chiqarish mexanizmining kasalligi, makroiqtisodiy buzilishlar natjasidir.

Narxlarning o'sishida, xarid qibiliyatining pasayishidan tashqari inflyatsiya namoyon bo'lishining quyidagi uch belgisi ham bor. Bular:

- 1) valuta kurslarining o'zgarishi;
- 2) kredit berish shartlarining qimmatlashuvi va muddatlarining qisqarishi;
- 3) kundalik ehtiyoj mollaridan iborat iste'mol savati narxining o'sishi.

Inflyatsiyaning 2 turi mavjud bo'lib, ular talab inflyatsiyasi va taklif inflyatsiyasidir. Quyida esa biz har ikkalasiga alohida to'xtalib o'tamiz.

Talab inflyatsiyasi. Talab inflyatsiyasi iqtisodiyotda talab keskin oshib ketishi va uni ishlab chiqarishning real hajmi bilan qondirish mumkin bo'lmay qolgan sharoitlarda kelib chiqadi. Ya'ni, to'liq bandlilikka yaqin sharoitda iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sib borayotgan yalpi talabni qondirolmaydi. Ortiqcha talab esa real tovarlar bahosining ko'payishiga iqtisodiy bosim beradi va talab inflyatsiyasi kelib chiqadi.

Talab inflyatsiyasini keltirib chiqaruvchi asosiy sabablar aholining ish bilan to'liq bandligi va ish haqining oshib borishi hisoblanadi. Demak, inflyatsiya talab, taklif, ish bilan bandlik, baho, ishlab chiqarish sur'atlari kabi ko'pgina omillarga bog'liq.

Iqtisod pasayish holatida bo'lganda mamlakatda jami talab oshsa, ishlab chiqarish hajmi ko'payadi, ishsizlik kamayadi, baho darajasi esa deyarli o'zgarmaydi yoki kam miqdorda o'zgaradi. Baho o'zgarmasligining sababi shundaki katta hajm-dagi bo'sh turgan mehnat va xomashyo resurlarini shu o'zgarmas bahoda ishga tushirish mumkin bo'ladi.

Chunki, ishsiz yurgan kishi ish haqini oshirishni talab qilmaydi, uning uchun ishga yollanishning o'zi kifoya hamda qo'shimcha stanok sotib olishga hojat yo'q. Bundan tashqari, baho ishchi kuchini to'la ish bilan bandligiga erishishdan oldin ham oshishi mumkin. Ya'ni, ba'zi sanoat korxonalarida bo'sh turgan resurs va zaxiralarni ishlab chiqarishga ertaroq to'liq jalb qilinadi, natijada ular talabning o'sishiga mos ishlab chiqarishga, taklifga erisha olmaydi. Talab taklifdan ko'payib ketadi, natijada baho yana osha boshlaydi.

Taklif inflyatsiyasi bu, mamlakat iqtisodiyotida tovar va xizmatlar taklifining kamayishi natijasida tovar va xizmatlar baholarining oshishidan paydo bo'ladi. Bunday hollarda ortiqcha talab bo'lmasa ham tovarlarning baholari oshib boradi. Hatto ish bilan bandlik va YalM ishlab chiqarish kamaygan yillari tovarlarning bahosi oshadi.



Jami taklif qisqarishining asosiy sababi mahsulot birligiga sarflangan xara-jatlarning o'sishi hisoblanadi. Bunda nominal ish haqi, xomashyo va yoqilg'i narx-larining oshishi natijasida ishlab chiqarish tannarxi ham oshadi.

Taklif inflyatsiyasining kelib chiqishiga, shuningdek, taklif mexanizmining buzilishi ham ta'sir qiladi. Taklif mexanizmi esa tasodifiy holda asosiy ishlab chiqarish omillari bahosining keskin ko'payishidan kelib chiqadi. Iqtisodchi olimlarning fikriga ko'ra, taklif inflyatsiyasi o'z-o'zini cheklaydi. Ishlab chiqarishning pasayishi xarajatlarning qo'shimcha o'sishini cheklaydi, chunki ishsizlikning o'sishi nominal ish haqining asta-sekin pasayishiga olib keladi. Talab inflyatsiyasini cheklash uchun esa maxsus chora-tadbirlar ko'rish zarur bo'ladi. Inflyatsiya darajasi yuqori bo'lgan mamlakatlarda ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi qisqarishi bilan bir vaqtida nominal hajmining ortib borishi kabi vaziyat sodir bo'ladi.

Daromadlarni ishlab chiqarish tomonidan ta'minlanmagan o'sishi aholi qo'li-dagi pulning taklif qilinayotgan tovar va xizmatlardan oshiqchalgiga olib keladi. Bunday hol pul birligining xarid quvvatini pasaytiradi, bir miqdordagi pulga joriy yilda o'tgan yildagiga nisbatan aholi kamroq mahsulot sotib oladi, ya'ni uning real daromadi kamayadi.

Misol uchun, joriy yilda aholining nominal daromadlari 30% ga ko'paygan, narxlar darajasi 50% ga oshgan bo'lsa, unda aholining real daromadlari 20% ga kamaygan bo'ladi. Chunki, narxlarning o'sishi aholi pul daromadlarining o'sishidan yuqori bo'lgan.

Bugungi kun iqtisodchilari inflyatsiyaning kelib chiqishining asosiy sababi qilib umumiyligi tovar hajmiga nisbatan umumiyligi pul hajmining nomutanosibligini ko'rsatmoqdalar. Inflyatsiya bog'liq izlanishlarda uning darajasini o'lchash uchun muhim bir dastaklardan biri baholar indeksi deb ko'rsatiladi. Baholar indeksi joriy umumiyligi iste'mol narxlarining bazis davridan narxlarga nisbatan o'sishi (pasayishi) bilan aniqlanadi. Ushbu indeksni aniqlashda mamlakat fuqarolarining iste'mol sa-vatiga kiritilgan mahsulotlar va xizmatlarning chakana narxlaridan foydalanadilar.

Iqtisodiyotda doimiy inflyatsiya jarayonining mavjudligi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslama baholarda hisoblashni zaruratini tug'diradi. Chunki, inflyatsiya iqtisodiyotning real holatini buzib ko'rsatadi. Iqtisodiyotni tahlil qilish, muammolarni aniqlash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishni qiyinlashtiradi. Bu vazifani bajarish uchun joriy baholarda hisoblangan nominal ko'rsatkichlardan emas, balki taqqoslama (bazis) baholarda hisoblangan real ko'rsatkichlardan foydalanish zarur. Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun, quyidagi uch ko'rsatkichni hisoblash zarur. Ulardan birinchisi iqtisodchilar orasida Pasha indeksi deb ataladigan Deflator ko'rsatkichi bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi:

$$\text{Deflator} = \frac{\text{Nominal Yalpi ichki mahsulot}}{\text{Real yalpi ichki mahsulot}} * 100$$

Nominal YalM yakuniy tovarlar va xizmatlar hajmini joriy narxlardagi hisoblangan holati bo'lsa, real YalM bazis narxlardagi hisoblangan holatidir.⁶ Ikkinci ko'satkich – iste'mol narxlari indeksi (INI) yoki hayot kechirish qiymati indeksi deb ham keng qo'llaniladi. Bu ko'satkich ham deflator kabi bozor savati yordamida aniqlanadi.

Ammo, bu yerda bozor savatiga faqat aholining iste'mol budgeti asosini tashkil etuvchi iste'mol mollari va xizmatlar kiritiladi, holbuki, deflatorni hisoblanayotganda bozor savatining katta qismini ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan tovarlar tashkil etadi. Iste'mol narxlari indeksi joriy yilda bazis yilga qaraganda qayd etilgan iste'mol buyumlari va xizmatlar turkumining qiymatini qanday o'zgarayotganini aks ettiradi.

Boshqacha aytganda, bu indeks yordamida har bir kishining, oilaning va barcha aholining hayot kechirish qiymati yoki turmush darajasi qanday o'zgarayotganini aniqlash mumkin. Uni topish uchun esa quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$\text{INI} = \frac{\sum Q^i_0 P^i_1}{\sum Q^i_0 P^i_0}$$

Bu yerda:

Q_{i0} – bazis yilda iste'mol savatiga kiritilgan i – tovar va xizmatlar hajmi;

P_{i1} – i – tovarning joriy yildagi bahosi;

P_{i0} – i – tovarning bazis yildagi hajmi.

Iste'mol narxlari indeksi ko'satkichining kamchiligi shundaki iste'mol savati tarkibi o'zgarmas bo'lganligi tufayli aholi iste'moli tarkibida tovarlar va xizmatlar ulushining o'zgarganligini, shuningdek tovarlar va xizmatlar sifatida ro'y bergen o'zgarishlarni hisobga olish imkonini bermaydi. Shu sababli bu indeks baholar darajasini biroz oshirib ko'satadi.

YalM deflatori esa tarkibga joriy yilda kiritilmay qolgan tovarlar baholarining oshishini hisobga olish imkonini bermasligi tufayli baholar darajasini biroz pasaytirib ko'satadi. Shu sababli bu ikki indeksning o'rtacha darajasini xarakterlovchi Fisher indeksi hisoblanadi:

$$Fisher = \sqrt{\text{Deflator} * INI}$$

Sanoat ishlab chiqaruvchilar baho indeksi iste'mol narxlari indeksi singari hisoblanadi. Lekin tarkibga sanoat mahsulotlarigina kiritilib ular ulgurji baholarda hisoblanadi.

⁶ 18 N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 24

4.5. INFLYATSIYA VA ISHSIZLIK O'RTASIDAGI BOG'LQLIK. FILLIPS EGRI CHIZIG'I, DAVLATNING AKSIL INFLYATSIYA SIYOSATI

«Ehtimol, eng muhim makroiqtisodiy bog'lqlik, bu «Fillips egri chizig'i» orqali ochib berilgandir.»

Iqtisodchi George Akerlof (2001-yil Nobel mukofotini qabul qilish jarayonidagi nutqidan)

Iqtisodiyot o'z rivojlanishida potensial darajaga yaqinlashgan sharoitda yoki bandililik darajasini oshirish yoxud inflyatsiya darajasini pasaytirish kabi muqobil variantlardan birini tanlashga majbur bo'linadi. Chunki qisqa muddatli davrda ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasida teskari bog'lqlik mavjud. Ishsizlikni pasaytirish ish joylarini yaratish uchun qoshimcha mablag'lar ajratilishini anglatadi.


Ayni paytda bu ish haqi miqdorining oshishiga ham olib keladi. Har ikkala holat ham baholar darajasining ko'tarilishiga olib keladi, ya'ni talab inflyatsiyasi ro'y beradi.

1958-yilda Buyuk Britaniyaning *Economica* jurnalida iqtisodchi A.V.Fillipsning «1861–1957-yillar oralig'ida Birlashgan qirollikdagi Ishsizlik va ish haqining o'zgarish darjasini o'rtasidagi munosabatlari» deb nomlangan maqolasi e'lon qilindi va tez fursatda ko'plab muhokama maydonlarining asosiy mavzusiga aylanib ulgirdi. Unda Fillips ishsizlik darjasini va inflyatsiya darjasini o'rtasidagi salbiy bog'lqlikni ko'rsatib bergandi. Ya'ni, uning kuzatishlari shundan iborat ediki, ishsizlik past bo'lgan yillarda yuqori inflyatsiya, ishsizlik yuqori bo'lgan yillarda esa past inflyatsiya kuzatiladi. Shu orqali Fillips ikkita muhim makroiqtisodiy o'zgaruvchilar – inflyatsiya va ishsizlik o'zaro bog'liq degan xulosani o'rtaga tashladi.

Fillipsning kashfiyoti Buyuk Britaniyadagi ma'lumotlarga asoslangan va mamlakatdan tashqarida chop etilmagan bo'lsa-da, tadqiqotchilar tezda ushbu topilmani boshqa mamlakatlarga tarqata boshladilar. Fillips o'z maqolasini e'lon qilganidan ikki yil o'tgach, iqtisodchilar Pol Samuelson va Robert Solou «Amerika Iqtisodiy Tadqiqoti» jurnalida «Inflyatsiyaga qarshi siyosatni tahlil qilish» nomli maqola chop etishdi, ushbu maqolda bu ikki olim Amerika Qo'shma Shtatlarining yillik statistik ma'lumotlaridan foydalanib inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi salbiy bog'lqlikni ko'rsatib berdilar.

Ularning fikricha, bu korrelyatsiyada past darajadagi ishsizlik yuqori talab bilan bog'liq bo'lib, bu o'z navbatida butun iqtisodiyotda ish haqi va narxlarga yuqori bosim o'tkazadi. Eng qizig'i, Samuelson va Solou inflyatsiya va ishsizlik o'rtasidagi salbiy aloqani Fillips egri chizig'i deb atashadi.

Fillips egri chizig'i ishsizlik va inflyatsiya darajalari o'rtasidagi teskari bog'lig'likni xarakterlaydi. Mamlakat iqtisodiyotining xususiyatiga ko'ra, shuningdek, inflyatsianing qaysi turi mavjudligiga qarab, Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishi mumkin.



4.5.1-chizma. Fillips egri chizig'i

Bunday tanlov kutilayotgan inflyatsiyaning sur'atiga bog'liq. Kutilayotgan inflyatsiya darajasi qanchalik yuqori bo'lsa ishsizlikning har qanday darajasida (sur'ati past bo'lgan inflyatsiya darajasiga nisbatan) haqiqiy inflyatsiya darajasi yuqori bo'ladi.

Ishsizlik darajasi va inflyatsiya sur'atining maqbul miqdorlari quyidagi formula ko'rinishida tasvirlanishi mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} + f \frac{Y_h - Y_p}{Y_p} + \varepsilon$$

Bu yerda, π – inflyatsiyaning haqiqiy darajasi; π_{kut} – kutilayotgan darajasi; f – Fillips egri chizig'inining og'ish burchagini belgilovchi empirik koeffitsiyent; ε – tashqi baho shoki (taklif inflyatsiyasi).

Ouken qonuniga ko'r'a YalMning uzilishi, ya'ni $(Y_h - Y_p) / Y_p$ miqdor davriy ishsizlikning o'zgarishiga bog'liqligi sababli qisqa muddatli Fillips egri chizig'ini tenglamasini quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\pi = \pi_{kut} - \beta [u - u_*] + \varepsilon$$

Keltirilgan tenglamadan ko'rinib turibdiki, haqiqiy inflyatsiya darajasi miqdori kutilayotgan inflyatsiya darajasiga hamda tashqi baho shoklari darajasi bilan to'g'ri bog'liqlikka, davriy ishsizlik darajasi bilan esa teskari bog'likka ega ekan.

Hukumat Fillips egri chizig'iga asoslanib, qisqa davr uchun, iqtisodiy siyosat maqsadlaridan kelib chiqib ishsizlik va inflyatsiya darajalarining istalgan kombinatsiyasini tanlashi mumkin.

Inflyatsiya ayniqsa o'tish bosqichida turgan iqtisodiyotga juda og'ir ta'sir ko'rsatadi. Buning sababi bozor iqtisodiyoti yo'lida g'oyat muhim qadam bo'lgan narx-navoni erkinlashtirish, ya'ni narxlar ustidan davlat nazoratini bekor qilish bilan bog'langan.

Aksilinflyatsiya yoki inflyatsiyaga qarshi siyosat – bu narxlar umumiylar darajasini barqaror darajada saqlash, inflyatsiyani yumshatishga qaratilgan hukumat amaliga oshiradigan chora-tadbirlaridir.

Bunday narxlarni erkinlashtirishning qanday natijalarga olib kelishini oldindan oq aytilib berish mumkin: hamisha taqchil bo'lib kelgan tovarlarning narxlarini oshib ketadi. Chunki davlat ushbu tovarlarning narxlarini sun'iy ravishda past qilib belgilab kelgan va talab hamisha taklifdan oldinda yurgan yoki hukumat qarorlari keltirib chiqargan iqtisodiy buzilishlar hamda samarasizlik tufayli shu hol vujudga keladi. Agar o'tish davriga kelganda odamlar qo'lida ko'p miqdorda pul to'planiib qolgan bo'lsa (chunki ularni biron-bir qimmatli narsaga sarflashning imkonini bo'lmagan), inflyatsiya yuki yana ham og'irroq bo'lishi mumkin.

Bunday chora-tadbirlar inflatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga yoki inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan bo'lishi mumkin. Agar bunday chora-tadbirlar inflyatsiyani yuzaga keltirgan sabablarni tugatishga qaratilgan bo'lsa bunday siyosat aktiv yoki faol deb, aksincha inflyatsiya sharoitlariga moslashishga qaratilgan bo'lsa passiv ko'rinishda deb talqin qilinadi. Inflyatsiyaga qarshi siyosat yalpi talab va yalpi taklifni tartibga solishni qamrab oladi hamda bu siyosatni amalga oshirishning kopdan-ko'p usullari va yo'llari mavjud. Ular orasida umumiy xarakterga ega bo'lganlari quyidagilar:

- tovarlar va xizmatlar hajmini aholi daromadlariga muvofiqlashtirish;
- barcha ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish, hamda xarajatlarni qisqartirish;
- ish haqiga nisbatan mehnat unumdarligining ildamroq o'sishni ta'minlash;
- ko'plab talab qilinadigan tovarlar va xizmatlarning hajmi o'sishiga muvofiq pul emissiyasini qat'i nazorat qilish;
- tovar va xizmatlarni ishlab chiqaruvchilar hamda iste'molchilar orasidagi vositachilar sonini kamaytirish;
- kredit berishni tartibga solish, kredit uchun foiz stavkalarini puxta yo'liga solib turish;
- davlat budgetining daromadlari va xarajatlari muvozanatini ta'minlash.

Keyns va uning nazariyasini davom ettirgan iqtisodchilar yalpi talab va yalpi taklifni tartibga solishda davlatning faol aralashuvি tarafdarlari bo'lib, ular davlat ustun ravishda tovar va xizmatlar miqdorini buyurtmalar yo'li bilan oshirishi hisobiga yalpi taklif darajasini ko'tarish mumkin va bu samarali talabni shakllantirishga

asos bo'ladi deb hisoblashadi. Hukumatning bu tadbirlari iqtisodiy pasayishni qisqartiradi va ishsizlikni kamaytiradi. Biroq shu bilan birga davlat budjeti taqchilligini yuzaga keltiradi va qo'shimcha pul emissiyasiga ehtiyoj tug'diradi. Keyns davlat budjeti taqchilligini davlat tomonidan olinadigan uzoq muddatli qarzlar hisobiga qoplashni taklif etgan. Inflyatsiyaga qarshi siyosatni olib borishda.

Keyns va uning nazariyasini davom ettirgan iqtisodchilar tomonidan berilgan takliflar doimo samara beravermagach hamda bu chora-tadbirlarda kamchiliklar mavjudligi yuzaga chiqib qolgach, bu masalani hal etishning monetaristik yo'nalishi yuzaga keldi.

Xususan, bunday kamchiliklarga bir qator mamlakatlarda davlat qarzi haddan oshib ketganligini misol qilib keltirish mumkin. Bunday sharoitda monetaristlar yalpi talabni konfiskatsiya tipidagi pul islohoti o'tkazish hisobiga cheklash va budjet taqchilligini ijtimoiy dasturlarni qisqartirish kamaytirishni taklif etishdi. Monetaristlar inflyatsiya aynan pul bilan bog'liq hodisa bo'lganligi sababli shok terapiysi pul massasining o'sish sur'atlarini keskin qisqartiradi va inflyatsiya sur'atlarini tushiradi deb hisoblashadi. Ammo bunda ishlab chiqarish keskin pasayishi va bandlilik qisqarishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

- 1** > Inflyatsiya atamasi ilk bor qayerda qo'llanilgan?
- 2** > Neoklassik yondashuv tarafдорлари inflyatsiyaning asosiy manbasi sifatida nimani ko'rsatishgan?
- 3** > Baholar indeksini yoki inflyatsiya darajasini hisoblash uchun, aynan qaysi ko'rsatkichlarni hisoblab chiqish zarur?
- 4** > Fillips egri chizig'i modelini fanga kimlar tomonidan olib kirilgan?
- 5** > Infl atsiyaga qarshi siyosat aynan qaysi ikki richak orqali amalga oshiriladi?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1** > Fillips egri chizig'idagi inflyatsiya va ishsizlik darajalarining kombinatsiyasi farq qilishini tur xil mamlakatlar misolida tushuntirib bering.
- 2** > O'zbekistonda olib borilayotgan aksilinfl atsiyaviy siyosat doirasidagi ishlarni sanab o'ting.

Masalalar

1> Aholi soni 27 mln. kishi, 14 mln. kishi–16 yoshgacha bo'lgan bolalar va maxsus davlat muassasalarida bo'lgan shaxslar; 1 mln. kishi-ishchi kuchi tarkibidan chiqib ketdi. 2 mln. 400 ming kishi ishsizlar; 0.1 mln. kishi to'liqsiz ish kuni bandlar va ish qidirayotgan. Ushbu ma'lumotlar asosida ishchi kuchi sonini va ishsizlik darajasini aniqlang.

2> Iqtisodiyotda Fillips egri chizig'ining tenglamasi quyidagicha: $\pi = \pi_e - 0,5(u - u^*)$. Ishsizlikning tabiiy darajasi – 5,4%, kutilayotgan inflyatsiya darajasi – 4%. Haqiqiy ishsizlik darajasi esa 3,6%. Inflyatsianing haqiqiy darajasini aniqlang.

2012-yilda iste'mol narxlar indeksi (INI) 301ga, 2013-yilda esa – 311ga teng bo'lgan. 2011-yil asos qilib olingan yil deb hisoblanadi. 2013-yilda 2012-yilga nisbatan hamda asos qilib olingan yilga nisbatan inflyatsiya darajasini aniqlang.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Aksilinflyatsiya yoki inflyatsiyaga qarshi siyosat – bu narxlar umumiylar darajasini barqaror darajada saqlash, inflyatsiyani yumshatishga qaratilgan hukumat amalga oshiradigan chora-tadbirlaridir.

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Filips egri chizig'i – ishsizlik darajasi va narxlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtaсидаги bog'liqlikni aks ettiruvchi egri chiziq. Bu ikki ko'rsatkich o'rtaсидаги bog'liqlik ingliz iqtisodchisi A.Y. Filips tomonidan Buyuk Britaniyaning 1862-1957-yillardagi ma'lumotlari asosida tadqiq etilgan. Unda inflyatsianing sur'ati past bo'lsa, ishsizlikning darajasi yuqori bo'ladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtaсида barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqlikni o'rnatish, milliy iqtisodni tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

Foiz stavkasining real darajasi – inflyatsiya darajasiga to'g'rilangan pulda ifodalangan foiz stavkasini inflyatsiya darajasiga muvofiqlashtirish. Masalan, qarz beruvchi (kreditor) bergen puli miqdoriga 5% stavkasini belgilashi mumkin, ammo kutilayotgan inflyatsiya darajasi yiliga 10% ga teng bo'lsa, unda foiz stavkasining real darajasi 15% ni tashkil etadi.

Inflyatsiya (lot. shishish, ko'pchish, ko'tarilish) – mamlakatda muomalada yurgan qog'oz pul miqdorining xo'jalik muomalasi ehtiyojlaridan ortiq darajada oshib ketishi. Pulning qadrsizlanishi. Inflyatsiya quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Biror omil tufayli kelib chiqqan inflyatsiya. 2. Kredit inflyatsiyasi – kredit ajratishning haddan ortiq kengayishi tufayli kelib chiqadi. 3. Sudraluvchan inflyatsiya – sekinlik bilan rivojlanib boradi. 4. Sakrovchan inflyatsiya – tez sur'atda rivojlanib boradi. 5. Ma'muriy inflyatsiya – narx-navoni ma'muriy tarzda boshqarish oqibatida yuzaga keladi. 6. Ijtimoiy inflyatsiya – mahsulot sifatiga, atrof-muhit muhofazasiga bo'lgan yangi ijtimoiy talablarning paydo bo'lishi oqibatidagi chiqimlarning o'sishi ta'sirida

narx-navoning o'sishini yuzaga keltiradi. Bunday holat xo'jalik yuritish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish davrida, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan hollarda qo'shimcha pul chop etish natijasida yuzaga keladi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Inflyatsiya sur'ati – narxlar o'rtacha ko'rsatkichining o'sish sur'ati quyidagi $i = (R_1 - R_0)/R_0$ formula bilan hisoblanadi. Bu yerda i -0 momentdan 1 momentgacha bo'lgan davr ichidagi inflyatsiya sur'ati; R_0 – 0 momentdagi o'rtacha narx, R_1 – 1 momentdagi o'rtacha narx.

Iqtisodiy davr – ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishiga aytildi.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali – barcha mavjud resurslardan to'liq foydalangan holda, ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmi.

Ishchi kuchi – insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisi va mehnatga layoqati bo'lib, har qanday jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Mamlakat aholisining jismoniy va mehnatga layoqatli qismi uning ishchi kuchi hisoblanadi.

Ishchi kuchi bozori – ish kuchining egasi va ish beruvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi.

Ishsizlar – ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lмаган, lekin ishlashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik – sog'lig'i yoki yoshi jihatidan ishga layoqatli kishining ish o'rnni yo'qotib, bo'sh bo'lib qolishi. Ishsizlik uch xil ko'rinishda uchraydi: 1. Ixtiyoriy ishsizlik (boshqa hududga ko'chish, o'qishga kirish, bolani parvarish qilish kabi sabablarga ko'ra ishdan bo'shashi natijasida yuzaga keladi). 2. Tarkibiy ishsizlik (ayrim kasblar, ish turlariga bo'lgan talabning susayishi natijasida yuzaga keladi). 3. Davriy ishsizlik (ayrim hududlar va tarmoqlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi natijasida yuzaga keladi).

Ishsizlik darajasi – ishsizlik sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati. 16 va undan yuqori yoshdagilar, lekin ishga ega bo'lмаганlar, faol ish qidirayotganlar, ishni boshlashga tayyor turganlar ishsizlar deb ataladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi – real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyatsiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YaMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

Ouken qonuni – iqtisodiy faoliy va ishsizlik o'rtasida miqdoriy bog'liqlikni aks ettiradi. Agarda aslidagi ishsizlik darajasi uning tabiiy darajasidan 1% oshsa, unda YaMM orqada qolishi 2,5% ni tashkil etadi. Massalan, ishsizlikning tabiiy darajasi 6% sharoitida ishsizlik darajasi 9,5%. Unda $9,5 - 6,0 = 3,5\%$; $3,5 \times 2,5 = 8,75\%$. Ishsizlikning ko'payishi natijasida YaMMning orqada qolishi 8,75% ni tashkil etadi yoki ishsizlik tabiiy darajadan past bo'lмаганда, YaMM aslidagiga nisbatan 8,75% ko'p bo'lar edi. Shu qonunga muvofiq YaMM hajmining har yili 2,7% ga ortishi ishsizlikni doimiy darajada ushlab turishga imkon beradi. YaMMning 2% ortishi ishsizlar sonini 1% ga kamaytiradi.



V BOB

**YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF MODELI,
ISTE'MOL, JAMG'ARISH, INVESTITSIYA,
YALPI TALAB VA YALPI TAKLIF MODELI**

- ▶ 5.1. YALPI TALAB VA UNGA TASIR ETUVCHI OMILLAR
- ▶ 5.2. YALPI TAKLIF: KLOSSIK VA KEYNSIAN MODELLARI
- ▶ 5.3. ISTE'MOL VA JAMG'ARISH, ULARNING GRAFIKLARI
VA FUNKSIYALARI
- ▶ 5.4. INVESTITSIYALAR DINAMIKASINI BELGILOVCHI FOIZ
STAVKASIDAN BOSHQA OMILLAR. AKSELERATOR MODELI

5.1. YALPI TALAB VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Resurslar, daromadlar va tayyor mahsulotlar bilan ayrboshlashning barcha jarayonlari uzlusiz, bir tekis kechayotgan bo'lsa, unda iqtisodiy tizim barqaror va muvozanatli deb tushuniladi. Ammo, har qanday iqtisodiy tizimning bunday holati xayoliydir. Amalda u yoki bu resurslarning, tovar hamda daromadning ortiqchaligi yoki yetishmasligi doimo uchrab turadi. Iqtisodiyotda umumiyligi muvozanatning shu kabi buzilish hollari inflyatsiya va ishsizlik darajasining, yalpi ichki mahsulot va milliy daromadning o'sish sur'atlarini o'zgarishida namoyon bo'ladi.

Sanab o'tilgan hodisalar va jarayonlar ijtimoiy ishlab chiqarishning barcha qatnashuvchilari yoki tizimning barcha iqtisodiy agentlarning faoliyatları natijasida paydo bo'ladi va milliy iqtisodiyotni yaxlit ifodalaydi, ya'ni ular keng qamrovli xususiyatga ega. Shuning uchun ularni makroiqtisodiy jarayonlar va hodisalar deb ataladi.

Bugungi kunga kelib ko'pchilik mamlakatlarda davlatning iqtisodiyotdagagi roli sezilarli darajada katta ekanligini hisobga olsak, davlatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasini belgilash, bozor mexanizmlariga putur yetkazmagan holda iqtisodiyotni tartibga solishi muhim ekanligiga iqror bo'lamiz. Davlat makroiqtisodiyotning boshqa subyektlari xatti-harakatini belgilovchi omillarni hisobga olgan holda, barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlash maqsadida, o'z tasarrufida mavjud bo'lgan vositalar orqali ularni yo'naltirib turadi. Bu vositalar esa fiskal (budget-soliq) va monetar (pul-kredit) siyosatdir.

Makroiqtisodiy barqarorlik va yalpi ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash orqali aholining turmush farovonligi darajasini o'stirish davlat iqtisodiy siyosatida bosh maqsad bo'lib hisoblanadi.

Har qanday bozorda vaziyat talab va taklif o'rtasidagi nisbatga bog'liq bo'lib, ular hajmlarining o'zgarishi baholarning o'zgarishini keltirib chiqaradi. Baholarning o'zgarishi esa talab va taklif hajmlariga ta'sir ko'rsatadi. Bunday o'zaro bog'liqlik umumlashtirilgan holda ko'rib chiqiladigan milliy bozorga ham taalluqlidir.

Alovida tovarlar va xizmatlar bozoridagi bunday bog'liqlik talab va taklif modeli yordamida tadqiq qilinishini yaxshi bilamiz. Ammo makroko'lamma milliy ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi bilan birga baholar umumiyligi darajasining o'zgarishi o'rtasida bog'liqlikni tadqiq qilish, nima uchun milliy ishlab chiqarish hajmi ayrim davrlarda barqaror o'sishi, ba'zi davrlarda esa pasayib ketishni izohlab berish uchun bu modellardan foydalanib bo'lmaydi.

Bu vazifani bajarish uchun yalpi talab yalpi taklif (AD-AS aggregate demand-aggregate supply) modelidan foydalanamiz.

Bu modelda yalpi taklif, baholarning umumiyligi darjasasi kabi agregat ko'rsatkichlaridan foydalilaniladi.

Makroiqtisodiyotda AD-AS modeli ishlab chiqarish hajmlari va baholar darajalarining tebranishlarini hamda ular o'zgarishining oqibatlarini o'rganish uchun

bazaviy model bo'lib hisoblanadi. AD-AS modeli yordamida davlat iqtisodiy siyosatining turli variantlari tasvirlab berilishi mumkin.


Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridorlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiylajmiga bo'lgan talabidir.

Yoki boshqacha qilib aytganda yalpi talab iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilingan umumiylajm xarajatlar yig'indisidir. Formula ko'rinishida yalpi talabni quyidagicha tasvirlash mumkin:

$$\mathbf{AD = C + I + G + X_n}$$

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlikni ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi. Buni chizma ko'rinishida tasvirlash mumkin (1-rasm).

5.1.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, yalpi talab egri chizig'i doimo pastga va o'ngga suriladi.



5.1.1-rasm. Yalpi talab egri chizig'i

Bunday surilishning sababi har xil. Ma'lumki, alohida olingen tovarlar bozorida talab egri chizig'ining surilishiga asosan daromad samarasini va o'rinnbosar tovarlar sabab bo'ladi. Ayrim tovarlarning bahosi pasayganda, iste'molchilarining pul daromadlari ko'proq mahsulot sotib olish imkonini beradi (daromad samarasini). Shuningdek, baho pasayganda iste'molchi ushbu tovarni ko'proq boshqa sotib oladi, chunki u boshqa tovarlarga nisbatan arzonroq bo'ladi (o'rnini bosadigan tovarlar).

Milliy bozorda AD-egri chizig'ining traektoriyasini, ya'ni uning quyiga egilganimini, avvalo pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yordamida izohlash mumkin:

$$\mathbf{M V=Y P}$$

Bu yerda: M – muomaladagi pul miqdori; V – pulning aylanish tezligi;

P – iqtisodiyotdagi baholar darajasi (baholar indeksi); Y – talab qilinayotgan real ishlab chiqarish hajmi.

Bu tenglamadan:

$$\mathbf{P = M V / Y} \text{ va } \mathbf{Y= M V / P}$$

tenglamalarni keltirib chiqaramiz. Bu tenglamalardan ko'rinadiki, baholar darajasi qancha oshsa, real Yalm hajmiga talab shuncha past bo'ladi, ya'ni pul massasi (M) va uning aylanish tezligi (V) o'zgarmas bolsa baholar darajasi va yalpi talab o'rtaida teskari bog'liqlik mavjud bo'ladi.

Milliy iqtisodiyotda yalpi ichki mahsulotning asosiy qismi bo'lgan yangidan vujudga keltirilgan mahsulot, ya'ni sotilgandan keyingi uning puldag'i ko'rinishi – milliy daromaddan iste'mol va jamg'arish maqsadlarida foydalaniladi.

Keng ma'noda iste'mol jamiyat a'zolari iqtisodiy ehtiyojlarini qondirish uchun ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlardan foydalanish jarayonini bildiradi. Bunda unumli va shaxsiy iste'mol farqlanadi. Unumli iste'mol bevosita ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish jarayoniga tegishli bo'lib, ishlab chiqarish vositalari va ishchi kuchidan ishlab chiqarish maqsadida foydalanish jarayonini anglatadi.

Baholar darajasi va yalpi talab o'rtaida teskari bog'liqlikni, shuningdek, quyidagi baho omillari bilan izohlanadi:

1. Foiz stavkasi samarasi.
2. Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi.
3. Import xaridlar samarasi.

Foiz stavkasi samarasi shuni bildiradiki, yalpi talabning egri chiziq bo'yicha surilishi narxlar darajasi o'zgarishining foiz stavkasiga bo'lgan ta'siriga bog'liq.

Demak, tovarlarning baho darajalari oshsa, iste'molchilarga xarid qilish uchun katta miqdorda naqd pul kerak bo'ladi. Ishbilarmomonlar uchun ham ish haqi va boshqa xarajatlarni to'lashga katta miqdorda pul zarur bo'ladi. Qisqacha aytganda, tovarlar bahosi darajalarining yuqoriligi pulga bo'lgan talabni oshiradi.

Pul taklifi hajmi o'zgarmagan holatda talabning oshishi foiz stavkasini ko'rsatilishiga olib keladi. Foiz stavkalari yuqori bo'lgan sharoitda ishbilarmonlarning investitsiya tovarlariga bo'lgan talabi pasayadi.

Investitsiya xarajatlari yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli bu yalpi talab hajmining pasayishiga olib keladi.

$$P \uparrow \rightarrow MD \uparrow (MS \text{ const}) \rightarrow R \uparrow \rightarrow I \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Boylik samarasi yoki real kassa qoldiqlari samarasi shuni bildiradiki, narxlar darajasining oshishi, jamg'arilgan moliyaviy aktivlari (omonatlar, obligatsiyalar) real xarid qobiliyatini pasaytirib yuboradi. Bunday sharoitda aholi moliyaviy aktivlarning real qiymatini tiklash uchun joriy daromadidan iste'mol xarajatlar miqdorini qisqartiradi. Masalan, muayyan shaxs aktivida 10 mln. so'm bo'lsa, undan hech ikkilansmasdan birorta avtomashina sotib olishi, agarda inflayatsiya ta'sirida mashina narxi 12 mln. so'mga ko'tarilsa, u mashina sotib ololmasligi mumkin va yana 2 mln. so'm to'plash uchun joriy davrda olgan ixtiyoridagi daromadidan ko'proq qismini jamg'aradi.

Iste'mol xarajati yalpi talabning bir qismi bo'lganligi tufayli uning kamayishi ADning pasayishiga olib keladi.

$$\text{Moliyaviy } P \uparrow \rightarrow \text{aktivlarning } \downarrow \rightarrow C \downarrow (S \uparrow) \rightarrow AD \downarrow \text{ real qiymati}$$



Import xaridlar samarasi shuni bildiradiki, biror mamlakatda tovar va xizmatlarning ichki narxlari tashqi narxlarga nisbatan oshib borsa, shu mamlakatda ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlarga talab kamayadi va o‘z navbatida shu mamlakatda import mahsulotlarga bo‘lgan talab oshadi. Va, aksincha, ichki narxlarning pasayishi importning kamayishiga va eksportning oshishiga yoki YALMga talab oshishiga olib keladi. Bu esa sof eksport hajmi orqali yalpi talab hajmiga ta’sir ko’rsatadi.

$$P \uparrow \rightarrow X \downarrow (M \uparrow) \rightarrow X_n \downarrow \rightarrow AD \downarrow$$

Yuqorida ko’rib o’tilgan omillar yalpi talabning baho omillari deb ataladi. Bundan tashqari yalpi talabning bahoga bog’liq bo’lmagan omillari ham mavjud. Bu omillardagi o’zgarishlar yalpi talabning miqdorida o‘z aksini topadi va uning egri chizig’ini chapga yoki o‘ngga siljitadi. Yalpi talabning bahoga bog’liq bo’lmagan omillariga quyidagilarni kiritamiz:

1. Iste’mol xarajatlaridagi o’zgarishlar:

- a) iste’molchilarning real moddiy aktivlari miqdorining o’zgarishi;
- b) iste’molchilar kutishi;
- d) iste’molchilarning qarzlarini miqdorining o’zgarishi;
- e) iste’molchilar daromadlaridan olinadigan soliqlar miqdorining o’zgarishi.

2. Investitsiya xarajatlaridagi o’zgarishlar:

- a) foiz stavkasidagi o’zgarishlar; b) investitsiyalardan kutilayotgan foyda normasining o’zgarishi; d) korxonalardan olinadigan soliqlar miqdorining o’zgarishi; e) yangi texnologiyalarning ishlab chiqarishga jalb qilinishi; f) zaxiradagi quvvatlar o’zgarishi.

3. Davlat xarajatlarining o’zgarishi. Masalan, harbiy xarajatlar va yangi kasalxona va boshqa muassasalar qurishga qaror qilinganda.

4. Sof eksport hajmidagi o’zgarishlar.

- a) boshqa mamlakatlar milliy daromadlarining o’zgarishi.
- b) valuta kurslaridagi o’zgarishlar.

Pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi yuqoridagilardan tashqari yalpi talabning narxlarga bog’liq bo’lmagan yana ikki omilini beradi. Bular: pul taklifi (M) va pulning aylanish tezligi (V) dir.

Yalpi talabning bahoga bog’liq bo’lmagan omillari ta’sirida AD egri chizig’i o‘ngga yoki chapga siljiydi. Natijada ma’lum baho darajasiga mos keluvchi talab qilinayotgan yalpi ichki mahsulot hajmi o’zgaradi.

Pul taklifining, pulning aylanish tezligining oshishi, boshqa davlatlar milliy daromadining oshishi, milliy valuta kursining ma’lum miqdorda pasayishi (bular eksportning ortishi, importning pasayishiga olib kelishi tufayli) oqibatida sof eksportning pasayishi va yalpi xarajatlar turli komponentlarining oshishi AD egri chizig’ining o‘ngga siljishiga olib keladi. Bunga aksincha bo‘lgan holatlarda AD egri chizig’i chapga siljiydi.

5.2. YALPI TAKLIF: KLASSIK VA KEYNSIAN MODELLARI


Yalpi taklif deganda muayyan baholar darajasida ishlab chiqarilishi va taklif qilinishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlarning real hajmi tushuniladi. Yalpi taklif tushunchasi ko'pincha yalpi ichki mahsulot sinonimi sifatida qo'llaniladi. Baholarning yuqori darjasasi ishlab chiqaruvchilarga qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarishga rag'bat yaratadi va aksincha past baholar mahsulot ishlab chiqarish hajmini qisqarishga olib keladi. Shuning uchun ham milliy ishlab chiqarish hajmi bilan baholar darjasasi o'rtaida to'g'ri aloqa mavjud.

Demak, mahsulot ishlab chiqarish hajmi baholar o'sib borishi bilan o'sib, pasayishi bilan tushib boradi. Yalpi taklif (AS) egri chizig'i alohida tovar taklifi egri chizig'idan farq qilib uch qismidan, gorizontal yoki keyns kesmasi, ko'tarilib boruvchi yoki oraliq kesma hamda vertikal yoki klassik kesmadan iborat (5.2.1- rasm). Bunday holat yalpi taklifni tahlil qilishga klassik va keynschilarga xos yondashuv bilan izohlanadi. Iqtisodiy adabiyotlarda ko'pincha oraliq kesma ham keyns kesmasiga kiritib yuboriladi.

Yalpi taklifning keyns kesmasida milliy ishlab chiqarishning haqiqiy hajmi uning potensial hajmidan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida erishishi mumkin bo'lgan hajmidan kamdir.

Demak, bu kesma iqtisodiyot pasayish bosqichida bo'lgan va katta miqdordagi resurslardan foydalanilmagan sharoitni ko'rsatadi. Foydalanilmayotgan ushbu resurslarni esa baholar darjasiga ta'sir ko'rsatmagan holda ishga tushirish mumkin. Bu kesmada milliy ishlab chiqarish hajmi oshishi baholar darjasasi o'zgarmay qolgan sharoitda ro'y beradi.

Yalpi taklif egri chizig'ining Keyns kesmasida iqtisodiyotni nisbatan qisqa muddatda amal qilishini xarakterlaydi. Bu kesmada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:



5.2.1-chizma. Yalpi taklif egri chizig'i.

· iqtisodiyot ishlab chiqarish omillari to'liq band bo'lмаган sharoitda amal qiladi;

· baholar, nominal ish haqi qayd etilgan, bozor tebranishlaridan juda kam ta'sirlanadi;

· real miqdorlar (ishlab chiqarish, bandlilik, real ish haqi) harakatchan va bozor tebranishlaridan tez ta'sirlanadi.

Vertikal yoki klassik kesmada iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitiga yoki ishsizlikning tabiiy darajasi sharoitiga erishgan vaziyatni ko'ramiz. Iqtisodiyot egri chiziqning bu kesmasida o'zining ishlab chiqarish potensiali darajasida bo'ladi.

Bu shuni bildiradiki, baholarning har qanday oshishi ishlab chiqarish hajmining oshishiga olib kelmaydi. Chunki, iqtisodiyot to'liq quvvatda faoliyat ko'rsatayapti. To'liq bandlik sharoitida ayrim firmalar boshqa firmalarga nisbatan resurslarga yuqoriqoq baholarni taklif etish orqali ishlab chiqarish hajmini oshirishga harakat qiladi. Ammo, bunday holatda ayrim firmalarning resurslar va ishlab chiqarish hajmini oshirishi, boshqalari uchun yo'qotishga olib keladi. Natijada bu mahsulotlar bahosi oshishi mumkin, lekin ishlab chiqarishning real hajmi o'zgarmay qoladi.

Klassik nazariyada yalpi taklifni tahlil qilish quyidagi shartlarga tayanadi:

– ishlab chiqarish hajmi faqatgina ishlab chiqarish omillari hajmiga va texnologiyalarga bog'liq va baholar darajasiga bog'liq emas;

– ishlab chiqarish omillari va texnologiyalarda o'zgarish sekinlik bilan ro'y beradi;

– iqtisodiyot to'liq bandlik sharoitida amal qiladi, ya'ni ishlab chiqarish hajmi potensial darajaga teng;


– baholar va nominal ish haqi o'zgaruvchan, ularning o'zgarishi bozorlarda muvozanatni ta'minlab turadi.

Oraliq kesma – ishlab chiqarish real hajmining o'sishi narxlar darajasining o'sishiga mos ravishda o'sib boradi. Nima uchun? Chunki, iqtisodiyotning pasayish holatidan to'liq bandlikka o'tishi noteks va turli vaziyatlarda ro'y beradi. Masalan, ayrim tarmoqlarda resurslarning yetishmasligiga duch kelinsa, boshqa tarmoqlarda hozircha ortiqcha resurslar mavjud bo'ladi. Shuningdek, ular ishlab chiqarishni kengaytirish uchun yangi asosiy vositalar sotib olish va malakasiz mutaxassislardan foydalanishiga to'g'ri keladi. Bu esa mahsulotlar birligiga ketdigan xarajatlarning oshishiga va natijada baholar darajasining o'sishiga olib keladi.

Ishlab chiqarish hajmi ko'payishi yoki kamayishi bahoga bog'liq bo'lмаган omillar hisobiga ham ro'y berishi, bu omillar esa yalpi taklif egri chizig'ini o'ng yoki chap tomonga siljitishi mumkin. Bahoga bog'liq bo'lмаган omillarnig xususiyati shundaki, ular mahsulot birligiga ketgan xarajatlarga bevosita ta'sir qiladi va shu orqali yalpi taklif egri chizig'ining siljishiga sabab bo'ladi.

Bu omillarga texnologiyalardagi o'zgarishlar, ishlab chiqarish omillari miqdoring o'zgarishi, resurslar baholarining o'zgarishi, firmalarni soliqqa tortishdagи o'zgarishlar va boshqalar kiradi.

AD va AS egri chiziqlarining kesishish nuqtasi ishlab chiqarishning muvozanatlari hajmi va baholarning muvozanatli darajasini belgilaydi. Baholarning muvozanatli darjasini deganda baholarning shunday darjasini tushuniladiki, unda yalpi talab va taklif bir-biriga mos kelishi yoki teng bo'lishi kerak. Modelda makroiqtisodiy muvozanatga erishish mexanizmini dastlab oraliq kesmada ko'rib chiqamiz (5.2.2-rasm).



5.2.2-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining oraliq kesmasidagi muvozanat


Dastlab muvozanat e nuqtasida o'rnatilgan. Baholarning muvozanatli darjasini va yalpi ishlab chiqarish hajmining muvozanatli hajmlari mos ravishda P_e va Y_e lar bilan belgilangan. Nima uchun P_e narxlarning muvozanatli darjasini va Y_e esa yalpi ishlab chiqarishning muvozanatli hajmini bildirishini ko'rsatishimiz uchun baholarning muvozanatli darjasini P_e emas, balki P_1 deb hisoblaymiz.

Baholar darjasini P_1 bo'lgan vaziyatda ishlab chiqaruvchilar yalpi ishlab chiqarish hajmini Y_1 miqdoridan oshirmaydi.

Iste'molchilar baholar darjasini P_1 bo'lganda mahsulotlarni Y_2 darajada sotib olishga tayyor turadi. $AD > AS$ bo'lganligi tufayli iste'molchilar o'rtasidagi raqobat baholar darjasini P_e gacha suradi. Baholar darjasining P_1 dan P_e gacha ko'tarilishi ishlab chiqarish hajmini Y_1 dan Y_e gacha oshirishga va iste'molchilar talabini Y_2 dan Y_e gacha kamayishga olib keladi. Natijada AD va AS egri chiziqlari e nuqtada kesishadi. Demak, aynan P_e baho baholarning muvozanatli darjasini va e muvozanat nuqtasidir.

5.2.3-chizmada yalpi talab egri chizig'i yalpi taklif egri chizig'ini bilan keyns kesmasi kesishadigan vaziyat tasvirlangan. Bunday vaziyatda makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi baholar darjasini bir xil turganda ham o'zgaradi. Buni tushunish uchun avvalo yalpi ishlab chiqarishning muvazanatli hajmini Y_e va muvozanatli baholar darjasini P_e bilan belgilaymiz.

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmi aynan Ye ekanligini isbotlash uchun bu hajmni Y_1 deb hisoblaymiz. U holda $AD < AS$, oqibatida sotilmay qolgan tovarlar va xizmatlar hajmining ortishi ishlab chiqarishni Y_2 darajaga pasaytirilishiga olib keladi.



5.2.3-chizma. Yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasidagi muvozanati

Muvozanatli ishlab chiqarish hajmini Y_2 deb hisoblasak, aksincha, $AS < AD$, oqibatda korxonalarda tovar zaxiralari kamayib ularni ishlab chiqarishni Ye darajaga oshirishga undaydi. Shunday qilib aynan yalpi taklif va yalpi talab egri chiziqlarining kesishish nuqtasigina AD-AS modelda muvozanat nuqtasi deyiladi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, yalpi taklif egri chizig'ining keyns kesmasida yalpi talabning o'zgarishi ishlab chiqarish hajmining oshishi yoki kamayishiga olib keladi, baholar darjasasi esa o'zgarmaydi.


Yalpi talab egri chizig'ini AS egri chizig'ining vertikal kesmasida o'zgarsa bu ishlab chiqarish hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi va faqat baholar darjasasi o'zgaradi, xolos. Ya'ni, bu kesmada talabning oshishi talab infliyatsiyasini keltirib chiqaradi. Yalpi taklifning bu kesmasida talabning har qanday o'zgarishi faqat baholar darjasasi o'zgarishiga olib keladi. Ishlab chiqarish hajmi esa to'liq bandlik sharoitida o'zgarmay qoladi.

Oraliq va vertikal kesmalarda baholar o'sib borishi bilan kuzatilgan yalpi talabning ko'payishi talab infliyatsiyasi mayjudligini ko'rsatadi.

Yalpi taklif o'zgarishining baholarning va ishlab chiqarishning muvozanatli darajalariga ta'sirini ko'rib chiqamiz. Bahodan boshqa omillar ta'sirida yalpi taklifning AS_1 dan AS_2 ga siljishi natijasida ishlab chiqarish hajmi Y_1 dan Y_2 gacha kamayadi, baholar darjasasi esa R_1 dan R_2 gacha ko'tariladi, ya'ni stagflatsiya ro'y beradi.

Boshqa bir vaziyatda, masalan, narxlarga bog'liq bo'lмаган omillardan birortasi o'zgarib, yalpi taklifning o'zgarishiga olib kelsin. Ya'ni, yerning bahosi pasaysa, korxonalardan olinadigan soliqlar kamaysa va natijasida mahsulot birligiga ketgan

surf-xarajatlar qisqarsa, unda yalpi taklif egri chizig'i AS_1 dan AS_3 holatga siljiydi. Bunda narxlar muvozanat darajasi P_1 dan P_3 ga qadar pasayadi va ishlab chiqarishning muvozanatlari hajmi Y_1 dan Y_3 qadar oshadi, ya'ni iqtisodiy o'sish holati ro'y beradi.



5.2.4-chizma. Yalpi taklif o'zgarishining AD-AS modelidagi muvozanatga ta'siri

Yalpi taklif va yalpi talab o'rtasidagi muvozanatning buzilishi makroiqtisodiy beqarorlikni keltirib chiqaradi. Jumladan «jahon moliyaviy inqirozining yuzaga kelishida asosiy sabab – moliyaviy resurslar bilan real ishlab chiqarish hajmi o'rtasidagi mutanosiblikning keskin buzilishi hisoblanishini ta'kidlash lozim. Pul muomalasi qonunlaridan ma'lumki, iqtisodiyot sog'lom va barqaror amal qilishi uchun muomalaga chiqarilayotgan pul massasi bilan tovar va xizmatlar ishlab chiqarish real hajmi o'rtasida muayyan nisbatga amal qilinishi lozim. Biroq, milliy iqtisodiyotlarning baynalmilallahuvi va globallashuv jarayonlari pul muomalasining amal qilishiga ham o'z ta'sirini o'tkazib, dastlab ayrim mamlakatlar, masalan, AQSHda, keyinchalik ko'plab mamlakatlarda mazkur qonunga rioya qilishning zaiflashuviga, keyin esa uni umuman e'tiborga olmaslikka qadar olib keldi»

Natijada muomaladagi pul massasi (yalpi talab) tovarlar va xizmatlar hajmi o'rtasida muvozanat buzildi va moliyaviy inqiroz iqtisodiy inqirozga aylandi.

Shu sababli ham makroiqtisodiy siyosatning asosiy vazifalaridan biri makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlashdan iboratdir. Bunda yalpi talab va yalpi taklifning dinamik muvozanatiga erishish uchun yalpi talabni rag'batlantirishi yoki cheklash siyosati, shuningdek yalpi taklifni rag'batlantirish siyosati qo'llaniladi.

Yalpi talabni rag'batlantirish siyosatining ko'rinishlariga daromadlarni o'stirish, soliqlarni kamaytirish, bank kreditlarini arzonlashtirish, narxlarni cheklash tadbirlari kirsa, yalpi taklifni rag'batlantirish siyosatida investitsiyalarni rag'batlantirish, ishlab chiqaruvchilarga soliq yukini pasaytirish, eksportchilarni qo'llab-quvvatlash va h.k. choralar kiradi.

AD-AS modeli umumiyl makroiqtisodiy muvozanat modeli bo'lib milliy bozorni qisqa va uzoq muddatga tahlil qilish imkonini beradi. AD- AS modeli iqtisodiy tebranishlarni tahlil qilish va baholash uchun asos yaratadi.

Yalpi talab – uy xo'jaliklari, korxonalar, hukumat va chet ellik xaridchlarning baholarning ma'lum darajasida iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan yakuniy tovarlar va xizmatlarning umumiy hajmiga bo'lgan talabidir.

Baholar darajasi va talab qilingan milliy mahsulot hajmi o'rtaqidagi bog'liqliknini ifoda etuvchi chiziq yalpi talab egri chizig'i deb ataladi, AD egri chizig'i traektoriyasini pulning miqdoriy nazariyasi tenglamasi bilan hamda baho omillari bo'lgan foiz stavkasi samarasi, boylik samarasi va import xaridlari samarasi bilan izohlash mumkin. Bahodan boshqa omillar ta'sirida AD egri chizig'i o'ngga yoki chapga siljiydi.

AS egri chizig'i keyns, oraliq va klassik kesmalarni o'z ichiga oladi. Uzoq muddatli davrlarda AS egri chizig'i vertikal, qisqa muddatga esa gorizontal bo'ladi. Shuning uchun AD dagi o'zgarishlar ishlab chiqarish hajmi, bandlik hamda baholar darajasiga bu kesmalarda turlicha ta'sir ko'rsatadi. Yalpi talab va yalpi taklif hajmlari o'zaro mos kelgan, ya'ni AD va AS egri chiziqlari kesishgan nuqta makroiqtisodiy muvozanat nuqtasi, unga mos keluvchi baholar darajasi baholarning muvozanatli darajasi deb aytildi.

AS egri chizig'i ishlab chiqarishga jalb qilingan resurslar hajmi ko'payishi hamda yangi texnologiyalarning kiritilishi hisobiga o'ngga siljiydi. Bu holat iqtisodiy o'sish deb ataladi. AS egri chizig'inining chapga siljishi stagflatsiyadan dalolat beradi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining yuzaga kelish sababini yalpi talab va yalpi taklif o'rtaqidagi muvozanat buzilishi bilan izohlash mumkin.

5.3. ISTE'MOL VA JAMG'ARISH, ULARNING GRAFIKLARI VA FUNKSIYALARI

Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari (bundan buyon iste'mol deb yuritiladi), yalpi talab, yoki YalMning yakuniy iste'molga ko'ra tarkibida eng katta ulushha ega bo'lgan komponentdir. 2015-yilda O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra respublikamizda bu ulush 58,6 %ni tashkil etgan. Shuningdek, rivojlangan mamlakatlarda iste'mol xarajatlari shaxsiy tasarruf-dagi daromadning 90 foizdan ortiq qismini tashkil etadi. Shu tufayli ham iste'mol xarajatlariiga ta'sir etuvchi omillarni, uning o'zgarish qonuniyatlarini o'rganish muhim ahamiyatga ega.

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi ularning jamg'armalarini tashkil etadi. Klassik maktab vakillari jamg'arish hajmi foiz stavkasining funksiyasi deb qarashsa, J.M. Keyns uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari va jamg'arishlari hajmini belgilovchi asosiy omil ularning ishlab chiqarishda ishtirok etishdan olingan daromadlari deb hisoblaydi. Yanada aniqlik kirit-sak iste'mol va jamg'arish hajmini belgilovchi asosiy omil uy xo'jaliklarining ishlab topgan daromadlari, olgan transfert to'lovlari va to'lagan soliqlari bilan belgila-

nadigan tasarrufidagi daromadi ($DI - \text{disposable income}$, yoki Yd) ko'rsatkichidir.⁷ Makroiqtisodiy nazariyada iste'mol va jamg'armalar, milliy daromad yoki shaxsiy daromadlarning funksiyasi sifatida ham tadqiq qilinadi.

Ma'lumki, uy xo'jaligi tasarrufidagi daromad iste'mol va jamg'arish uchun ishlatalidi. Ya'ni, qancha ko'p iste'mol qilinsa, shuncha kam jamg'ariladi va aksincha. Iste'mol va jamg'arish o'rtaisdagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda bir xil emas: kam daromadga ega bo'lganlar, odatda, uning ko'proq qismini iste'mol qilib, kamroq qismini jamg'aradi, lekin daromadlari oshib borishi bilan bu nisbat jamg'arish foydasiga o'sadi. Bu bog'liqlikni gipotetik ma'lumotlar asosida ko'rib chiqamiz (6.1.1-jadval).


Tasarrufidagi daromad hajmi 370 shartli birlikka (sh.k.) teng bo'lganda uy xo'jaliklari iste'moli 375 sh.b.ka teng, ya'ni tasarrufidagi daromaddan 5 sh.b.ka ko'p bo'ladi. Ya'ni uy xo'jaliklari 5 sh.b.ka teng miqdorda qarz hisobiga yoki o'tgan yillarda to'plangan jamg'armalar hisobiga iste'mol xarajatlari qiladilar.

5.3.1-jadval

Daromad, iste'mol va jamg'arish ko'rsatkichlari

Yillar	Tasarrufdagi daromad (Yd)	Iste'mol (C)	Jamg'arish (S)
1	370	375	-5
2	390	390	0
3	410	405	5
4	430	420	10
5	450	435	15
6	470	450	20
7	490	465	25


Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlar 390 sh.b.ka teng bo'lganda, uning miqdori iste'mol miqdori bilan tenglashadi. Bu miqdor bo'sag'aviy daromad deb yuritiladi. 5.3.1-chizma ma'lumotlari asosida iste'mol grafigini chizamiz.



5.3.1-chizma. Iste'mol grafigi

⁷ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 64

Iste'mol grafigi ikki to'g'ri chiziq ko'rinishida berilgan. Bissektrisa ko'rinishidagi $Y_d = C$ to'g'ri chizig'ining har bir nuqtasida iste'mol va tasarrufidagi daromad hajmlari teng bo'ladi. Haqiqiy iste'mol (C) grafigi haqiqiy iste'mol va daromad teng bo'lgan nuqtada (a) bissektrisa bilan kesishadi. Bo'sag'aviy nuqtadan quyida haqiqiy iste'mol daromaddan oshiq. Bu vaziyat insonlarning qarz hisobiga hayot kechirishini bildiradi. a – nuqtada yuqorida haqiqiy iste'mol daromaddan kam hamda ular o'rtaсидаги farq jamg'arishni tashkil etadi. Haqiqiy iste'mol to'g'ri chizig'i iste'mol hajmini belgilovchi vertikal o'qni a nuqtada kesib o'tadi. Bu hol uy xo'jaliklari umuman daromad olmaganlarida ham ma'lum miqdorda iste'mol qilishlarini anglatadi. a – nuqta esa avtonom iste'mol hajmini bildiradi:



5.3.2-rasm. Jamg'arish grafigi

Keltirilgan ma'lumotlar asosida jamg'arish grafigini ham ko'rib chiqamiz (5.3.2-rasm).

Jamg'arish grafigi daromad bilan jamg'arish o'rtaсидаги bog'liqlikni ifodalaydi. Vertikal o'qdagi har bir nuqta jamg'arma miqdorini bildiradi va daromad bilan unga muvofiq keladigan iste'mol hajmi o'rtaсидаги farq sifatida aniqlanadi ($S = Y_d - C$). Boshlang'ich daromad darajasida jamg'arish nolga (0) teng bo'lgan holda ixtiyor-dagi daromad hajmi o'sib borishi bilan uning miqdori ham oshib boradi.

Bobning birinchi savolida keltirilgan gepotetik ma'lumotlar va grafiklarga tayanib iste'mol funksiyasini yozamiz:

$$C = a + b Y_d,$$

bu yerda:

a – avtonom xarajatlar;

Y_d – tasarrufidagi daromad ($Y_d = Y - T$), bu yerda: T – soliqlar;

b – iste'mol hajmining tasarrufidagi daromadga bog'liqligini ifodalovchi koefitsiyent, boshqacha aytganda iste'molga chegaralangan moyillik:

$$b = \frac{\Delta C}{\Delta Y_d} \times 100$$

Demak, iste'mol hajmi avtonom iste'molga, tasarrufidagi daromad hajmiga va iste'mol hajmining tasarrufidagi daromad o'zgarishiga ta'sirchanligiga bog'liq.

Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkin, ya'ni jamg'arish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$S = -a + (1-b) Y_d$$

Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari quyidagi omillar, to'g'riroq'i bu omillardagi o'zgarishlar ham ta'sir ko'rsatadi:

1. Uy xo'jaliklari daromadlari.
2. Uy xo'jaliklarida to'plangan mulk hajmi.
3. Baholar darajasi.
4. Iqtisodiy kutish.
5. Iste'molchilar qarzları hajmi.
6. Soliqqa tortish hajmi.

Dastlabki besh omil ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari o'zaro teskari tomonga siljiyi. Bu besh omil ta'sirida joriy tasarrufidagi daromad tarkibida iste'mol va jamg'arish ulushi nisbatlari o'zgaradi. Soliqqa tortish darajasining o'zgarishi ixtiyordagi daromad hajmini o'zgartirgani tufayli uning ta'sirida iste'mol va jamg'arish grafiklari bir tomonga qarab siljiyi. Iste'mol funksiyasini aniqlash borasidagi tadqiqotlar, uning hajmi shuningdek 6) aholining daromadlari hajmi va to'plagan mulki ko'lamiga ko'ra tabaqlanishi darajasi hamda 7) aholining soni va yoshiga ko'ra tarkibiga ham bog'liqligini ko'rsatdi.

Makroiqtisodiy tahlil jarayonida iste'mol va jamg'arish funksiyalarini yanada to'laroq bilish uchun iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik va chegaralangan moyillik tushunchalari mohiyatini anglab olishimiz lozim.

Iste'molga o'rtacha moyillik deganda tasarrufidagi daromaddagi iste'mol xaratlarining ulushi tushuniladi, ya'ni:

$$APC = \frac{C}{Y_d} \times 100$$

bunda: APC – (average propensity to consume) iste'molga o'rtacha moyillik.

Tasarrufidagi daromaddagi jamg'arish ulushini jamg'arishga o'rtacha moyillik deb ataladi, ya'ni:

$$APS = \frac{S}{Y_d}$$

Bunda: APS (average propensity to saving) – jamg'armaga o'rtacha moyillik.

Misol uchun, tasarrufidagi daromad darajasi 410 va 530 shartli birlikka va iste'mol darajalari 405 va 495 shartli birlikka teng bo'lgan holatlar uchun iste'molga o'rtacha moyillikni hisoblaymiz, ya'ni:

$$APS = (405 / 410) \times 100 = 98,78\% \text{ yoki } 0,98;$$

$$APS = (495 / 530) \times 100 = 93,39\% \text{ yoki } 0,93 \text{ ga teng.}$$

Demak, bu misollardan ko'rinish turibdiki, tasarrufidagi daromadlar miqdori ko'payib borishi bilan uning tarkibidagi iste'mol ulushi kamayib va aksincha jamg'arma ulushi ko'payib boradi. Bu holatni Keynsning «asosiy psixologik qonun»i bilan izohlash mumkin. «Mavjudligiga nafaqat aprior tasavvurlarga ko'ra, bizning inson tabiatini bilishimizdan kelib chiqib, shuningdek, o'tmish tajribasini



sinchiklab o'rganish asosida biz to'liq ishonishimiz lozim bo'lgan asosiy psixologik qonun shundan iboratki, kishilar daromadlari o'sishi bilan, odatda, o'z iste'mollarini oshirishga moyillar, ammo daromadlari o'sgan darajada emas»⁸.

Soliqlar to'langandan keyin qolgan daromadning bir qismi iste'mol qilinadi, ikkinchi qismi esa jamg'ariladi, shu tufayli ham iste'molga va jamg'arishga o'rtacha moyillik yig'indisi 100% ga yoki koeffitsiyent ko'rinishda 1 ga teng:

$$\mathbf{APC + APS = 100\% yoki 1.}$$

Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadlarining o'sgan qismini yo iste'mol qiladi, yoki jamg'aradi.

Iste'moldagi o'zgarishlarning shu o'zgarishni keltirib chiqargan tasarrufidagi daromad o'zgarishdagi ulushi iste'molga chegaralangan moyillik deyiladi.⁹

$$\mathbf{MPC = \frac{\Delta C}{\Delta Y_d} \times 100}$$

Bu yerda: MPC (marginal propensity to consume) – iste'molga chegaralangan moyillik.

Yuqorida keltirilgan 4-jadval ma'lumotlariga ko'ra ixtiyordagi daromad 410 sh.b.dan 430 sh.b.gacha oshgan holatda MPSni hisoblaymiz.

$$\Delta C = 420 - 405 = 15; \Delta Y_d = 430 - 410 = 20; MPC = (15/20) 100 = 75\%;$$

Bu shuni bildiradi, daromad 100 % ga (yoki bir birlikka) o'zgarganda iste'mol 75 % (yoki 0,75)ga o'zgaradi.

Jamg'arishdagi o'zgarishning ixtiyordagi daromad o'zgarishdagi ulushi jamg'arishga chegaralangan moyillik deyiladi:

$$\mathbf{MPS = \frac{\Delta S}{\Delta Y_d} = 100}$$

Bu yerda: MPS (marginal propensity to saving) – jamg'arishga o'rtacha moyillik. Yuqorida keltirilgan misolda:

$$\mathbf{\Delta Y_d = 430 - 410 = 20 \Delta S = 10 - 5 = 5}$$

$$\mathbf{MPS = (5/20) 100 = 25\%};$$

Shunday qilib, iste'molga chegaralangan moyillik 0,75 ni tashkil etgan bo'lsa, jamg'armaga chegaralangan moyillik 0,25 ni tashkil etadi. Daromadning o'sgan qismi yoki iste'molga, yoki jamg'armaga sarflanadi. Shu sababga ko'ra iste'mol va jamg'arishga o'rtacha moyillik ko'rsatkichlari yig'indisi 100%ga yoki koeffitsiyent ko'rinishida 1ga teng bo'ladi.

$$\mathbf{MPC + MPS = 100\% yoki 1.}$$

MPC va MPS ancha barqaror ko'rsatkichlar bo'lib, juda sekin o'zgarishga uchraydilar.

⁸ Кейнс Дж.М. Общая теория занятости, процента и денег. –М.,1978. С.157.

⁹ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 65

5.4. INVESTITSIYALARNING MOHIYATI, GRAFIGI VA FUNKSIYASI

YalMning ikkinchi komponenti bo'lgan investitsiyalarga to'xtalib o'tamiz.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyum-lashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir.

O'zining moliyaviy shakliga ko'ra, ular foyda olish maqsadida xo'jalik faoliyatiga qo'yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy mohiyatiga ko'ra investitsiyalar yangi korxonalar qurish, uzoq muddat xizmat ko'rsatuvchi mashina va asbob-uskunalarini yakuniy sotib olishga hamda shu bilan bog'liq bo'lgan aylanma kapitalning o'zgarishiga ketgan xarajatlardir. Shuningdek, investitsiyalar tarkibiga uy-joy qurilishiga ketgan xarajatlar ham kiritiladi.

Investitsiyalarni turli guruhlash mumkin. Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan guruhlashda investitsiyalar investitsiyalash obyektiga ko'ra uch turga bo'linadi.

1. Ishlab chiqarish investitsiyalari.
2. Tovar-moddiy zaxiralariga investitsiya.
3. Uy-joy qurilishiga investitsiya.

Makroiqtisodiy tahlilda investitsiyalar dinamikasini belgilovchi omil sifatida real foiz stavkasi qaraladi.¹⁰ Real foiz stavkasi ortishi bilan investitsiyalar hajmi kamayishini kuzatishimiz mumkin. Chunki investorlar uchun qarz bahosi ortib, ular ko'rsatadigan foyda normasini pasaytirib qo'yadi.

Avtonom investitsiyalarning grafigi investitsiyalar hajmi foiz stavkasi dinamikasiga teskari proporsional tarzda o'zgarishini ko'rsatadi.

Avtonom invstitsiya funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$I = e - dR$$


Bu yerda: I – avtonom investitsiya xarajatlari; e – foiz stavkasi 0 ga teng to'lgandagi investitsiya xarajatlarining maksimal hajmi. U tashqi iqtisodiy omillar, resurs imkoniyatldari, yer, foydali qazilma boyliklari va boshqalar bilan belgilanadi;

R – real foiz stavkasi;

d – investitsiyalarning real foiz stavkasi dinamikasi o'zgarishga ta'sirchanligini miqdoriy belgilovchi empirik koeffitsiyent.

¹⁰ N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. 8 th edition. Harvard University. (NY.: Worth Publishers, 2013): 65





5.4.1-rasm. Avtonom investitsiyalar grafigi

Grafikdan e nuqtasi shuni bildiradiki, banklar nolga teng foiz stavkasi bilan kredit bergenlarida hamda ularning kredit resurslari cheksiz ko'p bolganda ham mamlakatdagi boshqa resurslari miqdorining cheklanganligi tufayli investitsiya xarajatlari ma'lum miqdor bilan chegaralanadi.

Investitsiyalar dinamikasini belgilovchi eng muhim omillardan biri bo'lib kutilayotgan sof foyda normasi hisoblanadi. Agar real foiz stavkasi bilan investitsiya xarajatlari miqdori o'ttasida teskari bog'liqlik bo'lsa, kutilayotgan sof foyda normasi (KSFN) dinamikasi bilan investitsiya xarajatlari o'ttasida to'g'ri bog'liqlik bor.

Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali bo'lmay qoladi.

Misol uchun, zavodga 100000 so'mlik yangi stanok sotib olindi. Yangi stanokni qo'llashdan zavod 10.000 so'm sof foyda olgan bo'lsin. Kutilayotgan sof foyda normasi quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{KSFN} = 10000 / 100000 \times 100 = 10\%.$$

Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda nominal foiz stavkasi emas, balki real foiz stavkasi hisobga olinadi. Real foiz stavka narxlar darajasining o'zgarishini aks ettirib, nominal stavkadan inflyatsiya darajasi ayirmasi ko'rinishida aniqlanadi. Masalan, nominal foiz stavkasi 16% ga teng bo'lsa, inflyatsiya darajasi yiliga 12% ni tashkil etsa, unda real foiz stavkasi 4 foizini (16% - 12%) tashkil etadi.

Investitsiya xarajatlari dinamikasiga ta'sir etuvchi boshqa omillarga quyidagi-lar kiradi:

1. Soliqqa tortish darajas.
2. Ishlab chiqarish texnologiyalaridagi o'zgarishlar.
3. Mavjud bo'lgan asosiy kapital miqdori.
4. Investorlarning kutishi.
5. Yalpi daromadlarning o'zgarishi.

Soliqqa tortish darajasining pasayishi hamda yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi kutilayotgan sof foyda normasining (real foiz stavkasi o'zgarmagan sharoitda ham) ko'payishga olib keladi. Bu esa investitsiya xarajatlarining ortishiga turtki beradi.

Investitsiyalar hajmining YalM yoki daromadlar darajasiga bog'liqligini akseleator modeli aks ettiradi:

$I = f(Y)$, ya'ni investitsiyalar (I) YalM (Y)ning funksiyasi ekan. Akselerator modelining to'liqroq ko'rinishi quyidagicha bo'ladi:

$$I = I_{reja} + \gamma Y \text{ bunda } \gamma = \frac{\Delta I}{\Delta Y} = \frac{I_t - I_{t-1}}{Y_t - Y_{t-1}}$$

– Ireja rejalarashtirilgan investitsiyalar;

Y – YalM (daromad) hajmi.

Akselerator modelini hisobga olib, investitsiya funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$I = e - dR + \gamma Y$$

YalM hajmi oshishi korxonalar foydasining ko'payishiga olib keladi. Korxona foydasi investitsiyalarning manbayi ekanligini hisobga olsak, bu holatda investitsiya xarajatlari oshadi. YalM hajmi pasayib ketganda esa, ya'ni iqtisodiy faoliy pasayishi sharoitida bo'sh turgan quvvatlar mavjudligi tufayli, investitsiya xarajatlari pasayib ketadi. Ammo YalMning davriy tebranishlari, innovatsiyalarni doim ham bir tekisda bo'lmasligi, uskunalarini uzoq muddat xizmat qilishi, iqtisodiy kutishdagi xavflar tufayli investitsiyalar hajmi barqaror bo'lmaydi.

Takrorlash uchun savollar

- 1> Uy xo'jaliklari tasarrufidagi daromadning iste'mol qilinmasdan qolgan qismi nima deb ataladi?
- 2> Iste'mol va jamg'arish o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik har xil daromadga ega bo'lgan shaxslarda qanday tavsiflanadi?
- 3> Jamg'arish grafigini ham iste'mol grafigiga o'xshab algebraik ifodalash mumkinmi?
- 4> Iste'mol va jamg'arish hajmiga tasarrufidagi daromad dinamikasidan tashqari qaysi omillar ta'sir ko'rsatadi?
- 5> Investitsiya xarajatlari foyda keltirishini aniqlashda qaysi foiz stavkasi hisobga olinadi?



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1>** Agarda kutilayotgan foyda me'yori foiz stavkasidan yuqori bo'lsa, investitsiyalash foydali va aksincha, foiz stavkasi kutilayotgan foyda miqdoridan yuqori bo'lsa, investitsiyalash kerakmi yoki yo'q, buni tafsiflab bering.
- 2>** Makroiqtisodiy tahlilda eng ko'p duch kelinadigan investitsiyalarni investitsiyalash obyektiga ko'ra misollar orqali guruhlab bering.

Masalalar

- 1>** Uzoq muddatli AS egri chizig'i $Y=2000$, qisqa muddatli AS- egri chizig'i $P=1,0$ darajasida gorizontal. AD egri chizig'i tenglamasi $Y=2.0 * M/P$. Pul taklifi (M) 1000 ga teng. Bahlo shoki natijasida yalpi taklif egri chizig'i $P=1.25$ darajasigacha ko'tarildi.
- shokdan so'ng iqtisodiyotda o'rnatilgan qisqa muddatli muvozanat nuqtasining koordinatlari qanday?
 - iqtisodiyotda ishlab chiqarishning dastlabki darajasini tiklash uchun Markaziy bank pul taklifini qanchaga oshirishi kerak?
- 2>** Potensial Yalm (Y) 3000ga teng, qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,0$ darajada gorizontal ko'rinishga ega. AD egri chizig'ining formulasi quyidagicha: $Y = 2000 + M/R$. Pul taklifi 1000 ga teng. Narx shoki natijasida qisqa muddatli AS egri chizig'i $P = 1,5$ darajagacha surildi. Ishlab chiqarish hajmini potensial darajasida ($Y = 3000$) saqlab qolish uchun Markaziy bank pul taklifini qanchaga oshirishi mumkin?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Akselerator – 1. Sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'rtafigi bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich. 2. Multiplikatorga teskari bo'lgan koeffitsiyent bo'lib, milliy daromad o'sishining investitsiya o'suviga ta'sirini ko'rsatadi. 3. iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatkich. Akseleratsiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezilarli o'sishi investitsion faoliyki yuzaga keltiradi, rag'batlanadiradi va aksincha.

Baholar indeksi – tovar va xizmatlar yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdag'i

tovar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'in-disiga bo'lib topiladi.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir.

Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholining iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

Iste'mol funksiyasi – jami iste'mol sarflari bilan har ma'lum paytda iste'molchi ixtiyoridagi daromadning har xil miqdorlar o'rtaSIDagi bog'liqlik. Ma'lum bir paytda iste'molchi ixtiyoridagi daromadning mumkin bo'lgan har xil darajalaridagi iste'mol sarflari.

Iste'mol xarajatlari – tovarlar va xizmatlarni yakuniy iste'mol qilish maqsadida xarid qilish uchun qilingan xarajatlar. Uy xo'jaliklari va davlatning iste'mol xarajatlariga bo'linadi. YalMning xarajatlariga ko'ra tarkibida eng katta va barqaror komponent.

Jamg'arish – 1. Ixtiyoridagi daromadning bir qismi bo'lib, u oxirgi iste'mol maqsadlari uchun sarflanmaydi, balki jamg'arish uchun sarflanadi. Kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni amalga oshirish maqsadida asosiy fondlar, aylanma mablag'lar va moliyaviy aktivlar hajmi orttiriladi. 2. Mavjud daromaddan foydalanish hisobida balanslantiruvchi modda. Bu modda mavjud daromadning pirovard iste'mol qilinadigan tovar va xizmatlar uchun hali sarflanmagan qismini ko'rsatadi.

Jamg'arish funksiyasi – har qanday yillik potensial daromad darajasidan qat'i nazar, ishlab chiqaruvchi tomonidan sarf qilinmoqchi bo'lgan investitsion sarflar.

Pul massasi – har qanday mamlakat iqtisodiyotida tovarlar va xizmatlar aylanishini ta'minlaydigan, xususiy shaxslar, institutsional mulkdorlar (korxonalar, birlashmalar, tashkilotlar va b.) va davlat egalik qiladigan naqd va naqd pulsiz xarid hamda to'lov vositalari majmuyidir.

Pulning aylanish tezligi – muomaladagi pul birligining yiliga necha marta tovarlarni sotib olishga xizmat qilishi soni.

Real foiz stavkasi – inflyatsiyadan tozalangan foiz stavkasi.

VI BOB

PUL BOZORI: PULGA BO'LGAN TALAB VA TAKLIF, PUL BOZORIDAGI MUVOZANAT

- ▶ 6.1. PUL TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI. ASOSIY PUL AGREGATLARI
- ▶ 6.2. PULGA TALABNING KLASSIK VA KEYNISSIAN NAZARIYALARI
- ▶ 6.3. PUL TAKLIFI MODELI. PUL MULTIPLIKATORI
- ▶ 6.4. PUL BOZORIDAGI MUVOZANAT

KIRISH

Bozor munosabatlarning yuqori sur'atlarda rivojlanib borishi har bir subyektning pul, banklar, kredit va moliyaviy bozorlarning dastagi bol'gan moliyaviy instrumentlar hamda ularda yuzaga keladigan o'zgarishlarga munosabati va qiziqishlarini takomillashtirish bilan bir qatorda kengaytirib ham boradi. Buning sababi shundaki, bozor mexanizmi iqtisodiyot talablaridan kelib chiqib tez o'zgarib, yangilanib turadi va shuning uchun ham u mamlakat iqtisodiyotining har tomonlama rivojlanib borishi yo'nalishlarini belgilab beruvchi doimiy harakatda bol'gan dastak hisoblanadi.

Bizni doimo pulning qadri, uning to'lov yoki sotib olish qobiliyati yildan yilga oshadimi yoki pasayadimi? Ehtiyojimizdan ortiq pulimizni bankka omonatga qo'sak, u bizga har oyda yoki yilda necha foiz yoki qancha daromad keltiradi, mabodo ularni qimmatli qog'ozlarga qo'sak – qaysi turdag'i va qaysi emitentning qimmatli qog'ozlariga qo'yishimiz bizga yuqori daromad berishi mumkin? degan savollar qiziqtiradi.

Shuningdek, bizni bank kreditlarining foizi qancha, unga monand ravishda inflyatsiya yoki pulning qadrsizlanish darajasi qanaqa, milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan kursi qanaqa va uning tez orada o'zgarishi bo'yicha qanday proqnozlar mavjud kabi savollar ham qiziqtiradi. Bunday qiziqish va tahlillar bizni o'z-o'zidan bozor munosabatlarning faol ishtirokchisiga aylantiradi. Aynan shular va shunga o'xshash masalalar bozor munosabatlarning subyekti bo'lgan yuridik shaxslar faoliyatida har kuni yechimini talab qiladigan vazifalardan hisoblanadi. Jahon iqtisodiyoti fanida o'z asarlari bilan mashhur bo'lgan iqtisodchi – olim Frederik S. Mishkin «Pul, bank ishi va moliyaviy bozorlarning iqtisodiy nazariyasi» kitobida shunday misol keltiradi.

Mamlakatdagi pul miqdori, pul qadrining ko'tarilishi va shu kabi ko'rsatkichlarni albatta Markaziy bank o'z faoliyati doirasida hisob-kitob qilishi natijasida aniqlik kiritib boradi hamda pul-kredit siyosatini yuritadi. Markaziy bank faoliyatini tubdan takomillashtirish, uning amalga oshirib borayotgan islohotlarini xorijiy tahlilchi va tanqidchilar tomonidan o'rganilishi zarur. Mamlakatdagi banklar o'z faoliyat darajasini, shuningdek, imkoniyatlarini to'liq bajarmas ekan mamlakat aholisi qo'lidagi qiymatga ega ayriboshlash funksiyasini bajaruvchi pul qadri hamda aholi o'rtaida unga nisbatan ishonchsizlik hissini paydo qilishi turgan gap.

Albatta, tarixda birgina qilingan xato tufayli Buyuk Britaniya funt sterlingining qadrsizlanishi va uning oltindagi qiymatining yo'qotilishiga olib keldi. Shunday ekan, Markaziy bank xodimlarining har birini bilim va ko'nikmalarini oshirish, sifat tekshirushi kabi choralarни ko'rish foydadan xoli emas.

Moliyaviy bozorlar va institutlar nafaqat aholining kundalik hayotiga ta'sir ko'rsatadi, balki iqtisodiyotimizga trillionlab dollar qiymatga ega fondlarni jalg qiladi. Bu holat o'z navbatida korxonalarining daromadi, mamlakatda tovarlar va xizmatlarning ishlab chiqarilishiga, hattoki, AQSHdan tashqari boshqa davlatlarning farovonligiga ham ta'sir ko'rsatadi.

D. Yum A. Smitning pul xususidagi qarashlariga e'tiroz bildirib, «Pul bu – savdo-sotiqning g'ildiragi emas, balki u yog', shu savdo-sotiq g'ildiragini erkin va yum-shoq ishlashiga imkoniyat yaratadigan vositadir» degan fikrni bildiradi.

Pulning mohiyatiga «pul mehnat taqsimoti chuqurlashib borayotgan ushbu jamiyatda tovarlarni ayrboshlash va to'lovlarini amalga oshirish ishlarini yengil-lashtiradi» degan qarashlar ham mavjud.

Pulning vujudga kelishi kishilik jamiyati sivilizasiyasining buyuk kashfiyotlaridan hisoblanadi. «Pul» deb nomlangan maxsus tovarning paydo bo'lishi nati-jasida odamlar o'rtaida ayrboshlash bilan bog'liq ziddiyatlar va «ehtiyojlarning bir-biriga mos kelmasligi» kabi muammolar barham topdi.

Pulning vujudga kelishi, uning evolutsion rivojlanishi, nazariyasi, mohiyati va funksiyalari haqida xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlar, nazariyachilar, mutaxassislar juda ko'p ilmiy asarlar, maqolalar va tadqiqot ishlari yaratgan. Hozirgi kunda ham ushbu jarayon davom etmoqda. Iqtisodiy adabiyotlarda pulning vujudga ke-lishi va uning hozirgi kundagi ko'rinishi haqida yagona yondashuv mavjud emas.

Pulning vujudga kelish sabablarini bilish uchun qadimda odamlar o'rtaida ro'y berган ayrboshlash munosabatlарини amalga oshirish jarayонига e'tibor qaratish lozim. Chunki, aynan mana shu tabiiy ayrboshlash jarayoni hozirgi kunda siz bilan biz kundalik hayotda va hisob-kitoblarda foydalanib kelayotgan pulning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Xususan, pulning vujudga kelishiga quyidagi omillar asos bo'lib xizmat qiladi:

- tovar ishlab chiqarishning mavjudligi va uning rivojlanib borishi;
- jamiyat a'zolarining bir qismida o'zida mavjud bo'lмаган tovarlar (iste'mol tovarlari va ishlab chiqarish – mehnat qurollari) ga ehtiyojning yuzaga kelishi;
- kishilarda, ya'ni jamiyat a'zolarining bir qismida ehtiyojidan ortiqcha iste'mol mahsulotlari va boshqa tovarlarning yuzaga kelishi;
- odamlarning ongi-tafakkuri rivojlanishi natijasida ularning mehnat qurollari yasashga o'rGANISHI va ularni tayyorlashni faoliyat turiga aylantirishi;
- odamlarning ongi, dunyoqarashi va hayot kechirish tarzi rivojlanishi ikki to-monlama ayrboshlash munosabatlari vujudga kelishiga, kishilarda o'ziga zarur bo'lмаган buyumni boshqa o'ziga zarur bo'lgan buyumga ayrbosh qilish mum-kinligi anglashiga olib keldi va bu jarayonlarning iqtisodiy munosabatlarga aylani-shi pulning paydo bo'lishiga asos soldi.

6.1. PUL TUSHUNCHASI VA UNING FUNKSIYALARI. ASOSIY PUL AGREGATLARI

Pul va uning kelib chiqishi, vazifalari to'g'risida mavjud xorijiy mamlakatlar iqtisodchilarining qo'llanmalarini olib qaraydigan bo'lsak, pulning kelib chiqishi to'g'risida ikki konsepsiya mavjudligini ko'rish mumkin. Bular ratsionalistik va evolutsion konsepsiyalardir.

Ratsionalistik qarashning asoschilaridan biri Arastu bo'lib, u pul kelib chiqi-shining asosini o'zaro bir-biriga teng qiymatni harakatga keltiruvchi biron-bir maxsus «dastak-vosita», kishilar orasida o'zaro kelishuv natijasida qabul qilingan shartli birlik ekanini aytadi. O'zaro tovarlarni almashtirishda pul qatnashmaganda,

tovarni sotish jarayoni tovarni sotib olish jarayoni sifatida yuzaga kelgan. Tovarlar o'rtasidagi proporsiya tasodifan, masalan, sotilishi kerak bo'lgan mahsulotga talab qay darajada va uning miqdori kam-ko'pligiga bog'liq holda o'rnatilgan. Keyinchalik, shu tovarlar ichidan umumiy ekvivalent sifatida ba'zi tovarlar ajralib chiqdi. Jamiyatning rivojlanishi muomalaga metallarning kirib kelishiga olib keladi. Rivojlanishning birinchi bosqichlarida mis, bronza, temir ishlatilib, almashinuv T-P-T shaklida olib borilgan.

XVIII asrning oxirigacha pul tomonlar o'rtasidagi shartnoma vositasi, deb qarab kelingan. Masalan, Pol Samuyelson pulni sun'iy ijtimoiy shartlashish belgisi, deb izohlagan. Boshqa amerikalik olim Jon Gelbreit qimmatbaho metallarning pul vazifasini bajarishi bu kishilar o'rtasidagi kelishuvning mahsuli ekanligini ta'kidlaydi.

Pulning kelib chiqishini tadqiq qilish A. Smit, D. Rikardolarning tadqiqotlariga asoslangan holda pulning mohiyatini ochib berishga harakat qilgan. Shuningdek, pulning o'zi ham tovar ekanligini, pulning kelib chiqishi bosqichlarini izohlab bera oldi. U oltin va kumush qazib olish va ishlatish uchun ma'lum mehnat sarflanadi, shu mehnat oltin va kumushda gavdalangan holda boshqa tovarlarning qiymatini o'lchashning asosi bo'lib xizmat qiladi, deb ko'ssatgan. Hozirgi vaqtida yuqorida giga o'xshagan real pullar orniiga o'z qiymatiga ega bo'limgan qog'oz va kredit pullar muomalada ishlatilmoqda. Shuning uchun qog'oz va kredit pullar kelib chiqishi to'g'risidagi ratsionalistik konsepsiyaning to'g'ridan to'g'ri isboti bo'la olmaydi. Qog'oz pullar yuzaga kelguncha, jamiyat bir necha rivojlanish bosqichini bosib o'tgan.

Pulning kelib chiqish tarixi uning evolutsion nazariyasi bilan ko'proq bog'liq. Tovar muomalasining evolutsion rivojlanish jarayonida umumiy ekvivalent shaklini har xil tovarlar o'yangan. Har bir jamoa o'z tovarini ekvivalent sifatida o'rta ga qo'ygan. Lekin jamiyat taraqqiyoti shu tovarlar ichidan ikki guruh tovarlarning ajralib chiqishiga olib keldi. Bular: birinchi ehtiyoj uchun zarur bo'lgan tovarlar va zebu ziynat tovarlaridir.

Evolutsion konsepsiya tarafдорлари pulning quyidagi jihatlarini asoslashdi. Pul:

- 1) tovar ishlab chiqarish va tovar ayrboshlash jarayonlari evolutsion rivojlanishning mahsuli;
- 2) alohida olingan tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida munosabatlarni o'rnatishning obyektiv omili sifatida yuzaga kelgan;
- 3) o'zi ham tovar sifatida ma'lum ijtimoiy munosabatlarni o'zida aks ettira olish xususiyatiga ega;
- 4) nafaqat iqtisodiy, balki tarixiy kategoriya ham bo'lib, undan foydalanish ehtiyoji va zaruriyati bo'lganligi bois u doimo mavjud bo'laveradi.

Evolutsion qarash tarafдорлари fikrlaricha, pul tovar ishlab chiqarish va ayrboshlash jarayonlari rivojlanishi natijasida yuzaga kelgan. Pulning paydo bo'lish bosqichlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak bu jarayonlar evolutsion nazariya tarafдорлари fikrini tasdiqlaydi. Tovar ishlab chiqarishning ilk bosqichlarida ayrboshlash jarayonlari pul ishtirokisiz amalga oshirilgan.



Pul ayrboshlash vositasi, qiymat ulchovi va jamg'arish funksiyalarini bajaradi. Aynan ayrboshlash funksiyasi pulning boshqa aktivlar, aktsiyalar, obligatsiyalar-dan farqini belgilab beradi.

Ayrboshlash funksiyasi. Bizning iqtisodiyotimizdagi mavjud deyarli barcha bozor iqtisodiyoti tamoyillarida yuzaga keladigan operatsiyalarda pul naqd pullar yoki cheklar ko'rinishida tovarlar va xizmatlar to'lovi uchun foydalaniilib ayrboshlash funksiyasini namoyon qiladi. Pulning ayrboshlash vositasi sifatida foydalaniishi ayrboshlash operatsiyalarida vaqt xarajatlarini kamaytirib iqtisodiyotning samaradorligini oshiradi. Pulga bo'lgan talab shu darajada yuqoriki, eng primitiv ko'rinishidagi jamiyatdan tashqari har qanday jamiyat pulni o'ylab topadi. Har qanday tovar pul sifatida samarali ishlashi uchun bir nechta talablarga javob berishi zarurdir:

birinchidan, osonlik bilan uning qiymatini aniqlash uchun standartlashgan bo'lishi;
ikkinchidan, umumqabul qilingan bo'lishi;
uchinchidan, qismlarga bo'linishi;
to'rtinchidan, bir joydan ikkinchi joyga osonlik bilan ko'chirilishi;
besinchidan, tezda parchalanib ketmasligi lozim.

Qiymat o'lchovi.

Pulning ikkinchi funksiyasi – iqtisodiyotda pul o'lchov vositasi sifatida xizmat qilganda hisob birligini ta'minlashi lozim. Og'irlikni kilogramda yoki masofani kilometrda o'lchaganimiz kabi biz tovarlar va xizmatlarning qiymatini pul birliklarida ifodalaymiz.

Jamg'arish vositasi. Pul shuningdek jamg'arish vositasi sifatida xizmat qila-di; daromad olingan vaqtidan boshlab xarajat qilingungacha bo'lgan davrda xarid qobiliyatini saqlab turish vositasi hisoblanadi. Pulning ushbu funksiyasi foyda-li hisoblanib, ko'pchiligidan saqlashni afzal ko'rib, pullarni olishimiz bilan darhol xarajat qilishni xohlamaymiz. Pul – yagona jamg'arish vositasi emas; har qanday aktivlar – pullar, aksiyalar, obligatsiyalar, yer, uy, san'at asarlari yoki zargarlik mol-lari – jamg'arish vositasi hisoblanadi.

P. Samuelson esa, Aristotelning ta'limotlariga tayangan holda pul faqat ikkita, ya'ni ayrboshlash vositasi, baho mashtabi birligi yoki o'lchov hisobi funksiyalarini bajarishini ta'kidlaydi.

Angliya – amerika iqtisodchi olimi K. Knis (1821–1898) pulning to'rtta ya'ni, qiymat o'lchovi va jag'arma vositasi mavjudligini e'tirof etishadi. Jumladan, Edvin Dj. Dolan, Kolin D. Kempbell, Rozmari Dj. Kempbelllar pul muomala vositasi, qiymat o'lchovi va jamg'arma vositasi funksiyalarini bajarishini ta'kidlaydi.

Nemis iqtisodchi olimi K. Knis (1821–1898) pulning to'rtta ya'ni, qiymat o'lchovi, muomala vositasi, to'lov vositasi va jamg'arma vositasi funksiyalarini e'tirof etadi.

S. Fisher, R. Dornbush, R. Shmalenzilar ham pulning to'rtta funksiyalarini bajarishlarini e'tirof etib, ularni quyidagi ketma-ketlikda amal qilishini ta'kidlaydi: birinchisi – muomala vositasi va to'lov vositasi, ikkinchisi – o'lchov hisobi, uchinchi-si – qiymatni saqlash vositasi, to'rtinchisi – kechiktirilgan to'lovlar o'lchovi.

K. Marks pulning funksiyalari konsepsiyasida uni uchta funksiyasi mavjudligini ta'kidlaydi. U pulning funksiyalarini quyidagi ketma-ketlikda ifodalaydi. Birinchi - qiymat o'lchovi, ikkinchisi - muomala vositasi, uchinchisi - moliyaviy pul. K. Marksning pulning uchinchi funksiyasi ayrim iqtisodchilar tomonidan jamg'arma vositasi, to'lov vositasi va jahon puli kabi vazifalarini bajarishi mumkinligini ilgari suriladi.

Pul agregatlari bu, pul massasini muqobil o'lhash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlardir.

Xalqaro amaliyotda quyidagi pul aggregatlaridan keng foydalaniladi:

1. M0 – bu agregatni hisoblash uchun Markaziy bank tomonidan muomalaga chiqarilgan, ya'ni emissiya qilingan barcha naqd pullar summasidan banklar va korxonalarining kassasidagi naqd pullarning qoldig'i ayirib tashlanadi. Taraqqiy etgan mamlakatlar bank amaliyotida M0 hisobga olinmaydi.

2. M1 = M0 + talab qilib olinadigan depozitlar + yo'l cheklari. Ayrim mamlakatlarda kredit kartalari ham M1 tarkibiga kiritiladi.

3. M2 = M1 + muddatli depozitlar + jamg'arma depozitlar. M2 hisoblashda summasi uncha katta bo'lмаган muddatli va jamg'arma depozitlar olinadi.

4. M3 = M2 + yirik summadagi muddatli depozitlar + depozit sertifikatlari + jamg'arma sertifikati.

5. M4 (L- AQSHda) = M3 + davlatning qisqa muddatli obligatsiyalari + korporativ obligatsiya + jamg'arma obligatsiyalar + bank akseptlari + pul bozori o'zaro fondlari paylari.

Sanoati rivojlangan mamlakatlarning moliya statistikasida pul massasini aniqlashda quyidagi asosiy pul aggregatlari to'plamidan (guruhidan) foydalaniladi:

M-1 agregati – muomaladagi naqd pullar (banknotalar, tangalar) va joriy bank schyotlаридаги маблаг'larni o'z ichiga oladi;

M-2 agregati – M-1 agregati va tijorat banklaridagi muddatli va jamg'arma qo'yilmalaridan (to'rt yilgacha) tarkib topgan;

M-3 agregati – o'z ichiga M-2 agregati va ixtisoslashgan kredit muassasalaridagi jamg'arma qo'yilmalarini kiritgan;

M-4 agregati – M-3 agregati hamda yillik tijoriy banklarining depozitli sertifikatlaridan iborat.

AQSH da pul massasini aniqlash uchun 4 ta pul aggregati, Yaponiya va Germaniyada – 3 ta, Angliya va Fransiyada – ikkita pul aggregatidan foydalaniladi.

O'zbekistonda pul massasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

M0 – naqd pullar;

M1 – M0 + schyotlardagi pul qoldig'i + mahalliy budget mablag'lari + budget, jamoa va boshqa tashkilot mablag'lari;



M₂ – M₁ + tijorat banklaridagi muddatli jamg'armalar;

M₃ – M₂ + sertifikatlar + maqsadli zayom obligatsiyalari + davlat zayom obligatsiyalari + xazina majburiyatları.

Pul agregatlari M₁ va M₂ ning bir-biridan farqi M₂ ning o'z tarkibiga yaqin orada pulga aylanishi mumkin bo'lgan «kvazi» – qariyb pullarni olishdadir.

Pul massasining turli xil ko'satkichlarini ishlatish pul muomalasi holatini tahlil qilishga turli tomonlardan yondashishga imkon beradi.

6.2. PULGA TALABNING KLASSIK VA KEYNISSIAN NAZARIYALARI

Pulning miqdoriy nazariyasi pulga bo'lgan talabni almashinuv tenglamasi yordamida aniqlaydi:

$$M^*V = P^*Y$$

Bu yerda:

M – muomaladagi pul miqdori;

V – pulning aylanish tezligi;

P – baholar darajasi (baho indeksi);

Y – real YAIM.

Pulning aylanish tezligi, iqtisodiyotda bitimlar tarkibi nisbatan barqaror bo'lganligi uchun ham doimiy kattalik deb qabul qilinadi. Ammo bank tizimiga hisob-kitoblarni tezlashtiruvchi texnik vositalar joriy qilinishi natijasida u o'zgarishi mumkin. V doimiy bo'lgan sharoitda almashtirish tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$M^*V = P^*Y$$

(Fisher tenglamasi), bundan:

$$M = (P^*Y)/V$$

P^{*}Y – nominal YAIM miqdorini bildirishini va doimiy miqdorligini hisobga ol-sak, muomala uchun zarur bo'lgan pul miqdori ishlab chiqarilayotgan tovarlar va xizmatlar miqdori va ularning bahosi o'zgarishlariga, boshqacha aytganda, nominal YAIM o'zgarishiga bog'liq. Muomaladagi pul massasining o'zgarishi, klassik nazariyaga ko'ra, Y sekin o'zgarishi tufayli asosan baholar darajasiga ta'sir ko'rsatadi. Bu holat «pulning neytralligi» nomini olgan.

Monetaristlar qoidasiga ko'ra hukumat pul massasining o'sish sur'atini, real YAMMning o'rtacha o'sish sur'ati darajasida ta'minlanishi natijasida iqtisodiyotda baholar darajasi barqaror bo'ladi.

Fisher tenglamasidan tashqari bu tenglamaning boshqa bir shakli Kembrij tenglamasidan ham keng foydalaniladi:

$$M = k * P^*Y$$

Bu yerda:

k = 1/V – pulning aylanish tezligiga teskari miqdor;

k – koeffitsiyentni nominal pul miqdori (M)ning daromadlar (P^{*}Y) dagi ulushini ko'rsatadi.

Kembrij tenglamasi turli darajada daromadli bo'lgan turlicha moliyaviy aktivlar mavjudligini va daromadni ularning qaysi biri ko'rinishida saklashni tanlash imkoniyati mavjudligini ko'zda tutadi.

Pulga real talab quyidagi ko'rinishda hisoblanadi:

$$(M/R) * D = k * Y$$

Bu yerda:

M/R – «real pul qoldig'i», «pul mablag'larining real zaxirasi» deb nomlanadi.

Pulga talabning keyschalarining nazariyasi.

Pulga talabning Keyschalarining nazariyasi, likvidlilikning afzalligi nazariyasi, pulni naqd ko'rinishda saklashga kishilarni undovchi uch sababni ajratib ko'rsatadi:

- 1) tranzaksion sabab (joriy bitimlar uchun naqd pulga talab);
- 2) ehtiyotkorlik sababli (ko'zda tutilmagan holatlar uchun ma'lum miqdorda naqd pullarni saqlash);
- 3) spekulyativ sabab (foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlar sotib olish uchun pulga talab).

Spekulyativ sabab foiz stavkasi bilan obligatsiyalar kursi o'tasidagi teskari bog'liqlikka asoslanadi. Agar foiz stavkasi ko'tarilsa, obligatsiyalar bahosi pasayadi, ularga talab esa oshadi. Bu esa o'z navbatida, naqd pul zaxiralaring qisqarishiga hamda naqd pullarga talabning pasayishiga olib keladi.

Pul likvidlilik xususiyatiga ega bo'lganligi uchun ham aholi uni saqlashni afzal biladi. Likvidlilikning afzalligi nazariyasi ko'rsatadiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasiga bog'liq. Foiz stavkasi naqd pul vositalarini qo'lda ushlab turishning muqobil xarajatlari miqdorini, ya'ni, siz foiz olib kelmaydigan naqd pullarni qo'lda ushlab turgan sharoitda yo'qotadigan pul miqdorini bildiradi. Nonning narxi non talabi miqdoriga ta'sir qilganidek, naqd pullarni qo'lda ushlab turish miqdori ham pul zaxiralariiga talab miqdoriga ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun foiz stavkasi oshganda, insonlar boyliklarini naqd pul shaklida kamroq ushlab turishga harakat qiladi.

Real pul zaxiralariiga talab funksiyasini quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$M/R = f(R)$$


Bu tenglama ko'rsatayaptiki, pulga bo'lgan talab miqdori foiz stavkasi funksiasi ekan. Grafikda foiz stavkasi va real pul zaxiralari miqdoriga talab teskari bog'liqlikka ega ekanligi ko'rindi. Chunki, yuqori foiz stavkasi pulga talab miqdorining kamayishini ko'rsatadi.

Klassik va keyschilariga xos yondashuvlarni umumlashtirib, pulga talabning quyidagi omillarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- 1) daromadlar darajasi;
- 2) pulning aylanish tezligi;
- 3) foiz stavkasi.

Agar klassik nazariya pulga talabni asosan, real daromad hajmi bilan bog'liسا، keyschalarida esa pulga talab asosan, foiz stavkasiga bog'liq deb hisoblanadi.





6.2.1-chizma. Pulga talab grafigi

Pulning aylanish tezligini hisobga olmaganda, real pul qoldig'iga talab forması quyidagicha bo'ladi:

$$(M/P)*D=f(R, Y);$$

Bu yerda:

R – foiz stavkasi;

Y – real daromad.

Chiziqli bog'liqliknı e'tiborga olsak, quyidagicha formula hosil bo'ladi:

$$(M/P)*D = k*Y - h*R$$

Bu yerda:

k va h – pulga talabning daromadlar va foiz stavkasiga ta'sirchanligini ifodalovchi koeffitsiyentlar; k – foiz stavkasi (real foiz stavkasi).

Real foiz stavkasi nominal foiz stavkasidan inflyatsiya sur'atini ayirib topiladi.

Daromad darajasining o'zgarishi foiz stavkasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda ham pulga talabning ko'payishiga olib keladi. Bu grafikda pulga talab egri chizig'ining siljishi ko'rinishida namoyon bo'ladi.

6.3. PUL TAKLIFI MODELI. PUL MULTIPLIKATORI

Pul taklifi (M_s) o'z ichiga bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar (S) va zarur bo'lganda (D) iqtisodiy agentlar bitimlar uchun ishlatsi mumkin bo'lgan depozitlarni oladi:

$$M_s = S + D$$

Aksariyat mamlakatlarda davlat pul chiqarishda monopol huquqqa ega. Uni amalga oshirish huquqi nisbatan mustaqil muassasa Markaziy bank ixtiyorida. «Markaziy bank O'zbekiston Respublikasi hududida qonuniy to'lov vositasi sifatida banknotlar va tangalar ko'rinishidagi pul belgilarini muomalaga chiqarish

mutloq huquqiga ega». Ammo pul taklifini ko'paytirish imkoniga yoki pul yaratish qobiliyatiga tijorat banklari ham ega. Ular kreditlar bera borib, to'lov vositalari emissiyasini yoki kredit multiplikatsiyasini amalga oshiradi. Masalan, A bankning depoziti 2000 so'mga o'sgan bo'lsa, zaxira normasi 20 % ga teng bo'lganda (zaxira normasi – tijorat banklar depozitlarining ma'lum qismini Markaziy bankda saqlab turish normasi), u 400 so'mni Markaziy bankda zaxiralab, qolgan 1600 so'mni qarzga beradi. Shunday qilib, A bank pul taklifini 1600 so'mga ko'paytiradi va u endi $2000+1600=3600$ so'mni tashkil etadi. Ya'ni, omonatchilarning depozitlardagi 2000 so'mdan tashqari yana 1600 so'm qarz oluvchilar qo'lida qoladi. Agar 1600 so'm yana banka tushsa (masalan, B bankka) unda 20 % ga teng bo'lgan zaxira normasida u 320 so'mni zaxirada qoldirib, 1280 so'mni kreditga beradi hamda shu miqdorda pul taklifini oshiradi. Kredit berishning bu jarayoni so'nggi pul birligidan foydalanishga qadar davom etadi. Yakuniy hisob kitob bank depozitlari jami 10000 so'mga ko'payganligini ko'rsatadi. Bu jarayonni formula ko'rinishida quyidagicha yozishimiz mumkin:

$$M = (1/ rr) * D$$

Bunda:

M – pul taklifi hajmi;

rr – majburiy zaxiralash normasi;

D – dastlabki depozit.

Keltirilgan formuladan ko'rinish turibdiki, pul taklifi $1/rr$ koeffitsiyentiga bog'liq bo'lib, uni bank multiplikatori yoki pul ekspansiyasi multiplikatori deb ataladi. U ushbu bank zaxiralar normasida ortiqcha zaxiralarning bir pul birligi bilan yaratilishi mumkin bo'lgan yangi kredit pullarining eng ko'p miqdorini bildiradi.

Pul taklifining umumlashma modeli Markaziy bankning pul taklifidagi roli hamda pulning bir qismini depozitlardan naqd pullarga oqib o'tishni hisobga olgan holda yoziladi. Bu model bir qator yangi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Bular:

– pul bazasi (rezerv pullar, yuqori quvvatli pullar) – bank tizimidan tashqaridagi naqd pullar va tijorat banklari Markaziy bankda saqlaydigan depozitlar summasi.

Deponentlash koeffitsiyenti $-Cr = S / D$

Pul bazasini MV va bank rezervlarini R deb belgilasak,

$$MV=C+R$$

Pultaklifining kengaytirilgan modelini quyidagicha yozish mumkin:

$$Ms = \frac{Cr+1}{Cr+rr} * MV \text{ yoki } Ms = m * MV$$

$(Cr + 1) / (Cr + rr)$ nisbat pul multiplikatori deb yuritilib bir so'mlik pul bazasi hisobiga necha so'mlik pul taklifi yuzaga kelishini ko'rsatadi. Pul multiplikatorini – pul taklifining pul bazasiga nisbati ko'rinishida yozish mumkin:

$$m = \frac{Ms}{MB} = \frac{C+D}{C+R} = \frac{\frac{Cr+1}{Cr+rr} * MV}{\frac{Cr+1}{Cr+rr} * MV + R} = \frac{Cr+1}{Cr+rr}$$



Cr miqdori – aholining o'z mablag'larini naqd pullar va depozitlar o'rtasida qanday proporsiyada saqlashni tanlashga bog'liq.

$rr = R / D$ miqdori esa – aholining Markaziy Bank belgilab bergen majburiy rezerv normasiga, balki tijorat banklari saqlab turishni mo'ljallanayotgan ortiqcha rezerv miqdoriga ham bog'liq.

Demak, pul taklifi pul bazasi va pul multiplikatori miqdoriga bog'liq ekan. Pul multiplikatori pul bazasining bir miqdorga oshishi natijasida pul taklifi qanday o'zgarishini ko'rsatadi.

Markaziy bank pul taklifini avvalambor, pul bazasiga ta'sir etish yo'li bilan taribga soladi.

Mamlakatda pul miqdori ko'payadi, agar:

- pul bazasi o'ssa;
- majburiy zaxiralash normasi pasaytirilsa;
- tijorat banklarining ortiqcha rezervlari kamaysa;
- naqd pullarning depozitlar umumiy summasiga nisbati pasaysa.

6.4. PUL BOZORIDAGI MUVOZANAT

Pul bozori modeli pulga talab va taklifni birlashtiradi. Dastlab, soddalik uchun pul taklifi Markaziy Bank tomonidan nazorat qilinadi va $(M/P)s$ darajasida qayd qilingan deb olamiz.

Agarda M – pul taklifini, P – narxlar darajasini bildirsa, M/P pul vositalarining real zaxirasi miqdorini ko'rsatadi.

$$(M/P)s = M/P$$

Bu yerda:

M – pul taklifi darajasini bildiradi;


P – baholar darajasi (ushbu modelda ekzogen o'zgaruvchi) ni ko'rsatadi.

Chizmada ko'rsatilganidek real pul taklifi miqdorigagi foiz stavkasiga bog'liq bo'limgan vaziyatni ko'rsatadi. Shuning uchun real pul vositalari taklifi grafikda ko'rsatayotganimizdek vertikal chizik ko'rinishiga ega bo'ladi. Bu holat foiz stavka-si qanchalik o'zgarishiga qaramasdan real pul taklifi miqdori o'zgarmasdan qolgan vaziyatni aks ettiradi.


Baholar darajasini ham barqaror deb qabul qilamiz. Bu holatda real pul taklifi M/P ga teng va grafikda Ms to'gri chizik ko'rinishiga ega bo'ladi.

Pul talabi berilgan daromasida foiz stavkasiga teskari proporsional egri chiziq ko'rinishiga ega. Muvozanat nuqtasida pul talabi va taklifi o'zaro teng (8.4.2-chizma).

O'zgarib turuvchi foiz stavkasi pul bozorini muvozanatda ushlab turadi. Foiz stavkasining o'zgarishi natijasida iqtisodiy agentlar o'z aktivlari tarkibini o'zgartirgani tufayli pul bozorida muvozanatga erishish uchun vaziyatga ta'sir etib uni o'zgartirish zarur va mumkindir.



6.4.1-chizma. Real vositalari zaxirasi taklifi grafigi




6.4.2-chizma. Pul bozorida muvozanat modeli


Agar R juda yuqori bo'lsa, pul taklifi unga bo'lgan talabdan yuqori bo'ladi. Iqtisodiy agentlar o'zlarida to'planib qolgan ortiqcha naqd pullarni aksiya va obligatsiyalarga aylantirib, ulardan qutulishga intilishadi.

Yuqori foiz stavkasi, ta'kidlanganidek, obligatsiyalar kursining pastroq darajasiga mos keladi. Shu sababli, arzon obligatsiyalarni (kelajakda foiz stavkasi pasayishi oqibatida ular kursi o'sishini ko'zda tutib) sotib olish foydali bo'ladi.

Banklar, $Ms > Md$ bo'lgani uchun foiz stavkasini pasaytira boshlaydi. Astasekin iqtisodiy agentlar o'z aktivlari tarkibini o'zgartirishi va banklar tomonidan foiz stavkasining o'zgartirilishi oqibatida pul bozorida muvozanat tiklanadi. Foiz stavkasi pasayib ketgan holatda teskari jarayon ro'y beradi.



6.4.3-chizma. Daromadlar darajasining oshishi natijasida pulga talabning o'zgarishi



6.4.4-chizma. Pulga taklifning kamayishi natijasida pul bozorida muvozanatning o'zgarishi

Foiz stavkasi va pul massasi muvozanatli darajasining o'zgarib turishi pul bozorining ekzogen o'zgaruvchilari – daromadlar darjasasi va pul taklifining o'zgarishi natijasida ham ro'y beradi.

Grafik ko'rinishda, bu, pul talabi va pul taklifi egri chiziklarining siljishi sifatida namoyon bo'ladi (8.4.3 va 8.4.4-chizmalar).

Daromadlar darajasining Y1dan Y2ga qadar o'sishi (8.4.4-rasm) pulga talabni M1d dan M2d gacha oshishiga va foiz stavkasini R1dan R2ga qadar ko'tarilishiga olib keladi. Pul taklifining kamayishi ham foiz stavkasining ko'tarilishiga va muvozanat nuqtasining o'zgarishiga olib keladi.

Pul bozorida muvozanatni o'rnatish va saqlab turish mexanizmi qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida muvaffaqiyatlil amal qildi. Pul bozoridagi muvozanat tovarlar va xizmatlar bozoridagi muvozanat singari makroiqtisodiy muvozanatning muhim tarkibiy qismidir.

Takrorlash uchun savollar

- 1>** Pul o'ziga xos tovar sifatida qanday ajralib chiqqan?
- 2>** Pulning xarid qobiliyati deganda nimani tushunasiz?
- 3>** Pulga tovar qiyamatining umumiy ekvivalenti sifatida ta'rif bering.
- 4>** Bozor iqtisodiyoti sharoitida pulning ahamiyati.
- 5>** Oltin va kumushning pul sifatida rolini ta'riflang.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1>** O'zbekistonda 2020-yil davomida muomaladagi naqd pullarning soni bo'yicha tarkibiy o'zgarishi, foizda ko'rsating.
- 2>** Kanada pul agregatlari tarkibi va ta'rifi:
Gross M1: (1) muomaladagi valuta
(2) banklardagi yalpi talab depozitlari
M1, M2, M3, M1+, M1+++, M2++
Yuqoridagi Gross M1 tarkibi bayon qilingani kabi qolgan barcha pul agregatlari tarkibi ham bayon qilinsin.

Masalalar

- 1>** Iqtisodiyotda pul bazasining hajmi 200 mln. so'm. Deponentlash koeffitsiyenti 0,8. Tijorat banklarining rezerv me'yori 20%. Real pul qoldiqlariga bo'lgan talab quyidagi tenglik orqali ifodalananadi: $L = 0,4Y - 50i$, daromadning hajmi $Y = 800$. Narxlar darajasi $P = 4$. Muvozanatli foiz stavkasini aniqlang.
- 2>** Agar rezerv me'yori 0,35 ga, deponentlash koeffitsiyenti esa 0,3 ga teng bo'lsa:
- pul multiplikatori miqdorini aniqlang;
 - agar Markaziy bank ochiq bozordagi operatsiyalar orqali pul taklifini 350 mln. so'mga oshirmoqchi bo'lsa, davlat obligatsiyalarini qanday miqdorda sotib olishi kerak?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Pul – hamma tovarlar va xizmatlar ayrboshlanadigan, umumiy ekvivalent bo'lgan maxsus tovar, bozor iqtisodiyotining asosiy vositasi. Pul bozor yuzaga kelishi va rivojlanishining mahsulidir. Pul kelib chiqish tarixi va tabiatiga ko'ra 3 xil xususiyatga ega: a) hamma narsaga ayrboshlanadigan muhim xarid vositasi; b) boylik timsoli; c) mehnatni qiymat shaklida o'lchab boradigan vositasi.

Pul agregatlari – bu pul massasini muqobil o'lchash imkoniyatini beruvchi ko'rsatkichlardir. Jamg'arila borib xarid qobiliyatini saqlovchi barcha pul vostitalari pul agregati deb ataladi. Bunga naqd pullar, ma'lum muddatga yoki muddatsiz bankka qo'yilgan pullar, sertifikatlar va boshqalar kiradi. Pul muammosini muqobil o'lchovchi hisoblanadi. Hozirda quyidagi pul agregatlari farqlanadi: M1 – pullar, unga naqd pullar (metall va qog'oz pullar), chekli qo'yilmalar, gohida kredit kartochkalari kiradi. M2 – pullar, unga M1 – cheksiz jamg'arma hisoblaridagi qo'yilmalar, qisqa muddatli qo'yilmalar kiradi. M3 – pullar, unga M2 muddatli yirik qo'yilmalar kiradi.

Pul bozori – pul taklifi va unga bo'lgan talab foiz stavkasi darajasi bilan aniqlanadigan bozor. Pulga talab xo'jalik faoliyati uchun zarur pulga ehtiyojdir. Uning shakllanishining asosiy ikkita sababi mavjud: a) insonlarga har doim tovar va xizmatlarni sotib olish uchun, korxonalarga esa resurslar olish uchun pul zarur bo'ladi; b) insonlar o'zlarining pullarini har xil (aksiya, obligatsiya va h.k.) shaklda saqlaydilar, demak, aktivlar tomonidan pulga talab bo'ladi. Pul bozoridagi talab va taklifning bir-biriga to'g'ri kelishi iqtisodiyot uchun o'ta muhim masala hisoblanadi. Ayrim sabablarga ko'ra muomaladagi pul massasining ko'payib ketishi inflayatsion jarayonlarning zo'rayishiga, jami talabning jami taklifga nisbatan oshib ketishi makroiqtisodiy muvozanatning buzilishiga olib keladi. Pulning muomalada kamayib ketishi ham pirovard natijada jami taklifning jami talabdan oshib ketishi, umuman muvozanatning buzilishiga olib keladi. Shuning uchun pul bozorida talab va taklifni muvozanatlab turish lozim deb hisoblanadi. Buni, asosan, davlat



o'zining chiqargan qimmatli qog'ozlarini sotish va sotib olish natijasida amalga oshiradi, ular ochiq bozorlardagi "operatsiyalar" deyiladi.

Pul bozori dastaklari – pulli dastak bo'lib, uning sohibiga ma'lum bir davr ichida kafolatlangan va qat'iy belgilangan pul daromadi olish huquqini beradi.

Pul emissiyasi – amaldagi pul massasining ortishiga olib keluvchi pullarni muomalaga chiqarish.

Pul islohoti – pulni bekor qilib, yangi pul nusxalarining joriy etilishi. Pul islohoti qog'oz pullarning qadri ketib, ularning to'lov quvvati nolga tenglashib qolgan kuchi inflyatsiya sharoitlarida amalga oshiriladi.

Pul qiymati – pul birligiga almashtirilishi mumkin bo'lgan tovar va xizmatlar miqdori; pul birligini sotib olish qobiliyati; baho darajasiga teskari kattalik.

Pul taklifi (muomaladagi pul miqdori) – metall va qog'oz

Pul tizimi – tovar muomalasi rivojlanishining natijasi bo'lib, davlatlar tomonidan qonunchilik asosida mamlakatda pul muomalasini tashkil etish.

Pulga bo'lgan talab – uy xo'jaliklari va firmalar tomonidan bitimlarda to'lov vositasi sifatida foydalanish, ko'zda tutilmagan xarajatlar uchun saqlab turish, moliyaviy aktivlar sifatida foydalanib, daromad olish uchun jamg'arish maqsadida ega bo'lishga intilgan pul miqdori.

Pulga umumiyl talab – bitimlar uchun pul va aktivlar tomonidan pullarga talab summasi (qarang: pul bozori).

Pullar, talab qilinganda beriladigan omonatlar, chek ko'rinishidagi omonatlar, shuningdek, (pul taklifining bir oz keng ma'nodagi ta'riflarida) muddatli omonatlar, depozitlar va hokazolar.

Pulning miqdoriy nazariysi – pul taklifi va iqtisodiyotdagi baholarning umumiyl darjasini o'rtaSIDagi to'g'ridan to'g'ri bog'liqlikni o'rnatuvchi nazariya. Birinchi bor ingliz faylasufi va iqtisodchisi D. Yum tomonidan XVIII asrda ilgari surildi, amerikalik iqtisodchi I. Fisher tomonidan 1911-yilda rivojlantirildi va keyinchalik Kembrij universiteti iqtisodchilari tomonidan takomillashtirildi.

Pulning muomala tezligi – yil davomida bir so'm (dollar, frank va hokazo)ning o'rtacha necha marta tovar va xizmatlar sotib olishga sarflanganligini ko'rsatuvchi son.

Pulning qadrsizlanishi – xarid quvvatining pasayishi (qarang: inflyatsiya).

Pulning vazifalari – pul vositachiligidagi bajarilishi mumkin bo'lgan tadbirlar bo'lib, ular 5 tani tashkil etadi: a) tovarlarning qiymat o'lchovi vazifasi, ya'ni barcha tovarlarda gavdalangan mehnat miqdori pul orqali o'lchanadi; b) muomala vositasi vazifasi, ya'ni tovarlar oldi-sotdi qilinishi muomalasi pul vositasida amalga oshiriladi; c) jamg'arish, xazina toplash vositasi vazifasi, ya'ni o'zida mehnatni gavdalantirgani uchun boylikning umumiyl shakliga aylanadi va kishilar ehtiyojlaridan ortiqcha pullarni jamg'ara boshlaydilar. Lekin pulning boylik sifatida jamg'arilishi uchun uning qadri, xarid quvvatining saqlanishi muhim ahamiyatga ega; d) to'lov vositasi vazifasi, nasiyaga sotilgan tovarlar va xizmatlar haqi to'langan pul to'lov vositasi vazifasini bajaradi; e) jahon puli vazifasini, tovarlar muomalasi bir mamlakat doirasidan chiqa boshlashi va xalqaro savdoning yuzaga kelishi bilan bog'liq. Jahon puli vazifasini oltin, u bilan bir qatorda konvertlangan valutalar ham bajaradi.

VII BOB

FISKAL (SOLIQ-BUDJET) SIYOSAT

- 7.1. FISKAL SIYOSATINING MOHIYATI VA USULLARI
- 7.2. BUDJET – SOLIQ SIYOSATINING QISQA VA UZOQ MUDDATLI MAQSADLARI, UNING VOSITALARI.
DAVLAT XARAJATLARI MULTIPLIKATORI
- 7.3. SOLIQ VA BALANSLASHGAN BUDJET MULTIPLIKATORLARI
- 7.4. DISKRETSION VA NODISKRETSION FISCAL SIYOSAT.
IQTISODIYOTNING ICHKI O'RNATILGAN STABILIZATORLARI

KIRISH

Davlatning fiskal siyosati siklik tebranishlarni bir maromga keltirish va yuqori bandlik hamda past inflyatsiya sharoitida barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqqa tortish va davlat xarajatlarini tartibga solishga qaratilgan. Fiskal siyosat rag'batlantiruvchi yoki turg'un tavsifga ega bo'lishi mumkin. Rag'batlantiruvchi fiskal siyosati (fiskal ekspansiya) qisqa davrda davlat sarflarini ko'paytirish, soliqlar stavkalarini pasaytirish yoki bu choralarni o'zaro uyg'unlashtirish yo'li bilan siklik tanazzulni yengib o'tish maqsadida ishchan iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirishga yo'naltiriladi. Uzoq davrda soliq stavkalari pasayishi iqtisodiy o'sish sur'atining barqaror jadallahushi va iqtisodiy salohiyatning mustahkamlanishiga olib kelishi mumkin. Yuqorida aniqlangan fiskal siyosat diskretsion (yoki faol) hisoblanadi. Odatda u prezidentning iqtisodiy maslahatchilar kengashi tavsiyasi bilan yuritiladi. Bu prezident tomonidan iqtisodiy masalalarda yordam berish va ularni tekshirish uchun tayinlangan uch iqtisodchi guruhning iqtisodiy yechimlari taklifidan kelib chiqib belgilanadi.

Davlatning, turg'un fiskal siyosati (fiskal restriksiya) qisqa davrda iqtisodiyotning «qizib ketish»ni bartaraf etish maqsadiga ega bo'ladi. U davlat xarajatlarini taqozo etib iqtisodiy o'sish va talab inflyatsiyasi sur'atini pasaytirishga imkon beradi. Fiskal siyosatning iqtisodiy mazmuniga doir turli xil qarashlarni tahlil qilish, aniq iqtisodiy-iijtimoiy tizimlar sharoitida amal qilish xususiyatlarini hamda davlatning iqtisodiyotga samarali ta'sir qilish dastaklaridan ekanligini asoslash va milliy iqtisodiyotning muvozanatligini ta'minlashdagi ustuvor yo'nalishlarini, aniq iqtisodiy tamoyillarini belgilash zarur bo'ladi. Chunki, davlat paydo bo'lishi bilan fiskal siyosat jamiyatdagi turli xil iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishning zaruriy tarkibiy qismi va jamiyat rivojlanishini taqozo qiladigan talablaridan biri bo'lib kelgan. Davlatning iqtisodiy siyosatiga mos ravishda moliyaviy siyosat das-taklari o'zgarib va to'xtovsiz takomillashib borgan.

7.1. FISKAL SIYOSATINING MOHIYATI VA USULLARI

Fiskal siyosat deganda davlat xarajatlarini tartibga solish va davlat qarzdorigining salbiy jihatlarini yumshatish va bandlikka ta'siri bilan bog'liq siyosat tushuniladi.

Fiskal siyosat – bu hukumat tushumlari va xarajatlariga tegishli siyosat. Bu hukumatning budjet siyosatiga ishora qiladi. U davlat xarajatlari, soliqqa tortish va davlat qarzlarini o'zgartirish orqali ishlaydi.

Fiskal siyosat iqtisodiyotni rivojlantirishda muvozanatlashuvchi vosita sifatida ishlataliladi. Zamonaviy fiskal siyosat ma'lum bir vaqtda samarali talab va ta'minot xizmatlari o'rtasidagi muvozanatni ushlab turadigan tarzda davlat xarajatlari va daromadlari ni manipulyatsiya qilish orqali to'liq bandlikka erishish va uni saqlash uslubidir.

Boshqacha qilib aytganda, zamonaviy moliyaviy siyosat funksional moliyalashtirish prinsipini qo'llashdan boshqa narsa emas.

Shuningdek, aynan shu siyosat davlat xarajatlari, soliqqa tortish va davlat qarzlarining daromad, ishlab chiqarish va ish bilan ta'minlashga ta'siri bilan bog'liq.



Samarali va yaxshi moliya siyosati iqtisodiy barqarorlikni saqlash, yuqori ish bilan ta'minlash va iqtisodiy o'sishni jadallashtirish kabi kerakli iqtisodiy maqsadlar nuqtayi nazaridan eng yaxshi natijalarga erishish uchun xarajatlar, soliqqa tortish va davlat qarzlari kabi turli xil fiskal agentlardan mos ravishda foydalanadi.

Davlat fiskal siyosati – bu davlat budgeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi. «Fiskal» lotincha «fiscus» so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni shunchani ham yuzaga keltiradi.

Fiskal siyosatdan iqtisodiyotni tartibga solish va uning muvozanatligini ta'minlash dastagi sifatida foydalanish haqidagi fikr ingliz iqtisodchisi D.M.Keynsga mansubdir. U jamiyat taraqqiyot darajasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarning 3 guruhini ajratib ko'rsatib, birinchi guruhga: ishchi kuchining miqdori va malaka darajasi, mayjud uskunalar soni va sifati, tatbiq etiladigan texnologiya, raqobatning yetuklik darajasi, iste'molchining didi va odatlari, turli jadallikkagi mehnatning og'irligi, nazorat va ishlab chiqarishni tashkil etishning ahamiyati, shuningdek, jamiyatning tarkibiy tuzilishini kiritadi, D.Keyns ikkinchi guruhga mustaqil o'zgaruvchan omillarni: iste'molga moyillik, kapitalning samaradorligi va foiz normasini, uchinchi guruhga bandlik va milliy daromad hajmini kiritgan. D.Keyns iqtisodiyotga davlatning aralashuvni mustaqil o'zgaruvchan omillarga ajratib, u bandlik va milliy daromad hajmiga ta'sir ko'rsatadi deb hisoblangan. Bunda hal qiluvchi shart sifatida davlat fiskal va pul kredit siyosati investitsiyalarni rag'batlantirishda namoyon bo'ladi, deb ko'rsatadi. Soliqlar fiskal siyosatning bir qismi sifatida namoyon bo'lishini K. Makkonell va S. Bryu ko'rsatib uni rag'batlantiruvchi va to'sqinlik qiluvchi siyosatlar sifatida ifodalashga alohida e'tibor qaratadi. «Fiskal siyosatning asosiy maqsadi, – deb yozishadi ular, ishsizlik va inflyatsiyani tugatishdan iboratdir. Tanazzul davrida kun tartibida rag'batlantiruvchi fiskal siyosat to'g'risidagi masala paydo bo'ladi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi:

(1) davlat xarajatlarining ko'payishi yoki (2) soliqlarning pasayishi, yoxud (1) va (2) ni birga qo'shib olib borish. Agar iqtisodiyotda ortiqcha talab tufayli paydo bo'lgan inflyatsiya sodir bo'lsa, bunga to'sqinlik qiluvchi fiskal siyosat mos keladi. Bunday fiskal siyosat quyidagilarni o'z ichiga oladi:

(1) hukumat xarajatlarining kamayishi, yoxud (2) soliqlarning ko'payishi, yoxud (1) va (2) ning birga qo'shib olib borilishi. Fiskal siyosat bashartida iqtisodiyot oldida inflyatsiya ustidan nazorat qilish muammosi turadigan bo'lsa, hukumat budgetining ijobji qoldig'iga tayanishi lozim»¹¹.

¹¹ 3 Economics: principles, problems, and policies / Campbell R. McConnell, Stanley L. Brue – 17th ed. P-210

Fiskal siyosat oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, uning uchta yo'nalishi, ya'ni iqisodiy o'sishni rag'batlantirish, barqarorlashtirish va iqtisodiy faoliyatni chegaralash siyosatlarni alohida ajratib ko'rsatish mumkin. Iqtisodiy o'sish maqsadlaridan kelib chiqib, fiskal siyosat bandlik darajasini va shu orqali YAMM real hajmini oshirishga yo'naltiriladi.

Bunda rag'batlantiruvchi fiskal siyosatning dastaklari davlat xarajatlarining o'sishi va soliq stavkalarining pasayishi hisoblanadi. Boshqacha aytganda, hozirgi davrda davlatning budget barqarorligini ta'minlashga qaratilgan moliyaviy siyosati iqtisodiy inqiroz yoki turg'unlik davrida budget taqchilligini bartaraf etish maqsadlariga qaratilishi zarur. Agar davlat o'zining fiskal va xarajatlar siyosatidan foydalaniib, mahsulot ishlab chiqarish hajmini bir me'yorda ushlab turishga va narxlarning barqarorligini ta'minlashga intilsa, bunda uning iqtisodiyotni barqarorlashtirish orqali iqtisodiy jarayonlarini rag'batlantirish yoki ushlab turishga qaratilgan moliyaviy siyosat turlicha maqsadni ko'zlab, bir-biridan farqlanadi. Davlatning iqtisodiy faollikni cheklash siyosati real YAMM hajmining potensial darajasidan keskin farq qilishini kamaytirishga yo'naltirilib, bu ayni vaqtda iqtisodiy o'sish va uning tanazzuli davrlarida inflyatsiya va ishlab chiqarishdagi inqirozli jarayonlardan qochishga qaratiladi. Iqtisodiyotning siklli rivojlanishini tartibga solish orqali makroiqtisodiy muvozanatlikni ta'minlab borishga qaratilgan fiskal siyosat bir qator moliyaviy vosita va iqtisodiy dastaklar yordamida amalga oshiriladi. Qo'llaniladigan bu barcha moliyaviy vosita va dastaklar birlgilikda tartibga solishning moliyaviy mexanizmini tashkil qiladi.

7.2. BUDJET - SOLIQ SIYOSATINING QISQA VA UZOQ MUDDATLI MAQSADLARI, UNING VOSITALARI. DAVLAT XARAJATLARI MULTIPLIKATORI

Jamiyat xavfsizligi, avtomobil yo'llari yoki boshlang'ich ta'lif kabi tovarlar va xizmatlarni taqdim etishdan va ularga sarflardan tashqari, fiskal siyosati maqsadlari turlicha.


Qisqa muddatda mamlakatlar makroiqtisodiy barqarorlashtirishga e'tiborni qaratishi mumkin, masalan, oqsoq iqtisodiyotni rag'batlantirish uchun xarajatlarni kengaytirish yoki soliqlarni kamaytirish yoki inflyatsiyaning ko'tarilishiga qarshi kurashish yoki tashqi zaifliklarni kamaytirishga yordam berish uchun xarajatlarni qisqartirish yoki soliqlarni oshirish kabilar.

Keyinchalik uzoq muddatli istiqbolda infratuzilma yoki ta'lifni yaxshilash bo'yicha, ta'minot bo'yicha harakatlar bilan barqaror o'sishni ta'minlash yoki qash-shoqlikni kamaytirish bo'lishi mumkin.

Ushbu maqsadlar mamlakatlar bo'yicha keng tarqalgan bo'lsa-da, mamlakat sharoitlariga qarab ularning nisbiy ahamiyati turlicha. Qisqa muddatda, ustuvor yo'nalishlar biznes siklini yoki tabiiy ofat oqibatlarini yoki global oziq-ovqat yoki



yoqilg'i narxlarining ko'tarilishini aks ettirishi mumkin. Keyinchalik uzoq muddatli istiqbolda rivojlanish darajalari, demografik ko'rsatkichlar yoki tabiiy resurslarni jalb qilish omillari bo'lishi mumkin. Qashshoqlikni kamaytirish istagi kam daromadli mamlakatni xarajatlarini birlamchi tibbiy yordamga yo'naltirishga olib kelishi mumkin, rivojlangan iqtisodiyotda pensiya islohotlari keksayib qolgan aholi qatlami bilan bog'liq uzoq muddatli xarajatlarni maqsad qilib qo'yishi mumkin.



Neft ishlab chiqaruvchi mamlakatda, siyosatshunoslar budget xarajatlarini nazorat qilish orqali fiskal siyosatini kengroq makroiqtisodiy o'zgarishlar bilan yaxshi muvofiqlashtirishni maqsad qilishlari mumkin. Bunda albatta, neft narxining yuqorilashi hamda unga nisbatan taklifning tushushi natijasida neft narxlarining ham pasayishiga nisbatan fiskal siyosat yuritishning uzoq muddatli maqsadlarini ko'zda tutadi.

Fiskal siyosat soliq va xarajatlar so'l va tarkibiy siyosati orqali o'sishga yordam beradi. Keng darajada bu makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi, bu iqtisodiy o'sishga erishish va uni saqlashning zaruriy sharti hisoblanadi. Mikro darajada, yaxshi ishlab chiqilgan soliq va xarajatlar siyosati orqali bu ish bilan bandlikni, investitsiyalarni va samaradorlikni oshirishi mumkin. Ta'kidlash joizki:

soliq to'lovlarini kamaytirish va mehnatga soliqlar va ijtimoiy nafaqalar holatini takomillashtirish mehnatni rag'batlantirishni kuchaytirishi va ishchi kuchi ta'minotiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin;

kapitaldan olinadigan daromad solig'ini soliq rentasiga mos ravishda isloh qilish buzilishlarni kamaytiradi va xususiy investitsiyalarni rag'batlantiradi; aniq yo'naltirilgan soliq imtiyozlari xususiy investitsiyalarni rag'batlantirishi va tadtqiqotlar va tajribalarni ishlab chiqish (ilmiy-tadtqiqot ishlari) orqali samaradorlikni oshirishi mumkin;

samarali davlat investitsiyalari, ayniqsa infratuzilma, iqtisodiyotning ishlab chiqarish salohiyatini oshirishi mumkin;

ta'lim va sog'liqni saqlash xizmatlaridan yanada adolatli foydalanish o'sishning asosiy omili bo'lgan inson kapitalining to'planishiga yordam beradi;

agar o'sishga mos islohotlar moliya maydonini talab qilsa, daromad choralar soliq bazasini kengaytirish va buzilishlarni minimallashtirishga qaratilishi kerak; va xarajatlar bo'yicha chora-tadbirlar sarf-xarajatlarni ratsionalizatsiya qilish va samaradorlikni oshirishga qaratilgan bo'lishi kerak¹².

Fiskal siyosat multiplikatorlari multiplikatorni nima sabab bo'lishiga qarab 3 xil:

- ❖ davlat xarajatlari multiplikatori;
- ❖ soliq multiplikatori;
- ❖ muvozanatli budget multiplikatori.

Soliqlarni kamaytirishdan farqli o'laroq, davlat xarajatlari to'g'ridan to'g'ri iqtisodiyotni rag'batlantiradi, bu esa hukumat sotib olgan mahsulotlar va xizmatlar sotuvchilarining daromadlarini oshiradi.

Davlat xarajatlari multiplikatori hukumat xarajatlarining o'zgarishi iqtisodiy ishlab chiqarish muvozanatli darajasi o'zgarishi nisbati. Oddiy iqtisodiy modeldan foydalangan holda, davlat xarajatlari multiplikatori jamg'armaga cheklangan moyillik (MPS) bilan teskari bog'liqligini ko'rsatishi mumkin.

Xususiy sarmoyalar singari, davlat xarajatlarining ko'payishi milliy daromadning ko'payishiga olib keladi.

Shunday qilib, uning milliy daromadga ta'siri kengayadi. Shunday qilib, daromadni rag'batlantirish uchun bo'shliqni davlat xarajatlari bilan to'ldirish kerak.

Biroq, daromadlarning o'sishi davlat xarajatlarining ko'payishidan kattaroqdir. Davlat xarajatlari o'zgorganidan keyin daromadlarning o'zgarishiga ta'siri K_G bilan ifodalangan davlat xarajatlari multiplikatori deb ataladi.

Davlat xarajatlari multiplikatori, demak, daromad (ΔY) o'zgarishi va davlat xarajatlari o'zgarishiga (ΔG) nisbati. Shunday qilib,

$$\Delta Y = \frac{1}{1-MPC} * \Delta G \text{ yoki } \frac{\Delta Y}{\Delta G} = \frac{1}{1-MPC}$$

Yoki,

$$K_G = \frac{1}{1-MPC} = \frac{1}{MPS}$$


Investitsiya multiplikatori K ham bir xil,

$$K_1 = \frac{1}{1-MPC}, \quad \Delta K_1 = K_G$$

¹² Imf policy paper/Fiscal policy and long-term growth/2015/p_4



Davlat xarajatlari o'zgarishi ta'siri 9.2.1-chizmada grafik jihatdan tasvirlangan, bu yerda $C + I + G_1$ boshlang'ich talablar chiziq'i. E_1 – bu dastlabki muvozanat nuqtasi va shunga muvofiq daromad darajasi OY_1 , agar hukumat ko'proq mablag' sarflashni rejalashtirsa, unda talabning umumiy jadvali $C+I+G_2$ ga o'tadi. Ushbu chiziq E_2 da 45° chiziqni kesganda, daromadning yangi muvozanat darajasi OY_2 ga ko'tariladi. Bu boshlang'ich darajasidan kattaroq hisoblanadi. 7.2.1-rasmdan ko'rinib turibdiki, daromadning o'sishi (ΔY) davlat xarajatlarining o'sishidan (ΔG) kattaroqdir.



7.2.1-chizma. Davlat xarajatatlari multiplikatori.

Daromadga davlat xarajatlarining ushbu kengaytiruvchi ta'sirining sababi shundaki, davlat xarajatlarining ko'payishi daromadlarning o'sishini tashkil etadi va shu bilan iste'molning ketma-ket o'sishiga olib keladi, bu esa daromadlarning ko'payishini tashkil etadi. Biroq, MPC qanchalik katta bo'lsa, daromadning oshishi shunchalik katta bo'ladi.

7.3. SOLIQ VA BALANSLASHGAN BUDJET MULTIPLIKATORLARI

Soliq multiplikatori – hukumat tomonidan kiritilgan soliqlarning o'zgarishi tufayli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotida (YAIM) kuzatilgan o'zgarishni ifoda etadi.

Soliq multiplikatori – bu soliqlarning o'zgarishiga qarab milliy daromadning o'zgarishini ko'rsatadigan salbiy koeffitsiyent. Soliqlarning ko'payishi daromadlarning pasayishiga olib keladi.

Oddiy qilib aytganda, ushbu ko'rsatkichdan asosan investorlar, iqtisodchilar va hukumatlar soliqqa tortishdagи siyosat o'zgarishlarining aholining umumiy daromad darajasiga ta'sirini o'rganish uchun foydalanadilar.

Soliq multiplikatori ikki versiyada ifodalanishi mumkin:

- Soliq multiplikatorining oddiy versiyasida soliqning har qanday o'sishi yoki kamayishi faqat iste'molga ta'sir qiladi (va investitsiyalarga, davlat xarajatlariga va boshqalarga ta'sir qilmaydi) deb qaraladi;

$$TM_s = \frac{MPC}{MPS} = \frac{-(MPC)}{1-MPC}$$

TM_s – (simple tax multiplier) oddiy soliq multiplikatori;

MPS – (marginal prosperity to save) jamg'armaga cheklangan moyillikni anglatadi (MPS); va

MPC – (marginal prosperity to consume) iste'molga cheklangan moyillik.

$$MPS = 1 - MPC$$

- Soliqlarning o'zgarishi YAIMning barcha tarkibiy qismlariga ta'sir ko'rsatadigan kompleks soliq multiplikatori.

$$TM_c = \frac{MPC}{1 - ((MPC * (1 - MPT)) + MPI + MPG + MPM)}$$

TM_c – (complex tax multiplier) kompleks soliq multiplikatori

MPC – (marginal prosperity to consume) iste'molga cheklangan moyillik

MPT – (marginal prosperity to tax) soliqqa nisbatan chekka moyillik

MPI – (marginal prosperity to invest) sarmoyalarga cheklangan moyillik

MPG – (marginal prosperity of government expenditures) davlat xarajatlari ning chekka moyilligi

MPM – (marginal prosperity to import) import qilishga cheklangan moyillik

Balanslashgan budget multiplikatori degani, davlat xarajatlarining o'zgarishi soliqlarning o'zgarishi bilan to'liq mos keladi. Agar davlat xarajatlari va soliq tushumlari bir xil miqdorda oshsa, milliy daromad yoki mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'payadimi yoki bir xil bo'lib qoladimi? degan savol paydo bo'ladi albatta.

Klassik iqtisodchilar, mahsulot ishlab chiqarish hajmi yoki daromad darajasi o'zgarishsiz qolganda muvozanatli budgetni neytral ekanligini ta'kidlashadi.


Biroq, Keyns va uning izdoshlari, aslida uning daromadga ta'siri nol yoki neytral bo'lmaydi, deb ta'kidlaydilar. Boshqacha qilib aytganda, biz muvozanatli budgetning milliy daromadga kengaytiruvchi ta'sirini bilib olishimiz mumkin

Muvozanatli budgetning kengaytiruvchi ta'sirini balanslashgan budget multiplikatori deyishimiz mumkin. Bunda soliqlarning ko'payishi bilan mos keladigan davlat xarajatlarining ko'payishi daromadlarning bir xil miqdordagi sof o'sishiga olib keladi.

Shunday qilib, balanslashgan budget multiplikatori, davlat xarajatlarining ko'payishi va soliqlarning ko'payishi natijasida hosil bo'lgan daromadning sof o'sishi sifatida 1 qiymatiga ega bo'ladi, bu natija muvozanatli budget teoremasi yoki



umumiyligi multiplikatori (unit multiplier) teoremasi deb nomlanadi, va bu qiymat MPC qiymatidan qat'i nazar 1ga ega bo'lishi kerak.



7.3.1-chizma. Balanslashgan budget multiplikatori (BBM)

$$\alpha = 45^\circ$$

BBM ni 7.3.1-rasm bilan izohlashimiz mumkin, bu yerda

C_1 – bu soliq – xarajatlar dasturining ishga tushirilishidan avvalgi iste'mol liniyasi, C_2 – soliqdan keyingi iste'mol liniyasi hisoblanadi.

DE to'g'ri chiziq soliq tushumidir. Agar soliq tushumining butun DE miqdori hukumat tomonidan sarflansa, yalpi talab egri chiziq'i $C_2 + I + G$ bilan ifodalanadi, bu yerda investitsiyalar va davlat xarajatlari avtonom deb qabul qilinadi.

Yalpi talab egri chiziq'i 45° burchak ostida kesib o'tgan $Y=C+S$ chiziqni F nuqtada kesib o'tadi. Natijada milliy daromad OA dan OB gacha ko'tariladi. $AB = DE = EF$ ekanligini unutmang.

AB daromadning o'sishini (ΔY), DE soliqning o'sishini (ΔT) va EF davlat xarajatlari o'sishini (ΔG) ifodalaydi, biz yuqoridagilardan foydalangan holda:

$$\Delta Y = \Delta T = \Delta G$$

$$\Delta Y / \Delta G = \Delta Y / \Delta T = 1$$

U shuningdek quyidagi tarzda ifodalanishi mumkin:

$$K_B = K_G + K_T$$

K_T – soliq multiplikatori va u negativligi uchun minus hisoblanadi.

K_G – davlat xarajatlari multiplikatori

Kengaytirilgan shakli esa:

$$K_B = \frac{1}{MPS} - \frac{MPC}{MPS} = \frac{1-MPC}{MPS}$$

$$K_B = \frac{1-MPC}{1-MPC} = 1$$

K_G ijobjiy va K_T salbiy bo'lganligi sababli, muvozanatlari budgetning aniq ta'siri neytral emas. Daromad davlat xarajatlari va soliq tushumining o'zgarishiga teng bo'lgan miqdorga o'zgaradi. Shunday qilib, balanslashgan budget multiplikatori qiymati 1 ga teng bo'lishi kerak.

7.4. DISKRETSION VA NODISKRETSION FISCAL SIYOSAT. IQTISODIYOTNING ICHKI O'R NATILGAN STABILIZATORLARI

Ma'lumki, iqtisodiyot nazariyasi va amaliy hayotda fiskal siyosatning ikkita turi ajratiladi: Diskretsion fiskal siyosat yoki bevosita davlat tomonidan amalga oshiriladigan siyosat;

Diskretsion fiskal siyosat – bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflyatsiya ustidan nazorat o'rnatish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulatsiya qilish tushuniladi.

Diskretsion fiskal siyosatning asosiy dastaklari quyidagilar hisoblanadi:

- ✓ Davlat sarflari bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy ishlar va boshqa dasturlari;
- ✓ Davlat buyurtma va xaridlari;
- ✓ Davlat investitsiyalari;
- ✓ Transfert yoki qayta taqsimlash turidagi xarajatlarni o'zgartirish;
- ✓ Soliqlarni boshqarish.

Shunday qilib, davlat tomonidan amalga oshiriladigan fiskal siyosat, mamlakat milliy xo'jalikda tashkil qilingan soliq tizimining asosiy qoidalariiga javob berishi va iqtisodiyotdagii ichki o'zaro munosabatlarni samarali tartibga solishi zarur.

2. Nodiskretsion fiskal siyosat yoki avtomatik ravishda barqarorlashtiruvchi siyosat.

Nodiskretsion fiskal siyosat deyilganda, soliq tizimining mustaqil barqarorlashtiruvchi bir qator layoqatlari, ya'ni uning mamlakatdagi iqtisodiy faoliytni qandaydir boshqaruvchi organlarning bevosita aralashuvlarsiz tartibga solish imkoniyatini beruvchi ayrim xususiyatlari tushuniladi.

Ishlab chiqarishning birdaniga va tez o'sish holatini yumshatish uchun budget daromadlar qismining xarajatlar qismiga nisbatan ortiqcha bo'lishi zarur.



Boshqa tomonidan yondashilsa, bunday «yumshatish» uchun aksincha, budjet kamomadi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Shunday ekan, iqtisodiyotni tartibga solishni faqat avtomatik ravishda barqarorlashtiruvchi vositalar yordamida amalga oshirish mumkin emas, shu sababli davlatning diskretsion siyosati bunga zaruriy to'ldiruvchi hisoblanadi.

Avtomatik stabilizatorlar (iqtisodiyotda ichki o'rnatilgan stabilizatorlar) – bu hukumat yoki siyosatshunoslar tomonidan qo'shimcha, o'z vaqtida ruxsat berilmagan holda, o'zlarining normal ishlashi orqali millatning iqtisodiy faoliyatidagi tebranishlarni qoplash uchun mo'ljallangan soliq siyosatining bir turi.

Barchaga ma'lum bo'lgan stabilizatorlar bosqichma-bosqich yumshatilib boriladigan yuridik va jismoniy shaxslarning daromad solig'i, ishsizlikdan sug'urta va ijtimoiy ta'minot kabi transfert tizimlari hisoblanadi.

Avtomatik stabilizatorlar – bu biznes sikli jarayonida xarajatlar, iste'mol va daromadlarni qamrab oladigan soliq stavkalarini hamda pul o'tkazmalari va shu kabilarni avtomatik ravishda amalga oshiriladigan mamlakat siyosatidir.

Avtomatik stabilizatorlar iqtisodiy sikllarni barqarorlashtirish uchun harakat qiladi va hukumat qo'shimcha harakatlarisiz avtomatik ravishda ishga tushiriladi. Avtomatik stabilizatorlar fiskal siyosatning bir turi bo'lib, uni Keyns iqtisodiyoti iqtisodiy zaiflik va tanazzulga qarshi kurash vositasi sifatida ma'qul ko'radi.

Iqtisodiy tanazzullar keskin yoki davomli bo'lgan taqdirda, mamlakatlar iqtisodiyotni yangi bosqichga o'tishga urinish uchun avtomatik stabilizatorlarni bir martalik yoki vaqtincha rag'batlantirish siyosati bilan qo'llab-quvvatlaydilar.

Avtomatik stabilizatorlar, avvalambor, salbiy iqtisodiy shoklarga yoki turg'unliklarga qarshi kurashish uchun mo'ljallangan, ammo ular kengayib borayotgan iqtisodiyotni «sovitish» yoki inflyatsiyaga qarshi kurashish uchun ham mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ushbu siyosat odatdagisi faoliyatiga ko'ra, tez o'sishda va yuqori daromadli iqtisodiyot uchun soliq islohotini amalga oshiradi hamda mamlakat budgetini qo'llab-quvvatlashga mo'ljallanishi mumkin. Ular iqtisodiy faoliyat sustlashganda yoki daromadlar pasayganda, davlat xarajatlari yoki soliqni qaytarish shaklida ko'proq pulni iqtisodiyotga qaytaradilar. Buning maqsadi iqtisodiyotni biznes siklidagi o'zgarishlardan yumshatishdir.

Avtomatik stabilizatorlar soliqlarning progressiv tuzilmasidan foydalanishni o'z ichiga olishi mumkin, uning asosida soliqlar tarkibida olinadigan daromadning ulushi daromadlar ko'p bo'lganda yuqori bo'ladi. Daromad turg'unlik, ish

o'rinalarining qisqarishi yoki investitsiyalarning nofaol harakati tufayli daromadlar quyilashganda, bu miqdor ham quyiga tushadi. Masalan, jismoniy shaxs ko'proq ish haqi olayotgani sababli, ularning qo'shimcha daromadlari amaldagi darajadagi tuzilishga asosan yuqori soliq stavkalariga tortilishi mumkin. Agar ish haqi tushishi kuzatilsa, jismoniy shaxs o'z daromadlari ko'rsatmasi bo'yicha quiyi soliq darajalarida qoladi.

Shuningdek, ishsizlik sug'urtasi uchun to'lovlar iqtisodiyot barqaror o'sish bosqichida pasayadi, chunki ishsizlar soni barqaror o'sish tufayli kamayadi hamda ishsizlik sug'urtasi uchun da'vo qilayotganlar kamroq bo'ladi. Iqtisodiyot tanazzulga uchragan va ishsizlik yuqori bo'lgan paytda ishsizlik to'lovleri ko'payadi. Biror kishi ishsizlikdan sug'urta qilish huquqini beradigan tarzda ishsiz qolsa, unga nafaqa olish uchun faqat ariza kerak. Taklif qilinadigan nafaqa miqdori turli xil davlat va milliy qoidalar va standartlar bilan tartibga solinadi, bu esa yirik davlat tashkilotlarining arizalarni ko'rib chiqishdan tashqari aralashuvini talab qilmaydi.

Avtomatik stabilizatorlar, shuningdek, aniq qonunchilik ruxsatini talab qilishi mumkin bo'lgan fiskal siyosatining boshqa shakllari bilan birgalikda ishlatalishi mumkin. Bunga misol qilib soliqlarni bir martalik qisqartirish yoki qaytarish, davlat investitsiyalari xarajatlari yoki korxonalar yoki uy xo'jaliklariga to'g'ridan to'g'ri davlat tomonidan subsidiya to'lovleri kiradi.

Takrorlash uchun savollar

- 1** Davlatning fiskal siyosati deganda nimani tushunasiz?
- 2** Fiskal siyosat instrumentlarini sanang.
- 3** Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi talabga ta'sirini tushuntiring.
- 4** Fiskal siyosat turlari.
- 5** Fiskal siyosat instrumentlarining yalpi taklifga ta'sirini tushuntiring.



Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1> O'zbekiston «Iqtisodiy erkinlik indeksi-2020» hisobotida o'z natijasini avvalgisiga nisbatan 26 pog'ona yaxshilab 114-o'rinni egalladi. («Heritage Foundation» (Meros Jamg'armasi) tadqiqot markazi tomonidan «Wall Street Journal» bilan hamkorlikda 1995-yildan buyon yuritiladi.)
- 2> Yuqoridagi hisobotning fiskal siyosat, soliq yuki va davlat xarajatlari kabi 3 ko'satkichida qanday natijalarni qayd etganligini bayon qiling.
1. Fiskal va pul-kredit siyosatining qiyosiy jadvali:

Taqqoslash	Fiskal siyosat	Pul-kredit siyosati
Ma'nosi	davlat xarajatlarini tartibga solish va davlat qarzdorligining salbiy jihatlarini yumshatish va bandlikka ta'siri bilan bog'liq siyosat	bu markaziy bankning pul muomalasini boshqaruvchi harakatlari va aloqalaridir
Tomonidan boshqariladi	Mamlakat Moliya vazirligi	Mamlakat Markaziy banki
Murakkablik		
Tabiat		
E'tibor markazi		
Ishlash jarayoni		
Uning siyosiy ta'siri bormi?		
Siyosatda ishlatalidigan vositalar		

Masalalar

- 1> Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan: Iste'mol funksiyasi $C = 800 + 0,9(Y - T)$, davlat xarajatlari $G = 500$, investitsiyalar hajmi $I = 360$, soliqlar hajmi $T=400$. Quyidagilarni aniqlang: a) muvozanatli YalM; b) soliqlar va davlat xarajatlari multiplikatorlari; d) agar potensial YalM 15000 teng bo'lsa, unga erishish uchun davlat xarajatlarini qay tarzda o'zgartirishi zarur?
- 2> Agar jamg'arish funksiyasi $S = -300 + 0,5Yd$ kordinishga ega bo'lsa, milliy daromad o'zgarishi 20 trln so'mni tashkil etishi uchun davlat soliqlar hamda o'z xarajatlarini qanday miqdorga o'zgartirishi lozim? Bunday vaziyatda oddiy va soliq multiplikatorlari qanday bo'ladi?

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Avtomatik stabilizatorlar – bu biznes sikli jarayonida xarajatlar, iste'mol va daromadlarni qamrab oladigan soliq stavkalarini hamda pul o'tkazmalari va shu kabilarni avtomatik ravishda amalga oshiriladigan mamlakat siyosatidir.

Davlat xarajatlari multiplikatori – hukumat xarajatlarining o'zgarishini iqtisodiy ishlab chiqarish muvozanatlari darajasi o'zgarishiga nisbati. Oddiy iqtisodiy modeldan foydalangan holda, davlat xarajatlari multiplikatori jamg'armaga cheklangan moyillik (MPS) bilan teskari bog'liqligini ko'rsatishi mumkin.

Diskretion fiskal siyosat – milliy ishlab chiqarish hajmiga, bandlikka, inflyatsiyaga ta'sir etish maqsadida, davlat tomonidan ongli ravishda soliq solish va davlat xarajatlarini tartibga solish tushuniladi, tanazzul sharoitida unga muvofiq davlat sarflari oshiriladi, soliqlarning pasayishi bilan qo'shib olib boriladi, natijada kamomadni moliyalashtirishga, ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi. Inflyatsiya sharoitida diskretsion siyosat davlat sarflarini kamaytirish, soliqlar miqdorini oshirish, davlat sarflarini qisqartirish bilan soliq miqdorini oshirishni qo'shib olib borishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budgetining ijobjiy saldoga ega bo'lishiga olib keldi. Real hayotda, iqtisodiyotda har xil omillar harakat qiladi. Shuning uchun muvofiq fiskal siyosatni ishlab chiqish juda qiyindir.

Fiskal siyosat – bu davlat budgeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi. "Fiskal" lotincha "fiscus" so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni bildiradi. Bu o'z navbatida "xazina siyosati" degan tushunchani ham yuzaga keltiradi. Davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosatdir. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi – iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir.

Nodiskretsion fiskal siyosat – iqtisodiy konyunkturani o'zgartirish sababli davlat budgeti sarflari va soliqlarning nisbiy darajalaridagi avtomatik o'zgarishlar. Avtomatik deganda shunday iqtisodiy mexanizm tushuniladiki, u iqtisodiy ahvolning o'zgarishiga tezda javob qaytaradi, bunda hukumat hech qanday choralar ko'rmaydi Unga birinchidan soliq tushumlarining o'zgarishi kiradi. Soliqlar miqdori esa daromadlarga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun yalpi milliy mahsulotning o'sishi sharoitida, ya'ni iqtisodiyotning ko'tarilishi sharoitida soliq tushumlari avtomatik tarzda oshib boradi, bu esa sotib olish qobiliyatining pasayishi va iqtisodiy o'sishini to'xtatish turadi.

Soliq multiplikatori – hukumat tomonidan kiritilgan soliqlarning o'zgarishi tufayli iqtisodiyotning yalpi ichki mahsulotida (YAIM) kuzatilgan o'zgarishni ifoda etadi.



VIII BOB

MONETAR (PUL-KREDIT) SIYOSATI

- ▶ 8.1. BANK TIZIMI. MARKAZIY BANK VA TIJORAT BANKLARI
- ▶ 8.2. MONETAR SIYOSATNING MAQSADLARI VA VOSITALARI
- ▶ 8.3. MONETAR SIYOSATNING MEXANIZMI, UNING SOLIQ VA VALUTA SIYOSATI BILAN ALOQADORLIGI

KIRISH

Bank deb, pul mablag'larini yig'uvchi, saqlab beruvchi, kredit-hisob va boshqa vositachilik operatsiyalarini bajaruvchi muassasalarga aytildi. Banklar paydo bo'lishining asosi bo'lib tovar-pul munosabatlarining rivojlanishi hisoblanadi. Tovar-pul munosabatlarining bo'lishi va ularning rivojlanib borishi barcha ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda banklarning ham bo'lismeni taqozo etadi.

Banklar o'rta asrlarda puldorlar tomonidan pulni qabul qilish va boshqa davlat, shahar puliga almashtirib berish asosida kelib chiqqan. Keyinchalik puldorlar o'z bo'sh turgan mablag'laridan foyda olish maqsadida ularni vaqtincha foydalanishga mablag' zarur bo'lgan subyektlarga ssudalar berishgan. Bu hol pul almashtiruvchi puldorlarning bankirlarga aylanishiga olib kelgan.

Bank so'zi italyancha «banka» so'zidan olingen bo'lib, «stol», «pullik stol» degan ma'noni anglatadi, chunki o'rta asrlarda italiyalik puldorlar hamyonlaridagi, idishlaridagi tangalarni stol ustiga qo'yib hisob-kitob qilganlar.

XII asrlarda Genuyada pul almashtiruvchilarni «bancheri» deb atalib, agar puldorlarning qaysi biri ishonchni oglamasa va ishiga mas'uliyatsizlik qilsa, u o'tirgan stol sindirib tashlangan va uni «Bancorotto», ya'ni bankrot deb atashgan. Banklar paydo bo'lishining boshlang'ich nuqtasi bo'lib XVI asrda Florensiya va Venetsiyada tashkil qilingan kichik jiro-banklar hisoblanadi. Keyinchalik bunday banklar Amsterdamda (1605), Gamburgda (1618), Milanda, Nyurenbergda, Genuyada vujudga kelgan. Bu banklar asosan o'z mijozlari – savdogarlarga xizmat qilgan, ular o'rtasida naqd pulsiz hisob-kitoblarni olib borgan.

Angliya bank tizimi (XVI asr) yuzaga kelgan va rivojlangan birinchi davlat hisoblanadi. Angliya bankirlari oltinni saqlab beruvchilar va savdogarlardan kelib chiqqan.

Tarixda birinchi yuzaga kelgan bank Angliya banki hisoblanadi, u 1694-yilda aksioner bank sifatida tashkil bo'lgan. Keyinchalik sanoat rivojlanishi natijasida banklar boshqa mamlakatlarda ham tashkil bo'lgan.

Natural xo'jalik munosabatlarining tugashi, savdo-sotik munosabatlarining rivojlanishi pullik hisob-kitoblar olib borishga, kredit tizimining rivojlanishiga yo'l ochdi.

Ssuda kapitalisti asosan o'z bo'sh mablag'ini qarzga berib ssuda foizi sifatida daromadga ega bo'lsa, bankirlar asosan chetdan jalb qilingan mablag'larni kreditga berib foydaga ega bo'ladi. Banklar korxona, tashkilot, davlat muassasalari, aholi bo'sh pul mablag'larini jalb qilish orqali katta hajmdagi mablag'ni jamlab uni harakatini boshqaradi. Banklarni yiriklashuvi va ular faoliyatini takomillashuvi ularni maxsus korxonalar – kredit muassasalariga aylanishiga olib keldi.

Bozor munosabatlari sharoitida banklar iqtisodiyotni samarali boshqarishning muhim subyekti hisoblanadi. Banklar bozor munosabatining boshqa subyektlaridan farq qilib pul bilan ishlovchi, vaqtincha bo'sh turgan pul mablag'larni yig'uvchi, uni unga ehtiyoj sezgan subyektlarga vaqtincha foydalanishga berib turuvchi va pul mablag'larini samarali ishlatisht asosida o'z faoliyatini olib boruvchi muassasa hisoblanadi.

Banklar bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi subyekt hisoblanib, moddiy ishlab chiqarishni tashkil qilish va olib borishda vositachi



sifatida kapital aylanishining uzluksizligini ta'minlab jamiyatning ravnaq topishiga, iqtisodiyotning rivojlanishiga, jamiyat a'zolari farovonligiga zamin yaratadi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tovar-pul munosabatlarning keng miqyosda rivojlanishi banklar oldida yangidan-yangi operatsiyalar bajarishga imkoniyat ochib beradi.

Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamонави bank tizimi yaratish zaruriyati tug'ildi.

O'zbekiston Respublikasi «Bank siri to'g'risida»gi qonunning 3-moddasiga bi-noan quyidagilar bank siri hisoblanadi:

- o'z mijozlarining (vakillarining) operatsiyalari, hisob varaqlari va omonatlari-ga doir ma'lumotlar;
- bank o'z mijoziga (vakiliga) bank xizmatlari ko'rsatishi munosabati bilan mazkur mijoz (vakil) to'g'risida olgan ma'lumotlar;
- mijozning (vakilning) bank seyflari va binolarida saqlab turilgan mol-mulki, uning xususiyati va qiymati haqidagi ma'lumotlar;
- mijoz (vakil) topshirig'iga binoan yoki uning foydasini ko'zlab amalga oshirilgan banklararo operatsiyalar va bitimlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning banklar o'rtasida muomalada bo'lishi natijasida ma'lum bo'lib qolgan boshqa bankning mijoziga (vakiliga) doir ma'lumotlar.

Bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlar mijozning (vakilning) o'ziga, u vakolat bergen vakillarga, shuningdek, hisob palatasiga (uni zimmasidagi vazifaga kirsa), tergov, prokuratura va surushturuv organlariga (tergovchi va surishtiruvchining asoslangan qaroriga ko'ra qo'zg'atilgan jinoyat ishi mavjud bo'lganda) taqdim etiladi.

8.1. BANK TIZIMI. MARKAZIY BANK VA TIJORAT BANKLARI

Hozirgi vaqtida jahonda umum qabul qilingan bank tizimi ikki pog'onali bo'lib, u markaziy bank va tijorat banklari tarmog'ini o'z ichiga oladi.

Bank tizimini bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib qayta tashkil etish quyidagi tamoyillarga asoslangan holda olib boriladi:

- xorijiy va mahalliy investorlarning ishonchini qozonish maqsadida bank-moliya tizimi barqarorligiga erishish;
- bank tizimidagi islohatlar umumiqtisodiy islohotlarning o'tkazilishi bilan mos kelishi;
- bank-moliya tizimini bosqichma-bosqich takomillashtirish yo'li bilan jahon banki tizimiga yaqinlashtirish;
- pul-kredit siyosatini olib borishda mamlakatning ichki ehtiyojini va uning iqtisodining xususiyatini hisobga olish;
- banklar faoliyatida mijozlar manfaatini ustun qo'yish va boshqalar.

Jahon amaliyotidagi hozirgi mavjud banklarning rivojlanishini quyidagi ikki davrga bo'lish mumkin:

1. Birinchi davr – bu O’zbekiston mustaqillikka erishgungacha bo’lgan davrdagi bank tizimi.

2. Ikkinchchi davr – O’zbekiston mustaqillikka erishgandan keyingi davrdagi bank tizimi.

Bank tizimi rivojlanishining birinchi davri quyidagi bosqichlarni o’z ichiga oladi:

Birinchi bosqich XIX asrning oxiridan 1930–32-yillargacha bo’lgan davrni o’z ichiga olib bunda oldingi mavjud bo’lgan banklar zaminida sobiq ittifoqning kredit tizimi tashkil qilindi. Bu davrda shu vaqtdagi iqtisodiyotning rivojlanishiga mos keluvchi tarmoq banklari, o’lka banklari, tijorat banklari, maxsus banklar, davlat banklari kabi banklar faoliyat ko’rsatgan.

Ikkinci bosqich 1932-yildan 1959-yillargacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda banklar korxonalarini veksel orqali kreditlashdan (egri kreditlash) to’g’ridan to’g’ri kreditlashga o’tdi. Bunda banklar xalq xo’jaligi sohalari bo’yicha tashkil qilindi va ular shu sohalarga muddatli kreditlash va moliyalashtirish bilan shug’ulangan. Davlat banki asosan qisqa muddatli kreditlashni olib borgan.

Uchinchi bosqich 1959-yildan 1988-yilgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bunda mavjud tarmoq banklari qayta tashkil qilinib mamlakatdagi barcha kredit munosabatlarni olib borish maqsadida uchta yirik bank – Davlat banki, qurilish banki, tashqi savdo banki tashkil qilindi. Davlat banki xalq xo’jaligining barcha sohalariga (qishloq xo’jaligiga o’zoq muddatli kredit ham) qisqa muddatli kredit berган. Qurilish banki kapital quylmalar bilan bog’lik operatsiyalarini bajargan. Tashqi savdo banki mamlakatning eksport-import operatsiyalarini bajargan.

To’rtinchi bosqich bank tizimini qayta tashkil qilish bosqichi bo’lib, u 1988-yildan 1990-yilgacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrda davlat banki bilan bir qatorda ko’plab maxsus tarmoq banklari tashkil etildi.

Bu davr bozor iqtisodiyoti talablaridan kelib chiqib ikki pog’onali bank tizimiga o’tish bilan ham bog’liq.

Xalqaro amaliyotda ikki pog’onali bank tizimi Vengriyada 1987-yilda, SSSR-da 1988-yildan, Polshada 1989-yildan, Bolgariya, Ruminiya va Chexoslavakiyada 1990-yildan joriy etilgan.

O’zbekiston Respublikasining bank tizimi va uning rivojlanish bosqichlari. Respublikamiz mustaqilligining e’lon qilinishi butun dunyo mamlakatlari tomonidan tan olingen bozor iqtisodiyoti dastaklarini bizning respublikamizga ham kirib kelishiga zamin yaratdi. Shuning uchun ham respublikamizda bozor iqtisodiyoti talablariga mos keluvchi zamonaviy bank tizimini yaratish zaruriyati tug’ildi.

Bank tizimini qayta qurish:

- ikki pog’onali bank tizimini vujudga keltirish. Markaziy emission bank va bevosita xo’jalik subyektlariga xizmat ko’rsatuvchi ixtisoslashgan davlat banklari;

- ixtisoslashtirilgan banklarni to’laligicha xo’jalik hisobiga va o’z-o’zini moliyalashga o’tkazish;

- iqtisodiy tizim doirasida yuridik va jismoniy shaxslar bilan bo’ladigan kredit munosabatlari, uslublari va shakllarini takomillashtirish va boshqalarni o’z ichiga oladi.



Markaziy bank va uning funksiyalari. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki faoliyatining asoslari

Markaziy bank – kredit tizimining bosh banki bo'lib, mamlakatda pul-kredit siyosatini, emissiya jarayonlarini olib boradi.

Birinchi markaziy banklar bundan qariyb uch yil oldin tijorat banklarining rivojlanishi natijasida vujudga kelgan. Bular 1668-yilda tashkil bo'lgan Shved Riks Jiro banki, 1694-yilda tashkil qilingan Angliya banklaridir.

Yevropa mamlakatlarida Markaziy banklar ancha kechroq, asosan XVIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab faoliyat ko'ssata boshlagan. AQSHda Markaziy bank funksiyasini 12-federal rezerv bankidan iborat federal rezerv tizimi bajaradi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 1992-yilning sentabr oyidan sobiq SSSR davlat bankining Respublika bo'limi zaminida paydo bo'lgan.

Jahon amaliyotida Markaziy banklar vujudga kelishining ikki asosiy yo'li mavjud:

Birinchi yo'l – o'zoq davr mobaynida tijorat banklarining rivojlanishi natijasida ularni Markaziy bankka aylanishi. Shu holat 1844-yilda Angliyada, 1848-yilda Fransiyada, 1874-yil Ispaniyada, 1875-yilda Germaniyada (Reyxsbank), 1893-yilda Italiya Markaziy banklari tashkil bo'lishi bilan bog'liq.

Ikkinci yo'l – bir yo'la Markaziy bank – emission markaz sifatida tashkil qilingan banklar. Bunday banklarga AQSHning federal banklari, 1913-yildan tashkil etila boshlangan Lotin Amerikasi mamlakatlari banklari, Avstriya Markaziy banki va boshqalarni kiritish mumkin.

Markaziy bank iqtisodiyotni boshqarishda va bank tizimini nazorat qilishda muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun ham uning faoliyati uning Ustaviga nisbatan yuqori kuchga ega bo'lgan qonun bilan tartibga solinadi. Markaziy bank alohida statusga ega bo'lgani holda butun bank tizimini, davlat organlarini nazorat qilib uning faoliyati, vazifalari va yuklatilgan majburiyatlar uni tijorat faoliyati chegarasidan chiqadi.

Respublikamizda Markaziy bank to'g'risidagi qonun 1995-yilni 21-dekabrdagi qabul qilinib 2002-yilda unga ayrim o'zgartirishlar kiritilgan.

Qonunning 3-moddasiga ko'ra Markaziy bankning bosh maqsadi milliy valutani barqarorligini ta'minlash hisoblanadi. Valuta barqarorligi tushunchasi pul massasi barqarorligini, baho va milliy valuta almashuv kursini barqarorligini anglatadi.

Qonunning 6-moddasi Markaziy bankning mustaqil ekanligiga bag'ishlanib u quydagilarda ko'rindadi:

- Markaziy bank hukumatning iqtisodiy siyosati chegarasida faoliyat ko'rsatadi. Markaziy bank hukumat siyosatidan o'tib o'zining alohida siyosatini yurgizmaydi;

- Markaziy bankning mustaqilligi unga yuklatilgan vazifalar chegarasida amalga oshadi. Bu mamlakatdagi pul-kredit siyosatini belgilashda, kreditlar bo'yicha foiz stavkalarini belgilashda, bank likvidligi nisbati, almashuv kurslarini belgilash bilan bog'liq boshqa ishlarda ko'rindadi.

Markaziy bank o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarilishini ta'minlash uchun tegishli tarkibni tashkil etadi. Qonunning 8-moddasiga binoan Markaziy bank

Qoraqalpog'iston Respublikasining poytaxti, viloyat markazlari va Toshkent shahrida Bosh boshqarma va xizmat bo'limgariga ega.

Qonunning 15-moddasiga binoan Markaziy bankning Oliy Organi bo'lib bank Pravleniyasi hisoblanadi. Bank Pravleniyasi 11 kishidan iborat bo'lib uning tarkibiga Markaziy bank raisi, uning muovinlari va bank asosiy bo'limlari boshliqlari kirdi. Bank Pravleniyasining raisi bo'lib Markaziy bank Raisi hisoblanadi. Pravleniya a'zolari Markaziy bank raisi tavsiyasiga binoan Oliy Majlis kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

Qonunning 5-moddasiga ko'ra Markaziy bank o'z faoliyati natijalari bo'yicha Respublika Oliy Majlisiga bo'ysunadi.

Oliy Majlis:

- Respublika Prezidentining tavsiyasiga binoan Markaziy bank raisini tayinlaydi va vazifasidan bo'shatadi.

- Yillik hisobat va auditor xulosasini ko'rib chiqadi.

Qonunning 44-moddasiga binoan Markaziy bank quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Banknotalar (naqd pullar) emissiyasi Markaziy bankning qadimgi va muhim funksiyasidir. Qonunning 38-moddasiga ko'ra muomalaga naqd pullarni chiqarish va undan olish faqat Markaziy bank tomonidan amalga oshiriladi. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining 2002-yil 6-apreldagi «Pul massasi oshishini chegaralash va moliyaviy intizomni ta'minlash javobgarligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni naqd pullarni bankka o'z vaqtida qaytishini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Respublikamizda muomalada naqd pul muomalasini chegaralash maqsadida plastik kartochkalardan keng foydalanish va boshqa choralar ko'rilmoxda.

2. Tijorat banklari kassa rezervlarini to'plash va saqlash. Qonunning 28-moddasida bu holat o'z aksini topgan bo'lib minimal zaxiralar bu tijorat banklari resurslarining Markaziy bankda saqlanishi zarur bo'lgan qismidir. Majburiy rezerv miqdori tijorat bankining yig'ilgan resurslariga nisbatan foizda belgilanadi.

3. Oltin-valuta zaxiralarini saqlash. Bu mamlakat to'lov balansi defisitini qoplash va milliy valuta kursini barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

4. Tijorat banklarini kreditlash. Kredit muassasalarini depozitlarini markazlashuvvi kredit operatsiyalarini kengaytirish uchun baza hisoblanadi.

5. Davlat banki sifatida hukumat uchun kredit berish va hisob-kitob operatsiyalarini bajarish. Bu markaziy bankda hukumat tashkilotlari va muassasalarining schetlarini yuritilishida, shu schyotlar orqali qimmatli qog'ozlar, uzoq va qisqa muddatli kreditlar, davlat obligatsiyalarini sotib olish, chet el valutasi bo'yicha va boshqa operatsiyalarini amalga oshirilishi bilan bog'liq. Markaziy bank hukumatining fiskal (xazina) vakili vazifasiga muvofiq hukumat organlari hisob-varaqlarini yuritar ekan (47-modda), hukumatning moliya operatsiyalarini amalga oshirishda ko'maklashadi, budjet kirimlari va chiqimlari yuzasidan maslahatlar beradi.



6. Hisob-kitob va almashuv operatsiyalarini amalga oshirish. Qonunning 40, 43-moddalariga binoan Markaziy bank milliy valutani chet el valutasiga nisbatan kursini belgilaydi, uni almashish limitini belgilaydi, respublika hududi va undan tashqarida valuta operatsiyalarini amalga oshiradi.

7. Pul-kredit siyosati. Pul-kredit siyosatining asosiy maqsadi milliy valuta barqarorligini ta'minlash, valuta kursi va foiz stavkalarini oqilona o'rnatish asosida inflyatsiya sur'atlarini kamaytirish, kreditdan foydalanishning samaradorligini oshirish va iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashdan iborat.

Pul-kredit siyosati davlatning iqtisodni boshqarish siyosatining bir qismi bo'lib muomaladagi pul massasi, kredit hajmi, foiz stavkalari darajasi va boshqa pul muomalasi ko'rsatkichlarini o'zgartirishi bilan ishlab chiqarish hajmini o'sishi va pasayishiga moslab pul ta'minotini yo'lga qo'yadi.

Umuman tijorat banklar faoliyati nazorati quyidagi yo'nalishlarda olib boriladi:

1. Davlat nazorati – bank tizimidagi qonunchilik asosida, chunki hamma banklar, shu jumladan Markaziy bank ham qonun asosida faoliyat ko'rsatadi.

2. Yuqori tashkilot nazorati, ya'ni Markaziy bank tomonidan.

Mustaqil tashkilot tomonidan – auditorlik tashkiloti va boshqalar.

Tijorat banki – tijorat asosida bank faoliyati, ya'ni mablag'larni jalb qilish va kreditlarni taqdim etish, bank hisobvaraqlarini ochish va uni yuritish hamda to'lovlarni o'tkazish kabi amaliyotlarni amalga oshiruvchi kredit tashkilotidir. Tijorat banklari – bo'sh pulga (jamg'armaga) ega va pulga muhtoj bo'lganlar o'rtaсидаги vositachilardan biri hisoblanadi.

Tijorat banklari iqtisodiyotning «qon tomir tizimi» bo'lib, aholi va biznesning to'planib qolgan jamg'armalarini taqsimlash orqali iqtisodiyotni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlaydi. Bu vositachilik iqtisodiyotni yanada rivojlantirish uchun zarur bo'lgan «yoqilg'i» bilan ta'minlaydigan omildir.

Vositachi sifatida tijorat banklari pul mablag'lardan foydalanganligi uchun foiz to'lash sharti bilan omonatlarni jalb qiladilar va ularni aholi va tadbirdorlarga kreditlar va investitsiyalar shaklida foiz evaziga taqdim etadilar.

O'zbekistonda tijorat banki faoliyatini yuritish uchun Markaziy bank tomonidan beriladigan bank litsenziyasini olish zarur. Ushbu litsenziya muddatsiz va uchinchi shaxslarga berilishi mumkin emas.

Tijorat banklari qanday xizmatlar ko'rsatadi?

Birinchidan, banklar sizning mablag'ingiz bilan samarali foydalanishni va xavfsizligini ta'minlagen holda, omonatga pulingizni qabul qilib, foiz to'lash orqali mablag'laringizni ko'paytirib beradi.

Muhim!!! Sizning omonatingiz xavfsizligi Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash fondi tomonidan uning hajmi va valutasidan qat'i nazar to'liq kafolatlanadi

Ikkinchidan, Sizga mablag' kerak bo'lganda yoki zarur narsalarni sotib olish uchun jamg'armalaringiz yetarli bo'limganda, tijorat banklari sizga kreditlar taqdim etishi mumkin.

Uchinchidan, banklarning kassalari va mobil ilovalari orqali mahsulotlarning xaridi, ko'rsatilgan xizmatlar, bajarilgan ishlar, jarimalar va boshqalar uchun to'lovlarni amalga oshirish oson.

To'rtinchidan, naqd pulsiz mablag'lar bilan to'lash uchun tijorat banklarida hisobvaraq ochish mumkin. Bu, onlayn do'konlarda amalga oshirilgan xaridlar uchun eng qulay to'lov yo'lli hisoblanadi. Bank hisobvarag'iga mablag'ingizni qo'yib, ularni xavfsizlikda saqlaysiz.

Tijorat banklarining xizmatlar turi:

Jismoni shaxslarga	Yuridik shaxslarga
Pul o'tkazmalari	Kredit mahsulotlari, shu jumladan xorijiy valutada
Omonatlar	Lizing
Bank kartalari	Faktoring
Kredit mahsulotlari	Konversion amaliyotlari
Konversion amaliyotlari	Internet-banking
Mobil banking	Individual seyf va yacheykalar
Individual seyf va yacheykalar	Hisob-kitob va kassa xizmatlari
Hisob-kitob va kassa xizmatlari	Xorijiy kredit liniyalari
To'lovlarni qabul qilish	Loyihalarni moliyalashtirish
Kommunal to'lovlarni amalga oshirish	Sug'urta tashkilotlar nomidan sug'urta shartnomasini tuzish
Jamg'arma sertifikatlari	Omonat sertifikatlari
Mol-mulkni ishonchli boshqarish	Mol-mulkni ishonchli boshqarish

Shuningdek, tijorat banklari xorijiy valutani naqd va naqd pulsiz shakllarda sotib olish va sotish, bank konsalting va informatsion xizmatlar, hujjatlarni va boshqa qimmatbaho narsalar va hokazolarni saqlash uchun seyf va yacheykalarni ijara ga berish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatadi.

Shu bilan birga tijorat banklariga moliyaviy amaliyotlar bilan bog'liq bo'limgan ishlab chiqarish, savdo, sug'urta va boshqa faoliyat bilan bevosita shug'ullanish taqilqanadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, tijorat banklarining asosiy maqsadi foyda olishdir. Banklar qanday qilib foyda olishini ko'rib chiqaylik.

Tijorat banklari daromadlari:

Foizlar evaziga daromadlar:	Foizsiz daromadlar:
kreditlar	mijozlar uchun hisob-kitob va kassa xizmatlari
boshqa tijorat banklariga berilgan qarzlar	bank kafolatlarini taqdim etish
investitsiyalar	mijozlarning valuta shartnomalari bo'yicha xizmat ko'rsatish
qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish kelishuvlari	konversiya amaliyotlari
Markaziy bankdagи hisoblar	brokerlik va depozitar xizmatlari
qarz majburiyatlariga	plastik kartalar bilan amaliyotlar
investitsiyalar	ishonchli boshqarish amaliyotlari
lizing operatsiyalari va hokazolar	faktoring xizmatlari
	depozit saqlash va boshqalar



Daromad bilan bir qatorda banklarning yetarli xarajatlari mavjud:

foizlar bo'yicha xarajatlar: talab qilib olingungacha bo'lgan depozitlar hisobvraqlari, muddatli omonatlar, Markaziy bank va boshqa tijorat banklariga to'lovlari, to'lanadigan kreditlar bo'yicha;

foizsiz xarajatlar: komission xarajatlar va xizmatlar uchun xarajatlar (masalan, bank reklamasi yoki tadbirlarni o'tkazish), xorijiy valuta kursining salbiy o'zgarishlaridan yo'qotishlar, investitsiyalar va boshqalar;

operatsion xarajatlar: ish haqi xarajatlari, bank binolarini ijarasini va boshqa xarajatlari, xizmat safarlari, amortizatsiya, sug'urta, soliqlar va boshqalar;

birlashmalarga a'zolik badallari uchun to'lovlari va fuqarolar omonatini kafolatlash fondiga mablag'lari to'lovlari.

Yuqorida aytilgan daromad va xarajatlarning o'rtaсидagi farqi tijorat banklarning foydasi hisoblanadi.

8.2. MONETAR SIYOSATNING MAQSADLARI VA VOSITALARI

Pul-kredit siyosati: uning maqsadi nima? Bu qanday ishlaydi?

Pul-kredit siyosati – bu markaziy bankning pul muomalasini boshqaruvchi harakatlari va aloqalaridir. Pul massasi kredit shakllari, naqd pul, cheklar va pul bozori o'zaro fondlarini o'z ichiga oladi. Ushbu pul shakllarining eng muhimmi kreditdir.

Kreditga qarz mablag'lari, obligatsiyalar va ipoteka kreditlari kiradi.

Pul-kredit siyosati iqtisodiy o'sishni yaratish uchun likvidlikni oshiradi. Inflyatsiyani oldini olish uchun pul massasini tartibga soladi. Markaziy banklar foiz stavkalari, bank zaxiralari talablari va banklar majburiy bo'lgan davlat zayomlari sonidan foydalananadilar. Ushbu vositalarning barchasi banklarning qancha miqdorda qarz berishiga ta'sir qiladi. Kreditlar hajmi pul massasiga ta'sir qiladi.

- Markaziy Bank pul-kredit siyosatini iqtisodiy o'sishni, ishsizlik va inflyatsiyani boshqarish uchun ishlatadi.

- Pul-kredit siyosati ishlab chiqarish, narxlar, talab va bandlikka ta'sir qilish uchun ham amalgalashiradi.

- Kengaytirilgan pul-kredit siyosati iqtisodiyotning o'sishini kuchaytiradi.

- Pul-kredit siyosatining 3 ta maqsadi inflyatsiyani nazorat qilish, bandlik daramasini boshqarish va uzoq muddatli foiz stavkalarni saqlab qolishdir.

- Markaziy Bank pul-kredit siyosatini ochiq bozor operatsiyalari, zaxira talablari, moliya bozoridagi va bank foiz stavkalari hamda inflyatsiyani maqsadli yo'naltirish orqali amalgalashiradi.

Pul-kredit siyosatining eng muhim to'rtta maqsadi quyidagilardan iborat:

- A. Ish davrini barqarorlashtirish:

Pul-kredit siyosati ham YAIMga, ham potensial YAIMga muhim ta'sir ko'rsatadi. Sanoati rivojlangan mamlakatlar biznesni boshqarish orqali iqtisodiyotni barqarorlashtirish uchun pul-kredit siyosatiga tayanadi.

Keyns ta'kidlashicha, iqtisodiy pasayish davrida pul-kredit siyosati samaradorligini ikki sababga ko'ra yo'qotadi:

1). likvidlik tuzog'i holatining mavjudligi (ya'ni pulga bo'lgan talabning cheksiz egiluvchanligi) va

2). (avtonom) investitsiyalarning past foizli elastikligi.

B. O'rtacha narx barqarorligi:

Narx barqarorligi, ehtimol, pul-kredit siyosati yordamida eng samarali amalga oshiriladigan eng muhim maqsaddir. Hindiston kabi rivojlanayotgan mamlakatda qishloq xo'jaligi mahsuloti pasayishi sharoitida investitsiya faolligining tezlashishi narxlarga haddan tashqari bosim keltirib chiqaradi. Hindistondagi oziq-ovqat inflyatsiyasi bunga dalildir. Bunday vaziyatda pul-kredit siyosati qisqa muddatli narxlarning barqarorligini ta'minlashga katta hissa qo'shadi.

Mamlakatning to'lov balansini yaxshilash uchun narxlarning barqarorligi ham muhimdir.

C. Jadal iqtisodiy o'sish:

Pul-kredit siyosati jadal iqtisodiy o'sishga yordam berishi mumkin, bu esa kreditni arzonroq va tezroq olish imkoniyatini yaratadi. Sanoat va qishloq xo'jaligi ikki xil kreditni talab qiladi – aylanma mablag'larga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun qisqa muddatli kredit va asosiy kapitalga bo'lgan ehtiyojni qondirish uchun uzoq muddatli kredit.

Ushbu ikki turdag'i kreditga bo'lgan ehtiyoj tijorat banklari va taraqqiyot banklari orqali qondirilishi mumkin. Kreditning past foiz stavkalari bilan osonlikcha qo'llanishi sarmoyalarni yoki jamiyatning ishlab chiqarish salohiyatini kengaytirishni rag'batlantiradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyotning avvalgiga nisbatan tezroq o'sishiga imkon beradi.

D. Valuta kursining barqarorligi:

«Ochiq iqtisodiyot» da, ya'ni tovarlari, xizmatlari va moliyaviy oqimlari uchun chegaralari ochiq bo'lgan davlatda – valuta siyosati tizimi ham pul-kredit siyosatining markaziy qismidir. O'zbekiston valutasining AQSH dollari va boshqa xorijiy valutalar bo'yicha qadrsizlanishiga yo'l qo'ymaslik uchun hozirgi o'zgaruvchan valuta kursi tizimi asosida Markaziy bank tegishli choralarни ko'rishi kerak.

Pul-kredit siyosatining maqsadlari o'rtasidagi ziddiyatlar:

Uzoq muddatli dasturlarda dastlabki ikki maqsad o'rtasida ziddiyat bo'lmaydi, ya'ni narxlarning barqarorligi va iqtisodiy o'sish. Aslida narxlarning barqarorligi tezroq iqtisodiy o'sishga erishish vositasidir. Mamlakatlar iqtisodiyotida: «Aynan narxlar barqarorligi o'sishni yuzaga keltirishi va ijtimoiy adolatni ta'minlashi mumkin bo'lgan tegishli muhitni ta'minlaydi».

Biroq, qisqa muddatli chora-tadbirlarda narxlar barqarorligi va iqtisodiy o'sish o'rtasida o'zaro kelishuv mavjud. Iqtisodiy tezroq o'sishga past foizli stavka bilan kredit olish imkoniyatini oshirish orqali erishiladi. Bu pul massasining o'sishiga to'g'ri keladi.

Ammo pul massasining ko'payishi va natijada iste'mol talabining o'sishi inflyatsiyaning yuqori darajasini keltirib chiqaradi. Bu o'sishni sekinlashtiruvchi omil sifatida ishlamaydigan inflyatsiyaning qabul qilinadigan minimal darjasini qanday degan savolni tug'diradi. Savol hali ham javobsiz qolmoqda.



Shuningdek, valuta kursi barqarorligi va iqtisodiy o'sish o'rtaida ziddiyat mavjud.

Rivojlangan mamlakatlarda pul-kredit siyosatining cheklangan doirasi:

Pul-kredit siyosati iqtisodiy faoliyatga ikki jihatdan ta'sir qiladi:

a. To'g'ridan to'g'ri pul ta'minoti orqali:

Pul massasi iqtisodiy faoliyat darajasiga bevosita bog'liqdir. Pul massasining ko'payishi odamlarga ko'proq tovar va xizmatlarni sotib olish imkoniyatini berish orqali iqtisodiy faollikni oshiradi va aksincha.

b. Bilvosita foiz stavkasi orqali:

Pul massasining o'zgarishi iqtisodiy faoliyatga foizlar va investitsiyalar stavkasiga ta'siri orqali ta'sir qiladi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini pasaytiradi, bu esa o'z navbatida sarmoyalarni ko'paytiradi va shuning uchun iqtisodiy faoliyatni rivojlantiradi va aksincha.

Pul-kredit siyosati rivojlanayotgan mamlakatlarda quyidagi sabablarga ko'ra cheklangan doiraga ega:

I. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyatida monetizatsiya qilinmagan yirik sektor mavjud bo'lib, ular pul-kredit siyosatining muvaffaqiyatli ishlashida katta to'siq bo'lib xizmat qiladi.

II. Kichik va uyushmagan pul bozori va rivojlanayotgan mamlakatlarda cheklangan miqdordagi moliyaviy aktivlar ham pul-kredit siyosati samaradorligiga to'sqinlik qiladi.

III. Rivojlanmagan mamlakatlarning aksariyat qismida umumiy pul massasi asosan muomaladagi valutadan iborat bo'lib, bank pullari uning juda oz qismini tashkil qiladi. Bu Markaziy bankning pul-kredit siyosati faoliyatini cheklaydi, bu asosan uning bank pullariga ta'siri orqali ishlaydi.

IV. Bank bo'lмаган молија институтинаринг о'sishi, shuningdek, pul-kredit siyosatining samarali amalga oshirilishini cheklaydi, chunki bu muassasalar markaziy bankning bevosita nazoratidan tashqariga chiqadi.

V. Rivojlanmagan mamlakatlarda (masalan, Liviyada) ko'plab tijorat banklari yuqori likvidlikka ega (ya'ni naqd pul shaklidagi mablag'lar). Bunday hollarda pul-kredit siyosatidagi o'zgarishlar bunday banklarning kredit siyosatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin emas.

VI. Chet elda joylashgan tijorat banklari qattiq pul-kredit siyosatining cheklovchi ta'sirini osongina neytrallashtirishi mumkin, chunki bu banklar o'z resurslarini xorijiy aktivlarni sotish bilan to'ldirishlari va shuningdek, xalqaro kapital bozoridan yordam olishlari mumkin.

VII. Pul-kredit siyosati doirasi, shuningdek, rivojlanmagan mamlakatlarning tarkibiy va institutsional haqiqatlari bilan cheklangan, foiz stavkasi, sarmoyalar va ishlab chiqarish o'rtaSIDAGI zaif bog'liqlik, ayniqsa, ta'minotning qat'iyligi sababli.

Foiz stavkasining pasayishi natijasida sarmoyalar ko'paytirilganda, investitsiyalarning ko'payishi tarkibiy ta'minot cheklvlari, masalan, yetarlicha menejment, muhim oraliq mahsulotlarning yetishmasligi, byurokratik qat'iylik, litsenziyalash

bo'yicha cheklovlar, o'zaro bog'liqlikning yo'qligi sababli mahsulotni kengaytirishi mumkin emas. Shunday qilib, ishlab chiqarishni ko'paytirish o'rniiga yuqori investitsiyalar narxlarni ko'tarish orgali inflyatsiya bosimini keltirib chiqarishi mumkin.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko'rsatiladi:

1. Foiz stavkasi.
2. Majburiy zaxiralar normasi.
3. Ochik bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko'rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta'sir o'tkazadi, taklifini o'zgartiradi va shular orkali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

*Foiz stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi deb
Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudanining foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar.*

Pul-kredit siyosatini amalga oshirishning muhim vositalardan biri – bu, foiz stavkasi siyosatidir.

Foiz stavkasining pasayishi bilan tijorat banklarida Markaziy bankdan qo'shimcha zaxiralarni olish imkoniyatlari kengayadi. O'z navbatida, bu tijorat banklarining zaxiralardan yangi kreditlar berish bilan pul taklifini ko'paytiradi. Yana shundayollar mavjudki, Markaziy bank foiz stavkasini ko'tara borib, tijorat banklari tomonidan qo'shimcha zaxiralarni olish yo'lidagi to'siqlarni biroz ko'targanday bo'ladi va kreditlar berish bo'yicha ularning faoliyatini pasaytiradi, shu yo'l bilan pul taklifi cheklaydi. Agar ushbu stavka past bo'lsa, unda tijorat banklari ko'proq kredit olishga harakat qildilar. Natijada banklarning ortiqcha zaxiralari ortib boradi va muomaladagi pul massasi miqdorining oshib borishiga olib keladi. Agarda foiz stavkasi miqdori yuqori bo'lsa, unda banklar kamroq kredit olishga, olganlarini esa qaytarib berishga harakat qildilar, pirovard natijada ortiqcha bank zaxiralari qisqaradi, muomaladagi pul miqdori kamayadi.

Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan yana biri – bu, majburiy bank zaxira me'yorini o'zgartirish siyosatidir.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir.



Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo'lgan zaxiralarning eng quyi normasini o'rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, kreditlash imkoniyatiga ta'sir etadi. Bu me'yor qanchalik yuqori bo'lsa, ortiqcha zaxiralar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo'li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo'ladi. Ilk majburiy zaxira normalari AQSH da 1865-yilda joriy qilingan edi. Agar Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu me'yor 25 % bo'lsa, unda bankka ko'yilgan 800 so'mdan 200 so'm majburiy bank me'yorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so'mni qarzga berishi mumkin bo'ladi. Endi faraz qilaylik, me'yor 10 % ga tushiriladi, unda bank 720 so'mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo'ladi va boshlang'ich pul taklifini 720 so'mga oshiradi.

Majburiy bank zaxirasi me'yorini ko'tarish yordamida pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zaxiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o'tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta'sir etadi.

Majburiy zaxiralar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatalmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Zaxira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi.

Markaziy bank tijorat banklaridan yoki aholidan bu qimmatli qog'ozlarni sotib olar ekan, tijorat banklari zaxiralarini sotib olingen obligatsiyalar miqdori hajmida ko'paytiradi. Bu zaxiralar pul bazasiga kiradi, ya'ni yuqori quvvatli pullar bo'lganligi uchun pul taklifi multiplikativ ko'payadi. Markaziy bank tijorat banklari va aholiga obligatsiyalarni sotish bilan zaxiralarni xamda tijorat banklarining kredit berish qobiliyatini kengaytiradi. Bu holda pul taklifi qisqaradi.

Hozirda hamma mamlakatlarda pul miqdorini tartibga solishda ochiq bozordagi operatsiyalarni, ya'ni davlat qimmatli qog'ozlarini taklif kilish usulidan keng foydalanimoqda. Ushbu operatsiyalarni Markaziy bank asosan nufuzi katta banklar guruhi bilan birgalikda amalga oshiradi.

8.3. MONETAR SIYOSATNING MEXANIZMI, UNING SOLIQ VA VALUTA SIYOSATI BILAN ALOQADORLIGI

Pul-kredit siyosati asosan foiz stavkalarini o'zgartirish va inflyatsiyani barqaror ushslash kabilarni, masalan, agar Markaziy banklar inflyatsiya o'sib borayotgani va iqtisodiyot juda tez sur'atlarda o'sayotganini sezsa, ular iqtisodiyotdagi talabni kamaytirish uchun foiz stavkalarini oshiradilar. Fiskal siyosat, boshqa tomonдан,

hukumatning xarajatlar va soliqlar bo'yicha talablarni nazorat qilishni amalga oshiradi, masalan, agar budjet kamomadida o'sish bo'lsa, hukumatdan ko'proq qarz olishni talab qiladi.

Pul-kredit siyosati foiz stavkalari bilan bog'liq. Fiskal siyosat hukumat daromadlari va kapital xarajatlari bilan bog'liq.

Pul-kredit siyosati, shuningdek, foiz stavkalari o'zgarishi va pul-kredit choralari Markaziy banklar orqali yetkaziladigan kredit siyosati; Fiskal siyosat bir martalik daromadni ko'paytirish uchun bir qator imtiyozlarni beradi.

Fiskal siyosat ikki xil kengaytiruvchi va qisqaruvchidir, birinchisi, bu yerda hukumat soliqlarni kamaytiradi va davlat xarajatlarini ko'paytiradi, ikkinchisi soliqlarni ko'paytirish va davlat xarajatlarini kamaytiradi.

Xuddi shunday, agar foiz stavkalarining pasayishi bilan birga pul massasi ko'paytirilsa, kengaytiruvchi pul-kredit siyosati, pul massasining pasayishi va foiz stavkalarining ko'tarilishi siyosat qisqaruvchi pul-kredit siyosati sifatida qaraladi.

Pul-kredit siyosatiga unchalik ustunlik berilmaydi. Fiskal siyosatiga asosiy e'tibor mamlakatlar ko'proq iqtisodiy nobarqaror davrda qaratiladi.

Monetar siyosat va moliya siyosati har ikkalasi ham o'z nuqtayi nazaridan muhimdir. Va past inflyatsiya va ijobji iqtisodiy o'sish bilan ularning har ikkisi ham barqaror iqtisodiyotni yaratishda yordam beradi.

Agar iqtisodiyot pul oqimini boshqarishni talab qilsa, u Pul-kredit siyosatini amalga oshiradi.

Shu bilan birga, ular iqtisodiyotning maqsadlariga erishish uchun soliq siyosatidan foydalanishlari mumkin.

Agar markaziy banklar foiz stavkalarini pasaytirishda muvaffaqiyat qozonsa, bu inflyatsiya va talabni oshirishi mumkin. Agar hukumat moliya defitsitini kamaytirishda muvaffaqiyatli bo'lib, iqtisodiyot uchun yaxshi ishlaydi.

Shuning uchun monetar siyosat va soliq siyosatidan foydalanish iqtisodiy tebranishni kamaytirish va iqtisodiy siklni yumshatish orqali mamlakatning iqtisodiy holatini yaxshilashning ajoyib usuli hisoblanadi.

Pul-kredit siyosati va soliq siyosati o'rtaсидаги фарқи.

Taqqoslash omillari	Monetar siyosat	Fiskal siyosat
1. Ma'nosi	Monetar siyosat turli xil foiz stavkalari bo'yicha pulga bolgan talab va taklifni boshqarish sifatida ta'riflanishi mumkin	Fiskal siyosatni davlat xarajatları va soliqlarining yalpi talab va iqtisodiyotga ta'siri sifatida belgilash mumkin
2. Faoliyat doirasi	Mamlakat iqtisodiyotidagi ishsizlik, inflyatsiya va foiz stavkasi haqida	Mamlakat sarflaydigan xarajatlar miqdori va yig'ib olinadigan soliqlar va shu kabilar ustidan faoliyat yuritish demakdir
3. Hisob hamda tahlil jarayoni	Pul-kredit siyosati foiz stavkalarini hisob-kitobi	Fiskal siyosat soliqlar va kapital xara-jatlarni tahliliy jarayoni
4. Valuta kurslariga ta'siri	Yugori	O'rtacha
5. Ta'sir	Pul-kredit siyosati amalga oshirilganda, bu qarz olish / ipoteka kreditlari narxiga ta'sir qiladi	Fiskal siyosat mavjud bo'lganda, bu budjet taqchilligiga ta'sir qiladi
6. Bilan bog'liq	Pul-kredit siyosati darajasi mustaqil markaziy banklar tomonidan belgilanadi.	Fiskal siyosat moliya vazirligi bilan bevosita aloqada



Fiskal siyosat pul-kredit siyosatiga va shu bilan markaziy banklarga qanday ta'sir qiladi? Bevosita va bilvosita kanallar mavjud. Birinchi toifadan boshlab, moliya siyosatining pul-kredit siyosatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan bir necha usullar mavjud. Avvalo, kengaytiruvchi fiskal siyosat ortiqcha fiskal defisitga olib kelishi mumkin, bu esa hukumatlar tomonidan kamomadni moliyalashtirish uchun bosmaxonaga (ya'ni, markaziy bank tomonidan pul bilan moliyalashtirish) murojaat qilishga kuchli vasvasa yaratishi mumkin. Demak, ekspansiyalı soliq-budget siyosati inflatsiya bosimini kuchaytirib, valutaning real qadrini keltirib chiqaradigan va shu sababli to'lov balansidagi qiyinchiliklarni keltirib chiqaradigan kengaytirilgan pul-kredit siyosatiga olib keladi va bu hatto valuta (va / yoki bank) inqiroziga olib keladi.

Ammo hukumatlar o'zlarining defitsitlarini pulsiz, ya'ni bozorlar orqali moliyalashtirsa ham, tashvishlanish uchun sabab bo'lishi mumkin, xususan siqilish: agar hukumatlar bozorlarda juda ko'p mablag 'olsalar, natija bo'lishi mumkin (xususiy sektor uchun juda kam yoki juda qimmat kredit).

Bu iqtisodiy rivojlanish va o'sishga zarar etkazishi mumkin, bu albatta markaziy bankirlarni tashvishga solishi mumkin. Tashqi tomonidan, ichki qarzni tashqi moliyalashtirishga katta bog'liqlik valuta kursi va / yoki to'lov balansi xavfiga olib kelishi xavfi mavjud bo'lib, bu yana markaziy banklarni xavotirga solishi mumkin.

Fiskal siyosatning markaziy bankirlarga ta'sir ko'rsatadigan yana bir to'g'ridan to'g'ri kanali mavjud, bu bilvosita soliqlarning narxlar darajasiga va shu bilan inflatsiyaga ta'siridir. Agar hukumatlar daromadlarning turli shakllariga soliqlarni emas, balki bilvosita soliqlarni – sotish soliqlarini, qo'shimcha qijmat solig'ini sezilarli darajada oshirishga majbur bo'lishini his qilsalar, bu narxlarga bevosita ta'sir qiladi. Bu yerda asosiy tashvish shundaki, bir martalik o'sish ish haqi spiraliga olib keladi va shuning uchun doimiy (yuqori) inflatsiya va inflayusion kutishlar.

Fiskal va pul-kredit siyosati o'rtaqidagi ushbu to'g'ridan to'g'ri munosabatlarga qo'shimcha ravishda, taxminlar orqali bilvosita kanal mavjud.

Katta va davom etayotgan budget tanqisligi haqidagi tushunchalar va kutishlar va buning natijasida katta miqdordagi qarz olish talablari iqtisodiy istiqbollarga nisbatan ishonchsizlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bu moliya bozorlaridagi barqarorlik uchun xavf tug'dirishi mumkin. Hukumatning moliyaviy ahvoli barqarorligiga bunday ishonchning yo'qligi obligatsiyalar va valuta bozorlarida potensial beqarorlashtiruvchi omilga aylanishi va natijada hatto pul rejimining qulashiga olib kelishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

- 1 >** Pandemiya sharoitida pul-kredit siyosatini amalga oshirish holati tahlili.
- 2 >** Pul-kredit siyosatining bugungi kundagi zamonaviy holati.
- 3 >** Bank tizimining pul-kredit siyosatini olib borishdagi mavjud muammo-lar.
- 4 >** Iqtisodiy rivojlanishda pul-kredit instrumentlaridan foydalanishni rivojlantirish istiqbollari.
- 5 >** Markaziy bankning pul-kredit siyosatini amalga oshirishda qaysi usullardan foydalanadi.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1 >** Rossiya banki pul-kredit siyosatini uzatish mexanizmi: balans kanali, foiz stavkasi va kredit kanali, shuningdek, valuta kanali mexanizmlarini to'lig'icha bayon qilinsin.
- 2 >** AQSH pul-kredit siyosati qisqa muddatda real foiz stavkalari AQSH iqtisodiy faoliyatga qanday ta'sirini tushuntirib bering.
- 3 >** Pul-kredit siyosatining ijobjiy va salbiy tomonlari Ijobiy tomonlari Salbiy tomonlari
 - Foiz stavkasini nazorat qilish inflyatsiyani targetlashning ijobjiy tomoniga o'tardi:
 - Inflyatsiyaning kam miqdori o'sib bo-rayotgan iqtisodiyot uchun muhitdir, chunki bu kelajakda investitsiyalarni jalb qiladi va ishchilarga yuqori ish haqini ta'minlanishi imkonini beradi.
 - Markaziy banklar mustaqil va siyosiy jihatdan betaraflikka erishadi:
 - Pul vositalari umumiy bo'lib, butun mam-lakatga ta'sir qiladi:

yuqoridagi ikki ta'sirning ta'sir doirasi keltirilgani kabi boshqalarining ham, ta'sir ko'la-mi yoritisin.

 - Ta'sir doirasi bir muncha vaqt talab qilishi:
 - Tez amalga oshirilgan taqdirda ham, pul siyosatining salbiy ta'siri odatda bir muncha vaqt o'tgandan keyin paydo boladi. Iqtisodiyotga ta'siri bir necha oy yoki hatto yillar davomida amalga oshishi mumkin.
 - Valutaning zaiflashishi eksportni kuchaytirishi mumkin:
 - GiperInflyatsiya xavfi:



Masalalar

- 1>** Iqtisodiyotda inflyatsiya jarayoni yuz bermoqda, buning natijasida Markaziy bank muomaladagi pul massasini qisqartirish maqsadida rezerv me'yorini 10 foizdan 12 foizga oshirdi. Agar dastlabki omonat miqdori 20 mlrd.so'mni tashkil etsa, rezerv me'yori o'zgargunga qadar va u o'zgargandan keyingi rezerv summasini, bank multiplikatorini hamda tijorat banklari tomonidan yaratiladigan pullar miqdorini aniqlang hamda qanday pul-kredit siyosati o'tkazilishini izohlang.
- 2>** Agar joriy hisoblardagi mablag'lar 500 mlrd.so'mni, aholi qo'lidagi naqd pullar 400 mlrd.so'mni tashkil etgan, Markaziy bank rezerv me'yorini 12 foizdan 10 foizga tushirgan bolsa, unda quydagilarni aniqlang va pul-kredit siyosatini izohini bering.
1. Pul taklifini
 2. Deponentlash koeffitsintini
 3. Pul bazasini

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Bank tizimi – biror-bir davlatda mavjud bo'lgan va amal qilib turgan banklar ning barchasi tushuniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi o'z ichiga: 1. Markaziy bank. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 3. Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat va davlat banklari majmuyidan iborat bo'lgan 31 ta bankni o'z ichiga oladi. 4. Ulush, qo'shish, hissadorlik hamda xorijiy kapitallar ishtiroti asosida tashkil topgan qo'shma banklar, kooperativ va xususiy banklardan iborat.

Foiz stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudanining foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar.

Majburiy zaxiralar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir. Zaxira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va kredit emissiyasini cheklaydi.

Ochiq bozordagi operatsiyalar – Markaziy bank tomonidan davlat obligatsiyalarini (qimmatli qog'ozlarni) tijorat banklari va aholidan sotib olish va ularga sotish bo'yicha operatsiyalardir.

Pul-kredit siyosati – to'la bandlik sharoitida jami mahsulotni ishlab chiqarishga inflyatsiyaning ta'sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o'zgartirish tushuniladi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vazifasini amalga oshiradi. Deyarli hamma mamlakatlarda muomaladagi pul miqdorini tartibga solishda quyidagi vositalardan foydalilanadi: a) ochiq bozorda operatsiyalar; b) hisob-kitob stavkasi siyosati; d) bank majburiy zaxiralarining me'yorini o'zgartirish siyosati.

Tijorat banki – sanoat va savdoni qisqa muddatli kreditlar bilan ta'minlash, shuningdek, xususiy mijozlarga turli turdag'i bank xizmatlari ko'rsatish (joriy schyotlarni yuritish, tijorat, iste'molchilik va ipoteka qarzlarni berish va hokazolar) ga ixtisoslashtirilgan bank. Tijorat banklari pay badali yoki aksionerlik (hissadorlik) asosda tuziladi va quyidagicha farqlanadi: ustav kapitalini shakllantirish bo'yicha (davlat, xorijiy kapital va boshqalar ishtirokida), ixtisoslashish bo'yicha (masalan, agrobank, innovatsiya banki), faoliyat ko'rsatish hududi bo'yicha, amalga oshiriladigan operatsiya turlari bo'yicha va hokazo usullariga qarab. Tijorat hankining mablag'lari o'zining xususiy (ustav fondi, zaxira fondi va boshqa foyda hisobiga tashkil topadigan fondlari) va jalb qilingan (korxonalar schyotlaridagi, ularning qo'yilmalari va depozitlari, fuqarolarning omonatlari va hokazolar) mablag'lariga bo'linadi.

IX BOB

TOVAR VA PUL BOZORIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT: IS-LM MODELI

- ▶ 9.1. IS-LM MODELINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI
- ▶ 9.2. IS-LM MODELINING ASOSIY O'ZGARUVCHILARI VA TENGLAMASI. IS VA LM EGRI CHIZIQLARI
- ▶ 9.3. IS-LM MODELI DOIRASIDA BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINING SAMARADORLIGI
- ▶ 9.4. IS-LM MODELIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT

KIRISH

Mamlakatlar bugungi kunda iqtisodiy muvozanatga erishish undan so'ng esa iqtisodiy o'sishni yanada jadallashtirish haqida izlanishlar va amaliy ishlarni olib borishmoqda.

Muvozanat iqtisodiyotning muhim tadqiq qilish kategoriyalardan biri bo'lib, u orqali makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, ya'ni milliy daromad, iste'mol va jamg'arma, investitsiyalar, ishsizlik va bandlik kabilarni tahlil qilishda keng foydalaniladi. Milliy iqtisodiyot miqyosida jamiyatning daromadlari va xarajatlari o'tasidagi muvozanat asosiy o'rın tutib, bu yalpi taklif va yalpi talab o'tasidagi muvozanatning o'ziga xos namoyon bo'lishidir.

Ushbu mavzuda dastlab IS-LM modelining mohiyati bayon qilingan. IS-LM modeli bayonidan so'ng, IS-LM modelida makroiqtisodiy muvozanatga erishishning yoritilgan. Eng muhimi iqtisodiyotda muvozanatlik va mutanosiblikni ta'minlash iqtisodiy inqirozlarning oldini olishning muhim vositasi sifatida qaraladi.

Iqtisodiyot inqirozlarsiz, barqaror rivojlanishi uchun uning turli tomonlari o'tasida ma'lum muvozanat bo'lishi taqozo etiladi.

Iqtisodiy muvozanat deb bir-biri bilan o'zaro bog'liqlikda va ta'sirda amal qiladigan iqtisodiy jarayonlar, hodisalarning ikki yoki bir necha tomonining bir-biriga teng kelgan holatiga aytildi. Shuning uchun ham butun iqtisodiyotning muvozanati to'g'risida gap borganda eng avvalo yalpi talab va yalpi taklif o'tasidagi tenglik e'tiborga olinadi.

9.1. IS-LM MODELINING MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Makroiqtisodiyotda iqtisodiy muvozanatning shakllanishi, uni ta'minlash ancha murakkab va ziddiyatlari jarayondir. Chunki u xususiy va umumiy tavsifdag'i bir qator muvozanatlar tizimini o'z ichiga oladi.

Xususiy muvozanat – bu iqtisodiyotning ayrim bo'laklarida, soha va yo'naliishlarida ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan iqtisodiy ko'rsatkichlar yoki tomonlarining miqdoran teng kelishi. Xususiy muvozanat ishlab chiqarish va iste'mol, aholining sotib olish layoqati va tovar taklifi masalalari, budget daromadlari va xarajatlari, alohida tovarlarga talab va taklif o'tasidagi muvozanat ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Umumiqtisodiy muvozanat jamiyat a'zolari barcha talablari va milliy ishlab chiqarish hajmining o'zaro teng kelishini bildiradi. Umumi iqtisodiy muvozanat bozor sharoitida, avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning teng kelishida ko'rindi. Bu nafaqat iste'mol ne'matlariga, balki ishlab chiqarish vositalariga, ishchi kuchiga hamda barcha iqtisodiy faoliyat natijalariga umumiy talab va taklifning muvofiq kelishidir.

Umumi iqtisodiy muvozanat bir qator shart-sharoitlarni taqozo etadi. Birinchidan, bu ijtimoiy maqsadlar va iqtisodiy imkoniyatlarning mos kelishidir.

Ikkinchidan, iqtisodiy muvozanat mamlakatdag'i barcha iqtisodiy resurslardan samarali foydalanadigan xo'jalik mexanizmini taqozo qiladi.



Uchinchidan, muvozanatlari ishlab chiqarishning umumiy tarkibiy tuzilishi iste'molning tarkibiy tuzilishiga mos kelishi lozimligini bildiradi.

To'rtinchidan, iqtisodiyotda muvozanatning umumiy shart-sharoitlari bo'lib bozor muvozanati, ya'ni barcha asosiy bozorlar (tovarlar, resurslar, ishchi kuchi va hokazolar)da talab va taklif muvozanatga erishishi xizmat qiladi.

Iqtisodiy muvozanat erkin raqobat bozorida barcha xaridorlar tengligi, iqtisodiy vaziyat barqarorligi kabi qator shart-sharoitlarni ham taqozo qiladi.

Tovar va pul bozorida umumiy muvozanatga erishish shartlari va makroiqtisodiy siyosat tadbirlarining bu ikki bozorga ta'sirini umumlashtirib tadqiq qilish IS LM modeli yordamida bajariladi.

IS LM modeli birinchi marta 1937-yilda J.Xiks tomonidan keynsning makroiqtisodiy konsepsiyasini izohlash uchun taklif etildi hamda 1949 – yilda A. Xansenning «Monetar nazariya va fiskal siyosat» nomli kitobi nashr qilinganidan so'ng keng yoyildi. Shu sababli bu model Xiks modeli yoki Xiks-Xansen modeli deb ham yuritiladi.

IS LM modeli qisqa muddatli davrga ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi. Garchand iste'mol va investitsion tovarlarga talab turli omillar bilan belgilansada IS-LM modelida ular bir butun deb qaraladi. Pul bozori deganda xazina veksellari va tijorat qog'ozlari ko'rinishidagi qisqa muddatli kredit vositalarini oldi-sotdi mexanizmi tushuniladi. Bu bozorni obligatsiyalar bozoridan farqlash zarur. Pulning obligatsiyalarda ifodalangan nisbiy bahosi obligatsiyalar bo'yicha foiz stavkasidir. «IS – LM modeli (investitsiyalar-jamg'armalar, likvidlilikni afzal ko'rish – pul) – yalpi talab funksiyasini belgilovchi iqtisodiy omillarni aniqlash imkonini beruvchi tovar-pul muvozanatim modeli»¹³.

AD-AS modelida tovar va pul bozorlarining aloqasi e'tiborga olingan edi. Ya'ni tovarlar va xizmatlar baholarining ko'tarilishi pulga bo'lgan talabni oshirishi bu esa o'z navbatida foiz stavkasining ko'tarilishiga olib kelishi, oqibatda investitsiya xarajatlari va umuman yalpi xarajatlar kamayishi AD-AS modelida ko'zda tutilgan edi. IS-LM modeli AD-AS modelini qisqa muddatli davrga aniqlashtiradi va bu modelda har ikkala bozor yagona makroiqtisodiy tizimning sektorlari sifatida namoyon bo'ladi. Model bu sektorlarda tarkib topgan sharoitlarga bog'liq tarzda foiz stavkasi R bilan daromad darjasini Y ning muvozanatlari darajasini belgilaydi.

9.2. IS-LM MODELINING ASOSIY O'ZGARUVCHILARI VA TENGLAMASI. IS VA LM EGRI CHIZIQLARI

IS-LM (investitsiya – jamg'armalar, likvidlilikning afzalligi – pul) modeli foiz stavkasi R bilan daromadlar Y ning bir vaqtning o'zida har ikkala bozorda muvozanatni ta'minlaydigan kombinatsiyalarini topish imkonini beradi.

¹³ Агапова Т.А., Серегина С.Ф. Макроэкономика: Учебник-10-е изд перераб и доп. – М.: Издательство «МФПУ Синергия», 2013. с.191.

Modelning asosiy tenglamalari quyidagilar:

1. $Y = C + I + G + X_n$ – asosiy makroiqtisodiy ayniyat.
2. $C = a + b^* (Y - T)$ – iste'mol funksiyasi, bu yerda
 $T = T^*a + t^*Y$.
3. $I = e - d^*R$ – investitsiya funksiyasi.
4. $X_n = d - m^*Y - n^*R$ – sof eksport funksiyasi.
5. $M/P = k^*Y - h^*R$ – pulga talab funksiyasi. IS-LM modelida ko'rilgan barcha tenglamalar bajarilsa muvozanatga erishiladi.

Modelning endogen o'zgaruvchilari Y, C, I, X_n va foiz stavkasi – R .

Modelning ekzogen o'zgaruvchilari G, M_s va chegaraviy soliq stavkasi – t .

a, b, c, d, m^*, n, k va h empirik koeffitsiyentlar bo'lib musbat va nisbatan barqarordir.

Y haqiqiy $< Y$ potensial bo'lgan qisqa muddatli davrga muvozanat ko'rib chiqilayotganda, modelda, baholar darajasi o'zgarmas, foiz stavkasi R va daromad Y o'zgaruvchan deb olinadi.

Y haqiqiy = Y potensial bo'lgan, ya'ni to'liq bandlik sharoitida baholar darajasi R o'zgaruvchan, M_s nominal kattalik va boshqa barcha o'zgaruvchilar real kattaliklardir.


IS-egri chizig'i tovarlar xizmatlar bozorida foiz stavkasi R va daromadlar darajasi Y ning kombinatsiyalarini xarakterlovchi, bir vaqtning o'zida asosiy makroiqtisodiy ayniyat, iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari qondiriladigan nuqtalarning geometrik joylashuvini xarakterlaydi. Bu egri chiziqning har bir nuqtasida investitsiyalar va jamg'armalar o'zarो teng bo'ladi.

IS-egri chizig'ini Keyns xochi va investitsiya funksiyasi grafigi yordamida kelтирib chiqaramiz.

Foiz stavkasining R_1 dan R_2 ga qadar ko'tarilishi investitsiyalar miqdorini I_1 dan I_2 ga qadar kamayishiga olib keladi. Bu haqiqiy xarajatlar egri chizig'ini E_1 dan E_2 ga qadar pastga tomon $\Delta E = \Delta I$ ga teng miqdorda surilishiga olib keladi. Oqibatda daromadlar miqdori Y_1 dan Y_2 qadar $\Delta Y = \Delta E \times m$ miqdorga pasayadi, bu yerda ($m = 1 / (1 - b(1 - T) + m')$).

Demak, tovarlar va xizmatlar bozorida daromadlar darajasi va foiz stavkasi dinamikasi o'rtaida teskari bog'liqlik mayjud.





9.2.1-chizma. Investitsiya funksiyasi va IS-egri chizig'i

R o'zgarmagan holda IS egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishi quyidagi omillar ta'sirida ro'y beradi:

- ❖ iste'mol xarajatlari darajasi;
- ❖ davlat xaridi darajasi;
- ❖ sof soliqlar (soliqlar – subsidiyalar – transfertlar);
- ❖ investitsiyalar hajmining (R ning mayjud stavkasida) o'zgarishi.

IS tenglamasini iste'mol, investitsiya va sof eksport funksiyalari tenglamalarini asosiy makroiqtisodiy ayniyatga qo'yib, uni R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$R = \frac{a+e+g}{d+n} - \frac{1-b(1-t) + m^c}{d+n} * Y + \frac{1}{d+n} * G - \frac{b}{d+n} * T * a$$

Bu yerda, $T = T * a + t * Y$

Y ga nisbatan topilgan IS tenglamasi:

$$Y = \frac{a+e+g}{1-b(1-t) + m^c} - \frac{1}{1-b(1-t) + m^c} * G - \frac{b}{1-b(1-t) + m^c} * T * a - \frac{(d+n)*R}{1-b(1-t) + m^c}$$

Bu yerda, $T = Ta + t Y$

$(1-b(1-t) + m') / (d+n)$ IS egrisi chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini ko'rsatadi va fiskal hamda pul kredit siyosati samaradorligining nisbiy parametrlaridan biri hisoblanadi.


LM egrisi chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasi o'rtaсидagi o'zaro bog'liqlikni aks ettiradi.

LM egrisi chizig'ining har bir nuqtasida pulga talab – M_d , pul taklifi – M_s ga teng bo'ladi (liquidity Preferense = Money Supply). Pul bozorida bunday muvozanatga daromad Y ning oshishi bilan foiz stavkasi R ko'tarilsagina erishiladi.

Ma'lumki, pulga talab miqdoriga foiz stavkasidan tashqari daromadlar darajasini ham ta'sir ko'rsatadi. Daromadlar yuqori bo'lsa, xarajatlar ham ko'p bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida iste'mol va boshqa xarajatlar uchun pulga talabning oshishiga olib keladi. Shunday qilib, daromadlar darajasining yuqoriroq bo'lishi pul talabini oshiradi. Boshqacha aytganimizda, daromad va pulga talab dinamikasi o'rtaсиda to'g'ri bog'liqlik mavjud.

Pulga talab funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$$M/R = L(R; Y)$$



9.2.2-chizma Pul bozoridagi muvozanat grafigi

9.2.3-chizma.LM egrisi chizig'i

Pul bozori holatini belgilovchi ko'rsatkichlar o'rtaсидаги bunday o'zaro munosabatlarni quyidagi 11.2.2-rasmida tasvirlaymiz.

2-rasmdan ko'rinish turibdiki, pulga bo'lgan talab, foiz stavkasi pasayishi bilan, shuningdek, daromadlar ko'payishi natijasida ham oshadi. Daromadlarning oshishi natijasida pulga talab egrisi chizig'i M_d^1 yuqori surilib, M_d^2 holatini egallaydi va unda pul bozoridagi muvozanat nuqtasi, R_2 holatidan R_1 holatiga o'tadi.

Shunday qilib, yuqoriroq daromad yuqoriroq foiz stavkasiga olib keladi va buni LM egrisi chizig'i aks ettiradi. U pul bozorida foiz stavkasi va daromad o'rtaсидаги munosabatlarni ko'rgazmali tarzda ifodalaydi. Daromad darajasi qancha baland

bo'lsa, pulga bo'lgan talab shuncha yuqori va shunga muvofiq muvozanatli foiz stavkasi ham shuncha yuqori bo'ladi.

LM egri chizig'i o'ziga xos konfiguratsiyaga ega: gorizontal qism va vertikal qism. LM egri chizig'ining gorizontal qismi foiz stavkasi R ning minimal darajasi dan passaya olmasligini anglatsa, vertikal qism foiz stavkasi R ning maksimal darajasi chegarasidan tashqarida hech kim o'z mablag'larining likvid (pul) shaklida ushlab turmasligini va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantirishini anglatadi.

LM egri chizig'i o'ziga xos: gorizontal va vertikal konfiguratsiyaga ega.

LM egri chizig'ining gorizontal kesmasi foiz stavkasi foiz stavkasi R minimum darajadan pastga tushishi mumkin emasligini ko'rsatadi. Egri chiziqning vertikal kesmasi foiz stavkasining maksimal daraja R maksimum chegarasidan tashqarida hech kim jamg'armalarini likvid (pul) shaklida ushlab turmaydi va ularni qimmatli qog'ozlarga aylantiradi.

Baholarning o'zgarishi hamda pul taklifi hajmidagi o'zgarishlar LM egri chizig'ining o'ngga yoki chapga siljishiga olib keladi.

LM egri chizig'i tenglamasi pulga talab funksiyasini R va Y ga nisbatan yechib topiladi.

R ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$R = (k/h)Y - (1/h)(M/P)$$

Y ga nisbatan LM egri chizig'i tenglamasi quyidagicha:

$$Y = (1/k)(M/P) + (h/k)*R$$

k/h koeffitsiyenti LM egri chizig'ining Y o'qiga nisbatan og'ish burchagini xarakterlaydi hamda fiskal va pul kredit siyosatining nisbiy samaradorligini baholaydi.

9.3. IS-LM MODELI DOIRASIDA BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINING SAMARADORLIGI


Pul-kredit va soliq-budget siyosatining IS egri shakli va LM egri chizig'i bo'yicha samaradorligini o'rjanib chiqamiz. IS egri chizig'i fiscal siyosatini va LM egri chizig'i pul-kredit siyosatini aks ettiradi.

Hukumat investitsiyalar, bandlik, ishlab chiqarish va daromadlarga pul-kredit siyosati orqali ta'sir qiladi. Bu pul muomalasi organi tomonidan pul massasini ko'paytirish yoki kamaytirish orqali amalga oshiriladi. Pul massasi ko'paytirilganda, bu kengaytiruvchi pul-kredit siyosati hisoblanadi. Bu LM egri chizig'ini o'ngga siljitish orqali ko'rsatiladi. Pul massasi pasayganda, bu kontraksion pul-kredit siyosati hisoblanadi. Bu LM egri chizig'ini chapga siljitish orqali ko'rsatiladi.

11.3.1-chizmada LM va IS egri chiziqlari berilgan kengaytirilgan pul-kredit siyosati tasvirlangan. Aytaylik, Iqtisodiyot E nuqtada muvozanatda bo'lsa, OY daromadi va OR foiz stavkasi bilan. Pul muomalasi tomonidan pul massasining ko'payishi LM egri chizig'ini IS egri chizig'idan LM1 ga o'ng tomonga siljitaladi. Bu foiz stavkasi OR dan OR1 gacha pasaytiradi va shu bilan investitsiyalar va milliy daromadni oshiradi. Shunday qilib milliy daromad OY dan OY1 ga ko'tariladi.

Ammo pul-kredit siyosatining nisbiy samaradorligi LM egri chizig'i va IS egri chizig'ining shakliga bog'liq. LM egri chizig'i tikroq bo'lsa, pul-kredit siyosati samaraliroq bo'ladi. Tikroq LM egri chizig'i pulga bo'lgan talabning kamroq foizli ekanligini anglatadi. Pulga talab qancha kam elastik bo'lsa, pul massasi ko'payganda foiz stavkasi shunchalik katta bo'ladi.

Chunki, pulga bo'lgan talab foiz stavkasining o'zgarishiga nisbatan unchalik elastik bo'lmaganda, pul massasining ko'payishi foiz stavkasining katta pasayishiga olib keladi. Foiz stavkasining katta pasayishi sarmoyalar va milliy daromadning yuqori o'sishiga olib keladi. Bu 11.3.2-chizmada tasvirlangan, bu yerda E – iqtisodiyotning OR – foiz stavkasi va OY daromadlari bilan dastlabki muvozanat holati aks ettirilgan.




9.3.1-chizma. LM va IS egri chiziqlari berilgan kengaytirilgan pul-kredit siyosati


Agar tik LM_1 egri chizig'i o'ng tomonga LM_2 ga o'tsa yangi muvozanat E_2 da o'rnatiladi. Natija sifatida, foiz stavkasi OR_2 dan OY_2 ga tushadi va daromad OY_1 dan OY_2 ga ko'tariladi. Boshqa tomondan, LM egri chizig'i yotiqroq bo'lsa, pul-kredit siyosati unchalik samarali bo'lmaydi. Yotiq LM egri chizig'i pulga bo'lgan talab ko'proq foizlarga egiluvchanligini anglatadi.

Pulga talab qancha ko'p elastik bo'lsa, pul massasi ko'payganda foiz stavkasining pasayishi shunchalik kichik bo'ladi. Foiz stavkasining ozgina pasayishi sarmoyalar va daromadlarning kichikroq o'sishiga olib keladi. 11.3.2-rasmda, E foiz stavkasi va OY daromadlari bilan dastlabki muvozanat holatidir. Yotiq LM_2 egri chizig'i o'ng tomonga LM_F ga o'tsa, E_1 da yangi muvozanat o'rnatiladi, bu OR_1 foiz stavkasi va OY_1 daromad darajasini hosil qiladi. Bunday holda, tik LMs chizig'ida OR_1 ga qaraganda kamroq foiz stavkasi OR_2 ga tushadi va daromadining OY_1 dan OY_2 ga ko'tarilishiga turtki beradi. Bu shuni ko'rsatadiki, monetar siyosat yotiq LM


egri chizig'ida unchalik samarali emas va tik LM chizig'ida yuqori samarali ekanligini ifodalaydi.



9.3.2-chizma. Foiz stavkasining katta pasayishi sarmoyalar va milliy daromadning yuqori o'sishi.



9.3.3-chizma. LM egri chizig'i gorizontal



9.3.4-chizma. LM egri chizig'i vertikal


Agar LM egri chizig'i gorizontal bo'lsa, pul-kredit siyosati umuman samarasiz bo'ladi, chunki pulga talab mukammal foizlar egiluvchanligi hisoblanadi. Bu 11.3.3-chizmada ko'rsatilgan «likvidlik tuzog'i» bilan bog'liq bo'lib, bu yerda pul massasining ko'payishi foiz stavkasi yoki OY daromad darajasiga ta'sir qilmaydi.

Boshqa tomondan, agar LM egri chizig'i vertikal bo'lsa, pul-kredit siyosati juda samarali bo'ladi, chunki pulga bo'lgan talab mutlaqo elastik bo'lmaydi.

11.3.4-chizmada LM vertikal egrini pul massasining ortishiga bilan LM ga o'ng tomonga siljiganida foiz stavkasi OR dan OR1 ga tushadi, bu pulga bo'lgan talabga ta'sir qilmaydi va pul massasining butun o'sishi daromad darajasini OY dan OY1 ga ko'tarilishiga ta'sir qiladi.

IS egrini chizig'i oladigan bo'lsak: yotiq IS egrini chizig'i, pul-kredit siyosatining qanchalik samarali ekanligini ko'rsatadi. Yotiq IS egrini chizig'i investitsiya xarajatlari yuqori foiz egiluvchanligini anglatadi. Pul massasining ko'payishi foiz stavkasini bir oz pasaytirganda, xususiy sarmoyalar ham katta miqdorda ko'payadi va shu bilan daromadlarni ham ko'payishiga olib keladi.

Bu 11.3.5-chizmada tasvirlangan bo'lib, unda asl muvozanat E nuqtasida OR foiz stavkasi va OY daromad darajasi bilan belgilanadi. Pul massasining ko'payishi bilan LM egrini chizig'i o'ngga LM1 ga o'tsa, u ISF egrini chizig'ini E2 bilan kesib o'tadi, bu OR2 foiz stavkasi va OY2 daromadini keltirib chiqaradi.




9.3.5-chizma. Yotiq IS egrini chizig'i

Agar bu muvozanat pozitsiyasi E_2 ni egrini chizig'i tik bo'lgan IS_s dagi E_1 pozitsiya bilan taqqoslasak, foiz stavkasi OR1 va daromad darajasi OY1 yassi IS_F egrini chizig'inining foiz stavkasi va daromad darajasidan past bo'ladi. Bu shuni ko'rsatadi, pul massasi ko'paytirilganda, foiz stavkasining ozgina pasayishi xususiy investitsiyalarning katta o'sishiga olib keladi va bu IS ning egrini chizig'iga nisbatan (Y_1 bo'yicha) yotiq IS_F egrini chizig'i bilan daromadni ko'proq (Y_2 ga) oshiradi, shu tariqa pul-kredit siyosatini samaraliroq ekanligini anglatadi.

9.4. IS-LM MODELIDA MAKROIQTISODIY MUVOZANAT

IS-LM egrisi chiziqlari kesishadigan nuqta IS-LM modelidagi iqtisodiy muvozanat holatini ko'rsatadi. Bu nuqta o'zida shunday foiz stavkasi « R » ni va daromad darajasi « Y » ni aniqlaydiki, bunda tovarlar va xizmatlar bozorida talab va taklif hamda real pul mablag'lari bo'lgan talab va ularning taklifi o'zaro teng bo'ladi.



9.4.1-chizma. IS-LM modelidagi makroiqtisodiy muvozanat

Bu yerda : R^* – muvozanatlari foiz stavkasi; Y^* – muvozanatlari daromad hajmi.

IS va LM egrisi chiziqlarining o'zaro kesishishi pul taklifi investitsiyalar va jamg'armalarni o'zaro tenglashtiruvchi foiz stavkasi shakllanishi uchun yetarli ekanligini anglatadi.

IS egrisi chizig'i rejalahtirilgan xarajatlarga bog'liq bo'lganligi uchun uning o'zgarishi fiskal siyosatidagi o'zgarishlarni xarakterlaydi. LM pul taklifiga bog'liq bo'lganligi uchun undagi o'zgarish monetar siyosat tadbirlari natijasini ko'rsatadi.

Bundan xulosa shuki, IS-LM modeli fiskal va monetar siyosatning iqtisodiyotga birgalikda ko'rsatadigan ta'sirini baholash imkonini beradi. Davlat xarajatlarining o'sishi yoki soliqlarning kamayishi IS egrisi chizig'ini o'ngga siljitadi. Davlat xarajatlarining kamayishi va soliqlarning oshishi esa bu egrisi chiziqni chapga siljitadi. Xuddi shuningdek pul taklifining oshishi LM egrisi chizig'ini o'ngga, kamayishi esa chapga siljitadi. IS-LM modeli ma'lum makroiqtisodiy natijalarga erishishning turli variantlarni ko'rib chiqish imkoniyatini beradi. Bir bozorda bo'lgan o'zgarish ikkinchi bozorga ham ta'sir etadi. Masalan, Markaziy bank ochiq bozordan obligatsiyalar sotib ola boshladi. Natijada pul taklifining ko'payishi (LM egrisi chizig'ini o'ngga siljishida aks etib) foiz stavkasining pasayishini keltirib chiqaradi. Monetar impuls ta'sirida, ya'ni, foiz stavkasining pasayishi oqibatida investitsiya xarajatlari ko'payadi va IS egrisi chizig'i ham o'ngga siljib yangi nuqtada muvozanat o'rnatiladi.

Agar modelda muvozanati LM egri chizig'ining gorizontal (keyns) kesmasida yuzaga kelsa pul massasining ko'paytirilishi investitsiyalar, ishlab chiqarish va bandililikning o'sishiga olib kelmaydi. Bu iqtisodiy tizimda aloqalar buzilganligidan dalolat beradi. Bunda pul taklifining o'sishi tovarlar bozoriga ta'sir ko'rsata olmaydi, chunki pul bozorida foiz stavkasini kamaytirish imkoniyati qolmaydi. Bunday vaziyat likvidlilik tuzog'i nomini olgan.

«Likvidlilik tuzog'i vaziyatida kredit (monetar) siyosat yalpi talab va milliy daromadni rag'batlantirish vositasi sifatida kutilgan samarani keltirib chiqarmaydi va shu sababli, keynschilar fikriga ko'ra, (ixtiyorimizda) faqat bir dastak – solqlar va hukumat xarajatlari orqali yalpi talabga bevosita ta'sir ko'rsatadigan fiskal siyosatgina qoladi»¹⁴.

Agar modelda IS egri chizig'i LM egri chizig'ining vertikal kesmasidan kesib o'tganda yuz bergen bo'lsa pul taklifini oshirish milliy daromadning o'sishiga va foiz stavkasining pasayishiga olib keladi. Aksincha, davlat xarajatlarining oshirilishi esa, keynschilar fikriga ko'ra, bu kesmada yalpi talabga va milliy daromar hajmiga ta'sir ko'rsatmaydi.

Agar IS egri chizig'i vertikal ko'rinishda bo'lsa, ya'ni investitsiyalarga talab foiz stavkasi o'zgarishiga ta'sirchan (elastik) bo'lмаган, masalan, investorlar kelajakdag'i bozor konyunkturasining noaniqligi sababli o'z investitsiyalari istiqboliga tushkun baho bersalar investitsion tuzoq yuzaga keladi. Investitsion tuzoq shuni anglatadiki IS egri chizig'i vertikal bo'lganda LM egri chizig'ining siljishlari real daromad miqdorini o'zgartirmaydi. Bu holatda pul-kredit siyosati yalpi talab va milliy daromad hajmiga hech qanday ta'sir ko'rsatmaydi, fiskal siyosat esa samarali bo'ladi.

Demak, pul-kredit siyosati foiz stavkalari yuqori bo'lгandasamarali bo'ladi. Fiskal siyosat esa foiz stavkasi minimal, ya'ni LM egri chizig'i gorizontal, IS egri chizig'i esa vertikal bo'lganda samaraliroq bo'ladi. Model yordamida makroiqtisodiy siyosat variantlarini tanlash, shuningdek usullarini muvofiqlashtirilgan holda qo'llash va siqib chiqarish samaralarini kamaytirish yo'llarini tahlil etish mumkin.

IS-LM modeli tovar va pul bozorlarining o'zaro aloqalarini va har ikki bozorda birgalikda muvozanat o'rnatalishi mexanizmini izohlovchi modeldir.

IS egri chizig'i tovar va xizmatlar bozorida paydo bo'ladigan daromadlar darajasi va foiz stavkasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi.

IS egri chizig'ining har bir nuqtasida tovar pul bozorida muvozanat tarkib topadi.

LM egri chizig'i o'zgarmas narxlar sharoitida pul vositalari bozorida vujudga keladigan foiz stavkasi va daromadlar darajasining kombinatsiyalarini ko'rsatadi.

LM egri chizig'ining har bir nuqtasida pul bozorida talab va taklif o'zaro teng bo'ladi.

IS va LM egri chiziqlarining kesishuv nuqtasi har ikki bozor uchun muvozanat nuqtadir. Bu nuqtada asosiy makroiqtisodiy ayniyat iste'mol, investitsiya, so'bekspert va pulga talab funksiyalari tengligini to'liq qanoatlantiradi.

Model unda IS va LM egri ichiziqlarining holati aks ettiradigan makroiqtisodiy vaziyatdan kelib chiqib makroiqtisodiy siyosat usullarning qay birini qo'llash, yoki ularni muvofiqlashtirish masalalarini hal etish imkonini beradi.

¹⁴ Ивашковский С.Н. Макроэкономика: Учебник – 2-е изд., доп. – М.: Дело, 2002, с. 219



Takrorlash uchun savollar

- 1> IS-LM modeli qanday maqsadga xizmat qiladi va unga ehtiyojni qanday asoslab berish mumkin?
- 2> IS-LM modelining asosi bo'lgan tenglamalarni sanab bering va ularga tavsif bering.
- 3> IS egri chizig'ining mohiyati nimada va qanday keltirib chiqariladi?
- 4> LM egri chizig'ining asosiy o'zgaruvchilari nimalardan iborat va u qanday keltirib chiqariladi?
- 5> IS-LM modeli doirasida budget-soliq va pul-kredit siyosatining samaradorligini tushuntiring.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1> IS egri chizig'ini oling. IS egri chizig'i qanchalik tik bo'lsa, fiskal siyosati shunchalik samarali bo'ladi. IS egri chizig'i qanchalik yotiq bo'lsa, fiskal siyosati shunchalik samarasiz bo'ladi. Demakki, shu jarayonni chizma orqali ifodalang.
- 2> AQSH pul-kredit siyosati qisqa muddatda real foiz stavkalari AQSH iqtisodiy faoliyatga ta'sirini tushuntirib bering. Fiskal siyosati, agar IS egri chizig'i gorizontal bo'lsa, umuman samarasiz. Gorizontal IS egri chizig'i investitsiya xarajatlari foizlarning egiluvchanligini anglatadi. Shundan kelib chiqib buni chizmada aks ettiring.

Masalalar

- 1> Yopiq iqtisodiyotda iste'mol funksiyasi $C = 170 + 0,6Yd$, investitsiya funksiyasi $I = 100 - 400R$, soliqlar $T = 200$, davlat xarajatlari $G = 350$, pulga bo'lgan talab funksiyasi $M = (0,75Y - 600R)P$, pul taklifi $M = 735$, narxlar darajasi $P = 1$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar soliqlar $T = 50$ oshsa, IS egri chizig'i qayerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.
- 2> Ochiq iqtisodiyotda iste'mol funksiyasi $C = 300 + 0,8Yd$, investitsiya funksiyasi $I = 200 - 1500R$, soliqlar stavkasi $t = 0,2$, davlat xarajatlari $G = 200$, pulga bo'lgan talab funksiyasi $M = (0,5Y - 2000R)P$, pul taklifi $M = 550$, narxlar darajasi $P = 1$, sof eksport funksiyasi $Xn = 100 - 0,04Y - 500R$. IS va LM tenglamalarni, hamda daromad Y va foiz stavkasining R muvozanatli darajalarini aniqlang. Agar narxlar darajasi $P = 2$ bo'lsa, LM egri chizig'i qayerga surilishini hamda yangi muvozanatli daromad va foiz stavkasini aniqlang.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

IS – LM modeli – qisqa muddatli davrda ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi.

Likvidlilik koeffitsiyenti – mavjud mablag'larning qanchalik qismi tez orada qoplash uchun yo'naltirilishi mumkinligini ifodalovchi ko'rsatkich.

Likvidlilik tuzog'i – foiz stavkasi juda past bo'lgan shunday vaziyatki, odamlar pulni naqd ko'rinishda saqlab turishni afzal ko'radilar. Tadbirkorlar esa foiz stavkasi bundan ko'ra pasayishi mumkin emasligi sababli investitsiyalarni ko'paytirmaydi. Minimal foiz stavkasi sharoitida pulga talab egri chizig'i cheksiz elastik bo'lib qoladi.

Makroiqtisodiy muvozanat – iqtisodiyot turli tomonlarining o'zaro tengligi bo'lib, eng avvalo, yalpi talab va yalpi taklifning tengligi orqali namoyon bo'ladi.

Makroiqtisodiy muvozanatning keynscha modeli – narxlar darajasi o'zgarmas bo'lgan sharoitda jami sarflar va real yalpi milliy mahsulot o'ttasidagi o'zaro bog'lilikni aks ettiruvchi model (Qarang: Keynsancha iqtisodiy nazariya, Keyns D.).

Yalpi taklif – mamlakatda, ma'lum vaqt davomida, tadbirkorlik sektori va davlat tomonidan ishlab chiqarilgan, baholarning turli darajasida taklif qilinadigan tovar va xizmatlarning umumiyligi hajmi.

Yalpi talab – uy xo'jaliklari, firmalar, davlat va xorijliklar, mamlakat rezidentlari tomonidan ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni baholarning turli darajasida sotib olishga qilingan xarajatlarning umumiyligi yig'indisi.



X BOB

IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGI

- 10.1. IQTISODIY O'SISH TUSHUNCHASI VA UNING O'LCHANISHI
- 10.2. IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR
- 10.3. IQTISODIY O'SISHNING NEOKEYNSCHA MODELLARINING UMUMIY TAVSIFI
- 10.4. IQTISODIY O'SISHNING XARROD-DOMAR MODELI
- 10.5. IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

KIRISH


Jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa barcha muammolarni hal qilishning asosiy yo'li – bu milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va iqtisodiy o'sishiga erishishdir. Aholi farovonligining oshib borishi ham pirovard natijada iqtisodiy o'sish darajasi va sur'atlariga bog'liq. Shu sababli iqtisodiy rivojlanishning mohiyati, uning darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar, iqtisodiy o'sishning mazmuni, turlari va ko'rsatkichlarini bayon qilish qanchalik dolzarb ekanligini ko'rsatadi.

Jamiyatning iqtisodiy rivojlanishi juda serqirra jarayon bo'lib, u o'z ichiga iqtisodiy o'sish, iqtisodiyotdagи tarkibiy o'zgarishlar, aholi hayotining sifati va shart-sharoitlarining takomillashuvini oladi. U hech qachon bir tekis, yuqorilab boruvchi chiziq bo'yicha ro'y bermaydi. Iqtisodiy rivojlanish o'z ichiga yuksalish va inqiroz davrlarini, iqtisodiyotdagи miqdor va sifat o'zgarishlarni, ijobiy va salbiy tomonlarni olib notejis boradi.

Milliy iqtisodiyotda iqtisodiy rivojlanish qiyin aniqlanadigan jarayon bo'lganligi sababli, uning mezonlaridan biri bo'lgan iqtisodiy o'sish ko'proq tahlil qilinadi. Iqtisodiy o'sish iqtisodiy rivojlanishning tarkibiy qismi bo'lib, o'z ifodasini real YALM hajmining oshishi hamda aholi jon boshiga nisbatan ko'payishida topadi.

10.1. IQTISODIY O'SISH TUSHUNCHASI VA UNING O'LCHANISHI

Iqtisodiy o'sishni aniqlash va asoslab berish jarayonlarida quyidagilarga e'tibor berish kerak:




Iqtisodiy o'sish – bu obyektiv qonuniyat bo'lib, aholining o'sishi, ishlab chiqarish hajmining ma'lum bir vaqt davomida o'sishi kabi jarayonlar bilan bog'langan. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, potensial YALM hajmining oshishini bildiradi. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish nafaqat ishlab chiqarishning o'sishini, balki iqtisodiyot potensialining o'sishini ham bildiradi. Iqtisodiy o'sishda nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishi ham tushuniladi. Iqtisodiy o'sish ikki

xil usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi. Birinchi usul, YalM ni o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini aniqlash uchun ishlataladi. Ikkinci usul, real YalM ning o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi.


Amaliyotda iqtisodiy o'sishning ikki xil ko'rinishi farqlanadi: haqiqiy va potensial.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish – bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan YalM yoki boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.


Potensial iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyot o'sishi mumkin bo'lgan tezlikdir. Mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan potensial iqtisodiy darajasi yanada o'sishni ta'minlanganlik yuksaltiradi.



a. rasm



b. rasm



c.rasm

Iqtisodiy o'sish usullaridan to'g'ri va o'z ornida foydalanish katta ahamiyatga ega.

Mamlakatning iqtisodiy o'sishining yana bir ta'rifi bu: iqtisodiy o'sish va uning ko'satkichlari real YalMni uzoq vaqt oralig'ida o'sib borish tendensiyasi iqtisodiy o'sishni bildiradi. Bu ta'rifning kalit so'zlari quyidagi ma'noni anglatadi:

a) tendensiya so'zi real YalM yiliga ko'payishi majburiy emasligini, faqatgina «trend» deb ataluvchi iqtisodning yo'naliшинигина ko'rsatadi;

b) uzoq vaqt oralig'ida, chunki iqtisodiy o'sish uzoq muddatni xarakterlovchi ko'satkichdir va shuning uchun so'z YalMning potensial hajmi, ya'ni resurslarning to'liq bandlik sharoitidagi YalM, iqtisodiyotning ishlab chiqarish imkoniyatlari o'sishi haqida boradi;

c) real YalM bu – nominal YalM emas, chunki nominal YalM narxlar darajasi o'sishi hisobiga ortishi mumkin, bunda ishlab chiqarishning real hajmi qisqarishi ham kuzatilishi mumkin.

Shuning uchun iqtisodiy o'sishning asosiy ko'satkichi real YalM hajmi hisoblanadi.

Grafik ko'rinishda iqtisodiy o'sishni uch xil usulda tasvirlash mumkin:

- ❖ real YalM egri chizig'i orqali;
- ❖ ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i orqali;
- ❖ yalpi talab-yalpi taklif modeli orqali (AD-AS modeli).

Yuqorida tasvirlangan 3 ta rasm iqtisodiy o'sishning grafik usullari hisoblanadi.

(a) rasmdagi TREND (egri) chizig'i real YalMni uzoq muddatda o'sib borish tendensiyasini ko'rsatadi.

(b) rasmda iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'i orqali tasvirlab berilgan. Vertikal I chizig'i innovatsion tovarlarni, gorizontal S chizig'i iste'mol tovarlarini ifodalaydi.

Iqtisodiyotda ishlab chiqariladigan tovarlarning asosiy turi bu investision tovarlar (ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan) va iste'mol tovarlaridir. Ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chiziqiga iqtisodiyotda resurslaming ma'lum bir vaqtda cheklanganligini ko'rsatadi. Egri chiziqdagi har bir nuqta mavjud iqtisodiy resurslar yordamida ishlab chiqarilishi mumkin bo'lgan iste'mol va investision tovarlarning ma'lum bir miqdordagi kombinatsiyasini ko'rsatadi. Masalan, ishlab chiqarish egri chizig'idagi A nuqtaga to'g'ri keluvchi resurslar miqdorida iste'mol tovarlarini S1 va investision tovarlarini I1 miqdorda ishlab chiqarish mumkin. Agar xuddi shu ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'ida iste'mol tovarlarini S2 miqdorga oshirishni maqsad qilib qo'yilsa (A nuqtadan V nuqtaga o'tish), u holda bu muammoni hal etish faqatgina investision tovarlami I2 gacha kamaytirish, ya'ni alternativ xarajatlar hisobiga amalga oshirish mumkin. Agar iqtisod yangi ishlab chiqarish imkoniyatlari egri chizig'iga, ya'ni A nuqtadan D nuqtaga o'tsa, u holda ham iste'mol (S3) ham investision tovarlarni ishlab chiqarish alternativ (muqobil) xarajatlarsiz ortadi. Bu esa iqtisodiy o'sish bo'lib, ishlab chiqarish imkoniyatlarini yangi darajaga ko'tarilishi, resurslar cheklanganligi va alternativ xarajatlar muammosining hal eti-

lishidir. Shunday qilib, iqtisodiy o'sish ishlab chiqarish imkoniyatlari egor chizig'ida o'ngga siljigan (parallel siljishi shart emas) holatda tasvirlanishi mumkin.

(c) rasmida iqtisodiy o'sish AD-AS modeli yordamida tasvirlangan. Iqtisodiy o'sish potensial YaIM, ya'ni real YaIMni uzoq muddatda o'sishini bildirar ekan, uni grafikda uzoq muddatdagi yalpi taklifni (LRAS) siljishi va ishlab chiqarish hajmini Y1 dan Y2 gacha ortishi ko'rinishida tasavvur etish mumkin. Mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasini, uning iqtisodiy potensialini baholashda real YaIM hajmi ko'satkichidan keng foydalanilsada, bu absolut ko'satkich turmush darajasini to'liq aks ettira olmaydi. Mamlakat rivojini, farovonlik darajasini nisbatan aniq ko'ssata oladigan ko'satkich kishi boshiga to'g'ri keladigan real YaIM hajmi hisoblanadi, ya'ni bunday nisbiy ko'satkich umuman iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan tovar va xizmatlar miqdori narxinigina emas, balki uning o'rtacha bir kishiga qancha to'g'ri kelishini ko'ssatib beradi. Gap shundaki, kishilar turmush darajasi ko'p darajada aholi sonining o'sish suratlariga bog'liqdir. Bir tomondan mamlakat aholisining soni ishchi kuchi, ya'ni mehnat resurslari miqdorini belgilab beradi.

10.2. IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

Nima uchun ba'zi mamlakatlar boshqalarga nisbatan tezroq rivojlanishini, iqtisodiy o'sishni qanday tezlashtirish mumkinligini, ya'ni davlatlararo va ma'lum vaqt oralig'ida real YaIM (va kishi boshiga to'g'ri keluvchi real YaIM) darajasi va uning o'sish sur'atlari orasidagi farqni tushunish uchun iqtisodiy o'sishning turlari va omillarini tahlil qilish kerak bo'ladi. Ishlab chiqarish imkoniyatlarini oshishi va potensial YaIM hajmini o'sishi resurslaming hajmi yoki ular sifati o'zgarishi bilan bog'liq.

Tegishlicha iqtisodiy o'sishni ikki turiga ajratadilar: ekstensiv va intensiv. Resurslaming o'sishi yoki iqtisodiy omillami oddiy qo'shish hisobiga bo'ladigan o'sish iqtisodiy o'sishning ekstensiv turiga tegishlidir. Resurslami sifat jihatidan takomillashishi bilan, ilmiy -texnik taraqqiyot (progress) ning eng yangi yutuqlarini qo'llash bilan bog'liq o'sish esa iqtisodiy o'sishning intensiv turidir.

Bundan kelib chiqib, iqtisodiy c'sishning ikki turiga ikki gurux omillami ajratadilar:

1) resurslarning soniga ta'sir etuvchi omillar: yer, mehnat, kapital va tadbirkorlik faoliyati. Iqtisodiy o'sishning ekstensiv turi omillariga quyidagi omillar kiradi: ishchi kuchi miqdorini ko'paytirish; yangi korxonalar qurish; ishlab chiqarish vositalari hajmini oshirish; xo'jalikka qo'shimcha yerlarni jalb etish; yangi yerlarni ochish va foydali qazilmalar qazib chiqarishni ko'paytirish; resurslar miqdorini oshirish imkonini beradigan tashqi savdoni rivojlantirish va boshqalar. Ammo bunda ishchilar malakasi va ular mehnati unumdarligi, ishlab chiqarish vositalari sifati va texnologiya o'zgarmasdan qoladi. Shuning uchun mehnat va kapital birligiga to'g'ri keladigan mahsulotdan olinadigan daromad o'zgarmasdan qoladi.

2) sifatga ta'sir etuvchi omillar. Iqtisodiy o'sishning intensiv turi omillari quydagilar: ishchi kuchi malakasi va kasbiy tayyorgarligi darajasini oshirish; ishlab chiqarishga ishlab chiqarish vositalarini nisbatan takomillashganini qo'llash; yangi texnologiyalar (birinchi navbatda resurslami tejaydigan)ni qo'llash; mehnatni ilmiy tashkil etish; iqtisodiyotni davlat tomonidan boshqarishda nisbatan samarali usullami qo'llash.

Iqtisodiy o'sishning intensiv turi omillari ichida jamiyat a'zolarining mavjud bilimlarini oshirish va to'plashga, yangi bilimlar natijasida erishiladigan ilmiy yangiliklar va kashfiyotlarga, bunday kashfiyotlami amalga oshirishga asoslangan ilmiy-texnik taraqqiyot omili muhim ahamiyatga ega. Aynan ana shu ilmiy -texnik taraqqiyot resurslar sifatini takomillashtirish imkoniyatini yaratadi.

Resurslar sifatining asosiy iqtisodiy xarakteristikasi ularning unumdorligi hisoblanadi. Mamlakatda aholi turmush darajasini belgilab beruvchi eng asosiy omil-bu mehnat unumdorligidir. Mehnat unumdorligi deb, ishchining bir soat ichida yaratgan tovar va xizmatlar miqdoriga aytildi.

$$\text{Mehnat unumdorligi} = \frac{\text{Ishlab chiqarish hajmi}}{\text{Ish vaqtি (soatlarda)}}$$

Ishchi bir soatda qanchalik ko'p tovar va xizmatlar ishlab chiqarsa, mehnat unumdorligi shuncha yuqori va real YALM hajmi katta bo'ladi. Aholi turmush darjası mamlakatda yaratilgan tovar va xizmatlar miqdori bilan belgilanadi, yalpi daromad yalpi ishlab chiqarish hajmiga teng, shuning uchun real YALM qanchalik katta bo'lsa, turmush, farovonlik darjası shunchalik yuqori bo'ladi. Mehnat unumdorligiga, undan kelib chiqib iqtisodiy o'sish va uning sur'atlariga quyidagi omillar ta'sir etadi: jismoniy kapital (yoki kapital) – bu tovar va xizmatlami ishlab chiqarish uchun ishlatiladigan bino, inshoot, asbob-uskuna va hokazolar zaxirasidir. Shuni aytish kerakki, jismoniy kapitalning o'zi ishlab chiqarish jarayonining mahsulidir. U qanchalik takomillashgan va zamonaviy bo'lsa, shunchalik ko'p tovarlar (jumladan investitsion tovarlar, ya'ni yangi asbob-uskunalar) va xizmatlar uning yordamida ishlab chiqarish mumkin bo'ladi.

Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi omillar nima uchun muhim?

Iqtisodiy o'sish sog'lom iqtisodiyotning muhim belgilaridan biridir.

Mamlakatning uzoq muddatli taraqqiyotining eng yaxshi ta'sirlaridan biri bu uning iqtisodiy ishlab chiqarish va kambag'allik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hisoblanadi. Bu aholining hayot kechirish darajasini yaxshilaydi.

Mamlakatdagi YALM miqdorining o'sishi aholining ish bilan bandlik darajasini yaxshilaydi. Bu mamlakat resurslari va demografik holatini yaxshilaydi.

Yuqori iqtisodiy o'sish, shuningdek, iqtisodiyotni o'rnatish uchun jamoatchilikka ishlatilishi mumkin bolgan davlat xarajatlari soliq daromadlarining ko'payishi-ga yordam beradi. Budget kamomadini kamaytirish uchun ushbu qo'shimcha vositadan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari, millat aholisi kengayib borishi bilan, uning hayoti va farovonlik darajasini saqlab qolish uchun unga rivojlanish kerak.



Mehnat kapitali (insoniy kapital) – bu o'qish jarayoni (maktab, kollej, universitet, kasbga tayyorlash va mahaftalar) va mehnat faoliyati jarayonida laka oshirish kurslari) va mehnat faoliyati jarayonida ishchilarning olgan bilim va mehnat mahoratlaridir.

Iqtisodiy o'sish omillari iqtisodiyotga ijobiy yoki salbiy ta'sir qiladi, jumladan foiz stavkalari, soliq stavkalari va qonunchilik, siyosat, ish haqi va hukumat faoliyati. Iqtisodiy o'sishga yordam beradigan omillar mamlakatdagi ishlab chiqarish kompaniyalariga ta'sir qilmasligi mumkin, ammo ular kelgusi yillardagi investitsiyalar qiymatiga ta'sir qiladi. Vaholanki, investitsiyalar kompaniyalar faoliyatiga to'g'ridan to'g'ri ta'sir qiladi. Natijada, kompaniya daromadlarining yuqorilashi bu unda ish bilan band ishchilarning oylik maoshlari yaxshilanishini bildiradi. Bu esa, aholi daromadlari ko'tarilganini bildiradi.

Iqtisodiy o'zgaruvchilar biznesga ta'sir qiladi, chunki u sanoat bilan bog'liq va ishchilar kabi kompaniyaning harakatlanishiga ta'sir qiladi va uning narxi har doim iqtisodiy ta'sir qiladi. Bir nechta davlatlar boshqa davlatlardan ishchi kuchini jalb qilishni boshladilar.

Foiz stavkasi iqtisodiyotdagi pul o'zgaruvchanligiga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Investitsiyalarning yuqori daromadlari investorlarning qiziqishini kelтирib chiqaradi. Kompaniya rivojlanishida menejment hal qiluvchi rol o'ynaydi. Garchi u iqtisodiy element bo'lmasa-da, bu iqtisodiy o'zgaruvchilarga ta'sir ko'rsatadigan va firmani eng katta daromad olishga undaydigan omil.

Aytish kerakki, inson kapitali jismoniy kapital kabi ishlab chiqarish jarayoni natijasidir va u ham jamiyatning yangi tovar va xizmatlar yaratishdagi imkoniyatini oshiradi.

Tabiiy resurslar – bu tabiat ato etib ta'minlab beradigan omillar, ya'ni yer, daryolar, foydali qazilmalar va hokazo. Tabiiy resurslar tiklanadigan va qayta tiklanmaydiganga bo'linadi.

Qayta tiklanadiganga or'mon resurslari misol boladi (kesilgan daraxtlar or'niga yangilarini ekish mumkin). Tiklanmaydiganlar: neft, ko'mir, temir rudasi va boshqalar. Ularning tiklanishi uchun ming yoki millionlab yillar kerak boladi. Tabiiy omillar zaxirasi iqtisodiy rivojlanishning juda muhim omili hisoblansada, ularning mavjudligi iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlari va iqtisodiyotning yuqori darajada samarador bo'lishi uchun asosiy shart hisoblanmaydi.

Haqiqatan ham AQSH iqtisodiy rivojining tez sur'atlari dastavval bo'sh yerlarning, qishloq xo'jaligiga yaroqli bo'lgan yerlarning ko'pligi bilan bog'liq bo'lgan. Quvayt va Saudiya Arabistonini ko'plab neft quvurlarini izlab topish va qazib chiqarish evaziga dunyoning eng boy mamlakatlariga aylandilar. Ammo, masalan, Yaponiya tabiiy omillarga boy bo'lmasada, dunyoning yetuk, rivojlangan mamlakatlari qato-

ridan joy oldi. Janubiy Osiyo mamlakatlari («Osiyo ajdarholari» deb atalmish davlatlar, ya'ni Gongkong, Tayvan, Janubiy Koreya va Singapur) iqtisodiy o'sishi sur'atlarining tezligi tabiiy resurslarning ko'pligi hisobiga sodir bo'limgan. Tabiiy omillar inson tomonidan ishlab chiqarilmaydigan yagona omildir. Qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslar cheklanganligi tufayli jahon iqtisodiyoti o'sishining chegarasi mavjud degan g'oyalar keng tarqalgan. Ammo bunday chegarani kengaytirish mas-salasini texnologik yutuqlar yordamida hal etish mumkin bo'ladi.

Texnologik bilimlar – bu ishlab chiqarishda qo'llaniladigan eng yaxshi usullarni tushunib yetishdir. Texnologik bilimlarning inson kapitalidan farqi shundaki, texnologik bilimlar bu usullarni ishlab chiqish va tushunishni ifodalaydi (qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga javob beradi), inson kapitalida esa bu usul-lami insonlar (ishchi kuchi) tomonidan egallay olish darajasi, bilimlarni mehnat ko'nikmalariga aylantirish tushuniladi. Yangi texnologiyalar mehnatni samaraliroq bo'lishiga, tovar va xizmatlami ko'proq ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Texnologik bilimlar juda katta ahamiyatga ega, chunki ular:

- resurslarning cheklanganligi muammosini hal etishga imkon beradi;
- iqtisodiy o'sish sur'atlari tezlashishining asosiy omili hisoblanadi.

Shunday qilib, mamlakatda hayot darajasi iqtisodiyotning tovar va xizmatlar ishlab chiqarish qobiliyati bilan aniqlansa, mehnat unumdonligi jismoniy va inson kapitali, tabiiy resurslar va texnologik bilimlar kattaligiga bog'liqdir.

O'sishni cheklaydigan rivojlanish omillari qanday?

Quyida biz quyidagi omillardan qaysi biri iqtisodiy ta'sir ko'rsatishini batafsil ko'rib chiqdik.

Sog'liqni saqlash past darajasi va ta'lif: bu omillar mamlakatdagi ishchilarining ish faoliyatini yaxshi sug'urta qilinmasligi hamda ularning tibbiy ko'rik va shu kabi jarayonlarni oqsashiga olib keladi. Natijada, ishchi xodimlarning ish unum-dorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu jarayon esa o'z- o'zidan ish unumdonrigiga va bu esa iqtisodiy o'sishga borib taqaladi.

Zarur infratuzilmaning yetishmasligi: rivojlanayotgan mamlakatlar ko'pincha magistral yo'llar, universitetlar va sog'liqni saqlash markazi kabi yomon infratu-zilmalarni boshdan kechirishadi. Ushbu qo'llab-quvvatlash yetishmasligi turizm faoliyatining narxlarini oshishiga olib keladi va mamlakatning turizmdan keladi-gan daromadlariga ta'sir qiladi hamda turistlar sonining kamayishiga olib keladi.

Bank foiz stavkasi: agar mamlakat bank tizimini yaxshilamas ekan, banklarga bo'lgan ishonchning salbiylashuviga olib keladi. Banklardagi foiz stavkalarining yuqorilashi bu tadbirkorlik faoliyatini yurituvchi shaxslarning kredit olish imkoniyatlarini tushuradi hamda mamlakatda tadbirkorlik qilish istagi borlar o'z sarmoyasini boshqa mamlakatlarga olib chiqib ketishiga to'g'ri keladi. Bu o'z navbatida, mamlakatning imijini hamda «Doing Business»da o'z ko'rsatkichining pastlashuviga olib keladi.

Siyosatdagi noaniqlik: shunga o'xshab, jamoatdagi siyosiy noaniqlik aksiyador-larga tahdid soladi va investitsiyalarga to'sqinlik qiladi. Mamlakatda esa to'g'ridan to'g'ri hamda portfel investitsiyalarning kirish darajasiga bevosita ta'sirini o'tkaza-



di. Bu xorijiy sarmoyadorlarda keskin qarorlar qilish va o'z sarmoyasini olib ketishga yo'l demakdir. Natijada mamlakatdagi shu sarmmoya natijasida olayotgan daromadlar yoinki shu sabab ish bilan band aholi ishsiz qolishi turgan gap.

Institutsiyonal tuzilish: mahalliy me'yoriy hujjatlar ko'pincha erkinliklarni tegishli darajada himoya qila olmaydi. Bunda esa, sud-huquq tizimining yaxshi ishlamasligi ham yaqqol ayon. Mamlakatdagi ishlab chiqarish korxonalarida ishlayotgan aholining o'z sug'urtasini qonuniy jihatdan ololmasligini xorijiy mamlakatga chiqib ishlashiga ishora desak mubolag'a emas.

10.3. IQTISODIY O'SISHNING NEOKEYNSCHA MODELLARINING UMUMIY TAVSIFI

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Bu modellar o'z mazmuniga ko'ra bir-birlaridan farqlansada, ularning asosida ikkita nazariya – makroiqtisodiy muvozanatning keynscha (keyinchalik neokeynscha) nazariyasi hamda ishlab chiqarishning klassik (keyinchalik neoklassik) nazariyasi yotadi.

Keynscha modellarning mohiyati quyidagicha:

- 1) ularning barchasi Keynsning yalpi talb to'g'risidagi bosh g'oyasiga tayandadi. Ya'ni ularni tuzishda mualliflar iqtisodiyotni uzoq muddatli mutanosib rivojlanishining hal qiluvchi sharti yalpi talabni oshirish deb qarashgan;
- 2) iqtisodiy o'sishning asosiy omili investitsiyalar hisoblanadi, boshqa ishlab chiqarish omillari e'tiborga olinmaydi.

Keynscha iqtisodiy o'sish modelidan soddarog'i 1940-yillarda Ye. Domar tomonidan taklif etilgan model hisoblanadi.

Domar modelida mehnat bozorida ortiqcha taklif mavjud, bu baholarn barqaror holatida ushlab turadi, kapital qo'yilmalarning chegaraviy unumdonligi doimiy deb olinadi. Ye.Domar investitsiyalarni ham talab ham taklif omili deb qaraydi. Ya'ni investitsiyalar nafaqat multiplikativ ta'sir ko'rsatib yalpi talabni oshiradi, balki ishlab chiqarish quvvatlarini yuzaga keltirib, ishlab chiqarishni rivojlantiradi, tovarlar taklifini oshiradi. Shunday ekan, yalpi talabning o'sishi yalpi taklifning o'sishiga teng bo'lishi uchun investitsiyalar qanday o'sishi kerak degan savol paydo bo'ladi. Bu savolga javob topish uchun

Domar uch tenglamani o'z ichiga olgan tenglamalar sistemasini tuzdi:

- 1) taklif tenglamasi;
- 2) talab tenglamasi;
- 3) talab va taklif tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasida investitsiyalar ishlab chiqarish omillarining qanchaga qo'shimcha o'sishini ko'rsatadi. Agar berilgan sharoitda investitsiyalar I o'ssa, yalpi ishlab chiqarish $\triangleright K^*\alpha$ miqdorga o'sadi:

$$\Delta Y_s = \Delta K^*\alpha$$

ΔK investitsiyalar hisobiga ta'minlanganligi uchun tenglikni:

$$\Delta Y_s = I * \alpha$$

deb yozish mumkin, bunda, α – kapital qo'yilmalar (investitsiyalar)ning chegaraviy unumdarligi.

$$\Delta \alpha = Y_s / I$$

bir so'mlik investitsiya hisobiga yaratilgan yangi mahsulot miqdorini ko'rsatadi.

2. Talab tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$\Delta Y_d = \Delta I * (1/\mu)$$

bu yerda: $1/\mu$ – xarajatlar multiplikatori,

μ -jamg'arishga chegaralangan moyillik. Y_d , yoki yalpi talab qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ko'payishiga teng miqdorda o'sishini ko'rsatadi. Ishlab chiqarish to'plangan jami kapital bilan ta'minlanishi, milliy daromad esa qo'shimcha investitsiyalarning multiplikativ ta'siri ostida ko'payishi sababli taklif tenglamasida jami investitsiyalar, talab tenglamasida esa qo'shimcha investitsiyalarga ko'rib chiqiladi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlarining qo'shimcha o'sish sur'atlari tengligi tenglamasi:

$$\Delta I (1/\mu) = I * \alpha$$

Bu tenglamani yechib quyidagi natijani olamiz:

$$\Delta I / I = \mu * \alpha$$

($\square I / I$) – investitsiyalarning yillik o'sish sur'ati bo'lib, ishlab chiqarish quvvatlarini oshirish yordamida to'liq bandlilikni ta'minlab turish uchun ($\mu * \alpha$) miqdorga teng bo'lishi kerak. Bundan xulosa shuki, investitsiyalarning mutanosib o'sish sur'ati jamg'arishga chegaralangan moyillik va investitsiyalarning unumdarligi (kapital qaytimi) darajalarining hosilasi ekan

Domar moddelidan kelib chiqadigan umumiyl xulosa shuki, iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun investitsiyalar hajmini oshirish, bu uchun esa jamg'arish normasi hamda fan texnika taraqqiyoti orqali kapitalning samaradorligini oshirish zarur.

Iqtisodiy o'sishni tahlil qilishda neoklassik nazariya namoyandalari quyidagi noto'g'ri nazariy shartlarga asoslanadilar:

1) mahsulotning qiymati barcha ishlab chiqarish omillari tomonidan yaratiladi;

2) ishlab chiqarish omillarining har biri o'zining keyingi qo'shilgan mahsulotiga tegishli ravishda mahsulot qiymatini yaratishga hissasini qo'shadi. Shunga ko'ra, bunga javoban barcha keyingi qo'shilgan mahsulotga teng keluvchi daromad ham oladi;

3) mahsulot ishlab chiqarish va buning uchun zarur bo'lgan resurslar o'rtasida miqdoriy bog'liqlik mavjud;

4) ishlab chiqarish omillarining erkin tarzda amal qilishi hamda ular o'rtasida o'zaro bir-birining o'rnnini bosish imkoniyati mavjud.

Neoklassik va boshqa ayrim yo'nalishdagi nazariyotchilar bu yerda ikkita uslubiy xatoga yo'l qo'yadilar:

1) ular ishlab chiqarish omillarining barchasi bir xil qiymat yaratadi, ular qiymatni yaratishda baravar ishtirok etadi, deb hisoblaydilar. Holbuki, barcha ishlab



chiqarish vositalari hech qanday yangi qiymat yaratmaydilar, balki o'zlarining qiymatlariga teng miqdordagi qiymatni jonli mehnat yordamida yangi yaratilgan mahsulotga o'tkazadilar. Lekin barcha omillar yaratilgan va o'sgan (ko'paygan) mahsulotning nafliligini yaratishda qatnashadilar;

2) ular doimo barcha omillar ichida jonli mehnatning faol rol o'ynashini, qolgani esa passiv rol o'ynashini unutadilar. Chunki hech bir tabiiy resurs, kapital resurlari jonli mehnat tomonidan harakatga keltirilmasa, o'zicha harakatga kela olmasligi, o'z joyida ham jismonan, ham qiymati yo'q bo'lib ketishi, ularning qiymati faqat jonli mehnat tomonidan saqlab qolinishi million yillardan beri milliard martalab tasdiqlanib kelmoqda. Lekin negadir ularning bunga e'tibor bergisi kelmaydi.

10.4. IQTISODIY O'SISHNING XARROD-DOMAR MODELI

Xarrod o'zining modeli orqali barqaror o'sish sur'atlari asosiy kapital ishlab chiqarish koeffitsiyenti va jamg'armaga chegaralangan moyilligi bilan erishish mumkinligini ko'rsatdi. Shuningdek, u ushbu barqaror o'sish sur'atini saqlab qolish uchun bajarilishi kerak bo'lgan shartlarni tushuntirib berdi. U qo'shimcha ravishda tabiiy resurslar iqtisodiyotning o'sish sur'atlari qanday ta'sir ko'rsatayotganini bat afsil bayon qildi.

Xarrod va Domar tomonidan qurilgan model quyidagi taxminlarga asoslanadi:

1. Daromadning dastlabki to'liq muvozanat darajasi mavjud.
2. Hukumat aralashuvi yo'q.
3. Ushbu modellar tashqi savdosi bo'lмаган yopiq iqtisodiyotda ishlaydi.
4. Investitsiyalar va ishlab chiqarish salohiyatini yaratish o'rtaida o'zgarishlar kechikishi yo'q.
5. Kapital koeffitsiyenti, ya'ni kapital fondining daromadga nisbati qat'i deb qabul qilinadi
6. Cheksiz hayotga ega deb taxmin qilingan asosiy vositalarning amortizatsiyasi yo'q.
7. Jamg'arma va sarmoyalar o'sha yilning daromadi bilan bog'liq.
8. Umumiylar narx darajasi doimiy, ya'ni pul daromadi va real daromad bir xil.
9. Foiz stavkalarida hech qanday o'zgarish yo'q.
10. Ishlab chiqarish jarayonida kapital va ishchi kuchining doimiy ulushi mavjud.
11. Asosiy va aylanma kapital kapital ostida birlashtiriladi
12. Va nihoyat, mahsulotning faqat bitta turi mavjud.

MODELNING BAYONOTI:

Bu uchta o'sish sur'atlari asoslangan:

- ❖ Haqiqiy o'sish darajasi (Actual Growth Rate-G) – bu mamlakat yalpi ichki mahsulotining yiliga real sur'atlarda o'sishi.

❖ Kafolatlangan o'sish darajasi (Warranted Growth Rate-Gw) – bu to'liq ish bilan ta'minlangan darajadagi o'sish sur'ati.

❖ Tabiiy o'sish darajasi (Natural Growth Rate-Gn) – bu tabiiy resurslarni hisobga olgan holda iqtisodiyotga erishish mumkin bo'lgan maksimal o'sish sur'ati. Bu aholi texnologiyasi, tabiiy resurslar va boshqa shu kabi o'zgaruvchilar bilan belgilanadi.

Modelning siyosiy ta'siri

Jamg'armalarni kamaytirishga yordam beradigan bunday siyosat vositalarini yaratish maqsadga muvofiqdir, agar Gn $< Gw$ bolsa, bu umumiy talabni oshiradi. Ammo $Gn > Gw$ bolsa, jamg'armaning pasayishi infliyatsiyaga olib keladi va shuning uchun uni oshirish kerak.

Harrod modeli va savdo tsikllari

(a) $Gw > Gn$ to'liq ish bilan band bo'lganda, iqtisodiyotda turg'unlik bo'ladi.

(b) $Gw < Gn$ to'liq ish bilan band bo'lganda, ikkita ehtimollik mavjud.

Uzoq vaqt davomida u Gn dan yuqoriga ko'tarilish ehtimoli katta va agar shunday bo'lsa, to'liq ish darajasiga erishgandan keyin tushkunlik spirali paydo bo'ladi.

Agar Gw uzoq muddatda Gn dan o'zib ketmasa, iqtisodiyotda infliyatsiya bo'ladi.

Harrod modelini tanqid qilish

Haqiqiy jarayonda Xarrod taxmin qilgan ishlab chiqarish funksiyalari aniqligi, tejamkorlik koeffitsiyenti va ishchi kuchining o'sish sur'atlari mavjud. Xarrod modeli muhokama qilmaydigan texnologiyalarni takomillashtirish kabi iqtisodiy o'sishga olib keladigan ko'plab boshqa omillar mavjud.

Xarrod-Domar iqtisodiy o'sish modeli

Xarrod modeli va Domar modellari tafsilotlari jihatidan bir-biridan farq qiladi, ammo ikkala modeldagи g'oyalar anchayin oxshash hisoblanadi.

Xarrod-Domar modelning mohiyati:

Agar kapitalning shakllanishi va real milliy daromadning ko'payishi yonma-yon ketmas ekan, o'sish uzoq davom etmaydi.

Xarrod-Domar modeli talabni hamda investitsiya jarayonining ta'minot tomonini ko'rib chiqdi va shu bilan klassik va keynscha tahlillarni birlashtirdi.

Xarrod-Domar modelida iqtisodiyotga investitsiyalar ikki tomonlama rol o'ynaydi. U yalpi talabga ham, umumiy ta'minotga ham ta'sir qiladi, chunki bir tomondan sarmoyalar ishlab chiqarish quvvatini oshiradi va shu bilan birga multiplikator ta'sirida daromad keltiradi.

Imkoniyatlarning oshishi bilan iqtisodiyot MPS darajasiga qarab ko'proq mahsulot ishlab chiqarishi va ko'proq ish bilan ta'minlanishi mumkin.

Uchta o'sish sur'ati mavjud: haqiqiy, kafolatlangan va tabiiy; uchtasining tengligi mehnat va kapital fondlarining to'liq bandligini ta'minlaydi.

Nazariya, shuningdek, savdo davrlarini tushuntiradi. $G > Gn$ bo'lsa, u holda iqtisodiyotda ishsiz resurslar bo'ladi, demak, iqtisodiyot tiklanish bosqichida bo'ladi.

- $G = Gn$ bo'lganda, resurslarning to'liq bandligi bo'ladi.

- $G < Gn$ bo'lganda, iqtisodiyotda pasayish bo'ladi.



Bu modeldagи tushuntirishlarning barchasi muammoning yakuniy yechimi uchun zarur emas; shunga qaramay ular tahlilni soddalashtirishga xizmat qiladi.

10.5. IQTISODIY O'SISH VA AHOLI FAROVONLIGI O'RTASIDAGI BOG'LQLIK

Aholining farovonligi – bu ma'lum bir jamiyatda yoki ijtimoiy sharoitda qabul qilingan standartlar yoki me'yorlar bilan taqoslaganda, inson yoki uy xo'jaligining moddiy va nomoddiy (shu jumladan ma'naviy boyliklar) ehtiyojlarini mutlaq va nisbiy jihatdan qondirish darajasidir. Farovon hayot tushunchasi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarining umumlashtirilgan majmuasini qondirish demakdir. Aholining farovonligi ma'lum bir mamlakatda aholining sog'lom hayotini saqlab qolish uchun iste'mol tovarlari va zarur xizmatlarni sotib olish darajasi, shuningdek, jamiyat ichida ishslash yoki boshqa biron-bir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati bilan bog'lilq.

Iqtisodiy adabiyotlarda farovonlikning quyidagi to'rt darajasi (turmush darajasi) ajralib turadi:

1. Farovon turmush darajasi – insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan imtiyozlardan qoniqarli darajada foydalanish.
2. Oddiy daraja – odamlarning jismoniy va aqliy kuchlarini tiklashni ta'minlaydigan ilmiy qabul qilingan me'yorlarga asoslangan oqilona iste'molning tabiiy darajasi.
3. Qashshoqlik – bu holda tovarlarni iste'mol qilish ishchi kuchi ta'minotini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan darajada.
4. Yo'qotish – bu holda, faqat biologik mezonlarga javob beradigan tovar va xizmatlar savatining minimal miqdori mavjud bo'lib, uni iste'mol qilish inson uchun hayotini saqlab qolish uchun yagona imkoniyat bo'lishi mumkin.

Hayot farovonligi odamlarning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotida harakat qilish, texnik, ekologik va ijtimoiy sharoitdagi o'zgarishlarga tezkorlik bilan munosabatda bo'lish, hayotning barqarorligini saqlash va hayotiy avlodlarning ko'payishini ta'minlash, doimiy o'zgaruvchan ishchi kuchiga moslashish qobiliyatini tavsiflaydi. Hayot sifati konsepsiyasini faqat turli tomonlarning muhim ijtimoiy xususiyatlarini aks ettiradigan ko'rsatkichlar tizimi bilan tavsiflash mumkin. Asosiy ko'rsatkichlar:

- 1) ish sharoitlari va moddiy farovonlik darajasi;
- 2) ma'lumot va kasbiy tayyorgarlik daraja;
- 3) salomatlik.

Hayot sifati aholining daromadlari, qashshoqlik, boylik darajasi va mulkning tabaqlanishi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan tavsiflanadi. Bularning barchasi turli mamlakatlarda aholining farovonligi o'rtasida farqlar mavjudligini anglatadi. Aholining turmush darajasini o'rganish jarayonida ijtimoiy jarayonlarning ilmiy asoslangan ko'rsatmalari deb nomlangan ijtimoiy me'yorlarni hisobga olish

muhimdir. Odatda quyidagi ijtimoiy normalar ajratiladi: ijtimoiy sohaning moddiy bazasini rivojlantirish, aholining daromadlari va xarajatlari, ijtimoiy ta'minot va xizmat ko'rsatish, moddiy ne'matlar va pullik xizmatlarning jamoat iste'moli, yashash sharoitlari, atrof-muhit holati va muhofaza qilish, iste'mol budgeti va boshqalar. Shunday qilib, ijtimoiy standartlarga iste'mol budgeti (savat), eng kam ish haqi, ishsizlik va vaqtinchalik nogironlik nafaqalari, eng kam mehnat va ijtimoiy pensiyalar, eng kam stipendiya va aholining zaif qatlamlariga bir martalik yoki doimiy nafaqalar kiradi. Umuman olganda, ular davlat o'z fuqarolari uchun ta'minlashi kerak bo'lgan minimal ijtimoiy kafolatlar tizimini shakllantiradi. Hayot sifatining ayrim jihatlari ijtimoiy-demografik ko'rsatkichlar (umr ko'rish davomiyligi, tug'ilish, o'lim va kasallik dinamikasi), iqtisodiy faol aholi ko'rsatkichlari (ishsizlik, aholi migratsiyasi va uning sabablari), ijtimoiy keskinlik ko'rsatkichlari (masalan, xususiy ko'rsatkichlar) bilan tavsiflanadi.

Jamiyat a'zolarining daromadlari darajasi aholi farovonligining asosiy ko'rsatkichidir. Aholining daromad darajasiga ish haqi darajasidan tashqari chakana narxlar darajasi va bozorni iste'mol tovarlari bilan to'dirish darajasi ham ta'sir qildi. Jamiyat taraqqiyoti sharoitida aholi daromadlarining o'sishi shaxsning rivojlanishiga yordam beradigan asosiy jihatdir. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, daromadlarning o'sishi va inson taraqqiyoti o'rtaida nafaqat boylikni toplash, balki uning taqsimlanishi va undan foydalanish sharoitlari ham ajralib turadi.

Daromadning adolatli taqsimlanishi odamlarning tanlash imkoniyatlarini kengaytiradi va hayot darajasini oshirishga imkon beradi. Aholining daromadlari va hayot sifati o'rtaсидаги bog'liqlikni hukumat qabul qiladigan siyosat, shu jumladan ijtimoiy va soliq siyosati bilan shakllantirish kerak.

Iqtisodiyotning bozor mexanizmi jamiyat uchun farovonlik darajasini kafolatlamaydi. Haqiqiy hayotda aholi daromadlarini taqsimlash nafaqat mehnat bozori tomonidan, balki uni qayta taqsimlash orqali turli xil daromad manbalarini tartibga solish orqali ham amalga oshiriladi. Aholining turmush darajasini o'rganayotganda nafaqat daromadlar darajasini, balki tovar va xizmatlarni sotib olish uchun ushbu resurslardan foydalanishda aholining potensial imkoniyatlarini miqdoriy o'lchovini baholash juda muhimdir. Ushbu maqsadlar uchun butun aholi yoki uning guruhlari pul daromadlarining sotib olish qobiliyati hisoblanadi.

Hayot darajasi ko'rsatkichlari mamlakat va uning mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining umumiy darajasi bilan chambarchas bog'liqidir. Aholining aksariyat qismi real daromadlarining pastligi, oziq-ovqat ular uchun mos emasligini va bu oziq-ovqat sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishini anglatadi.

O'rtacha uy xo'jaligi ma'lum vaqt davomida iste'mol qiladigan, ehtiyojlarning ma'lum darajada qondirilish darajasiga to'g'ri keladigan tovar va xizmatlarning pul qiymati hayot qiymati deb ataladi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan uy xo'jaligining haqiqiy daromadigina uy xo'jaliklarining yashash sharoitlari va turmush darajasini tavsiflovchi dinamik ko'rsatkichdir.

Takrorlash uchun savollar

- 1> Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy nazariyasi qanday masalalarni hal etishga qaratilgan?
- 2> Grafik ko'rinishida iqtisodiy o'sishni 3 xil usulda tasvirlab tushuntiring.
- 3> Qanday iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini bilasiz?
- 4> Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlarini tushuntiring.
- 5> Iqtisodiy o'sish deganda nimani tushunasiz?

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1> Iqtisodiy taraqqiyot, iqtisodiy rivojlanish va iqtisodiy o'sish tushunchalarining ta'rifini bering hamda ularning umumiy tomonlari va farqlarini ko'rsating.
- 2> Iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari qanday aniqlanadi? Nima uchun real hayotda sof ekstensiv yoki sof intensiv iqtisodiy o'sish turlari uchramaydi?

Masalalar

- 1> Mamlakat iqtisodiyoti $U=AK0.4L^{0.6}$ ko'rinishidagi ishlab chiqarish funksiyasi bilan ifodalangan. Kapitalning o'sish yiliga 3 foizni, bandlar sonini o'sishi 2 foizni, omillarning umumiy unumдорлиги o'sishi 1,5 foizni tashkil etsa, ishlab chiqarish hajmi qanday o'zgaradi?
- 2> Iqtisodiyotda daromaddagi kapital hissasi 50%ni tashkil etadi. Boshlang'ich (dastlabki) kapital bilan ta'minlanganligi kapitalning 16 birligini tashkil qildi, daromadning 25%i jamg'ariladi, kapital xizmat qilishining o'rtacha muddati – 20 yil. Boshlang'ich va barqaror holatdagi bir ishchiga to'g'ri keladigan mehnat unumдорлигини, iste'mol va investitsiya hajmini, hamda kapital bilan ta'minlanganlikning barqaror darajasini aniqlang.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Aholining farovonligi – bu ma'lum bir jamiyatda yoki ijtimoiy sharoitda qabul qilingan standartlar yoki me'yorlar bilan taqoslaganda, inson yoki uy xo'jaligining moddiy va nomoddiy (shu jumladan ma'naviy boyliklar) ehtiyojlarini mutlaq va nis-

biy jihatdan qondirish darajasidir. Farovon hayot tushunchasi moddiy va ma'nnaviy ehtiyojlarning umumlashtirilgan majmuasini qondirish demakdir. Aholining farovonligi ma'lum bir mamlakatda aholining sog'lom hayotini saqlab qolish uchun iste'mol tovarlari va zarur xizmatlarni sotib olish darajasi, shuningdek, jamiyat ichida ishslash yoki boshqa biron-bir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati bilan bog'liq.

Farovon turmush darajasi – insonning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan imtiyozlardan qoniqarli darajada foydalanish.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish – bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan YalM yoki boshqa makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.

Iqtisodiy o'sish – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortishi, ya'ni aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning ko'payib, yaxshilanib borishi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sish – yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning ko'payishi bilan o'lchanadi. Iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv turlari mavjud.

Mehnat kapitali (insoniy kapital) – bu o'qish jarayoni (maktab, kollej, universitet, kasbga tayyorlash va malaka oshirish kurslari) va mehnat faoliyati jarayonida ishchilarning olgan bilim va mehnat mahoratlaridir.

Mehnat unumдорлиги – insonlar ishlab chiqarish faoliyatining samaradorligi; xodim moddiy ishlab chiqarish sohasida ish vaqtı birligida ishlab chiqargan mahsulotlar miqdori yoki mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt bilan o'lchanadi. Mehnatning ijtimoiy unumдорлиги ishlab chiqarilgan milliy daromadning moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarida band bo'lgan har bir xodimga nisbatan hisoblanadi.

Oddiy daraja – odamlarning jismoniy va aqliy kuchlarini tiklashni ta'minlaydigan ilmiy qabul qilingan me'yorlarga asoslangan oqilona iste'molning tabiiy darajasi.

Potensial iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiyot o'sishi mumkin bo'lgan tezlikdir. Mamlakatning ishlab chiqarish omillari bilan ta'minlanganlik darajasi potensial iqtisodiy o'sishni yanada yuksaltiradi

Qashshoqlik – bu holda tovarlarni iste'mol qilish ishchi kuchi ta'minotini ta'minlash uchun yetarli bo'lgan darajada.

Tabiiy resurslar – bu tabiat ato etib ta'minlab beradigan omillar, ya'ni yer, daryolar, foydali qazilmalar va hakozo. Tabiiy resurslar tiklanadigan va qayta tiklanmaydiganga bo'linadi. Qayta tiklanadiganga o'rmon resurslari misol bo'la-di (kesilgan daraxtlar o'rniغا yangilarini ekish mumkin). Tiklanmaydiganlar: neft, ko'mir, temir rudasi va boshqalar

Texnologik bilimlar – bu ishlab chiqarishda qo'llaniladigan eng yaxshi usullar ni tushunib yetishdir. Texnologik bilimlarning inson kapitalidan farqi shundaki, texnologik bilimlar bu usullarni ishlab chiqish va tushunishni ifodalaydi (qanday ishlab chiqarish kerak degan savolga javob beradi), inson kapitalida esa bu usul-lami insonlar (ishchi kuchi) tomonidan egallay olish darajasi, bilimlarni mehnat ko'nikmalariga aylantirish tushuniladi.

XI BOB

TASHQI SAVDO SIYOSATI

- 11.1. TASHQI SAVDO SIYOSATI VA UNING YO'NALISHLARI
- 11.2. «OCHIK» VA «YOPIQ» IQTISODIYOT TUSHUNCHASI
- 11.3. MANDELL-FLEMINGNING OCHIQ IQTISODIYOT MODELI
- 11.4. TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHIGA SABAB BO'LGAN OMILLAR
- 11.5. TASHQI SAVDO SIYOSATINING TARIF VA NOTARIF USULLARI
- 11.6. KAPITALNING XALQARO HARAKATI VA UNING SHAKLLARI
- 11.7. XORIJUY INVESTITSIYALARI VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

KIRISH

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan biri – bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu esa mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alohida firma va korxonalar o'rtaida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi bilan izohlanadi.

Ushbu holat jahon bozorida, shuningdek, uning turli segmentlarda yuzaga kelayotgan konyunkturaviy o'zgarishlar har qanday davlatni jahon bozorida faollashishga, bunda tashqi savdoni tartibga solish, nazorat qilish va qo'llab-quvvatlash vositalari hamda dastaklaridan har qachongidan ham ko'proq unumli foydalanishga undamoqda. Jahon xo'jaligida davlatlar tashqi savdo aloqalarini qaytadan tashkil etish, ayrim tarmoq va sohalarda tarkibiy o'zgarishlarni chuqurashtirish zarurati borligi ham ayon bo'lmoqda. Natijada, keyingi yillarda global va mintaqaviy darajada dunyo tashqi savdosida yangi yo'nalishlarda siljishlar ro'y bermoqda.

Davlatlarning tashqi savdo strategiyalarida ham tub o'zgarishlar namoyon bo'lmoqda. O'zbekistonda ham tashqi savdo siyosatini takomillashtirish borasida tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2019-yil 28-yanvardagi PF-5643-sonli savdo sohasida «boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmoni mamlakatimiz tashqi savdo aloqalarining samaradorligini yanada oshirish, tashqi savdoni liberallashtirish, eksport salohiyatini mustahkamlash hamda raqobatdosh mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorlarga chiqarish tizimini takomillashtirish, mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan xorijiy sheriklar o'rtaida savdo sohasida uzoq muddatli barqaror sheriklik munosabatlarini shakllantirish maqsadlariga xizmat qilishi ko'zda tutilgan. Mazkur farmon bilan tashqi savdoni boshqarish, nazorat qilish, tartibga solish va rag'batlantirish boyicha tashkiliy-institutsional tizim yanada takomillashib, eksport va import faoliyatlarini yanada jadallashtirish uchun qo'shimcha imkoniyatlarni yanada samarali jalb etishni ko'zda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi yangi tuzilma – O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi etib qayta tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Tashqi savdo vazirligi avvalo, tashqi savdo sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish, hamda tashqi savdo faoliyatini tartibga solish sohasida davlat boshqaruvi organlari ishini muvofiqlashtiradi. Shuningdek, ushbu vazirlik o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan va normativ-huquqiy xarakterga ega bo'lgan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyyati va boshqaruvi organlari, mulkchilik shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar, xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

11.1. TASHQI SAVDO SIYOSATI VA UNING YO'NALISHLARI

Avvalo, tashqi savdo siyosatini yuritish uning nima ekanligini anglashdan oldin tashqi savdo haqida mulohazaga ega bo'lishimiz darkor.



Tashqi savdo – bu xalqaro chegaralar yoki hududlar orqali kapital, tovar va xizmatlarni almashtirishdir.

Ko'pgina mamlakatlarda bu yalpi ichki mahsulot (Yalm)ning muhim ulushini tashkil etadi. Sanoatlashtirish, rivojlangan transport tarmoqlari, globallashuv, transmilliy korporatsiyalar va autsorsing xalqaro savdo tizimiga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Xalqaro savdoning ko'payishi globallashuvning davom etishi uchun juda muhimdir. Xalqaro savdo jahonda qudratli hisoblangan har qanday mamlakat uchun asosiy iqtisodiy daromad manbayi hisoblanadi.

Ba'zi davlatlar ma'lum mahsulotlarni iqtisodiy jihatdan arzon narxlarda ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ehtimol, ular kerakli xomashyoni tashkil etadigan ishchi kuchi yoki mo'l-ko'l tabiiy resurslarga egadir. Qanday sabab bo'lishidan qat'i nazar, ba'zi davlatlarning boshqa mamlakatlar talab qilgan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish qobiliyati tashqi savdoni yanada ahamiyatini oshiradi.

Quyidagi fikrlar mamlakatga tashqi savdoning zaruriyatini va ahamiyatini tu-shuntiradi:

❖ Xalqaro mehnat taqsimoti: Tashqi savdo jahon darajasida mehnat taqsimoti va ixtisoslashuviga olib keladi. Ba'zi mamlakatlar mo'l tabiiy resurslarga ega. Ular xomashyoni kerakli darajada eksport qilishlari mumkin. Ammo xomashyo eksporti mamlakatlarning iqtisodiy deversifikatsiya qilinmasligiga ham olib kelishi mumkin. Bu jihatga katta e'tibor qaratish lozim. Agarda mamlakat oqilona foydalanadigan bo'lsa, bu barcha mamlakatlarga foya keltiradi va shu bilan mehnat taqsimoti va ixtisoslashuvga olib keladi.

❖ Resurslarni optimal taqsimlash va ulardan foydalanish: Ixtisoslashuv tufayli samarasiz loyihalari o'rnnini investitsion biznes rejalar egallaydi va resurslarning isrof bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Boshqacha qilib aytganda, resurslar faqat shu tovarlarni ishlab chiqarishga yo'naltirilgan bo'lib, ular eng yuqori daromad keltiradi. Shunday qilib, tashqi savdo hisobiga xalqaro darajada resurslarni oqilona taqsimlash va ulardan foydalanish mavjud.

❖ Narxlar darajasi: Tashqi savdo orqali narxlarni barqarorlashtirish mumkin. Bu talab va taklifni barqaror ushlab turishga yordam beradi, bu esa narxlarni barqarorlashtiradi, transport va boshqa marketing xarakatlari uchun imtiyozlar beradi.

Tovar va xizmatlar turlari kengligi: Tashqi savdo iste'molchilarga yaxshi tanlojni taqdim etishga yordam beradi. Bu butun dunyodagi iste'molchilarga yangi tovar va xizmatlarni taqdim etishga yordam beradi.

Sifat va standartlar: Tashqi savdo juda raqobatbardoshdir. Tovarlarga bo'lgan talabni saqlab qolish va oshirish uchun eksport qiluvchi mamlakatlar tovarlarning sifatini saqlab turishlari kerak. Shunday qilib sifatli va standartlashtirilgan mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Aholining turmush darjasini yaxshilanishi: Import odamlarning turmush darjasini yengillashtirishi mumkin. Buning sababi shundaki, odamlar yangi va eng yaxshi tovar va xizmat turlarini tanlashlari mumkin. Tovarlarning yangi va yaxshiroq turlarini iste'mol qilish orqali odamlar turmush darjasini yaxshilashlari mumkin.

Ish bilan bandlik: Tashqi savdo ish kuchi va resurslarning harakatchanligini oshirish orqali ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini yaratishda yordam beradi. U import sohasida to'g'ridan to'g'ri bandlikni va iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida bilvosita bandlikni keltirib chiqaradi. Sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi (sug'urta, bank, transport, aloqa) va boshqalar.

Iqtisodiy o'sish: Import mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga yordam beradi. Buning sababi shundaki, asosiy vositalar va texnologiyalarni import qilish natijasida mamlakat iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida, qishloq xo'jaligida, sanoat va xizmat ko'rsatish sohalarida o'sishni ta'minlay oladi. Natijada, mamlakat import o'rnni bosuvchi tovar va xizmatlarni ishlab chiqara boshlaydi.

Tabiiy ofatlar paytida yordam: Zilzila, toshqin, ocharchilik va hokazo kabi tabiiy ofatlar paytida zarar ko'rgan mamlakatlar zarur mollarning yetishmasligi muammofiga duch kelishadi. Tashqi savdo mamlakatga zarar ko'rgan odamlarga yordam berish uchun boshqa mamlakatlardan oziq-ovqat va dori-darmonlarni olib kirishga imkon beradi.

To'lov balansi ijobiy holati: Har bir mamlakat to'lov balansini saqlashi harakat qiladi. Mamlakat importining o'sishi bu undan valutaning chiqib ketishiga yo'l ochadi. Shu jarayonda eksportga yo'naltirilgan siyosatdan foydalanadi va to'lov balansini barqarorlikda ushslashga harakat qiladi.

❖ Eksport mamlakat uchun boshqa mamlakatlar tomonidan tovarlarga talabni oshirishi mumkin: Eksport bilan shug'ullanadigan mamlakat xalqaro bozorda xayriyohlik kasb etadi. Masalan, Yaponiya sifatli elektron tovarlar eksporti tufayli tashqi bozorlarda ko'plab yaxshi fikrlarga erishgan hisoblanadi.

❖ Dunyo tinchligini targ'ib qiladi: Tashqi savdo mamlakatlarni yaqinlashtiradi. Bu rivojlangan mamlakatlardan rivojlanayotgan mamlakatlarga texnologiyalar va boshqa yordamlarni uzatishni osonlashtiradi. Savdo shartnomalaridan kelib chiqadigan iqtisodiy munosabatlar tufayli u turli mamlakatlarni yaqinlashtiradi. Shunday qilib, tashqi savdo urushlar va mojarolardan qochish uchun do'stona muhit yaratadi. Bu dunyo tinchligini targ'ib qiladi, chunki bunday mamlakatlar o'zaro do'stona munosabatlarni saqlashga harakat qilishadi.

Tashqi savdo siyosati davlat tashqi iqtisodiy siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga ko'maklashuvchi chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi savdo siyosati quyidagi ikki yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- ❖ eksport siyosati;
- ❖ import siyosati.

Eksport siyosati eksportga yo'naltirilgan rivojlanish modeli doirasida rivojlanadi. Import siyosatining turlaridan biri – import o'rnni qoplash siyosati hisoblanib, bu siyosat ko'pchilik mamlakatlar iqtisodiyotining sanoatlashishida katta rol o'yagan.

Tashqi savdo siyosatining asosida mumkin qadar qulaylik yaratish rejimi yotadi. Tashqi savdo siyosati milliy, ikki tomonlhma, hududiyl, xalqaro darajalarda amalga oshiriladi. Qayd etib o'tilgan har bir daraja o'z xususiyatlariga ega.



Davlatning tashqi savdoga aralashish miqyosiga va tartibga solish darajasiga qarab tashqi savdo siyosati proteksionistik va erkin savdo xarakteriga ega bo'ladi.

Erkin savdo munosabatlari, talab va taklif asosida rivojlanadigan erkin savdo davlatning eng kam aralashuvi siyosatini aks ettiradi.

Qaysi siyosat afzal, degan savol iqtisodchilarining doimo diqqat markazida bo'lib kelgan. Milliy sanoat rivojlanishiga imkon beruvchi proteksionizm afzalmi yoki milliy ishlab chiqarish ustuvorliklarini xalqaro ustuvorliklar bilan qiyosiy taqqlaslash imkonini beruvchi savdo erkinligimi?

Tarixning turli davrlarida tashqi savdo amaliyoti goh u tomonga, goh bu tomonga qayishib kelgan, to'g'ri, u hech qachan ekstremal shakklardan birontasini qabul qilmagan. XX asrning 50–60-yillarida xalqaro iqtisodiyot uchun proteksionizmdan tashqi savdoni yanada liberallashtirish tomonga qaytish xos bo'lgan bo'lsa, 70-yillarning boshidan teskari tamoyil ko'zga tashlandi – mamlakatlar o'z ichki bozorlarini tarif va notarif to'siqlar yordamida xorijiy raqobatdan himoya qilishni boshladilar.

Zamonaviy proteksionizm nisbatan tor sohalarda – qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, kiyim-kechak va po'lat tarmoqlarida mujassamlashgan.

Proteksionistik tamoyillar rivojlanishining quyidagi shakklarini ajratish mumkin:

- ❖ selektiv proteksionizm – ayrim mamlakatlar yoki tovarlar guruhiga nisbatan qo'llaniladi;

- ❖ tarmoq proteksionizmi – muayyan tarmoqlarni, avvalo agrar proteksionizm doirasida qishloq xo'jaligini himoyalaydi;

- ❖ jamoaviy proteksionizm – mamlakatlar birlashmalari tomonidan ushbu birlashmaga kirmaydigan mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladi;

- ❖ yashirin proteksionizm – ichki iqtisodiy siyosat usullari yordamida amalga oshiriladi.

11.2 «OCHIQ» VA «YOPIQ» IQTISODIYOT TUSHUNCHASI

Har bir zamonaviy mamlakat xorij bilan ko'plab iqtisodiy aloqaga ega. Bular qatoriga tovarlar, xizmatlar, axborotlar, kapital va ishchi kuchlari bilan ayirboshlashni kiritish mumkin. Bunday aloqalarning rivojlanish darajasiga qarab iqtisodiyotning qay darajada ochiqligi aniqlanadi.

Proteksionizm – tarif va notarif instrumentlarni qo'llash yo'li bilan ikki bozorni xorijiy raqobatchilardan himoya qilish davlat siyosatidir.

Biroq, jahon tarixida shunday voqealar ham o'rin olganki, biror-bir mamlakat u yoki bu sabablar bilan o'z hududlari chegarasida o'ralashib qolgan bo'ladi va xorij bilan ayirboshlashni bo'lib boradi. Masalan, sobiq SSSR – urushgacha bo'lgan davrda. Xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot yopiq iqtisodiyot deb ataladi. Ta'kidlash lozimki, hozirgi kunda mutloq yopiq iqtisodiyot mavjud emas. Ammo, makroiqtisodiy tahlil va istiqbolni belgilashda foydalaniладigan modellar-da bunday mavhumlikka yo'l qo'yiladi.

To'liq makroiqtisodiy model o'zida ham ichki, ham tashqi bozorlarda amalga oshirilayotgan operatsiyalarni mujassam etishi lozim.

To'liq makroiqtisodiy model-ochiq iqtisodiyot modelidir. Ochiq iqtisodiyot shunday iqtisodiyotki, u:

a) mamlakat ishlab chiqarayotgan tovarlari va xizmatlarining ma'lum bir qismini eksport va import qilishini;

b) mamlakat jahon moliya bozorlarida kredit olishi va kredit berishini anglatadi.

Agar yopiq iqtisodiyot sharoitida barcha ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlar ushbu mamlakat ichkarisida sotilsa va barcha xarajatlar uch qismga: iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlariga bo'linsa, ochiq iqtisodiyotda ishlab chiqarilgan mahsulotning sezilarli qismi chet elga eksport qilinadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga xarajatlarga to'rtinchi unsur sifatida mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarning eksporti (chet elliqlarning mamlakatimizda ishlab chiqarilgan tovarlar va xizmatlarni sotib olishga qilgan xarajatlari) ham kiritiladi.

Kichik ochiq iqtisodiyot va katta ochiq iqtisodiyot o'zaro farqlanadi. Kichik ochiq iqtisodiyot-katta bo'lмаган mamlakat iqtisodiyotidir.

Kichik ochiq iqtisodiyot modeli kapital harakati schyoti va joriy operatsiyalar schyotini o'z ichiga oladi. Bunday iqtisodiyot jahon bozorida katta ulushga ega emas va jahon foiz stavkasiga amalda ta'sir ko'rsata olmaydi. Kichik ochiq iqtisodiyot jamg'armalari va investitsiyalari-jahon jamg'armalari va investitsiyalari-

ning juda kichik miqdorini tashkil etganligi sababli jahon moliyaviy bozorlaridagi shart sharoitlarga ko'ra belgilangan jahon foiz stavkasi bu iqtisodiyotda belgilab berilgan (ekzogen) ko'rsatkich sifatida qabul qilinadi.

Katta ochiq iqtisodiyot- ko'lami yirikligi sababli foiz stavkasi mamlakatning ichida ro'y berayotgan jarayonlarning jiddiy ta'sirida shakllanadigan iqtisodiyotdir.

Katta ochiq iqtisodiyot- jahon jamg'armalari va investitsiyalarining katta qismiga egalik qilayotan yirik mamlakat (AQSH, XXR, Germaniya, Yaponiya, Rossiya va boshq.) iqtisodiyotidir. Bunday mamlakatlar jahon moliya stavkasiga ta'sir ko'rsata oladi.

Ochiq iqtisodiyotning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardir:

- a) YalMdagi tashqi savdo kvotasi;
- b) ishlab chiqarish hajmidagi eksport ulushi;
- c) iste'mol tarkibidagi importning ulushi;
- d) investitsiyalar hajmidani xorijiy investitsiyalarning ulushi.

Iqtisodiyotning ochiqligi darajasi odatda mamlakatning tashqi savdosi hajmiga yoki hukumatning siyosiy liniyasiga bog'liq bo'ladi. Masalan, Buyuk Britaniya iqtisodiyoti nisbatan ochiq hisoblanadi, chunki u tashqi savdoga juda bog'langan.

Ochiq iqtisodiyot xalqaro hisob-kitoblarda xorijiy valutadan foydalanishni ko'zda tutadi. U to'lov balansida, xususan joriy operatsiyalar balansi va kapital harakati balansida o'z aksini topadi.

Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmat va kapital oqimlari milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi hamda unda asosiy makroiqtisodiy ayniyat quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y=C+I+G$$

bunda,

Y – milliy mahsulot, daromad;

C – uy xo'jaligining o'z mamlakatida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xarid qilishga sarflagan iste'mol xarajatlari;

I – shu mamlakat ishlab chiqaruvchilaming o'z mamlakati investitsiya tovarlariga xarajatlari;

G – davlat tomonidan o'z mamlakati tovar va xizmatlarini xarid qilinishi.

11.3. MANDELL-FLEMINGNING OCHIQ IQTISODIYOT MODELI

Ichki muvozanat – inflyatsiya jarayonlari mavjud bo'limgan (yoki uning barqaror past darajasidagi) to'liq bandlik sharoitida talab va taklifning balanslashganligidir.

Qisqa muddatli davrda ichki muvozanat muammosi, birinchi navbatda, budget-soliq va pul-kredit siyosati vositasida yalpi talabni tartibga solish orqali ta'milanadi.

Tashqi muvozanat qayd qilingan, yoki suzib yuruvchi valuta kursi sharoitida to'lov balansining nolga teng qoldig'ini ta'minlab turilishni anglatadi. Alovida holatlarda bu muammo ikki o'zaro mustaqil qismiga bo'linadi:

a) joriy operatsiyalar balansining belgilangan holatini ta'minlab turish;

b) valuta zaxiralarining aniq belgilangan miqdorini saqlab turish. Tashqi va ichki muvozanatni ta'minlab turish usullari bir xil: budget-soliq va pul-kredit siyosati. Ayrim hollarda mustaqil usul sifatida almashinuv kursi siyosati ham ajratib ko'rsatiladi.

Tashqi muvozanatni ta'minlash kapital harakatining mobilligi (mamlakatlararo kapital quyilishi jarayonining ichki foiz stavkasining jahon foiz stavkasiga nisbatan o'zgarishiga javoban keskinlashuvi) sababli murakkablashadi.

Ichki va tashqi muvozanatni ta'minlash muammosi tovar, pul va valuta bozorlarining amal qilishiga taalluqlidir.

Ichkivatashqimuvozanatnita'minlashmakroiqtisodiytartibgasolishningmuhim muammosi sifatida yuzaga chiqadi, chunki u ichki va tashqi o'zgaruvchilarning bir-biriga o'zaro ta'sirini va qayta ta'sirini ko'zda tutishni talab etadi.

Ochiq iqtisodiyotda iqtisodiy siyosat tahlili Mandell-Fleming modeliga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu model qisqa muddatda iqtisodiyotni muvozanatlashtirishni ifodalaydi va kichik ochiq iqtisodiyot uchun IS-LM modelining modifikatsiya qilingan shakli hisoblanadi. Ikkala model ham baholarning o'zgarmasligini nazarda tutadi va yalpi talab hajmining o'zgarishi sabablarini tushuntiradi. Ular o'rtafigi asosiy farq shundaki, IS-LM modeli yopiq iqtisodiyot modeli, Mandell-Fleming modeli esa ochiq iqtisodiyot modeli ekanlidigadir.

11.4. TASHQI SAVDONING RIVOJLANISHIGA SABAB BO'LGAN OMILLAR

Jahon xo'jaligi rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlaridan bir- bu xalqaro iqtisodiy munosabatlarning intensiv rivojlanib borishi hisoblanadi. Bu mamlakatlar, mamlakatlar guruhi, alovida firma va korxonalar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarning kengayishi tobora chuqurlashuvi, xo'jalik hayotining globallashuvi, milliy iqtisodiyot ochiqligining kuchayishi, mamlakatlarning iqtisodiy integratsiyalashuvi va hududiy xalqaro iqtisodiy aloqalar strategiyasining chuqurlashib borayotganligida ko'rish mumkin

Tashqi savdo o'zining rivojlanish bosqichlariga ega bo'lib, har bir bosqich o'z tarixiy xususiyatlari bilan ajralib turadi:

- tashqi savdo aloqalarning lokal darajada shakllanish bosqichi (VI-XIII asrlar) O'rta yer dengizidan Sharqqa tomon xalqaro savdo yo'llarning vujudga kelishi;

- tashqi savdo aloqalarining mintaqaviy darajada shakllanish bosqichi – (XII-XV asrlar) tashqi savdo aloqalarining O'rta yer, Boltiq va Shimoliy dengizlarida konsentratsiyalashuvi;

- tashqi savdo aloqalarining globallashuvining boshlanish bosqichi – (XV-XVII asrlar) Buyuk geografik kashfiyotlar tufayli xalqaro savdo yo'llarining Atlantika, Hind va Tinch okeanlariga ko'chishi;



- tashqi savdo aloqalarining intensivlashuv bosqichi (XVIII–XIX asrlar) sanoat to'ntarishi, G'arbiy Yevropa va AQSH iqtisodiyotining industrlashtirish jarayoni bilan bog'liq;
- tashqi savdo aloqalarning militizatsiyalashuv bosqichi (XIX oxiri–XX asr boshi) Birinchi va Ikkinci jahon urushlari bilan bog'liq;
- integratsion bloklar va birlashmalarning tashqi savdo munosabatlariiga faol ta'sir etish bosqichi XX asrning o'rtasi va ikkinchi qismi);
- tashqi savdo aloqalari globallashuv jarayonlarining zamonaviy bosqichining shakllanishi va jahon bozorining vujudga kelishi.

Tashqi savdoning rivojidagi omillar:

- ❖ Ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida mahsulot hamda xizmatlar savdosи hajmining keskin ortishi;
- ❖ Tashqi savdoda rivojlanayotgan mamlakatlar salmog'inинг qisqarishi;
- ❖ Ilm-fan va texnika taraqqiyoti ta'sirida jahon eksportining tovar tarkibidagi ilm-fan sig'imkorligi yuqori bo'lgan mahsulot va xizmatlar ulushining ortishi;
- ❖ Tashqi savdo aylanmasining jon boshiga baholangan qiyamatining notejis taqsimlanishi;
- ❖ Yangi tarmoq va ishlab chiqarishning vujudga kelishi;
- ❖ Qator mamlakatlarning ayrim mahsulotlar importiga bog'liqligining ortishi;
- ❖ Tashqi bozorda ortiqcha mahsulotni sotish kabi sodda shaklining turli mamlakat korxonalarini o'rtaSIDAGI hamkorlik aloqalari asosida avvaldan kelishilgan mahsulotni yetkazib berish shakliga o'tilishi.

Tashqi savdoning hududiy tarkibi – bu savdoning tarkibini aniqlovchi tovar mutanosibliklari majmui va aloqalar majmui bo'lib, bu tarkib tashqi savdoning quyidagi xususiyatlari va rivojlanish yo'naliishlarini ajratish imkonini beradi:

- Alovida mamlakatlarning savdo oqimlarni ajratish;
 - Bir guruh mamlakatlar o'rtaSIDAGI savdo oqimlarini ajratish;
 - Mintaqalar o'rtaSIDAGI savdo oqimlarini ajratish;
 - Tashqi savdoning asosiy ulushi oqimlarining rivojlangan mamlakatlar guruhida yig'ilganligi;
 - Jahoning yirik savdo imperiyalari bo'lib AQSH, Germaniya va Yaponiya hisoblanadi;
 - AQSH eksportining faollashuvi;
 - Yaponiya eksportining o'sishi (birinchi navbatda, boshqa Osiyo mamlakatlariga);
 - Janubiy Osiyo mamlakatlari tashqi savdoning faol rivojlanishi (ko'proq Pokiston va Hindiston hisobiga);
 - Sharqiy Osiyo va qisman Lotin Amerikasi mamlakatlari tashqi savdosining ustun darajada rivojlanishi (Yaponiyadan tashqari);
 - Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlari tashqi savdosining sekin rivojlanishi.
- Tashqi savdoning zamonaviy hududiy tarkibidagi o'zgarishlar tendensiyasi quyidagilar orqali ifodalanadi:

- ❖ Tashqi savdoda bozor iqtisodiyotiga ega rivojlangan mamlakatlar ulushining saqlanib qolishi;
- ❖ Tashqi savdo asosiy qismining rivojlangan mamlakatlar guruhi ichida mu-jassamlashuvi;
- ❖ Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortishi;
- ❖ Rivojlanayotgan va rivojlangan mamlakatlar o'rtasida savdo aloqalari hajmining ortishi;
- ❖ O'tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning tashqi savdodagi pozitsiyasining zaifligi;

Demak, zamonaviy tashqi savdoning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

- ❖ Milliy iqtisodiyotlarning ochiqligi;
- ❖ Milliy iqtisodiyotlar ishlab chiqarish salohiyatining o'sishi;
- ❖ Tashqi savdoning hududiy va tovar o'zgarishi;
- ❖ Tashqi savdo mexanizmlarining murakkablashuvi;
- ❖ Xizmatlar sohasining rivojlanishi;
- ❖ Intellektual va ilmiy-texnik faoliyatning moddiylashgan va moddiylashma-gan shaklida rivojlanishi.

11.5. TASHQI SAVDO SIYOSATINING TARIF VA NOTARIF USULLARI

Savdo siyosati doirasida iqtisodiy, siyosiy, ma'muriy, tashkiliy, huquqiy va boshqa masalalar uzviy bog'lanib ketadi. Xalqaro iqtisodiyot, asosan, savdo siyosati choralarini qo'llashning iqtisodiy shart-sharoitlarini va oqibatlarini o'rganib, huquqiy va tashkiliy masalalarni ixtisoslashgan fan tarmoqlari, chunonchi, xalqaro savdo huquqi, xalqaro marketing kabilarning ko'rib chiqishi uchun qoldiradi.

Xalqaro savdoning davlat boshqaruvi instrumentlari o'z xususiyatiga ko'rta tarif – bojxona tarifini qo'llashga asoslangan va notarif – boshqa barcha usullarga bo'linadi. Boshqaruvning notarif usullari miqdoriy va yashirin proteksionizm usullariga bo'linadi. Savdo siyosatining alohida instrumentlari ko'pincha importni cheklash yoki eksportni rag'batlantirish zarurati tug'ilganda qo'llaniladi.

Davlatning xalqaro savdo sahasidagi asosiy vazifasi – mamlakat eksportyorlariga o'z mahsulotlarini iloji baricha ko'proq miqdorda xorijga eksport qilishda yordam berish, ularning tovarlarini tashqi bozorda yanada raqobatbardosh qilishdir. Mamlakat ichkarisida xorijiy tovarlarga talabni kuchaytirish, importni cheklash ham uning vazifasiga kiradi.

Dunyoning turli mamlakatlari o'z savdo siyosatlarini amalga oshirish uchun turli dastaklardan foydalanadilar. Notarif cheklashlarning o'rtacha darajasiga, odatda, u yoki bu cheklashga oid import yoki eksportning qiymat ulushi sifatida qaraladi. Bunda ularning natija berish darajasiga tuzatish kiritiladi. Masalan, zaruriy hujjatlar taqdim etilganda hokimiyat organlari tomonidan beriladigan eksport uchun avtomatik litsenziya, shubhasiz, belgilangan miqdordan ortiq



tovarlarni eksport qilishni ta'qiqlovchi eksport kvotasiga nisbatan ancha kam darajada eksportni chegaralaydi. Tovarlarni eksport va import qilishga oid turli cheklashlar, tanlab litsenziyalash yuqori darajada samarali miqdoriy cheklovlari sanaladi. Avtomatik litsenziyalash, moslanuvchan kvotalar kam samara beruvchi cheklov larga kiradi.

Usullari		Savdo siyosatining	tun darajada tartibga solishsohasi	
Tarif		Bojxona bojlari		Import
Moddiy	Yashirin	Tarif kvotasi		Import
		Kvotalash		Import
		Litsenziyalash	Eksport	Import
		Eksportni ixtiyoriy cheklash	Eksport	
		Davlat xaridlari		Import
Notarif	Moliyaviy	Mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi		Import
		Texnik to'siqlar		Import
		Soliqlar va yig'imlar		Import
		Subidiyalar	Eksport	
		Kreditlash	Eksport	
		Demping	Eksport	

11.5.1-rasm. Tashqi savdo siyosati dastaklarining guruhlanishi

Bir so'z bilan aytganda, mamlakat xalqaro savdo siyosatining u yoki bu das taklarini qo'llash haqida qaror qabul qilar ekan, odatda, ularning birgalikda ta'sir ko'rsatishi va joriy vaziyatga ta'sirini, davlat ichkarisida va undan tashqarida kuti layotgan istiqbollarni baholaydi.

Savdo siyosatining asosiy dastagi – bu bojxona tarifidir. Bojxona tarifiga turli xil ta'riflar berilgan, ammo fikrimizcha, ular orasida eng to'g'risi quyidagicha: «bojxona tarifi – bu mahsulot bojxona chegarasidan olib o'tilayotganda to'lanishi kerak bo'lgan bojxona bojlari haqidagi umumiylar ma'lumotdir».

Bojxona boji mahsulotni import yoki eksport qilganda bojxona xodimlari tomonidan undiriladigan majburiy to'lovdir. Bojxona boji quyidagi vazifalarni bajaradi:

- ❖ fiskal – davlat budgetiga kelib tushuvchi tushumlardan biri bojxona bojidir;
- ❖ proteksionistik (himoya vazifasi) – importni cheklash orqali milliy ishlab chiqaruvchilarni xorijiy raqobatdan himoya qiladi;

❖ balanslovchi – ayrim sabablarga ko'ra ichki narxi jahon narxidan past bo'lgan mahsulotlarni xorijga oqib chiqib ketilishini cheklaydi.

1. Undirish usuliga ko'ra:

· advolor – mahsulotni bojxona qiymatidan foiz shaklida hisoblanuvchi va undiriluvchi boj;

· spetsifik – mahsulotning har bir o'lchov birligidan belgilangan miqdorda undiriladigan boj;

· kombinatsiyalashgan – advolor va spetsifik uzviy ravishda birgalikda qo'llaniluvchi boj.

2. Undirish obyektiga ko'ra:

❖ import – import qilinuvchi mahsulotlardan undiriluvchi boj;

❖ eksport – eksport tovarlaridan undiriladi;

❖ tranzit – bojxona hududini kesib o'tuvchi tovarlardan undiriladi.

3. Xarakteriga ko'ra:

❖ davriy – davriy mahsulotlar (asosan, qishloq xo'jalik mahsulotlari)ning xalqaro savdosini tartibga solishning joriy dastagi bo'lgan bojlar;

❖ dempingga qarshi – mamlakat hududiga o'zining haqiqiy narxidan past narxda tovar olib kiritishi natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar yetkazilsa, bu mahsulot importidan undiriladigan boj;

❖ kompensatsion – import qilinadigan mahsulotni ishlab chiqarishda bevosita yoki bilvosita subsidiyalar qo'llanilgan bo'lsa va buning natijasida milliy ishlab chiqaruvchilarga zarar keltirilayotgan bo'lsa, qo'llaniladigan boj.

4. Kelib chiqishiga ko'ra:

❖ avtonom – davlat boshqa davlatlar bilan kelishib o'tirmasdan joriy qilingan bir tomonlama bojlar;

❖ konvension – ikki yoki ko'p tomonlama kelishuv asosida joriy qilinuvchi bojlar;

❖ preferensial – sanoat jihatidan rivojlangan mamlakatlar rivojlanayotgan mamlakatlardan import qilinadigan tovarlardan undiriladigan chegirmali bojlar.

5. Stavka turiga ko'ra:

❖ doimiy – shart-sharoit o'zgarsa ham o'zgarmasdan turadigan boj;

❖ o'zgaruvchan – hukumat tomonidan belgilab qo'yilgan hollarda o'zgarib turuvchi bojdir.

6. Hisoblash usuliga ko'ra:

❖ nominal – bojxona tarifida ko'rsatilgan boj stavkaları. Bu stavkalar mamlakat bojxona himoyasi to'g'risida faqat umumiylar ma'lumotlarni berishi mumkin;

❖ real – qism va detallardan undiriluvchi bojxona bojlarini hisobga olgan holda yakuniy tovarlardan undiriluvchi haqiqiy boj. Bu boj tarif eskalatsiyasini aks ettiradi.

Tarif kvotasi. Import boji ichki qarama-qarshilikka ega. Ya'ni ishlab chiqaruvchilar, bir tarafdan, xalqaro raqobatdan qutulish maqsadida import bojidan manfaatdor bo'lsa, ikkinchi tomonidan, ish vaqtidan tashqari vaqtida iste'molchi sifatida import tarifiga qarshidirlar. Bu ziddiyat qisman tarif kvotasini joriy qilish orqali hal etiladi.



Tarif kvotasi – o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq miqdordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi.

Notarif usullar

Notarif usullar – tovar ayirboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chiqariladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi.

Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklash – bu davlat tomonidan savdo aylanmasining notarif metodlarini qo'llagan holda tartibga solishning ma'muriy metodidir. Davlat mazkur usul yordamida eksport yoki importga ruxsat berilgan tovarlarning miqdori va nomenklaturasini belgilaydi.

Miqdoriy cheklovlari bir mamlakat hukumatining qarori yoki ma'lum tovarlar savdosini muvofiqlashtiruvchi xalqaro savdo kelishuvlari asosida qo'llanilishi mumkin.

Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklash usullari quyidagilardan iborat:

- kvotalash/kontingentlashtirish;
- litsenziyalash;
- «eksportni ixtiyoriy cheklash».

Kvotalash yoki kontingentlash. Umuman, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solishda qo'llaniladigan notarif usullarning 50 dan ortiq turi mavjud. Ularning tarkibida eng keng tarqalgani kvatalardir. Agar tarif usullar aniq bir tovar guruhi bo'yicha eksport yoki import hajmi masalasini ochiq qoldirsa, kvotalar olib kiriladigan yoki olib chiqiladigan mahsulotning qiymat yoki miqdoriy hajmini to'g'ridan to'g'ri cheklash vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Kvotalash bu tovarlar eksporti yoki importini muayyan vaqt ichida ma'lum miqdor yoki summa bilan miqdoriy jihatdan cheklashdir. Kvotalash mavsumiy ko'rinishda yoki xarakterda bo'lsa kontingentlash shakliga kiradi. Ular o'z yo'naliishiga ko'ra quyidagilarga bo'linadi.

Eksport kvotasi – xalqaro barqarorlashuv shartnomasiga muvofiq muayyan tovarlarning umumiyligi eksportdagи ulushini belgilash. OPEK yoki biron-bir milliy hukumat tomonidan mamlakat ichki bozorida defitsit tovarlarning chetga chiqib ketishining oldini olishda qollaniladi (masalan, Rossiya neft eksportida).

Import kvotasi – milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni himoyalash, savdo balansini muvozanatlashga erishish, ichki bozorda talab va taklifni tartibga solish hamda boshqa mamlakatlar tomonidan diskriminatsiya (kamsitish) savdo siyosati qo'llanilganda javob tariqasida qo'llaniladi.

Global kvotalar. Bu tovarlarning qaysi mamlakatga eksport yoki import qilinishidan qat'i nazar, eksport va importga nisbatan dunyo miyisosida belgilanadi.

Individual kvotalar. Global kvota doirasida tovari eksport yoki import qiladigan har bir mamlakatga nisbatan belgilanadi.

Litsenziyalash. Kvotalash jarayoni (boshqacha qilib aytganda, kontingentlash), odatda, litsenziyalash, ya'ni maxsus ro'yxatga kiritilgan resurslar va mahsulotlar

bilan tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish vakolatiga ega bo'lgan davlat tashkilotlari (vazirliklar va mahkamalar) ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Litsenziyalash – mutasaddi davlat organlari tomonidan tashqi iqtisodiy faoliyatga ruxsat berish orqali eksport yoki import qilinayotgan tovarlarni muayyan vaqt ichida ma'lum bir miqdorda eksport yoki import qilishga ruxsat berish. Litsenziyalash kvatalash jarayonining tarkibiy qismi bo'lib, tashqi savdoni davlat tomonidan tartibga solish shakli hisoblanadi.

Jahon amaliyotida litsenziyalar quyidagi shakkarda amalga oshiriladi. Bir mafotrobalik litsenziya. Davlat tomonidan biron-bir firmaga bitta tashqi savdo shartnomasini amalga oshirish uchun bir yilgacha muddatda tovari olib kirish yoki olib chiqish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma.

Bosh litsenziya – bir yil mobaynida cheklanmagan hajmda tovari import yoki eksport qilish uchun beriladigan ruxsatnoma.

Global litsenziya ma'lum vaqt ichida dunyoning xohlagan mamlakatiga cheklanmagan miqdorda yoki qiymatda tovari olib kirish yoki olib chiqib ketish to'g'risidagi yozma ruxsatnoma.

Avtomatik litsenziya eksportyor yoki importyor buyurtmasiga muvofiq davlat tomonidan darhol beriladigan yozma ruxsatnoma.

- ❖ Litsenziyalarni taqsimlash mexanizmlari: auksion;
- ❖ konkurs asosida litsenziyalarni sotish (optimal variant);
- ❖ «yaqqol afzallik tizimi» – davlat tomonidan ma'lum firmaga o'tgan davrda qilingan import hajmiga proporsional tarzda yoki milliy importyrlarning talabi tarkibiga proporsional tarzda litsenziya berish shakli;
- ❖ bahodan tashqari asosda litsenziyalarni taqsimlash. Davlat tomonidan tovarlar importi va eksportini eng samarali shaklda amalga oshiradigan firmalarga berishda ishlatiladi.

«Eksportni ixtiyoriy cheklash». Mutaxassislarning fikricha, eksport kvotalarining muhim turlaridan biri «eksportni ixtiyoriy cheklash» hisoblanadi. Hukumat tomonidan odatda yirik importyor davlatning siyosiy tazyiqi ostida eksportni ixtiyoriy cheklash joriy qilinadi.

«Eksportni ixtiyoriy cheklash» – rasmiy davlatlararo yoki tovar eksportiga norasmiy kvota belgilash to'g'risida savdodagi hamkor tomonidan savdoni cheklash yoki eksportni kengaytirmaslik to'g'risidagi majburiyatga asoslangan eksportni miqdor jihatidan cheklash.

Tashqi savdoni tartibga solishning notarif usullari tarkibidagi keyingi yirik guruh moliyaviy usullar hisoblanadi va ular o'z navbatida quyidagi guruhlarga ajratiladi:

- ❖ subsidiyalar; eksport kreditlari; dumping.

Subsidiyalar – milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash va importni bilbosita kamsitishga qaratilgan davlat budgetidan ajratiladigan pulli to'lovlar. Subsidiyalar import tovarlar bilan raqobatga kirishayotgan va eksport uchun mo'ljalangan tovarlar ishlab chiqaruvchilarga berilishi mumkin. Birinchi holatda u ichki

subsidiya deb, ikkinchi holatda esa eksport subsidiyasi, deb ataladi. Ichki va eksport subsidiyalarining farqlanishi jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy oqibatlar turlicha ahamiyatga ega.

Eksport kreditlari tashqi savdo siyosatining moliyaviy usuli bo'lib, milliy firmalarning eksport salohiyatini rivojlantirishni davlat tomondan moliyaviy rag'batlantirishni nazarda tutadi. Eksport kreditlari quyidagi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin:

- ❖ milliy eksportyorlarga subsidiyalashgan kreditlar berish – davlat banklari tomonidan bozor stavkasidan past stavkalarda kreditlar ajratish;
- ❖ kredit bergen mamlakat tovarini sotib olish sharti bilan xorijiy importyorlarga davlat kreditlarini berish;
- ❖ milliy eksportyorlarni eksport risklaridan sug'urtalash. Eksport kreditlari qisqa, o'rta va uzoq muddatli bo'lishi mumkin.

Demping – tovari tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish. Tashqi savdo amaliyotida dempingning quyidagi shakllaridan foydalaniлади:

- sporadic demping – tashqi bozorga ortiqcha tovar zaxiralarini past baholarda epizodik sotish;
- oldindan o'ylangan yoki ataylab qilingan demping – bozordagi raqibni siqib chiqarish va keyinchalik monopol baho o'rnatish maqsadida eksport baholarini vaqtinchalik pasaytirish;
- doimiy demping – doimiy ravishda tovarlarning eksport bahosini normal bahoga nisbatan past baholarda sotish;
- teskari demping – tovarlar eksport bahosining mamlakat ichki bozoridagi baholarga nisbatan oshib ketishi.
- o'zaro demping – ikkita mamlakatning bir xil tovarlar bo'yicha past baholarda o'zaro savdoga kirishishi.

Tashqi savdoni tartibga solishning miqdoriy cheklash usullari bilan bir qatorda yashirin proteksionizm usullari ham muhim ahamiyatga ega.

Ba'zi hisob-kitoblarga qaraganda yashirin proteksionizmning bir necha yuz xil turlari mavjud. Davlat ular yordamida eksport yoki importni bir tomonlama cheklashi mumkin. Yashirin proteksionizm turlari:

- texnik to'siqlar (milliy standartlarga rioya qilish, import qilinayotgan mahsulotlarning sifat sertifaqatini talab qilish, tovarlarni maxsus upakovkalash va markalash, sanitariya-epidemiologiya qoidalariga rioya qilish);
- ichki soliglar va yig'imlar – mazkur usul import qilinayotgan tovarlarning ichki bahosini oshirishga qaratilgan bo'lib, shu orqali import qilinayotgan tovarning raqobatbardoshligini tushirishga qaratilgan (qo'shilgan qiymat solig'i, savdo solig'i, aksiz solig'i, bojxonada rasmiylashtirish uchun yig'imlar, port solig'i, registratsiya solig'i va b.);
- davlat xaridi doirasidagi siyosat – davlat organlari va korxonalaridan ma'lum tovarlarni qimmat bo'lishiga qaramasdan faqat milliy firmalardan sotib olishga yo'naltirilgan siyosat;

– mahalliy komponentlarni ushlab turish talabi – ichki bozorga mo'ljallangan tovarlarning ma'lum bir qismini mahalliy ishlab chiqaruvchilar ishlab chiqargan bo'lishi kerak.

11.6. KAPITALNING XALQARO HARAKATI VA UNING SHAKLLARI

Mamlakatning xalqaro kapital migratsiyasidagi ishtirok etish darajasi qator ko'satkichlarda ifodalanadi. Birinchi guruh ko'satkichlariga quyidagi mutlaq ko'satkichlar kiradi: kapital eksporti va importining hajmi, kapital eksporti-importi qoldig'i, mamlakatdagi xorijiy kapitali korxonalar soni, ulardagi bandlar soni va h.k. Kapital eksporti-importi qoldig'idan kelib chiqib, jahon mamlakatlari kapital eksport qiladigan (Yaponiya, Shveysariya), kapital import qiladigan (AQSH, Buyuk Britaniya) hamda eksport va import hajmi taxminan bir xil bo'lgan mamlakatlarga (Germaniya, Fransiya) ajratiladi.

Boshqa guruh ko'satkichlar nisbiy ko'satkichlar bo'lib, ular xalqaro kapitallar migratsiyasining markazlari va mamlakatning kapital importi-eksportiga bog'liqligini aks ettiradi:

1) kapital importi koeffitsiyenti – xorijiy kapitalning mamlakat YalM dagi ulushini ko'ssatadi:

$$K_{im} = \frac{XK}{YaIM} * 100$$

bu yerda: K_{im} – kapital importi koeffitsiyenti;

XK – xorijiy kapital hajmi;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Yevropa mamlakatlarida ushbu koeffitsiyentning eng yuqori darajasi Belgiya va Lyuksemburgda kuzatiladi.

1) kapital eksporti koeffitsiyenti – eksport qilinadigan kapitalning YalM dagi ulushini aks ettiradi:

$$K_{eks} = \frac{XK}{YaIM} * 100$$

bu yerda: K_{eks} – kapital eksporti koeffitsiyenti;

XK – xorijiy kapital hajmi;

YaIM – yalpi ichki mahsulot.

Yevropa mamlakatlarida ushbu ko'satkichning maksimal miqdori Niderlandiyada qayd etilgan.

Xalqaro kapitallar migratsiyasi – jahon iqtisodiyotining turli mamlakatlari o'rtaida egalariga qo'shimcha daromad keltiruvchi kapitalning qarama-qarshi harakati.

Kapitalning chetga chiqib ketishi – kapitalning bir qismini milliy aylanmadan ajratib olish va uni tegishli shakllarda xorijiy mamlakatlar iqtisodiyotiga o'tkazish jarayoni. Kapitalning xalqaro harakatini boshqacha qilib xalqaro kapital migratsiyasi desak ham bo'ladi.

Kapital migratsiyasining sabablari quyidagilardan iborat:

- kapitalning foiz stavkasi bilan belgilanadigan turli chegaraviy unumдорлиги;
- firmalarning o‘z faoliyatini xalqaro diversifikatsiyalashtirishga intilishlari;
- tovarlarni import qilishga xalal beradigan va xorijiy ta’mintochilarni bozorga kirish uchun kapital olib kirishga undaydigan boj to’siqlarining mavjudligi;
- barqaror siyosiy vaziyat va qulay investitsiyaviy muhit.

Xalqaro kapital migratsiyasining turli shakllari mayjud boiib, amaliyotda ular qator mezonlar bo‘yicha tasniflanadi. Xalqaro amaliyotda davlat kapitali ko‘proq ssuda shaklida, xususiy va uzoq muddatli kapital esa

- tadbirkorlik shaklida namoyon bo‘ladi.

Kelib chiqish manbalariga ko‘ra xalqaro kapital davlat mablag’lari yoki xususiy kapital ko‘rinishida bo‘ladi. Davlat kapitali banklar ichida rasmiy kapital deb ham ataladi. U davlat budgetidan xorija chiqariladigan yoki u yerdan yo bevosita hukumatlar qarori bilan, yoki hukumatlararo tashkilotlar qarori bilan qabul qilinadigan mablag’lardir.

Xalqaro kapital migratsiyasining shakllari

Mansabiga ko‘ra: rasmiy (davlat), xususiy

Foydalanish tabiatiga ko‘ra: ssuda, tadbirkorlik

Muddatiga ko‘ra: uzoq muddatli, o‘rta muddatli, qisqa muddatli maqsadiga ko‘ra: to‘g‘ridan to‘g‘ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, boshqa investitsiyalar.

11.7. XORIJIY INVESTITSIYALAR VA ULARNING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

«Investitsiya» atamasi lotin tilida «invest» so‘zidan kelib chiqqan bo‘lib, «qo‘yish», «mablag’ni safarbar etish», «kapital qo‘yilmasi» ma’nosini beradi. Keng ma’noda investitsiya mablag’ni ko‘paytirib, qaytarib olish maqsadida kapitalni safarbar etishni bildiradi. Investitsiya deganda barcha turdagи milliy va intellektual boyliklar tushunilib, ular tadbirkorlik faoliyati obyektlariga yo‘naltililib daromad keltirishi yoki biror-bir ijobjiy samaraga erishishi zarur. Investitsiya kiritishdan asosiy maqsad daromad olish va ijobjiy ijtimoiy samaraga erishishdir.

Investitsiyalar – bu hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo‘yilgan kapitaldir. O‘zining moliyaviy shakliga ko‘ra, ular foya olish maqsadida xo‘jalik faoliyatiga qo‘yilgan aktivlar hisoblansa, iqtisodiy xususiyatiga ko‘ra, u yangi korxonalar qurishga, uzoq muddatli xizmat ko‘rsatuvchi mashina va asbob. uskunalarga hamda shu bilan bog‘iq bo‘lgan aylanma kapitalning o‘zgarishiga ketgan xarajatlardir.

Xorijiy investitsiyalar – bu chet el investorlari tomonidan yuqori darajada daromad olish, samaraga erishish maqsadida mutlaq boshqa davlat iqtisodiyotining, tadbirkorlik va boshqa faoliyatlariga safarbar etadigan barcha mulkiy, moliyaviy, intellektual boyliklardir.

Chet el investitsiyalari – chet mamlakatlarining milliy iqtisodiyotga moddiy, moliyaviy va nomoddiy ko'rinishidagi muddatli qo'yilmalarning barcha shakllari tushuniladi. Bu quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin: qo'shma korxonalarini tashkil qilishda o'z ulushi bilan qatnashish, xorijiy sarmoyalarga to'la tegishli bo'lgan korxonalarini barpo etish, xorijiy shaxslar tomonidan qimmatli qog'ozlarni, zayom va kreditlar olish.

Xorijiy investitsiyalarga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir:

1) Iqtisodiy omillar:

- ❖ Ishlab chiqarishni rivojlanishida iqtisodiy o'sish sur'atlarining bir maromda ushlab turilishi;
- ❖ Jahon va alohida mamlakatlar iqtisodiyotidagi chuqur tarkibiy siljishlarining amalga oshirilishi (fan-texnika taraqqiyoti yutuqlari va jahon xizmatlar bozori taraqqiyoti ta'siri ostida olib borilishi);

❖ Ishlab chiqarishni xalqaro ixtisoslashuvi va kooperatsiyalashuvining chuqurlashuvi;

❖ Jahon iqtisodiyotini transmiliylashtirilishini o'sib borishi;

❖ Ishlab chiqarishning baynalmilallashuvi va integratsiya jarayonlarining chuqurlashib borishi;

❖ Xalqaro iqtisodiy munosabatlarning faol rivojlanishi va boshqalar.

2) Siyosiy omillar:

❖ Kapital eksporti (importi)ni erkinlashtirish (Erkin iqtisodiy hududlar (EIH), offshor hududlari va boshqalar);

❖ Rivojlanayotgan mamlakatlarda industrillashtirish siyosatini olib borish;

❖ Iqtisodiy islohotlarni olib borish (davlat korxonalarini xususiy lashtirish, xususiy sektorni va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash);

❖ Bandlik darajasini ushlab turish siyosatini olib borish va boshqalar.

Tarkibiy tuzilishiga ko'ra investitsiyalar yalpi va sof investitsiyalarga ajratiladi. Yalpi investitsiyalar – bu ishlab chiqarish vositalarining iste'mol qilingan qismini qoplash hamda ularni qo'shimcha o'sishi maqsadida ishlab chiqarish jamg'armalari va aholi mablag'lari qo'yilmalaridir. Boshqacha so'z bilan aytganda, yalpi investitsiyalar o'z ichiga amortizatsiya va sof investitsiyalarni qoshadi. Sof investitsiyalarni aniqlash uchun yalpi investitsiyalardan amortizatsiya ajratiladi.

Yalpi investitsiyalar va amortizatsiya o'rtaсидаги nisbatga qarab iqtisodiyotning ahvoli qanday ekanligini, ya'ni sof investitsiya yuqori bo'lsa, iqtisodiyot yuksalishda bo'ladi, chunki uning ishlab chiqarish quvvatlari o'sadi. Yalpi investitsiya va amortizatsiya bir-biriga teng bo'lgan chog'da iqtisodiyotda barqarorlik holati vujudga kelishi mumkin. Bu vaziyatda sof investitsiyalar nolga barobar va iqtisodiyot shu yilda qancha kapital iste'mol qilgan bo'lsa, uni qoplash uchun shuncha ishlab chiqarish kerak bo'ladi.

Investitsiyalar turli shakllarda amalga oshiriladi va ularni tahlil qilish, rejalashtirish uchun alohida xususiyatlardan kelib chiqqan holda guruhlashtiriladi. Xorijiy



investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvchi va takror ishlab chiqarishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqarish va o'zlashtirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne'matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo'shiladigan investitsiyalar kiradi. Xorijiy investitsiyalar ko'lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya'ni xalqaro investitsiyalar kiradi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o'tasida harakatda bo'lgan investitsiyalardir.

Real investitsiyalar real kapitalning o'sishini, ya'ni ishlab chiqarish mablag'lari, moddiy boyliklarning o'sishini ta'minlashi zarur.

Moliyaviy investitsiyalar deb aksiyalar, obligatsiyalar, veksellar va boshqa qimmatli qog'ozlar uchun sarflangan qo'yilmalarga aytildi.

Investitsiyalarda qatnashish xarakteriga ko'ra investitsiyalar bevosita va portfel investitsiyalarga ajratiladi. Bevosita investitsiyalar – investorni o'z moliyaviy mablag'larini joylashtirish obyektini tiklash imkoniyatini beradi. Portfel investitsiyalar – tijorat banklari, investitsion kompaniyalar va fondlar va boshqa.

Xorijiy investitsiyalarining mamlakatga ta'siri:

(I) Sarmoyalarni natijasida, ilmiy texnologik hamda yuksak menejment ko'nikmalari kirib keladi. Sarmoyador o'z ishlab chiqarish korxonasini qurbanidan so'ng, ular mahalliy yetkazib beruvchilarga yoki mijozlariga texnologik yordam ko'rsatadilar va keyinchalik mahalliy firmalarga bu texnologiyalar ko'chib o'tishlari mumkin. Bundan tashqari xorijiy ishchilarning ko'nikmalarini mahalliy ishchilar o'zlashtirishi natijasida mahalliy ishlab chiqarishning ish unumдорligi ko'tariladi.

(II) Chet el investitsiyalari mezbon iqtisodiyotdagi raqobatni kuchaytiradi. Yangi firmaning kirib borishi tarmoq ishlab chiqarish hajmini oshirishga va ichki narxlari pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, chet elga qarashli firmalarning mavjudligi mahalliy firmalarning yanada samarali ishlashiga va yangi texnologiyalarni ilgari joriy etishga turkti berishi mumkin.

(III) Chet el investitsiyalari odatda ichki investitsiyalarni ko'payishiga olib keldi. Shu jumladan, aholi daromadlari ham ortishiga turtkidir.

(IV) Chet el investitsiyalari eksport bozoriga xorijiy firmalar marketingida yoki chet elda bozorga kirish imkoniyatidan kelib chiqadigan miqyosli iqtisodiyotdan kelib chiqishda ustunlik beradi.

(V) Xorijiy sarmoyalalar qabul qiluvchi mamlakatning xorijiy valatalarga nisbatini pasaytirishi mumkin. Negaki mamlakatning eksport salohiyati ortadi. Ma'lumki, agar maqsadli o'sishga erishish uchun ichki jamg'armalar kapital to'planishini qo'llab-quvvatlash uchun yetarli bo'lmasa yoki importni sotib olish uchun ichki valatalarni chet el valutasiga aylantirishda to'siqlar mavjud bo'lsa, xorijiy investitsion oqimlar importni sotib olish uchun valuta mavjud bo'lishiga yordam berishi mumkin.

Takrorlash uchun savollar

- 1** Tashqi savdo siyosati va uning yo'nalishlari nima?
- 2** "Ochiq" va "yopiq" iqtisodiyot tushunchasini aytинг.
- 3** Mandell-Flemingning ochiq iqtisodiyot modelini tushuntiring.
- 4** Tashqi savdoning rivojlanishiga sabab bo'lgan omillar.
- 5** Tashqi savdo siyosatining tarif va notarif usullarini sanang.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1** Jahon savdo tashkilotiga a'zo mamlakatlar tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida texnik to'siqlar, sanitariya qoidalari, antidemping va kompensatsiya boji kabi to'siqlarning 2019–2020-yillar mobaynida ulushini aniqlang.
- 2** Pandemianing to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarga ta'siri hamda shu bilan bir qatorda tarif va notarif usullarga ham qilgan ta'sirini asoslang.

Masalalar

- 1** Mamlakat bolalar trikotajini eksport qiladi. Jahon bozorida uning bir dona uchun narxi 3 AQSH dollari. Mamlakatdagi bu mahsulotga bo'lgan taklif egri chizig'i quyidagi tenglama bilan belgilanadi $S = 800 + 200P$, talab egri chizig'ining ko'rinishi esa quyidagicha: $D = 700 - 200P$. Mamlakat hukumati eksport tarifini kiritgandan keyin ichki narx bir donaga 2 AQSH dollarini tashkil etdi. Eksport tarifining quyidagilarga ta'sirini aniqlang: a) iste'molchilarning farovonligiga;
 b) trikotaj ishlab chiqaruvchilarning daromadlariga (yo'qotishlariga), eksport hajmiga;
 c) davlat budgetining daromadlariga;
 d) millat farovonligiga.
- 2** Mamlakat hukumati shakarga 10% li import tarif kiritish to'g'risida qaror qabul qiladi. Jahon bozorida uning narxi bir tonna uchun 200 AQSH dollari. Mamlakatdagi bu mahsulotga bo'lgan taklif erkin savdo sharoitida 6 mln. t., tarif borligida esa – 8 mln. tonnani tashkil etadi. Ichki iste'mol hajmi erkin savdo sharoitida – 22 mln. tonna, tarif borligida esa – 20 mln. tonnani tashkil etadi. Shunga muvofiq import hajmi erkin savdo sharoitida – 16 mln. tonna, tarif borligida – 12 mln. tonnani tashkil etadi. Import tarifi kiritilishining oqibatlarini aniqlang: a) Iste'molchilarning yo'qotishlarini;
 b) milliy ishlab chiqaruvchilarning yutuqlarini;
 c) davlat budgetining daromadlarini;
 d) millat farovonligining sof yo'qotishlarini.



TAYANCH TUSHUNCHALAR

Erkin savdo hududi – doirasida qatnashchi mamlakatlar o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatga nisbatan savdo to'siqlarini buzmaydi.

Notarif usullar – tovar ayrboshlashga ta'sir qilish dastaklarini, ya'ni mamlakatga olib kiriladigan yoki chetga chiqariladigan mahsulot hajmi va nomenklaturasini cheklashni bildiradi.

Ochiq iqtisodiyot – bu shunday iqtisodki, unda mamlakatning barcha fuqarolari xalqaro tovar va kapital bozorida oldi-berdilarni cheklanmagan holda amalga oshirishlari mumkin.

Proteksionizm – tarif va notarif instrumentlarni qo'llash yo'li bilan ikki bozorni xorijiy raqobatchilardan himoya qilish davlat siyosatidir.

Tarif kvotasi – o'zgaruvchan bojxona boji ko'rinishi bo'lib, boj stavkasi miqdori import qilinadigan tovar hajmiga bog'liq bo'ladi: ma'lum chegaradagi importga pastroq miqdordagi boj, bu chegaradan oshib ketganda yuqoriroq boj o'rnatiladi.

Tashqi savdo – bu xalqaro chegaralar yoki hududlar orqali kapital, tovar va xizmatlarni almashtirishdir.

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakat, mamlakatlar guruhi tashqi savdo faoliyati hajmining pul ko'rinishidagi ifodasi bo'lib, muayyan vaqt oralig'idagi (masalan, yil davomidagi) eksport va import hajmining yig'indisiga teng bo'ladi.

Tashqi savdo siyosati – bir mamlakatning boshqa mamlakatlar bilan olib borayotgan savdosi (eksporti va importi) borasidagi siyosati. Bunga teng huquqlilik va ikki tomonlama manfaat olish ko'zda tutiladi. Eksport va importning tovar tarkibi va geografik hajmiga asosan olib boriladi.

Tashqi savdoni miqdoriy jihatdan cheklash – bu davlat tomonidan savdo aylanmasining notarif metodlarini qo'llagan holda tartibga solishning ma'muriy metodidir. Davlat mazkur usul yordamida eksport yoki importga ruxsat berilgan tovarlarning miqdori va nomenklaturasini belgilaydi

Yopiq iqtisodiyot – tovar va xizmatlarning eksport va importini amalga oshirmaydigan mamlakat iqtisodiyoti; xalqaro savdoda ishtirok etmaydigan iqtisodiyot; hozirgi mutlaq yopiq iqtisodiyot mavjud emas. Yopiq iqtisodiyot modelida tovarlar, xizmatlar va kapital oqimlari, milliy chegaralar tashqarisiga chiqmaydi.

XII BOB

TO'LOV BALANSI VA TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

- 12.1. TO'LOV BALANSI TUSHUNCHASI, XUSUSIYATLARI
VA UNING TARKIBIY TUZILISHI
- 12.2. TO'LOV BALANSINI MAKROIQTISODIY TARTIBGA
SOLISH VOSITALARI VA USULLARI
- 12.3. DAVLATNING TASHQI IQTISODIY SIYOSATI
VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH USULLARI
- 12.4. MAMLAKATDA TASHQI IQTISODIY SIYOSATNI
ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA
XOS XUSUSIYATLARI

KIRISH

To'lov balansi – ma'lum bir vaqt mobaynida (chorak, yarim yil, bir yil va hokazo) bir mamlakat va unda ro'yxatdan o'tgan korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralarining boshqa mamlakatlardagi korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralari bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini o'zida aks ettiruvchi statistik hisobotdir.

Xalqaro valuta jamg'armasining tasnifiga binoan, to'lov balansi joriy operatsiyalar hisobi, kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobi, moliyaviy operatsiyalar hisobi hamda sof xatolar va yo'qotishlar kabi tarkibiy qismlardan iborat.

Tovarlar va xizmatlar eksporti va importi, bir mamlakatning xorijda ishlovchi hamda o'sha davlatda ishlovchi chet ellik ishchilarining daromadlari va xarajatlari, bir mamlakatning tashqi aktivlari va majburiyatlari bo'yicha qo'lga kiritgan yoki to'lab berishi lozim bo'lgan daromadlari, shuningdek, xalqaro pul o'tkazmalari, grantlar va insonparvarlik yordamlari va boshqa operatsiyalar to'lov balansining joriy operatsiyalar hisobida aks etadi.

Bundan tashqari, bir mamlakatdagi korxonaning boshqa bir mamlakat korxonasiga katta miqdorda bag'araz moliyaviy resurs taqdim etishi yoki ixtiyoriy ravishda qarzidan voz kechishi kabi kapital transfertlari hamda yer, tabiiy resurslar, shartnomalar, marketing ishlanmalari kabi ishlab chiqarilmagan nomoliyaviy aktivlar savdolari to'lov balansining kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisobida jamlanadi.

Shuningdek, mamlakatlar o'rtaсидаги активлар ва мажбуриятлар билан bog'liq operatsiyalar to'lov balansining moliyaviy operatsiyalar hisobida yuritiladi. Moliyaviy hisob to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy derivativlar (svop, opsiyon va h.k.), boshqa investitsiyalar (valuta va depozitlar, savdo kreditlari hamda avanslari va boshqalar) va rezerv aktivlaridan iborat.

Markaziy bank taqdim etgan «O'zbekiston Respublikasi to'lov balansi, xalqaro investitsion pozitsiyasi va tashqi qarzi» nashriga ko'ra, 2019-yilning 9 oyi yakunlari bo'yicha joriy operatsiyalar hisobining defitsiti o'tgan yilning mos davriga nisbatan deyarli ikki martaga qisqargan bo'lib, 1,4 mlrd. AQSH dollarini tashkil etdi. Defitsitning qisqarishi eksportning o'sish sur'atlari importnikiga nisbatan yuqoriroq bo'lgani bilan izohlanadi.

Joriy operatsiyalar hamda kapital bilan bog'liq operatsiyalar hisoblaridagi defitsitlar moliyaviy operatsiyalar hisobi evaziga moliyalashtiriladi. Masalan, joriy operatsiyalar hisobi defitsitining asosiy manbalaridan biri bo'lgan savdo balansi defitsiti (import hajmining eksport hajmidan ortiqligi) asosan moliyaviy operatsiyalar hisobidagi investitsiyalar va qarzlar evaziga qoplanadi.

O'zbekiston misolida ko'radigan bo'lsak, Markaziy bank ma'lumotiga ko'ra, 2019-yilning 9 oyi davomida amalga oshirilgan tovarlar importning katta qismini (32%) mashinalar, uskunalar hamda mexanizmlar tashkil qilmoqda. Ushbu mahsulotlar uchun to'lovlar asosan moliyaviy hisobdagagi jaib qilinayotgan investitsiyalar hamda tashqi qarzlar evaziga moliyalashtirildi.

Jahon tajribasida to'lov balansi hisoboti asosan Markaziy bank yoki Statistika qo'mitasi (Statistik idora) tomonidan shakllantiriladi va har chorakda foydalanuvchilarga taqdim qilinadi.



O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2018-yildan boshlab to'lov balansi bo'yicha statistik hisobotni Xalqaro valuta fondining To'lov balansi va xalqaro investitsion pozitsiya bo'yicha qo'llanmasining oltinchi nashriga asosan shakllantiradi va Kengaytirilgan ma'lumotlarni tarqatishning umumiyligi tizimida o'rnatilgan muddatlarda tahliliy ko'rinishdagi nashr bilan birgalikda jamoatchilik uchun taqdim qiladi.

12.1. TO'LOV BALANSI TUSHUNCHASI, XUSUSIYATLARI VA UNING TARKIBIY TUZILISHI

To'lov balansi – bir mamlakatning boshqa mamlakatlarga ma'lum bir davr mobaynida haqiqatda o'tkazgan valutaviy to'lovlari va tushumlari o'rtasidagi nisbatni, mamlakatning xalqaro pullar harakatini o'zida aks ettiruvchi hujjatdir. Agar to'lov balansida valutaviy tushumlar to'lovlardan ortib ketsa, to'lov balansi aktiv, aksincha esa passiv hisoblanadi.

Joriy operatsiyalar balansi (xususan, tovarlar eksporti va importi o'rtasidagi nisbatni o'zida aks ettiruvchi savdo balansi, xizmatlarning sof eksportini, investitsiyalardan olingan daromadlarni va bir tomonlama pul o'tkazmalarini o'zida aks ettiruvchi «ko'rinmas» joriy operatsiyalar balansi) va kapital harakati balansi (mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi va unga xorijiy kapitalni kirib kelishini o'zida aks ettiradi) to'lov balansining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

To'lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishish, xalqaro to'lovga qobillik, jahon savdosiga qatnashish darajasini o'zida namoyon etuvchi muhim ko'rsatkich va vosita hisoblanadi. To'lov balansi tushunchasini dastlab Djeyms Denem-Styuart o'zining «Siyosiy iqtisod tamoyillari to'g'risida tadqiqot (Inquiry into the Principles of Political Economy)» (1767-yil) asarida foydalangan. Styuart to'lov balansini mustaqil tushuncha sifatida chet elda fuqarolarning xarakatlari, xorijga foiz to'lovlari, qarzning asosiy summasi va qarz bo'yicha to'lovlari, valuta ko'rinishidagi qarzlarni boshqa mamlakatlarga taqdim etishdan tashkil topadi deb ko'rsatgan. Shunday qilib, dastlabki to'lov balansi faqat haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro valutaviy to'lovlarni o'zida aks ettirgan, biroq barcha intellektual, moliyaviy va moddiy aktivlar bilan bog'liq tashqi iqtisodiy operatsiyalar (rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi operatsiyalar)ni to'liq namoyon etmagan. Biroq hozirgi kundagi to'lov balansini tuzish tartibi, mantiqiy va konseptual asoslariga avvalgi to'lov balansi tayanch, negiz sifatida olingan.

To'lov balansining ahamiyati. To'lov balansi muhim hujjat hisoblanadi, chunki u mamlakat maqomini belgilab beradi va uning iqtisodiyoti ham shu jumladandir. To'lov balansining ahamiyatini quyidagi bandlardan bolib olish mumkin:

- U ma'lum bir davr uchun barcha eksport va import tovarlari va xizmatlarining tranzaksiyalarini ko'rib chiqadi.
- Bu hukumatga ma'lum bir sanoat eksportining o'sish imkoniyatlarini tahlil qilishda va ushbu o'sishni qo'llab-quvvatlash uchun siyosat ishlab chiqishda yordam beradi.

· Bu hukumatga turli xil import va eksport tariflari bo'yicha keng istiqbolni beradi. Shundan keyin hukumat importni to'xtatish va eksportni rag'batlantirish va o'zini o'zi ta'minlash uchun soliqni oshirish va kamaytirish choralarini ko'rishi mumkin.

· Agar iqtisodiyot import rejimida qo'llab-quvvatlashni talab qilsa, hukumat to'lov balansiga muvofiq rejalashtiradi va pul ogimi va texnologiyasini iqtisodiyotning oqsagan sohasiga yo'naltiradi va kelajakda o'sish dasturini ishlab chiqishi mumkin.

· To'lov balansi, shuningdek, hukumatga iqtisodiyotning holatini aniqlashga imkon beradi, pul-kredit va soliq-budget siyosatini rejalashtirishga ham yordam beradi.

To'lov balansini taqdim etish shakllari va uning qoldig'i. To'lov balansini taqdim etish «neytral» va «tahliliy» ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Neytral shaklda taqdim etilgan to'lov balansi tovarlar, xizmatlar va joriy o'tkazmalar joriy operatsiyalarda to'planadi. Kapital o'tkazmalar, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy hosila vositalar, boshqa investitsiyalar va zaxira aktivlari kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida jamlanadi. Ushbu bo'limgar tengligini ta'minlash maqsadida «Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar» hisobi qoshiladi va umumiy natija nolga tenglashtiriladi.

Shu bilan bir qatorda, Xalqaro valuta fondi (XVF) to'lov balansini tuzishning muqobil shakli bo'lgan «tahliliy» shaklda to'lov balansini taqdim etishni ham mamlakatlarga tavsiya etadi. Bunda, tezkor ma'lumotlar umumlashtiriladi, qayta tasniflanadi, guruhlanadi. Bunda, mustaqil ravishda rezidentlar va nerezidentlar tomonidan o'zaro amalga oshirilgan joriy va kapital harakati bilan bog'liq tashqi iqtisodiy operatsiyalar mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlariga tenglashtirilgan holda, to'lov balansi aktiv yoki passiv bo'lishiga sabab bo'ladi. Barcha qolgan operatsiyalar, xususan davlatlar tomonidan amalga oshirilgan saldoni moliyalashtirish yoki undan foydalanish bilan bog'liq balanslashtiruvchi operatsiyalar to'lov balansini tartibga solish operatsiyalari etib belgilangan.

To'lov balansi qoldig'i mavjud bo'lmaydi, chunki to'lov balansining moddalarini (neytral taqdimotda) qoldig'i nolga tenglashtiriladi. Biroq, «sof eksport» qiymati mamlakat YalMga kiritilgani bois joriy operatsiyalar qoldig'i to'lov balansi qoldig'i sifatida qayd etiladi. Joriy operatsiyalar hisobi qoldig'ini baholab, to'lov balansi defitsit (passiv) yoki profitsit (aktiv) deb aytish mumkin.

To'lov balansi tarkibi. To'lov balansini tuzishning turlicha uslubiyati mavjud bo'lib, hozirgi kunda Xalqaro valuta fondi (XVF) taklif etgan metodika (uslubiyat) dan, ya'ni to'lov balansini tarkiblarining tasnididan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladi. Mazkur uslubiyatda obyektiv reallik ko'proq ko'rindi, xususan to'lov balansi ikkita yirik bo'limga ajratilgan. Bu, bitimlarning hisobini yuritishning ikki tomonlama xususiyatidan, ya'ni savdo va moliyaviy jihatidan kelib chiqqan holda yaratilgan. Xususan, tovarlar va xizmatlar eksporti nerezidentlar oldida rezidentlarning talablarini oshiradi (to'lov balansida «+» ishorasi bilan aks ettiriladi), bu esa, o'z navbatida nerezidentlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning kamayishiga olib



keladi («» ishorasi bilan belgilanadi). Har ikkita hisob-kitob yozuvlarining yig'indiisi nolga teng bo'lishi lozim. Tovarlar va xizmatlar eksporti natijasida mamlakatda valuta zaxiralari to'planib boradi va ular import operatsiyalari to'loviga xizmat qilishi mumkin.

Agar mamlakatda import operatsiyalari to'lovi uchun yetarlicha valuta zaxiralari mavjud bo'lmasa, u xorijdan qarz mablag'larini jalg etishi mumkin. Bu kabi qarz mablag'larini davlatlar o'zlarining tovarlar va xizmatlar eksportini doimiy oshirib borish orqali qoplashi mumkin. Bunday holatda, bitimning savdo qismi (tovarlar va xizmatlarning mamlakatga kirib kelishi) bo'yicha chet elliklar oldida so'ndirishni talab qiluvchi («» ishorasi bilan belgilanadigan) mamlakat qarzdorligining paydo bo'lishiga olib keladi. Mamlakatga norezidentlarning kreditlarini jalg etish esa mamlakatning chet elliklar oldida moliyaviy majburiyatlari ortishiga sabab bo'ladi va «+» ishorasi bilan aks ettiriladi.

Mazkur holatni yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun, haqiqatda mamlakatga kirib kelgan va chiqib ketgan valutaviy tushum va to'lovlar nisbatini olish mumkin.

Mamlakatning to'lov balansi sanoat korxonalari balansiga o'xshab emas, balki bank balansiga o'xshash holda tuziladi. Masalan, O'zbekistonidagi korxona 100 ming AQSH dollarlik mahsulotni eksport qilib, to'lovni uch oy davomida olishga sotib oluvchi bilan kelishgan. O'zbekiston to'lov balansida dastlab mazkur summa tovarlar eksporti sifatida balansining kredit qismida yoziladi va bu xorijdan to'lovni talab qilish huquqini beradi. So'ngra ushbu summa qisqa muddatli kapital sifatida to'lov balansining debit qismida aks ettiriladi va u O'zbekistondan qisqa muddatli kapitalning chiqib ketishini anglatadi. Ya'ni O'zbekistonlik eksportyor xorijiy importyorga 3 oylik kredit bergen deb hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning xorijdagi aktivlari ortadi va to'lov balansining kapital qismi debetlanadi.

To'lov balansi ikkita yirik bo'limga bo'linadi, ya'ni joriy operatsiyalar hisobi (current account balance) bo'limi hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi (capital and financial account) bo'limi. XVF mamlakatlar to'lov balansini ikki xil ko'rinishda, ya'ni jamlangan va operatsiyalari batafsil, to'liq ko'rsatilgan holda e'lon qiladi.

Joriy operatsiyalar hisobi. To'lov balansining ushbu bo'limi tovarlar, xizmatlar va bir tomonlama o'tkazmalar bilan bog'liq xalqaro bitimlari natijasida olingan mamlakatning sof daromadlari qiymatini ko'rsatadi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{array}{ccccccccc} \text{Joriy} & & & & & & & & \text{Chet} \\ \text{operatsiyalar} & = & \text{Eksportdan} & - & \text{Importga} & - & \text{elga sof} \\ \text{hisobi} & & \text{daromadlar} & & \text{xarajatlar} & & \text{o'tkazmalar} \\ \text{balansi} & & & & & & & & \end{array}$$

Chet elga sof o'tkazmalar firmalar, uy xo'jaliklari va hukumat tomonidan chet elga o'tkazmalardan ushbu mamlakat rezidentlariga xorijdan yuborilgan o'tkazmalarning chegirmasiga teng.

To'lov balansining joriy operatsiyalar hisobining ijobiy qoldig'i va chet el aktivlari o'ttasidagi bog'liqlik quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{array}{ccc} \text{Joriy operatsiyalar} & & \text{Chet elda} \\ \text{hisobining ijobji} & = & \text{aktivlarning sof} \\ \text{qoldig'i} & & \text{ortishi} \end{array}$$

Chet elda aktivlarning sof ortishi – bu mahalliy rezidentlar egalik qiluvchi xoridagi aktivlarining ushbu mamlakatda norezidentlar egalik qiluvchi mahalliy aktivlardan ortishi tushuniladi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar hisobining taqchilligi chet eldag'i aktivlarning sof kamayishini ifodalaydi. Ya'ni:

$$\begin{array}{ccc} \text{Joriy operatsiyalar} & & \text{Chet eldag'i} \\ \text{hisobining taqchilligi} & = & \text{aktivlarning sof} \\ & & \text{kamayishi} \end{array}$$

Bunda mamlakat qarzdor hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston yana chet elga sotish uchun aktivlarga ega. Biroq, biz sekinlik bilan chet eldan jalb etiladigan qarzlarni ko'paytirishimiz, kelajakda ularni asosiy qarz summasi bilan birga foiz to'lovi bilan qaytarishga majbur bo'lamic. Natijada, har bir mamlakat to'lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi balansi o'zaro tenglashadi.

❖ To'lov balansi orqali aniqlash mumkin bo'limgan holatlar: Mamlakatdagi chet el investitsiyalarining umumiyligi hajmini;

- ❖ Mamlakat tashqi qarzining umumiyligi hajmini;
- ❖ Oltin valuta zaxiralaring umumiyligi hajmini;

Boshqa turli jamg'arilgan miqdorlarni.

To'lov balansi orqali aniqlash mumkin bo'lgan holatlar:

- 1 yil ichidagi yangi investitsiyalar hajmini;
- 1 yil ichida mamlakatga qaytarib olingan investitsiyalar hajmini;
- 1 yil ichida rezidentlar tomonidan olingan yangi kreditlar hajmini;
- Tashqi qarzni to'lash uchun joriy yilda ajratilgan to'lovlari;
- 1 yil ichida oltin –valuta zaxiralaring o'zgarishi.

To'lov balansi quyidagi sabablarga ko'ra xalqaro moliyaviy menejmentda ham muhim ahamiyatga ega:

– birinchidan, to'lov balansi mamlakat valutasiga talab va taklifning omiliidir. Masalan, agar valuta chiqib ketishi oshib ketsa, u holda ichki bozordagi valutaga bo'lgan talab valuta bozoridagi taklifdan yuqori bo'lishi mumkin. Shunday qilib, valutaning boshqa valatalarga nisbatan qadrsizlanishi bosimi ostida bo'lishi mumkin;

– ikkinchidan, mamlakatning to'lov balansi to'g'risidagi ma'lumotlar mamlakatning butun dunyo uchun biznes sherigi sifatida salohiyatini ko'rsatishi mumkin. To'lov balansida katta qiyinchiliklarga duch kelgan mamlakat tashqi dunyodan importni kengaytira olmaydi. Buning o'rniiga, mamlakat to'lov balansi holatini yaxshilash uchun importni cheklash va kapitalning chiqib ketishini to'xtatish choralarini ko'rishi mumkin. Boshqa tomonidan, to'lov balansida sezilarli darajada profitsitga ega bo'lgan mamlakat chet el korxonalarini uchun marketing imkoniyatlariini taklif qilgan holda, importni kengaytirishi va valuta cheklovlarni qo'yishi ehtimoldan yiroq emas;



– uchinchidan, to'lov balansi ma'lumotlari mamlakatning xalqaro iqtisodiy raqobatdagi faoliyatini baholash uchun ishlatalishi mumkin. Yildan- yilga savdo taqchillagini boshdan kechirayotgan mamlakat, mamlakat ichki sanoatining xalqaro raqobatbardoshligi yetishmasligidan dalolat berishi mumkin.

Agarda mamlakatlarning to'lov balanslarini o'rganib tahlil qilib chiqsak, ular turli mamlakatlarda turlicha tuzilishiga guvoh bo'lamiz. Ya'ni bo'limlarga ajratishda turlicha yondashiladi. Ba'zilari to'lov balansini asosan ikki katta bo'limga ya'ni joriy hisob va kapital hisobvarag'iغا bo'lishsa, ba'zilari uchinchi bo'lim moliyaviy hisobvaraqni ham kiritishadi, ya'ni alohida ajratib ko'rsatishadi. Lekin bu har ikkisida ham «Sof o'tkazib yuborishlar» ya'ni xatoliklar bo'limi bo'ladi. Quyida to'lov balansining aynan shunday bo'linishi va uning tarkibi keltrib o'tilgan:

Joriy hisob: Ushbu hisob mamlakatlar o'rtaсидаги barcha kiruvchi va chiquvchi tovarlar va xizmatlarni tekshiradi. Xomashyo va qurilish mollari uchun qilingan barcha to'lovlar ushbu hisobvarag'ida shakllanadi. Ushbu toifaga kiradigan boshqa bir nechta yetkazib berishlar turizm, muhandislik, aksiyalar, biznes xizmatlari, transport xizmatlari va litsenziyalar va mualliflik huquqlaridan roylati; bularning barchasi birgalikda mamlakatning to'lov balansini tashkil qiladi.

Kapital hisobvarag'i: yer va mulk kabi aktivlarni sotib olish va sotish (moliyaviy bo'lмаган) kabi kapital operatsiyalari ushbu hisobvaraq ostida nazorat qilinadi. Ushbu schyotda, shuningdek, boshqa mamlakatga ko'chib kelgan muhojirlar tomonidan soliqlar, asosiy vositalarni sotib olish va sotish oqimlari qayd etiladi. Joriy hisob varag'idagi yetishmovchilik yoki ortiqcha mablag' kapital hisob varag'idagi mablag' bilan tartibga solinadi va aksincha.

Moliya hisobvarag'i: ko'chmas mulk, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar, biznes korxonalari va boshqalar kabi investitsiyalar orqali boshqa mamlakatlarga kelib tushadigan mablag'lar ushbu hisob qaydnomasida qayd etiladi. Hisobda ichki aktivning xorijiy egasi va xorijiy aktivlarning ichki egasi hisoblab chiqiladi va aksiyalar, oltin, kapital va boshqalar kabi ko'proq aktivlarni sotib olish yoki sotish holatlari tahlil qilinadi.

Mamlakat to'lov balansi mahsulot va xizmatlar bozori moliyaviy oqimi uzviy aloqaga ega. Bu aloqadorlikni milliy hisobchilik tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = C + I + G + X_n$$

Bu yerda: Y –yalpi milliy mahsulot hajmi; C – iste'mol xarajatlari hajmi; I – investitsion xarajatlari hajmi; G –davlat (budget) xarajatlari hajmi; X_n – mamlakatning sof eksport hajmi.

Mazkur tenglikni quyidagi shaklga almashtirish mumkin:

$$Y - C - G = I + X_n$$

Natijada, $(Y - C - G)$ ushbu holat milliy jamg'arish (S) ni hajmini ifodalab, tenglikni quyidagi shaklda yozish imkonini beradi.

$$S = I + X_n$$

Bir mamlakat iqtisodiyotida milliy jamg'arish hajmi (S) ni ikkiga ajratib ko'rsatish ham mumkin ($S = S_1 + S_2$). Ya'ni shaxsiy jamg'arma ($S_1 = Y - T$) va davlat jamg'armasi ($S_2 = T - G$). Bu yerda T -davlat budgetiga soliqlardan tushum va majburiy to'lovlar hajmi.

(1) formuladan tenglikning bir tomoniga barcha ko'rsatkichlarni olib o'tgan holda, milliy hisobchilik tizimida juda muhim bo'lgan quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$(I - S) + Xn = 0$$

Mazkur ifoda, milliy hisobchilik tizimida kapitalni jamg'arish ($I - S$) uchun xalqaro mablag'lar oqimi va xalqaro tovar hamda xizmatlar oqimi (Xn) o'rtaсидаги aloqadorlikni ko'rsatib beradi. Tenglikning har bir bo'lagi to'lov balansi bilan bog'liq o'z nomiga ega, ya'ni:

$(I - S)$ – to'lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'ini ko'rsatadi.

Xn – to'lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi qoldig'ini ko'rsatadi. Milliy hisobchilik tizimining asosiy ayniyatlari to'lov balansining kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi va joriy operatsiyalar hisobi o'zaro muvozanatlashgan, ya'ni tenglashgan bo'lishi lozim. Bu esa, to'lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i bilan joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i yig'indisi nolga teng bo'lishini anglatadi va quyidagi ayniyat to'lov balansi uchun milliy hisobchilik tizimidagi asosiy tenglama ekanligini ko'rsatadi.

$$(I - S) + Xn = TB \text{ (to'lov balansi)}$$

BoP (Balance of Payments)

Agar $(I - S)$ qiymat ijobji bo'lsa va (Xn) manfiy bo'lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i ijobji va joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i salbiy (defitsit) bo'lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoridan qarz oлган holda, o'zimizning eksportimizdan ko'p import qilganligimizni bildiradi.

Agar $(I - S)$ qiymat manfiy (taqchillik) bo'lsa va (Xn) ijobji bo'lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i salbiy (defitsit) va joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i esa profitsit bo'lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoriga kreditor sifatida chiqayotganligimizni va o'zimizning importimizdan ko'p eksport qilayotganligimizni bildiradi.

To'lov balansining yakuniy makroiqtisodiy modeli quyidagi ko'rinishga ega:

$$(I - S) + Xn + OR = 0$$

Shunday qilib, joriy operatsilar hisobi qoldig'i, nafaqat xalqaro kapital harakati hisobi qoldig'i bilan, balki $(I - S) + OR$ summa bilan tenglashtiriladi. To'lov balansini yaxlit holda quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

Mamlakatning to'lov balansi	=	Joriy operatsiyalar hisobi balansi	+	Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi balansi
--------------------------------	---	--	---	--



Davlat to'lov balansiga tartibga solishga (valuta intervensiyalari ko'rinishida) aralashmasa quyidagi tenglik bajarilishi lozim.

$$\begin{array}{l} \text{Joriy} \\ \text{operatsiyalar} \\ \text{hisobi balansi} \\ \text{qoldig'i} \end{array} = - \begin{array}{l} \text{Kapital va moliyaviy} \\ \text{vositalar bilan} \\ \text{operatsiyalar hisobi} \\ \text{balansi qoldig'i} \end{array}$$

To'lov balansida balanslashtiruvchi modda sifatida, XVF taklifiga ko'ra mamlakat valuta zaxiralari (oltin, xorijiy valuta, XVFdagи mamlakatning zaxira pozitsiya-si, SDR aktivlari) bilan amalga oshirishgan operatsiyalar, valuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organlarining xalqaro tashkilotlar oldidagi majburiyatları, SDRlar taqsimoti olingan.

«Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar» qismi. To'lov balansini tuzishda ma'lumotlar turli manbalardan olinganligi, ikki yoqlama yozuv tamoyilini (debet teng kredit qiymatiga) hisobga olgan holda yakuniy hisobga «Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar» («Errors and omissions») qismi kiritiladi. Ya'ni mazkur qism orqali to'lov balansining debeti uning kredit qismiga tenglashtiriladi. Ushbu qism texnik xususiyatga ega bo'lib, uni to'liq va aniq iqtisodiy tavsifi mavjud emas.

Qaysi mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritilsa, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o'zgarsa, mazkur qism qiymati katta bo'lmaydi (ya'ni eksport yoki import hajmiga nisbatan u 5-7% darajasida bo'lsa, o'rta (normal) holat hisoblanadi). Qaysi bir mamlakatda qashshoqlik yoki noqonuniy kapital chiqishi yuqori bo'lsa, mazkur qismning qiymati ham katta shuncha katta bo'ladi.

Ba'zan, tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritiladigan, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o'zgaradigan AQSH ham to'lov balansida «Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar» qismi juda katta bo'lgan holatlar kuzatilgan.

12.2. TO'LOV BALANSINI MAKROIQTISODIY TARTIBGA SOLISH VOSITALARI VA USULLARI

To'lov balansi mamlakatning jahon xo'jaligidagi ishtiroki, ko'lami, tarkibi va tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirib, unda, bular bilan birga quyidagilar ham aks etadi:

- ❖ tovarlar, kapital va xizmatlar importiga bo'lgan talab va eksport taklifi bilan aniqlanadigan milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy muvozanatsizlik;
- ❖ iqtisodiyotni bozor va davlat orqali tartibga solish holatidagi o'zgarishlar;
- ❖ bozor konyunkturasidagi omillar (xalqaro raqobat darajasi, inflyatsiya, valuta kursining o'zgarishi va h.k.).

Mamlakatning to'lov balansi holatiga ko'p omillar ta'sir etadi. Biroq, ulardan eng asosiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

Mamlakat iqtisodiyotining va xalqaro raqobatning bir tekis rivojlanmasligi. Ma'lum bir mamlakat to'lov balansining asosiy qismlari jahon iqtisodiyotidagi

boshqa mamlakatlar bilan ushbu mamlakatning raqobat qilish kuchlari nisbatini o'zida aks ettiradi;

Iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqlari natijasi milliy iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatganidek, to'lov balansiga xo'jalik yurituvchi subyektlar xo'jalik faoliyatida o'sish, pasayish va tebranishlar o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, mamlakatda ishlab chiqarish hajmining ortishi elektr-energiya manbalariga, xomashyo va asbob uskunaga bo'lgan import talabini ko'payishiga sabab bo'ladi. Milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiyotiga nisbatan sekin rivojlansa, ushbu mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi sodir bo'ladi. Mamlakatda rivojlanish sur'atlari ortsu, yoki tezlashsa, foyda olish miqdori ham, foiz stavkalar ham oshadi, kapitalni chiqishi esa qisqaradi.

Davlatning chet eldag'i xarajatlarining ortishi. Turli siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko'zlagan hukumatning tashqi xarajatlari milliy iqtisodiyot uchun og'ir yuk hisoblanadi. Uning to'lov balansiga bilvosita ta'siri mamlakatning iqtisodiy o'sish, ishlab chiqarish sur'atlarining o'zgarishi, milliy iqtisodiyotning eksport tarmoqlari dan resurslarni olib qo'yish, eksportni kamayishi va h.k. orgali sodir bo'ladi.

Kapitalni kirishi va chiqib ketishi. Kapitalni chiqishi va kirib kelishi to'lov balansiga ikki tomonlama ta'sir qiladi. Xususan, kapitalni chiqishi uning passivini oshiradi. Bunda, eksport tarmoqlarini modernizatsiyalash uchun foydalanish mumkin bo'lgan mablag'larni o'ziga jalb etadi (ya'ni tortib oladi). Shuningdek, kapital eksporti ma'lum bir davrdan so'ng dividend va foiz, foyda ko'rinishida mamlakatga xorijiy valutada mablag'larni kirib kelishini ta'minlaydi.

Inflyatsiya. Inflyatsiya mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat ichida narxlarning ortishi mahalliy tovarlar raqobatbardoshligini kamaytiradi, ularning eksportini qiyinlashtiradi, tovarlar importini kuchaytiradi, chet elga kapitalning chiqib ketishi «qochishi» sodir bo'ladi.

Favqulodda holatlar. Hosilning yo'qolishi, stixiyali (o'z-o'zidan sodir bo'lgan) qashshoqlik, tabiiy ofatlar va h.k. kabi favqulodda holatlar mamlakat to'lov balansiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Savdo cheklavlari. To'lov balansiga mamlakatlarning bir-biriga nisbatan qo'llayotgan diskriminatsiyalari, protektzionistik harakatlari, xususan mamlakatlarning o'zaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga qarshilik qiluvchi bojxonalar to'siqlari to'lov balansida o'zgarishlar sodir bo'lishiga olib keladi.

To'lov balansini makroiqtisodiy tartibga solinishi – bu davlatni to'lov balansining asosiy qismlarini shakllantirishga hamda paydo bo'lgan taqchillikni moliyalashtirishga yo'naltirilgan iqtisodiy, jumladan, valuta, moliya, pul-kredit tadbirlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan faoliyatining umumiyligiga yig'indisidir.

1. Deflatsion siyosat. Bu siyosat ichki talabni qisqartirishga, ustuvor ravishda fuqarolarga yo'naltirilgan budget xarajatlarini, narxlar va ish haqlarini muzlatishga yo'naltirilgandir. Bu siyosatning muhim instrumentlari bo'lib:

- budjet defitsitini kamaytirish;



- Markaziy bankning diskont siyosati (foiz stavkalarining o'zgarishi);
- kredit cheklashlar;
- pul massasi o'sish chegaralarini o'rnatish xizmat qiladi.

Iqtisodiy turg'unlik davrida, ishsizlikning katta armiyasi va foydalanilmagan ishlab chiqarish quvvatlari zaxiralari mayjud sharoitda deflatsiya siyosati bandlik hamda ishlab chiqarishning kelajakda yanada pasayishiga olib keladi. Agar kompensatsiya qiluvchi choralar ko'rilmasa, bu – ishlovchilarning turmush darajasini pasaytirish va ijtimoiy beqarorlik keltirib chiqarish xavfi bilan bog'liq.

2. Devalvatsiya. Tovarlar eksportini rag'batlantirishga va ular importini ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lib milliy valuta kursini tushirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisidir. Devalvatsiyaning to'lov balansini tartibga solishdagi o'rni uni amalga oshirishdagi aniq shart-sharoitlar va kuzatiladigan umumiqtisodiy va moliyaviy siyosatga bog'liq. Devalvatsiya mamlakat raqobatbardosh tovarlar, eksport salohiyatiga ega bo'lsa va jahon bozori konyunkturasida yaxshi vaziyat bo'lsa, tovarlar eksportini rag'batlantiradi. Devalvatsiyaning importni ushlab turishga ta'siri xususida devalvatsiya ishlab chiqarish jarayoni va mamlakat jahon miqyosida baynalmilallahuvi sharoitida aksariyat hollarda keskin tovarlar kirib kelishini qisqartira olmaydi.

Shuningdek, ham mamlakatlar ham importning o'rnnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosatini izchil amalga oshira olmaydilar. Import qimmatlashib, devalvatsiya milliy ishlab chiqarishning o'sishi, mamlakatda narxlarning oshishi, keyinchalik tashqi bozorlarda qo'lga kiritilgan raqobatbardoshlik afzalliklarining yo'qolishga olib kelishi mumkin. Shuning uchun devalvatsiya mamlakatga vaqtinchalik nisbiy afzalliklar bersa ham, lekin aksariyat hollarda to'lov balansi taqchilagini yo'qotishga sabab bo'la olmaydi. Kerakli samarani olish uchun devalvatsiya o'lchov jihatidan yetarli bo'lishi shart. Aksincha, u valuta bozoridagi chayqovchilikning kuchayishiga olib keladi, chunki valuta kursini qayta ko'rib chiqish imkonini saqlab qoladi.

Shuningdek, haddan tashqari devalvatsiya boshqa valutalar kursining zanjirsimon pasayish reaksiyasini keltirib chiqarishi mumkin va bu holda o'z valutasini devalvatsiya qilgan davlat raqobatdosh afzalliklardan judo bo'ladi, o'zi mo'ljallangan afzalliklarni yo'qotadi. Ba'zi davlatlar vaqt-vaqt bilan valuta kurslarining ko'pligini amalda sinaydilar, ba'zi vaqtda ikki valuta bozori shaklida berkitilgan devalvatsiya sifatida suzib yuruvchi valuta kurslarining amalda qo'llanishi to'lov balansini muvoqiflashtirishga olib keladi.

Keskin sakrovchi devalvatsiya to'xtatilishi bilan ma'lum darajada xalqaro hisob-kitoblardagi kapitallarga bo'lgan chayqovchilik bosimi yo'qotiladi, biroq suzib yuruvchi kurslartizimida eksport qilinadigan va import qilinadigan tovarlarning bozor narxini pasaytirishga bo'lgan ularning ta'siri kamayadi. Shuning uchun devalvatsiya samarali bo'lganligi uchun ko'p davlatlar, jumladan, rivojlanayotgan mamlakatlar eksport va importga tabaqalashgan bojlarni va subsidiyalarni qo'llaydilar.

3. Valutaviy cheklashlar. Eksportyrlarning xorijiy valutadagi tushumlarini bloklash, importyrlarga xorijiy valuta sotilishini litsenziyalash, vakolatli banklarda valuta operatsiyalarini birlashtirish, tovar importini ushlab turish, kapital eksport qilishni cheklash yo'li bilan to'lov balansi taqchilligini bartaraf qilish mumkin. To'lov balanslari o'z tabiatiga ko'ra doimiy aktiv va passiv bo'la olmasa ham, ularning o'zgarishi valuta kursiva kapitaloqimi, xususan «issiqpullar» oqimining beqarorligini kuchaytiradi. Bu o'z navbatida pul muomalasiga, oxiroqibatda iqtisodiyotga salbiy ta'sir etadi. Shuning uchun xalqaro hisob-kitoblarning muvozanatini tiklash maqsadi davlat tomonidan tashkiliy ishlarni amalga oshirishni talab qiladi.

Xalqaro hisob-kitoblarni muvozanatlashtirish masalasi davlatning muhim iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'naliishlari qatoriga kiradi (iqtisodiy o'sishni ta'minlash, inflyatsiya va ishsizlikka qarshi kurash bilan birgalikda). To'lov balansini davlat tomonidan boshqarish – to'lov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga qaratilgan iqtisodiy, shu jumladan valuta, moliya, pul-kredit chora-tadbirlari bilan birgalikda xalqaro hisob-kitoblarning valuta-iqtisodiy holatiga muvofiq tashqi iqtisodiy operatsiyalarni rag'batlantiruvchi yoki chegaralovchi usullarga bo'linadi.

To'lov balanslarini xalqaro usullarda boshqarishga quyidagilar kiradi:

- eksport kreditlari shartlarini kelishish;
- ikki tomonlama davlat kreditlari, svop kelishuviga muvofiq Markaziy banklarning milliy valutadagi qisqa muddatli kreditlari;
- xalqaro valuta-kredit hamda moliya tashkilotlarining kreditlari va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida to'lov balansining holati ko'p jihatdan tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlarining xatti-harakatlari bilan belgilanadi. Shu sababli mamlakat to'lov balansining bo'limgari ortasidagi muvozanat tez-tez buzilib turadi. Bu holat ayniqsa, savdo balansida ko'p kuzatiladi. Misol uchun, Germaniya, Yaponiya, Xitoy, Rossiya va O'zbekiston kabi mamlakatlarda, odatda, tovarlar eksporti ularning importidan katta bo'lib, bu mamlakatlarda savdo balansi ijobji qoldiqqa ega.

AQSH, Misr va Marokash kabi boshqa mamlakatlarda tovarlar importi eksportidan katta bo'ladi. To'lov balansining, shu jumladan savdo balansining salbiy qoldiqqa ega bo'lishi mamlakatlardan bir qator chora-tadbirlarni qo'llashni talab qiladi. Chunki savdo balansidagi salbiy saldo ko'p yillar davomida saqlanib turishi mamlakatning moliyaviy holatini beqarorlashtiradi. To'lov balansini davlat tomonidan tartibga solishning turli xil shakllari va usullari mavjud bo'lib, ularni ta'sir ko'rsatish muddatidan kelib chiqqan holda qisqa va uzoq muddatli dastaklarga bo'lish mumkin.

Qisqa vaqt ichida to'lovbalansiga ta'sir ko'rsatishning eng muhim dastaklari dan biri – bu milliy valutani devalvatsiya qilishdir. Milliy valutaning xorijiy valutaga nisbatan qadrining pasayishi eksportning xorijiy iste'm olchilar uchun arzonlashishiga va im portning ichki iste'm olchilar uchun qimmatlashishiga olib keladi. Misol uchun, O'zbekiston A tovari 100 dollardan import qiladi va ayirboshlov kursi 1700 so'm/doll.bo'lgan sharoitda ichki bozorda 170000



so'mdan sotadi. Faraz qilaylik, O'zbekiston milliy valutasi kursi devalvatsiya qilindi va 2000 so'm/doll. ga tenglashtirildi. Bunday holatda 100 dollardan import qilingan A tovar ichki bozorda 200000 so'm dan sotiladi, bu esa tovarga bo'lgan talabning qisqarishiga olib keladi. Milliy valutani devalvatsiya qilish orqali to'lov balansini tartibga solishdan oldin eksportga va importga bo'lgan talablarning elastiklik darajalarini tahlil qilish kerak. Ushbu talablarning elastiklik darajalarining yigindisi birdan kichkina bo'lsa, devalvatsiya orqali to'lov balansini tartibga solish maqsadga muvofiq bo'lmaydi. Bundan tashqari, bir qator mamlakatlar bir vaqtida valuta devalvatsiyasidan foydalanishsa, bu ularning to'lov balanslariga jiddiy ta'sir ko'rsatmaydi, ammo jahon valuta tizimining beqarorlashishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli XVF nizomining 4-moddasiga binoan XVF a'zolariga valuta kursini o'zgartirish orqali xalqaro savdoda raqobatbardoshliklarini oshirishlari man qilingan.

Birinchidan, to'lov balansiga notenglik xos bo'lib, u uzoq vaqt yirik taqchillikka, ba'zi mamlakatlarda esa haddan tashqari katta ijobji qoldiqqa ega bo'lishi mumkin. Xalqaro hisob-kitoblar nomuvofiqligi valuta kursi dinamikasiga, kapitallar migratsiyasiga, iqtisodiyot holatiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, AQSH joriy hisob-kitoblaridagi taqchillikni qoplash uchun o'z valutasida emissiya qiladi va boshqa mamlakatlarga inflyatsiyani eksport qiladi, xalqaro aylanmasida dollar ortiqchaligi vujudga kelishi natijasida Bretton-Vuds jahon valuta tizimi ishdan chiqqan. Ikkinchidan, XX asrning 30-yillarda oltin standartidan voz kechilganidan keyin to'lov balansi shartlarini tartibga solishning stixiyali mexanizmi juda sust ishlardi. Shuning uchun to'lov balansida mutanosiblikni ta'minlash masalasi asosiy o'rinni egallaydi.

Mamlakat to'lov balansining surunkali taqchilligini bartaraf qilish uchun quydagi chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim:

- mamlakatda mahalliy ishlab chiqarishni va mehnat unumдорligini oshirish;
- chetga tovar va xizmatlar ko'rsatish hajmi hamda usullarini ko'paytirish;
- importga bo'lgan ehtiyojni kamaytirish va eksport salohiyatini oshirish;
- proteksionizm siyosatini joriy qilish;
- milliy valuta barqarorligini o'rnatish.

Quyidagilar to'lov balansini tartibga solishning moddiy asoslari bo'lib hisoblanadi:

- davlat mulki, shu jumladan rasmiy oltin-valuta zaxiralari;
- milliy daromadning o'sib borishi (salmog'i 40-50 % gacha);
- kapitallar eksporti, kreditlar, garant, zayomchi sifatida xalqaro iqtisodiy munosabatlarda davlatning bevosita ishtiroki;
- normativ aktlar va davlat nazorat organlari yordami bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni muvofiqlashtirish va boshqalar.

To'lov balansini tartibga solishda mamlakatlar turli choralar ko'rishlari mumkin. Odatda, to'lov balansini muvofiqlashtirishning ichki va tashqi omillari mavjud. Xalqaro hisob-kitoblarda aktiv qoldig'iga ega bo'lgan davlatlar «O'z-o'zini

tartibga solish», inflyatsiyani qisqartirish, deflyatsion siyosat o'tkazish, eksportni rag'batlantirish, tovarlar importini qisqartirish va boshqa usullarni qo'llash mumkin.

To'lov balansini tartibga solish dastaklari – to'lov balansi holatiga ta'sir etuvchi qisqa va uzoq muddatli vositalar tizimidir.

To'lov balansini qisqa muddatda tartibga solish uchun mamlakatlar tashqi savdoni tartibga solishning tarif va notarif dastaklaridan foydalanishlari mumkin. Import bojlarini oshirish va tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirishda qo'shimcha talablarni joriy qilish orqali importni kamaytirish mumkin. Ammo Jahon Savdo Tashkilotiga a'zo mamlakatlarda tarif va notarif dastaklardan foydalanish imkoniyatlari cheklangan. Misol uchun, JST qoidalariiga binoan subsidiyalardan va dempingdan foydalanish man etilgan. Shuningdek, mamlakatlar joriy operatsiyalar hisobiga kiruvchi «ko'rinmas» operatsiyalarga ta'sir ko'rsatish dastaklaridan ham foydalanishlari mumkin. «Ko'rinmas» operatsiyalar to'lov balansining xizmatlar eksporti/importi hisobida va daromadlar harakati hisobida aks ettiriladi. Bu operatsiyalarga ta'sir ko'rsatish maqsadida mamlakatlar ko'p hollarda valuta cheklaridan foydalanishadi. Valuta chekloviga misol qilib mamlakatdan jismoni shaxslar tomonidan olib chiqilishi mumkin bo'lgan xorijiy valuta miqdorining cheklanganligini keltirish mumkin. Bundan tashqari, mamlakatlar turizmdan kelib tushadigan tushumlarni ko'paytirishga ham harakat qilishadi. Mamlakatda turizm infratuzilmasini rivojlantirish orqali to'lov balans saldosiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzoq muddatli dastaklar. To'lov balansini uzoq muddatli tartibga solish ichki talabni qisqartirishga yo'naltirilgan makroiqtisodiy siyosatni amalga oshirish bilan bog'liq. Buning uchun hukumat davlat budjeti kamomadini kamaytiradi, foiz stavkani o'zgartiradi va pul massasini qisqartiradi. Shu bilan birga hukumat xorijiy kapital importini ko'paytirishga va kapital eksportini qisqartirishga ham harakat qiladi.

Ammo xalqaro amaliyot ko'rsatishicha, kapitalni mamlakatdan olib chiqishni ma'muriy usullar bilan cheklash, odatda, kutilgan natijaga olib kelmagan. Ayrim holatlarda to'lov balansi kamomadini moliyalashtirish uchun XVF kabi xalqaro tashkilotlardan qarz olish mumkin. Globalizatsiya sharoitida to'lov balansini davlatlararo tartibga solishning ahamiyati oshib bormoqda.

12.3. DAVLATNING TASHQI IQTISODIY SIYOSATI VA UNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISH USULLARI

O'zbekiston Respublikasi o'z milliy manfaatlariga asoslangan holda ochiq, o'zaro manfaatli va konstruktiv tashqi iqtisodiy siyosat olib boradi. Respublikaning zamonaviy tashqi iqtisodiy siyosiy kursi dunyoda va mintaqada shiddat bilan o'zgarayotgan vaziyat, hamda mamlakatning ichidagi keng ko'lamli o'zgarishlarga asoslanib shakllanadi.



O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy siyosiy faoliyatining bosh maqsadi – davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surish.

Respublika harbiy-siyosiy bloklarga qo'shilmaslik kursiga sodiq bo'lib, o'z hududida xorijiy harbiy bazalar va obyektlarni joylashtirishga, shuningdek, mamlakat harbiy xizmatchilarining chet eldag'i tinchlikparvarlik amaliyotlarida yoki harbiy mojarolarda ishtirok etishiga yo'l qo'ymaydi. O'zbekiston barcha qarama-qarshiliklar va nizolarni faqat tinch siyosiy yo'llar bilan hal qilish tarafdoi hisoblanadi.

O'zbekiston davlatlarning suveren tengligi, kuch ishlatmaslik yoki kuch bilan tahdid qilmaslik, chegaralarning daxlsizligi, boshqa davlatlarning ichki ishlari aralashmaslik; xalqaro majburiyatlarni vijdongan bajarish, inson huquqlarini hurmat qilish va himoya qilish va xalqaro huquqning boshqa umume'tirof etilgan tamoyillari va normalari; xavfsizlikning bo'linmasligi, ochiqlik va pragmatizm, qo'shni mamlakatlar bilan har tomonlama yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini rivojlantirish, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash kabi asosiy tamoyillarga tayangan holda tinchlik, taraqqiyot va farovonlik yo'lida barcha sheriklar bilan hamkorlikni kengaytirishdan manfaatdor.

Tashqi iqtisodiy siyosiy faoliyatning asosiy va birinchi darajali vazifalaridan biri bu 2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini samarali amalga oshirishdir.

Ushbu maqsadga erishish uchun tashqi iqtisodiy siyosat idorasini oldiga quydagi vazifalar qo'yilgan:

- mamlakatimizda olib borilayotgan demokratik islohotlarni hamda jamiyat va iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning jadal jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun mumkin qadar qulay tashqi siyosiy shart-sharoitlarni shakllantirish;
- Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash hamda mustahkamlash, mintaqani xavfsizlik va barqaror taraqqiyot hududiga aylantirish;
- jahoning yetakchi davlatlari va xalqaro tashkilotlar bilan strategik hamkorlik qilishning mutanosib, ko'p qirrali tizimini shakllantirish;
- O'zbekistonning mintaqasi va jahon siyosatidagi muhim yo'nalishlar bo'yicha xalqaro tashabbuslarini ilgari surish;
- mahalliy mahsulotlarning eksport hajmini oshirish va geografiyasini kengaytirish borasida ko'maklashish;
- milliy iqtisodiyotning ustuvortarmoqlariga to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalar va ilg'or texnologiyalarni jalb etishda faol ko'mak berish;
- mamlakatimizga turistlarni jalb qilish hamda turistik infratuzilmani rivojlantirish borasida amaliy yordam ko'rsatish;

- transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni kengaytirish va chuqurlashtirishda hamda xalqaro transport kommunikatsiyalari va logistik infratuzilmalari rivojlanishiga ko'maklashish;

- xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari va yuridik shaxslari huquq va manfaatlarining har tomonlama himoya qilinishini ta'minlash;

- xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar bilan aloqalarni mustahkamlash.

Tashqi iqtisodiy siyosatimizning bosh ustuvor yo'naliishi Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlashga, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etishga, shu jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. O'zbekiston mintaqaviy savdo-iqtisodiy hamkorlikni mustahkamlash, mintaqaning transport va tranzit infratuzilmasini rivojlantrish, Markaziy Osiyo transchegaraviy daryolarining suv-energetika resurslaridan oqilona va kompleks foydalanish hamda mintaqaning ekologik barqarorligini ta'minlash, chegaralarni delimitatsiya va demarkatsiya qilish jarayonini yakuniga yetkazish uchun barcha sa'y-harakatlarni amalga oshiradi.

Dunyo mamlakatlarining jadallik bilan rivojlanib borayotganligi ular o'rtaida ishlab chiqarish aloqalarining baynalmilallahuvi va globallashuvi hamda iqlisodiy aloqalarning kuchayishi, har bir davlatdan tashqi omillardan oqilona va samarali foydalanish, milliy iqtisodiyotni tashqi ta'sirlardan himoyalashga qaratilgan tashqi iqtisodiy siyosat yuritishni talab etadi. Shu bilan birga, mamlakat iqtisodiyotining jahon iqtisodiyoti bilan ichki bozorning tashqi bozorlar bilan o'zaro hamkorligi uchun sifat jihatidan yangi negizlarini shakllantiradigan tub bozor o'zgarishlarini amalga oshirish obyektiv ravishda tashqi iqtisodiy omillarni kuchaytirishni taqozo etadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'naliishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir.

Tashqi iqtisodiy siyosatning mohiyati uning davlat va xalqning suverenitetini ta'minlashdan iborat bo'lgan, milliy manfaatlarni himoya qilish bo'yicha me-xanizmining butun sa'y-harakati ijtimoiy-iqtisodiy integratsion jarayonlarda milliy, mintaqaviy va global xavfsizlikni ta'minlashda o'z ifodasini topadi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati negizida tashqi iqtisodiy aloqalarni tartibga solish va ishlab chiqarish omillarining xalqaro taqsimlanishida mamlakat ishtiroki ni maqbullahshtirish tartibini belgilashga doir bir maqsadga yo'naltirilgan faoliyatlar yotadi.

Tashqi iqtisodiy siyosatning tarkibiy qismlari bo'lib, tashqi savdo siyosati, xorijiy investitsiyalarni jalb etish va xorijdagi milliy kapital qo'yilmalarni tartibga solish borasidagi siyosat, valuta siyosati hisoblanadi. Bundan tashqari mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq bo'lgan alohida davlatlar va mintaqalarni bilan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni amalga oshirish ko'rinishlari ham mavjud.

Tashqi iqtisodiy siyosat tashqi iqtisodiy faoliyatni ham tartibga soladi. Ko'plab davlatlarda mavjud bo'lgan tashqi iqtisodiy siyosat vositalarining keng doirasi ularga o'z tashqi iqtisodiy aloqalari tarkibini va ularni rivojlantirish yo'nalishlarini shakllantirishga ham, boshqa mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalari va tashqi iqtisodiy siyosatiga ham faol ta'sir etish imkonini beradi. Tashqi iqtisodiy siyosat vositalarini savdo siyosiy mexanizmi sifatida ta'riflash mumkin.

Tashqi iqtisodiy siyosatni shakllantirish uchun uning asosiy tamoyillarini aniq va ravshan belgilash lozim. Unda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining xatti-harakatlarini iqtisodiy-huquqiy tartibga solishga asosiy o'rinni ajratilgan bo'ilish, umummilliy manfaatlarga mos kelishi lozim. Davlatlarning tashqi iqtisodiy siyosatni normativ tartibga solish negizida milliy hamda xalqaro huquq me'yorlari yotadi. Biroq, davlatning tashqi iqtisodiy siyosat sohasidagi munosabatlarini tartibga solishda milliy huquqiy mexanizmlarning ham ahamiyati katta. Bunday mexanizmlar hozirgi kunda davlatning xalqaro maydondagi strategik faoliyatini belgilashda muhim rol o'ynab kelmoqda.

O'zbekiston tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadlari va uni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar sifatida mamlakat taraqqiyotining har bir bosqichida uning o'z oldiga qo'yan vazifalari mavjud bo'lib, davlatning iqtisodiy siyosati bu vazifalarni bajarilishiga qaratilmog'i kerak. Mamlakat iqtisodiy rivojlanishining har bir bosqichida davlat tashqi iqtisodiy siyosatining maqsadlari shu davrning o'ziga xos xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ular orasida eng muhimlari quyidagilar:

- ❖ eksportni rivojlantirish va uning tarkibiy tuzilishini yaxshilash;
- ❖ importning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish, ya'ni uni milliy ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va kengaytirishga qaratish;
- ❖ ishlab chiqaruvchi kuchlarni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish uchun chet-el investitsiyalarini jalb etish;
- ❖ mamlakatning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, ya'ni ma'lum darajada tashqi iqtisodiy faoliyatda eksport-import operatsiyalari, valutani olib chiqish boshqa xalqaro bitimlar ustidan davlat nazoratini ta'minlash.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati aniq belgilangan maqsadlar va ularni amalga oshirishga qaratilgan asosiy tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Birinchidan, respublika milliy iqtisodiyotining kuchli eksport bo'g'inni tashkil etuvchi va uni jahon bozorida munosib o'ringa ega bo'lishini ta'minlovchi sohalarini aniqlash.

Ikkinchidan, iqtisodiyotning eksport bo'g'inida davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash usullaridan keng foydalanish.

Bu usullar quyidagilardan iborat:

- eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish uchun imtiyozli foizlar bo'yicha uzoq muddatli kreditlar ajratish;
- milliy investitsiyalarни sug'urtalash;

- eksport qiluvchilarga milliy ishlab chiqarish va uning xorijiy raqobatchilari ishlab chiqarishi xarajatlari o'rtaсидаги farqni qoplash;
- davlat tomonidan respublikaga ilg'or texnologiyalar, tajribalar, bilimlarni kirib kelishiga subsidiyalar ajratish;
- eksport va importni litsenziyalash yoki xorijga Tovar va xizmatlarni chiqarishga va xorijdan uni olib kelishiga ruxsatnomalar berish;
- ishlab chiqarish jarayonida qatnashuvchi, xorijdan keltiriladigan xomashyo va materiallar, asbob-uskunalar va jihozlar ulushini bosqichma-bosqich kamaytirish va boshqalar. Shu bilan birga, tashqi iqtisodiy siyosat milliy valutani mustahkamlash va uni boshqa valutalarga erkin almashuvini ta'minlashni, ichki narxlarni jahon bozori narxlariga yaqinlashtirish maqsadida baholar islohotini tugallashni, tashqi iqtisodiy faoliyatning me'yoriy va huquqiy asoslarini xalqaro talablar darajasiga yetkazishni nazarda tutadi.

Davlat tomonidan amalga oshiriladigan mamlakatning tashqi iqtisodiy faoliyati kundalik va strategik maqsadlarga muvofiq uning tashqi iqtisodiy siyosatiga asoslangan. Mamlakatning tashqi iqtisodiy siyosati deganda, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish va tartibga solishga qaratilgan faoliyat tushuniladi.

Hozirda tashqi iqtisodiy faoliyatni davlat tomonidan tartibga solish siyosatida ikki yo'naliш o'zaro bog'langan:

erkinlashtirish;

proteksionizm.

Ichki bozorni xorijiy raqobatdan himoyalashga qaratilgan iqtisodiy siyosat proteksionizm deyiladi.

Erkinlashtirish – davlatning tashqi savdoda iqtisodiy va ma'muriy to'siqlarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy siyosatidir. Erkinlashtirish va proteksionizm siyosati dunyodagi har qanday davlat uchun xos. Hozirgi paytda tashqi savdoni erkinlashtirish asosiy tashqi iqtisodiy siyosat hisoblanadi. Bu jarayon uch xil ko'rinishda amalga oshirilayapti:

alohida mamlakatlar o'rtaсидаги o'zaro savdoda;

yagona bojxona ittifoqiga kiruvchi alohida davlatlar o'rtaсида;

tariflar va savdolar to'g'risidagi xalqaro darajadagi bitimlar doirasida. Davlatning tashqi savdo siyosati xalqaro darajada tovarlar, ishlar, xizmatlar, axborotlar, intellektual faoliyat natijalari bilan amalga oshiriladigan ayrboshlashni qamrab oladi va eksport va import siyosatlari birgalikda tashqi savdo siyosatini tashkil etadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning eksport siyosati, deganda mamlakatning raqobatbardosh tovarlar, xizmatlar va intellektual mulklarni jahon bozorida sotishinga va ushbu tovarlarni ishlab chiqarishni rag'batlantirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Eksport qiluvchi korxonalarni rag'batlantirishda davlat buyurtmalari, budgetdan moliyalash, imtiyozli kreditlar berish, ilmiy tadqiqot va tajriba konstrukturlik ishlarini moliyalash va hokazolardan foydalilanadi.

Tashqi savdo bo'yicha davlatning import siyosati, deganda mamlakatga xorijdan tovarlar, ishlar, xizmatlar va intellektual mulklarni kelinishini tartibga solishga



yo'naitirilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Bunday tartibga solishning vositasi si-fatida respublika iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida importni to'g'ridan to'g'ri cheklash hisoblanadi. Bunda litsenziyalash va kontingentlash, importga oid antidemping va kompensatsiya bojlari, eng kam import narxlari tizimi va hokazolar qo'llaniladi.

Tashqi investitsiya siyosati xorijiy investitsiyalarini mamlakat hududiga jalg etish va ulardan foydalanish hamda milliy investitsiyalarini xorijga olib chiqishni tartibga solishga doir chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Valuta siyosati davlat va xalqaro valuta-moliya tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladigan valuta munosabatlari sohasidagi iqtisodiy choralar hamda tashkiliy shakl va usullar yig'indisini tashkil etadi. Valuta siyosati davlatning valuta mablag'laridan maqsadli foydalanish bo'lib, valuta mablag'larini shakllantirish va ishlatishining asosiy yo'nalishlarini hamda bunday mablag'lardan samarali foydalanishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi. Valuta siyosatining amal qilish sohasi-valuta bozori, qimmatbaho metallar va toshlar bozori hisoblanadi.

Davlatning valuta siyosati diskont va deviz siyosatlariga bo'linib, moliya tizimining bir maromli faoliyatini va mamlakat to'lov balansi muvozanatini ta'minlash kabi vazifalarni qamrab oladi. Diskont siyosati investitsiyalar harakatlarini tartibga solish va to'lov majburiyatlarini muvozanatlashtirish, valuta kursini taxminiy tuzatish uchun foizning hisob stavkasidan foydalanish bo'yicha chora-tadbirlar tizimini o'z ichiga oladi. Ushbu siyosat pul talabi holatiga, narx dinamikasi va darajasiga, pul massasi hajmiga, qisqa muddatli investitsiyalar migratsiyasiga ta'sir ko'rsatishda namoyon bo'ladi. Deviz siyosati – valuta intervensiysi va valuta cheklashlari yordamida valutani xarid qilish va sotish bilan valuta kursini tartibga solish tizimi. Valuta intervensiysi Markaziy bankning xorijiy valutaning oldi-sotdisi bo'yicha maqsadli operatsiyalari bo'lib, u milliy valuta kursi dinamik-sini oshirish yoki pasaytirishning muayyan chegaralari bilan cheklash maqsadini ko'zlaydi. Valuta cheklashlari milliy va xorijiy valuta, oltin va hokazolarga doir operatsiyalarni tartibga soladigan iqtisodiy, huquqiy, tashkiliy chora-tadbirlar majmuidan iborat.

Ishchi kuchining tashqi migratsiya siyosati ishchi kuchi eksporti siyosati va ishchi kuchi importi siyosatlariga bo'linadi. Ishchi kuchi eksporti siyosati deganda, bir mamlakat hududidan ikkinchi bir mamlakatga ishchi kuchining ko'chishi uchun qulay sharoit yaratish yoki taqiqlash borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi. Ishchi kuchini eksport qilish natijasida mamlakatda ishsizlik darajasini kamaytirish va mamlakatga qo'shimcha valuta daromadlarini paydo qilish imkoniyati yuzaga keladi. Ishchi kuchi import siyosati, deganda mamlakatga xorijdan ishchi kuchining kirib kelishi uchun qulay sharoit yaratish yoki to'siqlar qo'yish borasidagi davlat tomonidan amalga oshiriladigan chora-tadbirlar yig'indisi tushuniladi.

Tashqi iqtisodiy munosabatlarning ko'rinishlari	Bilvosita	Bevosita		
		Iqtisody	Ma'muriy	Me'yoriy-huquqiy
Tashqi savdo	Bojxona bojlari Bojxona tariflari Eksport va import soliqlari; Valuta tushumidan ajratmalar me'yorlari; Markaziv bankka sotilishi majburiy bo'lgan valuta tushumlarining hisssasi	Litsenziyalash, kvatalash; Bojxona bojlari: masumiy, maxsus, dempingga qarshi. kompensatsion Eksportni ixtiyoriy chegaralash	Mahsulotlar bayonnomasi; Tashqi iqtisodiyaloqa qatnashchilarini ro'yxatga olish; Boshqa bojxona rasmiyatçililik lari.	Mahsulot. sifati, tovarlarni o'rash va markirovkalashga bildirilgan talablar, me'yor va texnik standartlar
Kapital migratsiyasi	Kreditning foiz stavkasi; Sug'urta mukofotlarining miqdori; «Suzib yuruvchi» tartibga solinadigan valuta kursi; Chet el valutasini sotuvchi va xaridordan olinadigan majburiy to'lov miqdori.	Moliya operatsiyalari uchun litsenziyalar; Korxona ustav fondida xorijiy kapital ulushining mumkin bo'lgan chegarasi; Xorijiy valuta olib kelish va xorijga valuta olib chiqish miqdorini belgilash.	Sarmoyalash, kredit berish va sug'ra shartlari; Chet ellik sarmoyachilar uchun iqtisodiyot tarmoqlarini aniqlash; Qo'shma va chet ellik korxonalarini boshqarishda milliy xodimlarni ishtirok etish shartlari.	Valuta operalsiyalarini amalga oshirish jarayoniga qo'yiladigan talabva standartlar.
Ishchi kuchi migratsuyasi	Ishchi kuchi bozori ijtimoiy sug'ortalash shartlari; Xorijga chiqish vaxorijdan kelish hujjalarni rasmiylashtinsh uchun to'lanadigan bojlar va to'lovlari.	Mamlakatga kelayotgan shaxslar uchun kvotalar; Ishga joylashish uchun ruxsat berishlar	Ishchi kuchini chetdan kelishi va chetga chiqishini rasmiylashtirish tartibi va shartlari.	Ishchi kuchi ta'limi, malakasi, jinsi va yoshiga qarab qo'llaniladigan talab va standartlar

12.2.1-rasm. Tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish usullarining umumiyl tasnifi.



Davlatning bojxona siyosati – mamlakat ichki va tashqi siyosatining tarkibiy qismi bo'lib, bojxona siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilar:

- bojxona nazorati ostidan eng samarali foydalanishini va bojxona hududida tovar ayriboshlashni tartibga solishni ta'minlaydi;
- mamlakat bozorini himoya qilish va mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirishiga doir savdo va siyosiy vazifalarni ro'yobga chiqarishda ishtirok etish;
- bojxona siyosati bojxona ishining bir qismi bo'lib hisoblanadi.

Davlatning yuqorida keltirilgan tashqi iqtisodiy siyosatining asosiy shakllari mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalarida qatnashuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat yurituvchilar xatti-harakatlarini muvofiqlashtirishga va tartibga solishiga qaratilgan.

Tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari haqida fikr bildirilganda, asosan muayyan mamlakatning tovar eksport-import operatsiyalari, kapitallar, kreditlar, investitsiyalar harakati, ishchi kuchi migratsiyasi va ular bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar nazarda tutiladi. Shunday ekan, birinchi bosqichda mamlakat shu siyosatlarni yuritsa, ikkinchi bosqichda esa – mamlakatlar tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda yuqoridagi dastaklar orqali amalga oshiradi.

12.4. MAMLAKATDA TASHQI IQTISODIY SIYOSATNI ISHLAB CHIQISH VA AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Mamlakatda tashqi iqtisodiy siyosatni ishlab chiqishning aniq bir yo'nalishi mayjud emasligidan kelib chiqqan holda, ma'lum bir davlat tanlaymiz. Quyida esa Shveysariya tanlab olingan hamda uning amalga oshirish prinsiplari va ishlab chiqilgan tashqi iqtisodiy siyosati ko'rib chiqilgan.

Shveysariyaning tashqi siyosiy maqsadlari Federal Konstitutsiyada belgilangan manfaatlar asosida va shu kabi qadriyatlarni saqlagan holda tashkil etiladi. Ushbu manfaatlar va qadriyatlар doimiy bo'lib, Shveysariya tashqi siyosati uchun keng va barqaror asos yaratadi.

Shveysariyaning ichki va tashqi siyosati bir-biri bilan chambarchas bog'liqidir. Shveysariyaning ichki kuchli tomonlari ham tashqi siyosatini boshqarishda yordam beradi. Shveysariya demokratiya va qonun ustuvorligi, muloqot va murosaga erishish madaniyati, hamkorlik va tajriba almashish, inson huquqlari va insonparvarlik tamoyillariga sodiqdir.

Shveysariyaning tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirish prinsiplari
Qonun ustuvorligi

Shveysariya – huquqiy davlat. Xalqaro munosabatlarda qonun hokimiyatdan ustun turishi uning manfaatlariga javob beraolishi ta'minlangan. Shu sababli xalqaro huquq va muvofiqlik Shveysariya uchun katta ahamiyatga ega. Qoidalar-

siz xalqaro aktorlar o'z manfaatlarini ro'yobga chiqarish uchun bosim o'tkazishga yoki hatto kuch ishlatalishga moyil bo'ladilar. Bunga qarshi turish uchun Shveysariya ko'p yillardan buyon zo'ravonlikka qat'i qarshi bo'lib kelgan va nizolarni tinch yo'l bilan hal etishni yoqlab kelgan.

Neytrallik.

Neytrallik – bu Shveysariyaning mustaqilligini himoya qilishga qaratilgan tashqi siyosiy vosita. Shveysariya doimiy neytral davlat maqomiga ega va unga neytrallik qonuni tomonidan yuklangan majburiyatlarni bajaradi. Avvalo, bu uning xalqaro mojarolarda qatnashmasligini anglatadi. Shu bilan birga, uning neytrallik siyosatini yuridik ma'noda uning betarafligi ko'rinishi va ishonchlilagini ta'minlash uchun amalga oshirish-huquqiy me'yorlar bilan hamda xalqaro tahlil natijalari bilan bog'liq hisoblanadi. Betaraflik pozitsiyalarini qabul qilishda bir daraja xolislik talab qilsa-da, bu Shveysariyaning o'z manfaatlarini himoya qilishiga to'sqinlik qilmaydi.

Aksincha, bu Shveysariya tashqi siyosatini amalga oshirish va turli sheriklar bilan aloqani osonlashtirish uchun ishlatalishi mumkin bo'lgan moslashuvchan vosita hisoblanadi. Shveysariya tashqi siyosatining an'anaviy kuchi va Shveysariyaga boshqa mamlakatlardan ajralib turishi va alohida rol o'ynashiga imkon beradigan narsalar haqida gap ketganda, bu ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Hamkorlik aloqalari.

An'anaga ko'ra, Shveysariya iloji boricha dunyoning barcha davlatlari bilan yaxshi munosabatlarni saqlashga intiladi. Dunyoga, xususan, iqtisodiy jihatdan ochiq yondashuviga juda bog'liq bo'lgan mamlakat va Yevropa Ittifoqining a'zosi yoki G20 kabi boshqa yirik Ittifoqlarga yoki guruhlarga a'zo emasligini hisobga olgan holda, Shveysariya himoya qilish uchun yaxshi rivojlangan munosabatlar tarmog'ini saqlab turishi lozim. Ya'ni, universallik prinsipi tashqi siyosiy ustuvorliklar mavjud emas degani emas. Shuningdek, bu Shveysariyaning muayyan sheriklarning alohida ahamiyatini yoki ma'lum bir mamlakatlar uchun aniq strategiyalarni ishlab chiqish zarurligini anglashiga to'sqinlik qilmaydi.

Kelishuvlar.

Kelishuvlar – Shveysariyaning siyosiy madaniyatining asosiy elementi, shuningdek, tashqi siyosatida unga sodiq bo'lgan prinsipdir. Shveysariya aloqalarni qurishga va muloqotni rivojlantirishga intilmoqda. Muloqot barcha salbiy maqsadlar uchun davolovchi vosita bo'lmasligi mumkin va bu, hech bo'limganda, ishtiroy etadigan barcha tomonlardan o'zaro hamkorlik qilishga tayyor bo'lishlarini talab qiladi. Turli xil aktorlarni faol tinglash va ularni tushunishga intilish Shveysariya ularning salbiy pozitsiyasiga rozi ekanligini anglatmaydi. Shuningdek, u o'z manfaatlari va qadriyatlaridan hamda uning manfaatlari xorijiy yoinki qo'shni mamlakatlar uchun salbiy oqibatlar keltirmasligi uchun optimal harakat hamda hamkorliklarni taklif qiladi.

Birdamlik va mas'uliyat.

Davlat ta'sir qilishi va uning manfaatlarini himoya qilish uchun imkoniyat yaratish qobiliyati endi nafaqat uning harbiy qudrati, iqtisodiy qudrati yoki aholisi soni



bilan o'chanmoqda. Mamlakatlar o'tasida tashqi iqtisodiy siyosatga nisbatan birdamlik hamda mas'uliyat hissini uyg'otishga chaqiradi va Shveysariya ham shu jihatga kata e'tibor beradi. Ushbu mas'uliyat hissi kelajak avlodlarga ham tegishli.

Samaradorlik va izchillik.

Shveysariya tashqi iqtisodiy siyosatida samaradorlik hal qiluvchi ahamiyatga ega. Umuman Shveysariyaning tashqi siyosati va xususan tashqi iqtisodiy ta-shabbuslari, harakatlari va faoliyati har doim mavjud bo'lgan kam manbalardan oqilona foydalangan holda amalga oshirib kelinmoqda. Shveysariyaning tashqi iqtisodiy siyosati faoliyatida rejalashtirilgan strategik chora-tadbirlarga qaratilgan. Bu faoliyatning barcha sohalarida kuzatiladi – masalan, chet elda yashaydigan va sayohat qilayotgan Shveysariya fuqarolarini konsullik yordami bilan ta'minlashda. Tashqi siyosatdagi izchil yondashuv samaradorlikning zaruriy shartidir; samaradorlik va izchillik o'zaro bir-biriga bog'liqdir. Muvofiqlik alohida siyosiy sohalar o'tasidagi o'zaro bog'liqlikni tan olishga va tashqi siyosiy yondashuvni mos ravishda o'zgartirishga olib keladi. Uyg'unlik nuqtayi nazaridan talablar globalashuv bilan yanada kuchayadi – ayniqsa, turli xil sektor siyosatlari o'tasida. Shaffoflik va ma'lumot almashish, kelishmovchiliklarni dastlabki bosqichda aniqlash va izchillikni ta'minlash to'g'risida gap ketganda muhim ahamiyatga ega. Har qanday tashqi iqtisodiy siyosat biron-bir bosqichda maqsadlar va resurslar nuqtayi nazaridan nomuvofiqlik va ziddiyatlarga duch keladi – bu muvofiqlashtirish jarayonlaridan foydalanish va aniq mezonlarni aniqlash orqali minimal darajaga tushirilishi kerak.

Shveysariya tashqi siyosatining strategik ustuvor yo'nalishlari Faol va istiqbolli tashqi iqtisodiy siyosat strategik ustuvorliklarni belgilashni talab qiladi. Bunday ustuvor yo'nalishlarni belgilash tashqi iqtisodiy siyosat faoliyati va subyektlarning keng doirasini hisobga olgan holda yanada muhimdir. Ushbu tashqi iqtisodiy siyosat strategiyasi To'rt strategik ustuvor yo'nalish bir-biridan ajralib turmaydi. Buning o'rниga ular bir-birining o'rnni ketma-ket to'ldirishi bilan chambarchas bog'liq. Ushbu belgilangan bandlardan konstruktiv foydalanish kerak.

Yevropa Ittifoqi va YYevropa erkin savdo uyushmasi bilan aloqalar ikki tomonlama yondashuvni birlashtirish va yangilashga asoslanib, Shveysariya rivojlanish ko'lagini beradigan sheriklik asosida YI bilan tartibga solinadigan munosabatlarni ta'minlashga, shuningdek, qo'shni davlatlarni hisobga olgan holda YI va YYevropa erkin savdo uyushmasiga a'zo davlatlar bilan yaqin aloqalarni rivojlantirishga qaratilgan.

Shveysariya Yevropaning markazida joylashgan. U Yevropadagi sheriklarning asosiy demokratik prinsiplariga qo'shilib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ushbu davlatlar va avvalo qo'shnilar bilan yaqin aloqada. Shveysariya butun qit'ada barqarorlik va taraqqiyot tarafdoi ekanligini namoyish etib kelmoqda

Mamlakatlar salohiyatining o'zgarishi va transchegaraviy muammolar va tадидлар о'tasida barqaror sheriklik zarur – ayniqsa, qo'shni hamda etnik jihatdan o'xshash davlatlarda va umumiylar yechimlar bilan. Bu, xususan, global raqobat (tad-qiqot, savdo va innovatsiya), ichki va tashqi xavfsizlik (shu jumladan terrorizmga qarshi kurash va jinoyatchilikka qarshi kurash), xalqaro hamkorlik va gumanitar

yordam va fuqarolarning hayot sifatiga (harakatchanlik, imkoniyatlar, ish joylari) tegishli, madaniy xilma-xillik, atrof-muhit va sog'liq) kabilar bilan. Shveysariya Yevropadagi sheriklari bilan ko'p qirrali va ikki tomonlama, masalan, Yevropa Xavfsizlik Kengashi va NATO ning tinchlik uchun hamkori yoinki shu kabilar hamkorlikda ish olib boradi. Bu borada Yevropa Ittifoqi alohida ahamiyatga ega.

Germaniya, Fransiya, Italiya va Avstriya bilan strategik sheriklik bu Shveysariyaning Yevropa bilan munosabatlarda juda muhim ahamiyatga ega – aniq jihatlar bo'yicha yanada mustahkamlanib, kengaytirilib boriladi.

Xalqaro hamkorlar bilan aloqalar maqsad:

Shveysariya o'z manfaatlarini himoya qilish va muayyan muammolarni hal qilish maqsadida global hamkorlar bilan aloqalar tarmog'ini kuchaytiradi.

Shveysariya nafaqat yirik va mintaqaviy kuchlar, balki kichik va o'rta davlatlar, mintaqaviy tashkilotlar va nodavlat subyektlar bilan ham aloqalarni davom ettiradi. Odatda, ikki tomonlama deb ataladigan ushbu munosabatlар hal qiluvchi ahamiyatga ega. Shveysariyaning mintaqaviy ishtiroki va tarmoqlari Janubi-Sharqiy va Sharqiy Yevropa, Markazi Osiyo, Osiyo-Tinch okeani mintaqasi, Amerika, Afrika va Yaqin Sharq mintaqalarida hamkorlik dasturlarini amalga oshirib boradi. Shveysariya ushbu mintaqalarda siyosiy yoki xavfsizlik siyosati, iqtisodiy siyosat, atrof- muhit siyosati yoki migratsiya siyosati bilan bog'liq bo'lgan turli xil manfaatlarga ega. Kerakli va maqsadga muvofiq bo'lgan joylarda ikki tomonlama hamkorlik vositalaridan foydalaniladi.

Tinchlik va xavfsizlik maqsad:

Shveysariya tinchlik va xavfsizlik yolidagi sadoqati asosida hayotiy va adolatli xalqaro tartibga jiddiy yondashadi.

Sohni yillarda tinchlik va xavfsizlikka sodiqlik tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu qisman butun dunyo bo'ylab inqiroz bilan bog'liq o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lib, Shveysariya uchun ham salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shveysariya ek-sportga yo'naltirilgan iqtisodiyoti yuqori darajada globallashgan mamlakat sifatida uning xavfsizligi va farovonligiga barqaror muhit va hayotiy va adolatli xalqaro tartibga bog'liqdir. Inqiroz va noaniqlik davrida Shveysariya atrof-muhitni shakllantirishda har tomonlama va ijodiy hamkorlik shakllari bilan rol o'ynashi juda muhim va uning manfaatlari va qadriyatlariga mos keladi.

Shveysariya, shuningdek, so'nggi yillarda ko'p marotaba tashqi iqtisodiy siyosati orqali tinchlik va xavfsizlikni ta'minlashga qimmatli hissa qo'shishi mumkinligini ko'rsatdi, bu mustaqil va birgalikda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Shveysariya ko'pgina sheriklar bilan hamkorlikda va o'z tashabbuslarini rivojlantirib, boshqa mamlakatlar qila olmaydigan hamkorliklarni qurishi mumkin.

Shveysariyaning tinchlik va xavfsizlikka sodiqligi, aslida bir tomondan inqiroz va nizolarni hal qilishni o'z ichiga oladi, boshqa tomondan global muammolariga umumiyl javoblarni aniqlash ustida ish olib boradi. Hozirgi paytda inqirozga (Covid-19) katta e'tibor qaratilayotganiga qaramay, uzoq muddatli istiqbolni hi-



sobga olgan holda global lashuvni shakllantirishga tegishli e'tibor berish muhimdir.

Barqaror rivojlanish va farovonlik Maqsad:

Shveysariya barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan insonlar hayot kechirish darajasini yaxshilanishiga o'z hissasini qo'shishga harakat qilmoqda.

Barqaror rivojlanish:

Hozirgi kunda global muammolar chegara bilmaydi. Bu har qachongidan ham ko'proq birgalikda harakat qilishni talab qilmoqda. Ko'pincha korrupsiya, o'zboshimchalik bilan boshqarish va nizolardan kelib chiqadigan qashshoqlik va tengsizlik hali ham keng tarqalgan bo'lib, bundan esa – keksalar, ayollar va bolalar eng ko'p zarar ko'rmoqda. Bu yuqori iqtisodiy, ijtimoiy, ekologik va siyosiy xaratatlarni keltirib chiqaradi, shu bilan birga yoshlarning istiqbollariga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Aytish kerakki, hech bo'limganda o'ta qashshoqlikni yo'q qilish birinchi o'ringa qo'yilishi kerak.

Shveysariya barqaror rivojlanish uchun farovon hayot kechirish va tinchliksevar dunyo qurish tarafdoi. U global xavf-xatarlarni, qashshoqlik va qiyinchiliklarni kamaytirish, shuningdek tinchlik o'rnatish va inson huquqlarini hurmat qilish yo'lidan boradi. Shveysariya bu yerda o'z manfaatlarini himoya qilish bilan birga javobgarlikni o'z zimmasiga olib, birdamlik tuyg'usi bilan harakat qiladi. Shveysariyaning xalqaro hamkorligi 7 ta strategik maqsaddan iborat:

- 1) global muammolarga javob beradigan xalqaro asosni ishlab chiqishga hissa qo'shish;
- 2) inqiroz va ofat oqibatlarini hamda zaiflikni oldini olish va boshqarish; nizolarni o'zgartirishga ko'maklashish;
- 3) hamma uchun resurslar va xizmatlardan barqaror foydalanishni qo'llab-quvvatlash;
- 4) barqaror iqtisodiy o'sishga ko'maklashish;
- 5) jamiyat va iqtisodiyotga xizmat qiladigan institutlarni qo'llab-quvvatlagan holda qonun ustuvorligini va demokratik ishtirokni kuchaytirish;
- 6) inson huquqlari va asosiy erkinliklariga hurmatni ta'minlash, shu bilan birga ularning maqsadlarini ilgari surish bo'yicha sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlash;
- 7) gender tengligini va ayollar va qizlarning huquqlarini mustahkamlash.

Farovonlik

Kuchli, raqobatbardosh va innovatsion iqtisodiyot o'sishni yaratadi va farovonlikni qo'llab-quvvatlaydi. Shveysariya iqtisodiyoti an'anaviy ravishda eksportga bog'liq bo'lib, yaqin xalqaro aloqalarni talab qiladi. Shunday qilib, farovonlikni saqlash va uni kengaytirish global iqtisodiy muhit va butun dunyo bo'ylab tegishli qoidalar va normalalar bilan bevosita bog'liqdir.

Shveysariya so'nggi yillardagi salbiy o'zgarishlarning oqibatlarini yumshatish bo'yicha choralar ko'rishi mumkin. Masalan, u ikki tomonlama erkin savdo shartnomalarini doimiy ravishda kengaytirmoqda.

Shveysariya kabi ochiq iqtisodiyot uchun farovonlikni yakka holda iloji yo'q. Bugungi tovar va xizmatlar bozorlari juda o'zaro bog'liq. Va kapital va mehnat bozori ham shunday. Ushbu yaqin aloqalar o'zлari bilan xalqaro qoidalar va me'yirlarni belgilashning dinamik tizimini olib keladi. «Eski» bojxona dunyosi tobora atrof-muhit va iqlim muammolari bo'yicha «yangi» umumiylar qoidalar dunyosi bilan almashtirilmoxda. Ular transport, energetika va sog'lioni saqlash siyosatiga ham tegishli. Bu ham globallashuvni shakllantirishning muhim qismidir. Demak, Shveysariya uchun farovonlikni barqaror ravishda himoya qilish ushbu qoidalar va me'yirlarni xalqaro miqyosda ishlab chiqishda ishtirok etish, shveysariya qadriyatlari va manfaatlarini iloji boricha va zarur bo'lgan hollarda o'xshash fikr yuritadigan mamlakatlar bilan birgalikda va tegishli ittifoqlarni tuzish orqali ilgari surishni anglatadi. Bundan tashqari, Shveysariya tashqi iqtisodiy siyosati qo'shma iqtisodiy qo'mitalar orqali asosiy savdo va investitsiya sheriklari bilan yaqin aloqalarni o'rnatadi va chet elda faol bo'lgan shveysariyalik kompaniyalarni qo'llab-quvvatlaydi.

Yuqorida mamlakat misolida ko'rganimiz kabi boshqa mamlakatlar ham tinchlik, huquqiy barqarorlik, o'zaro manfaatlarning mos kelishi va iqtisodiy hamkorlik yoinki shu kabi jihatlarni hisobga olgan holda o'z tashqi iqtisodiy siyosati strategiyasini ishlab chiqadi, shuningdek, uni namoyon qilib boradi.

Takrorlash uchun savollar

- 1 >** Tashqi iqtisodiy siyosat nima?
- 2 >** Tarifsiz cheklamalar nima?
- 3 >** Tashqi iqtisodiy siyosatni tartibga solish predmeti.
- 4 >** Tashqi iqtisodiy siyosatda bojxona cheklovlarini tushuntiring
- 5 >** Tashqi iqtisodiy siyosatdagi miqdoriy va valuta cheklamalarining ahamiyatini aytинг.

Mustaqil bajarish uchun topshiriqlar

- 1 >** Xitoy Xalq Respublikasi hamda Gonkong maxsus hududi o'rtaсидаги келишмовчилеклар натижасида, XXR ning tashqi iqtisodiy siyosatini yuritish jarayonida AQSH bilan hamkorlik jihatlariga salbiy ta'sirlarini sanang.
- 2 >** Rossiya Federatsiyasining tashqi iqtisodiy siyosati ustuvor yo'naliishlari ni bayon qiling hamda Rossiya Prezidenti va Amerika Qo'shma Shtatlari Prezidenti Joe Biden bilan uchrashuvining har ikkala mamlakat tashqi iqtisodiy siyosatini amalga oshirishiga qanchalik ta'sir etish darajasini o'rganib chiqing.



Masalalar

1> Iqtisodiyot quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalangan.

Tovarlar eksporti 19650\$ Tovarlar importi 21650\$,/ Mamlakat fuqarolari xorijiy investitsiyalardan oladigan daromad 3700\$, Mamlakatning horijiy investorlarga foizlar ko'rinishida to'laydigan daromadi 1400\$, Xizmatlar eksporti 1900\$ Xizmatlar importi 1750\$ Mamlakatning bir tomonlama transfertlari 2400\$ Kapitalni mamlakatdan chiqib ketishi 4200\$, Kapitalning mamlakatga kirib kelishi 6600\$

Ushbu ma'lumotlarga asoslanib, joriy schyotlar qoldig'ini, kapital harakati schyotlari qoldig'ini va mamlakat to'lov balansi qoldig'ini hisoblang. Mamlakat rasmiy valuta rezervlari miqdori qanday o'zgaradi?

2> Mamlakatning iqtisodiyoti quyidagi ma'lumotlar bilan ifodalanadi:

Tovarlar eksporti	29700 mln. so'm
Tovarlar importi	31700 mln. so'm
Chet elga qo'yilgan investitsiyalardan olingan foiz shakllaridagi daromadlar	4600 mln. so'm
Chet ellik investorlarga foiz to'lovleri	2400 mln. so'm
Turizmdan olingan mamlakatning daromadlari	2700 mln. so'm
Mamlakatning bir tomonli transfert to'lovleri	3500 mln. so'm
Mamlakatdan kapitalning chiqib ketishi	5200 mln. so'm
Chet el turizmiga mamlakat rezidentlarining xarajatlari	2800 mln. so'm
Mamlakatga kapitalning oqib kelishi	8600 mln. so'm

Bu ma'lumotlar asosida joriy hisobning qoldig'ini aniqlang.

TAYANCH TUSHUNCHALAR

Aktiv to'lov balansi – to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlar summasidan ortiq bo'ladi.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir.

Deflyatsion siyosat – bu siyosat ichki talabni qisqartirishga, ustuvor ravishda fuqarolarga yo'naltirilgan budget xarajatlarini, narxlar va ish haqlarini muzlatishga yo'naltirilgandir.

Devalvatsiya – tovarlar eksportini rag'batlantirishga va ular importini ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lib, milliy valuta kursini tushirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisidir.

Joriy operatsiyalar hisobi – tovarlar va xizmatlarni xarid qilish hamda sotish, transfert tarzidagi o'tkazishlar, investitsiya bilan bog'liq foizlar, dividendlar va boshqa daromadlarni hamda nafaqlar, ish haqi, elementlarni o'tkazish singari boshqa operatsiyalardan keladigan daromadlarning mamlakatlararo harakatini aks ettiradi.

Joriy operatsiyalar hisob-raqami – mamlakat to'lov balansi bo'limi. Unda mamlakatning tovar va xizmatlar importi va eksporti hajmi, investitsiyalardan olin-gan sof daromadi va transfert to'lovlaringin sof hajmi ko'rsatiladi.

- budjet defitsitini kamaytirish;
- kredit cheklashlar;
- Markaziy bankning diskont siyosati (foiz stavkalarining o'zgarishi);
- pul massasi o'sish chegaralarini o'rnatish xizmat qiladi.

To'lov balansi-1. Ma'lum bir vaqt mobaynida (chorak, yarim yil, bir yil va hokazo) bir mamlakat va unda ro'yxatdan o'tgan korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralarining boshqa mamlakatlardagi korxonalar, jismoniy shaxslar va davlat idoralar bilan amalga oshirgan barcha iqtisodiy operatsiyalarini o'zida aks ettiruvchi statistik hisobotdir. 2. Bir mamlakatning boshqa mamlakatlarga ma'lum bir davr mobaynida haqiqatda o'tkazgan valutaviy to'lovlari va tushumlari o'rtasidagi nisbatni, mamlakatning xalqaro pullar harakatini o'zida aks ettiruvchi hujjatdir. Agar to'lov balansida valutaviy tushumlar to'lovlardan ortib ketsa, to'lov balansi aktiv, aksincha esa passiv hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – T.: «O'zbekiston», 2017
2. N. Gregory Mankiw. Macroeconomics. Princeton University, Massachusetts Institute of Technology, Harvard University.
3. D.Romer. Advanced Macroeconomics. Princeton University, Massachusetts Institute of Technology, The University of California
4. P. Krugman, R. Wells. Economics, fifth edition, 2018
5. P. Krugman, R. Wells. Macroeconomics , 2006
6. R. Dornbusch, S.Fischer, R.Startz. Macroeconomics. Massachusetts Institute of Technology
7. R. Dornbusch. Keys to Prosperity: Free Markets, Sound Money, and a Bit of Luck, MIT Press, 2000.
8. J. Gali. Monetary Policy Inflation and the Business Cycle. Massachusetts Institute of Technology.
9. Sh.Mustafakulov,N. O'rmonov, Q. Isayev. Iqtisodiyot ilmi osmonida yulduzga aylanganlar. Ilmiy ommabop risola [Math] Kokand university. - T.: «Ma'naviyat», 2021. – 352 bet
10. Sh.I. Mustafakulov. Investision jozibadorlikning nazariy, metodologik va amaliy talqini. 2-to'dirilgan nashr. Kokand university – T.: «Ma'naviyat», 2021
11. I.O. Yakubov, H.A. Hakimov MAKROIQTISODIYOT-2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti. - T.: TDIU, 2019.
12. X.S.Xadjaev, Sh.Sh. Fayziev, M.E.Jabbarov. Makroiqtisodiyot (o`quv-uslubiy qo'llanma (masalalar to'plami). Toshkent moliya instituti - T.: TMI, 2015.

GLOSSARIY

Aholining farovonligi – bu ma'lum bir jamiyatda yoki ijtimoiy sharoitda qabul qilingan standartlar yoki me'yorlar bilan taqqoslaganda, inson yoki uy xo'jaligining moddiy va nomoddiy (shu jumladan ma'naviy boyliklar) ehtiyojlarini mutlaq va nisbiy jihatdan qondirish darajasidir. Farovon hayot tushunchasi moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning umumlashtirilgan majmuasini qondirish demakdir. Aholining farovonligi ma'lum bir mamlakatda aholining sog'lom hayotini saqlab qolish uchun iste'mol tovarlari va zarur xizmatlarni sotib olish darajasi, shuningdek, jamiyat ichida ishslash yoki boshqa biron-bir faoliyat bilan shug'ullanish imkoniyati bilan bog'liq.

Akselerator – 1. Sof investitsiyalar darajasi bilan yalpi ichki mahsulot (milliy daromad)ning o'sish sur'atlari o'rtaсидаги bog'liqlikni ifodalovchi iqtisodiy ko'rsatkich. 2. Multiplikatorga teskar bo'lgan koeffitsiyent bo'lib, milliy daromad o'sishining investitsiya o'suviga ta'sirini ko'rsatadi 3. Iqtisodiyotda iste'molchilik sarf-xarajatlar hajmi o'zgarishi bilan yuzaga keladigan kapital qo'yilmalar hajmi o'zgarishini tavsif etuvchi ko'rsatkich. Akseleratsiya prinsipining mohiyati shundan iboratki, iqtisodiyotda iste'molchilik xarajatlari dinamikasi investitsiyalar hajmi dinamikasiga o'z ta'sirini ko'rsatadi: iste'molchilik xarajatlarining sezilarli o'sishi investitsion faollikni yuzaga keltiradi, rag'batlantiradi va aksincha.

Aksilinflyatsiya yoki inflyatsiyaga qarshi siyosat – bu narxlar umumiy darajasini barqaror darajada saqlash, inflyatsiyani yumshatishga qaratilgan hukumat amalga oshiradigan chora-tadbirlaridir.

Aksilinflyatsiya yoki inflyatsiyaga qarshi siyosat – bu narxlar umumiy darajasini barqaror darajada saqlash, inflyatsiyani yumshatishga qaratilgan hukumat amalga oshiradigan chora-tadbirlaridir

Aktiv to'lov balansi – to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlardan ortiq bol'di.

Amortizatsiya – 1) eskirishning qiymatdag'i ifodasi bo'lib, asosiy vosita aktivining butun xizmati davomida mahsulot ishlab chiqarish tannarxi va davr xarajatlariga qo'shiladigan amortizatsiya qiymatini tizimli ko'rinishda taqsimlash; 2) asosiy fondlar qiymatini asta sekinlik bilan ular yordamida ishlab chiqariluvchi mahsulot yoki xizmatlarga o'tkazilishi; mablag'larning maqsadli ravishda jamg'arilishi va keyinchalik eskirgan asosiy fondlarning o'rnnini qoplashga ishlatalishi. 1. Mashina, asbob-uskuna, bino va shu kabilarning eskirishiga qarab, ularning bahosini kamaytirib borish; ularning shu chegirilgan qiymatini ishlab chiqarilgan mahsulot tannarxiga qo'shib borish. 2. Alovida shaxs yoki tashkilotning o'z qarzini astasekin, darajama-daraja to'lash majburiyatidan qutulish. 3.Qarz majburiyatining yo'qotilishi, o'chirilishi oqibatida uning bekor qilinganligini tan olish.



Asosiy ish haqi – ishchi va xizmatchilarning ishlagan vaqtiga uchun to'lanadigan haq.

Asosiy kapital – ishlab chiqarish jarayonida bir qator doiraviy aylanishlar davomida qatnashib, o'z qiymatini tayyorlanayotgan mahsulotga sekin-asta o'tkazadigan kapital.

Asosiy kapital iste'moli – ishlab chiqaruvchida mavjud bo'lgan asosiy kapital joriy qiymatining hisobot davrida jismoniy va odatdagagi me'yorda ma'naviy eskirishi, baxtsiz hodisa tufayli shikastlanishi natijasida uning kamayishi asosiy kapital iste'moli deb ataladi.

Asosiy moliya strategiyasi – korxona faoliyatini aniqlovchi budgetning hamma darajasida bo'ladigan o'zaro munosabatlari. Korxona daromadlarini tashkil etib, uni sarflashga, ehtiyojlik miqdori va bir yilda moliyalashtirish manbalariga aytildi.

Asosiy narx – mahsulot yoki xizmat birligi uchun ishlab chiqaruvchi oladigan narx. Ishlab chiqaruvchi tovar yetkazib berish va xizmat ko'rsatish uchun alohida qo'shadigan sarflar asosiy narx tarkibiga kiritilmaydi.

Avtomatik stabilizatorlar – bu biznes sikli jarayonida xarajatlar, iste'mol va daromadlarni qamrab oladigan soliq stavkalarini hamda pul o'tkazmalari va shu kabilarni avtomatik ravishda amalga oshiriladigan mamlakat siyosatidir.

Avtomatik stabilizatorlar – bu biznes sikli jarayonida xarajatlar, iste'mol va daromadlarni qamrab oladigan soliq stavkalarini hamda pul o'tkazmalari va shu kabilarni avtomatik ravishda amalga oshiriladigan mamlakat siyosatidir.

Baholar indeksi – tovar va xizmatlar yoki aktivlar o'rtacha bahosining o'zgarishi ko'rsatkichi. Baholar indeksi bozor savati deb yuritiladigan ma'lum to'plamdagiga tovar va xizmatlarning joriy yildagi baholari yig'indisini bazis yildagi baholari yig'indisiga bo'lib topiladi.

Bandlikning klassik nazariyası – iqtisodiyot fanida klassik muktab namoyandalari tomonidan ilgari surilgan makroiqtisodiy nazariya. Uning asosiy qoidalaridan biri iqtisodiyot o'zini-o'zi tartibga solish bozor mexanizmiga ega va u aholining to'la bandligi uchun sharoit yaratadi, davlat iqtisodiyotni tartibga solishga aralashmasligi zarur.

Bank tizimi – biror-bir davlatda mayjud bo'lgan va amal qilib turgan banklarning barchasi tushuniladi. Masalan, O'zbekiston Respublikasi bank tizimi o'z ichiga: 1. Markaziy bank. 2. Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki. 3. Ixtisoslashtirilgan aksiyadorlik tijorat va davlat banklari majmuyidan iborat bo'lgan 31 ta bankni o'z ichiga oladi. 4. Ulush, qo'shish, hissadorlik hamda xorijiy kapitallar ishtiroki asosida tashkil topgan qo'shma banklar, kooperativ va xususiy banklardan iborat.

Bilvosita soliqlar – tovar molmulki narxidan qimmatga, ustiga qo'yib sotish yordamida davlat xazinasiga kelib tushadigan soliqlardir. Masalan, aksizlar, bojlar va boshqalar.

Budget taqchilligi – moliyaviy yil natijalariga ko'ra davlat budgetida xarajatlarning daromadlardan ustun bo'lishi.

Davlat fiskal siyosati – bu davlat budgeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi. "Fiskal"

lotincha "fiscus" so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni bildiradi. Bu o'z navbatida "xazina siyosati" degan tushunchani ham yuzaga keltiradi.

Davlat xarajatlari multiplikatori – hukumat xarajatlarining o'zgarishini iqtisodiy ishlab chiqarish muvozanatli darajasi o'zgarishiga nisbati. Oddiy iqtisodiy modeldan foydalangan holda, davlat xarajatlari multiplikatori jamg'armaga cheklangan moyillik (MPS) bilan teskari bog'liqligini ko'rsatishi mumkin.

Davlatning tashqi iqtisodiy siyosati – xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlarni ta'minlash borasidagi davlat faoliyatining yo'nalishi va sohasi, shuningdek, tegishli maqsad va vazifalarni amalga oshirishdagi aniq chora-tadbirlar yig'indisidir.

Deflyatsion siyosat – bu siyosat ichki talabni qisqartirishga, ustuvor ravishda fuqarolarga yo'naltirilgan budget xarajatlarini, narxlar va ish haqlarini muzlatishga yo'naltirilgandir. Bu siyosatning muhim instrumentlari bo'lib:

Deflyatsiya – inflyatsiya davrida muomaladagi qog'oz pulni kamaytirish. Davlat tomonidan muomaladagi pul miqdorini kamaytirishga qaratilgan moliya va pul-kredit tadbirlarini qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Devalvatsiya – tovarlar eksportini rag'batlantirishga va ular importini ushlab turishga yo'naltirilgan bo'lib milliy valuta kursini tushirish bilan bog'liq chora-tadbirlar yig'indisidir.

Diskretcion fiskal siyosat – bu milliy ishlab chiqarish real hajmini o'zgartirish, bandlik darajasini ushlab turish va inflyasiya ustidan nazorat o'rnatish hamda iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida soliqlar bilan birga, davlat xarajatlarini ongli ravishda manipulyatsiya qilish tushuniladi. 2. Milliy ishlab chiqarish hajmiga, bandlikka, inflyatsiyaga ta'sir etish maqsadida, davlat tomonidan ongli ravishda soliq solish va davlat xarajatlarini tartibga solish tushuniladi, tanazzul sharoitida unga muvofiq davlat sarflari oshiriladi, soliqlarning pasayishi bilan qo'shib olib boriladi, natijada kamomadni moliyalashtirishga, ishlab chiqarishning o'sishiga olib keladi. Inflyatsiya sharoitida diskretcion siyosat davlat sarflarini kamaytirish, soliqlar miqdorini oshirish, davlat sarflarini qisqartirish bilan soliq miqdorini oshirishni qo'shib olib borishni nazarda tutadi. Bu esa davlat budgetining ijobji saldog'a ega bo'lismiga olib keldi. Real hayotda, iqtisodiyotda har xil omillar harakat qiladi. Shuning uchun muvofiq fiskal siyosatni ishlab chiqish juda qiyindir.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitalni sotish maqsadida chet el bozorlariga chiqarish; eksport import bilan bir qatorda xalqaro ijtimoiy mehnat taqsimoti bilan bog'langan va tashqi savdoning tarkibiy qismidir. Eksportning quyidagi ko'rinishlari mavjud: 1. Tovar eksporti – bunda moddiy ne'matlar chetga chiqariladi. 2. Xizmatlar eksporti – bunda xorijdag isheriklarga to'lov evaziga turli xizmatlar ko'rsatiladi. Kapital eksporti – bunda chet mamlakatlarga turli obyektlar qurish va ishga tushirish uchun mablag' (kapital) qo'yiladi.

Eksport operatsiyasi – mahsulotlarni chet mamlakatlarga chiqarish.

Erkin savdo hududi – doirasida qatnashchi mamlakatlar o'zaro savdo to'siqlarini bekor qiladi, lekin ularning har ikkalasi uchinchi mamlakatga nisbatan savdo to'siqlarini buzmaydi.



Farovon turmush darajasi – insонning har tomonlama rivojlanishini ta'minlaydigan imtiyozlardan qoniqarli darajada foydalanish.

Filips egri chizig'i – ishsizlik darajasi va narxlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtaсидаги bog'liqliкни aks ettiruvchi egi chiziq. Bu ikki ko'rsatkich o'rtaсидаги bog'liqliк ingliz iqtisodchisi A.Y. Filips tomonidan Buyuk Britaniyaning 1862-1957-yillardagi ma'lumotlari asosida tadqiq etilgan. Unda inflyatsiyaning sur'ati past bo'lsa, ishsizlikning darajasi yuqori bo'ladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtaсида barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqliкni o'rnatish, milliy iqtisodni tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

Filips egri chizig'i – ishsizlik darajasi va narxlarning yillik o'sish sur'atlari o'rtaсидаги bog'liqliкни aks ettiruvchi egi chiziq. Bu ikki ko'rsatkich o'rtaşıдаги bog'liqliк ingliz iqtisodchisi A.Y. Filips tomonidan Buyuk Britaniyaning 1862-1957-yillardagi ma'lumotlari asosida tadqiq etilgan. Unda inflyatsiyaning sur'ati past bo'lsa, ishsizlikning darajasi yuqori bo'ladi va aksincha. Muhim makroiqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtaсида barqaror va oldindan ko'rish mumkin bo'lgan bog'liqliкni o'rnatish, milliy iqtisodni tartibga solish va istiqbolini belgilash imkonini beradi.

Fiskal moliya-budget siyosati – hukumat tomonidan davlat xarajatlari va soliqqa solish tartibiga kiritadigan o'zgartirishlar. Bundan maqsad to'la bandlik, to'la ishlab chiqarish hajmiga erishish. Davlatning fiskal siyosati soliqlarni undirish va budget mablag'laridan makroiqtisodiy muvozanatni ta'minlash va ijtimoiy masalalarni hal etish maqsadida hukumat imkoniyatlaridan foydalanishni nazarda tutadi. Fiskal siyosatning asosiy dastagi soliq stavkasini ishlab chiqarish maqsadiga muvofiq o'zgartirishdir.

Fiskal siyosat – bu davlat budjeti daromadlari va xarajatlari tarkibiy qismini o'zgartirish orqali milliy iqtisodiyotga ta'sir qilishni anglatadi. "Fiskal" lotincha "fiscus" so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni bildiradi. Bu o'z navbatida "xazina siyosati" degan tushunchani ham yuzaga keltiradi. Davlat xarajatlari va soliqqa tortish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rish orqali mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yechishga qaratilgan siyosatdir. Fiskal siyosatning eng asosiy vazifasi – iqtisodiy-ijtimoiy siyosatni amalga oshirish uchun davlat pul fondlarini markazlashgan tarzda tashkil etish va ishlatish orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdir.

Foiz stavkasi yoki qayta moliyalash stavkasi – Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga beriladigan ssudaning foiz stavkasi tushuniladi. Bu ssudalarni tijorat banklari ayrim ko'zda tutilmagan zarurat tug'ilganda va moliyaviy ahvoli mustahkam bo'lgan hollardagina oladilar.

Foiz stavkasining real darajasi – inflyatsiya darajasiga to'g'rilangan pulda ifodalangan foiz stavkasini inflyatsiya darajasiga muvofiqlashtirish. Masalan, qarz beruvchi (kreditor) bergen puli miqdoriga 5% stavkasini belgilashi mumkin, ammo kutilayotgan inflyatsiya darjasiga yiliga 10% ga teng bo'lsa, unda foiz stavkasining real darjasasi 15% ni tashkil etadi.

Foya – hukumat tomonidan belgilangan tartibda hisoblangan, inflyatsiya indeksiga oshirilgan (ko'paytirilgan) asosiy fondlarning sotish bahosi va ularning dastlabki yoki qoldiq qiymati o'rtaсидаги farq.

Funksional moliyalashtirish – budjet siyosatini ishlab chiqish konsepsiysi. Uning asosida budjet emas, balki iqtisodiyot muvozanatlashtirilishi zarur, degan qoida yotadi. Bunda makroiqtisodiy barqarorlik davrida budjet ijobiy saldoga ega bo'lishi zarur degan filer ilgari suriladi. Zero, iqtisodiy o'sish sharoitida budjetga soliqlar tushumi avtomatik ravishda ko'payadi, makroiqtisodiy barqarorlik esa buni rag'batlantiradi. Demak, budjet kamomadi avtomatik ravishda o'z-o'zidan yo'q bo'ladi. Undan tashqari, davlatning soliqlarni belgilash huquqi va pullarni vujudga keltira olish sharoitida uning budjet kamomadini moliyalashtirish imkoniyatlari amaliy jihatdan cheksizdir.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish – bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan Yalm yoki boshqa makroiqtisodiy ko'satkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.

Haqiqiy iqtisodiy o'sish – bu statistika organlari tomonidan muntazam nashr etiladigan Yalm yoki boshqa makroiqtisodiy ko'satkichlarning haqiqiy yillik ko'payishidir.

Import (lot. importo –kiritaman) – 1) mamlakat ichiga foydalanish yoki sotish uchun chetdan olib kelingan xorijiy mahsulotlar; 2) kapital import xorijidan mamlakatga kelayotgan kapital (kredit, zayom va boshqa); 3) chetdan olib kelingan mahsulotlarning umumiy soni va qiymati. U vaqtini tejashga, iqtisodiyot, aholi ehtiyojini qondirish vazifalarini muvaffaqiyat bilan hal qilishga ko'maklashadi.

Import operatsiyasi – mahsulotni xorijiy sherikdan sotib olish va uni mamlakatga olib kelish.

Industriyalashtirish – mamlakat iqtisodiyotini sanoatlashgan asosga o'tkazish, iqtisodiyotda sanoat ishlab chiqarishi ulushini ahamiyatli darajada ko'paytirish, butun iqtisodiyot yoki uning alohida tarmoqlarida yirik mashinalashgan ishlab chiqarishni barpo etish jarayoni.

Inflyatsiya (lot. shishish, ko'pchish, ko'tarilish) – mamlakatda muomalada yurgan qog'oz pul miqdorining xo'jalik muomalasi ehtiyojlaridan ortiq darajada oshib ketishi. Pulning qadrsizlanishi. Inflyatsiya quyidagi turlarga bo'linadi: 1. Biror omil tufayli kelib chiqqan inflyatsiya. 2. Kredit inflyatsiyasi – kredit ajratishning haddan ortiq kengayishi tufayli kelib chiqadi. 3. Sudraluvchan inflyatsiya – sekinlik bilan rivojlanib boradi. 4. Sakrovchan inflyatsiya – tez sur'atda rivojlanib boradi. 5. Ma'muriy inflyatsiya – narx-navoni ma'muriy tarzda boshqarish oqibatida yuzaga keladi. 6. Ijtimoiy inflyatsiya – mahsulot sifatiga, atrof-muhit muhofazasiga bo'lgan yangi ijtimoiy talablarning paydo bo'lishi oqibatidagi chiqimlarning o'sishi ta'sirida narx-navoning o'sishini yuzaga keltiradi. Bunday holat xo'jalik yuritish borasidagi qiyinchiliklarni bartaraf qilish davrida, mahsulot ishlab chiqarish kamaygan hollarda qo'shimcha pul chop etish natijasida yuzaga keladi.

Inflyatsiya darajasi – ma'lum vaqt ichida (oy, yil) narxlar darajasining foizdagi o'zgarishi.

Inflyatsiya sur'ati – narxlar o'rtacha ko'satkichining o'sish sur'ati quyidagi $i=(R_1-R_0)/R_0$ formula bilan hisoblanadi. Bu yerda, i -0 momentdan 1 momentgacha bo'lgan davr ichidagi inflyatsiya sur'ati; R_0 – 0 momentdagi o'rtacha narx, R_1 – 1 momentdagi o'rtacha narx.

Investitsiyalar yoki kapital qo'yilmalar – bu, hali buyumlashmagan, lekin ishlab chiqarish vositalariga qo'yilgan kapitaldir.

Iqtisodiy davr – ishlab chiqarish, bandlilik va inflyatsiya darajasining davriy tebranishiga aytildi.

Iqtisodiy o'sish – mamlakat iqtisodiy salohiyatining ortishi, ya'ni aholi ehtiyoji uchun zarur bo'lgan moddiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'satsishning ko'payib, yaxshilanib borishi. Iqtisodiy o'sish mamlakatning rivojlanib, taraqqiy etib borishini ifodalaydi. Iqtisodiy o'sish – yalpi milliy mahsulot va milliy daromad hajmining ortib borishi, aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotning ko'payishi bilan o'lchanadi. Iqtisodiy o'sishning intensiv va ekstensiv turlari mavjud.

Iqtisodiyot – bu jamiyat o'zining cheklangan manbalaridan oqilona tarzda foydalangan holda boshqarishini o'rganadigan fandir.

Iqtisodiyotning ishlab chiqarish potensiali – barcha mavjud resurslardan to'liq foydalangan holda, ishsizlikning tabiiy darajasi holatida iqtisodiyotda yaratilishi mumkin bo'lgan mahsulot hajmiga aytildi

IS – LM modeli – qisqa muddatli davrda ham tovarlar ham pul bozorida birgalikda muvozanat o'rnatilishi mexanizmini xarakterlaydi. Bunda tovarlar bozori deganda ham iste'mol, ham investitsion tovarlar bozori tushuniladi.

Ishchi kuchi – insonning jismoniy va aqliy qobiliyatlari yig'indisi va mehnatga layoqati bo'lib, har qanday jamiyat ishlab chiqarishining asosiy sharti hisoblanadi. Mamlakat aholisining jismoniy va mehnatga layoqatli qismi uning ishchi kuchi hisoblanadi.

Ishchi kuchi bozori – ish kuchining egasi va ish beruvchilar orasidagi ijtimoiy munosabatlar tizimi.

Ishsizlar – ishchi kuchining bir qismi bo'lib, ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lмаган, lekin ishslashni xohlovchi va faol ish qidirayotgan aholidir.

Ishsizlik – sog'lig'i yoki yoshi jihatidan ishga layoqatli kishining ish o'rnnini yo'qotib, bo'sh bo'lib qolishi. Ishsizlik uch xiko'rinishda uchraydi: 1. Ixtiyoriy ishsizlik (boshqa hududga ko'chish, o'qishga kirish, bolani parvarish qilish kabi sabablarga ko'ra ishdan bo'shashi natijasida yuzaga keladi). 2. Tarkibiy ishsizlik (ayrim kasblar, ish turlariga bo'lgan talabning susayishi natijasida yuzaga keladi). 3. Davriy ishsizlik (ayrim hududlar va tarmoqlarda ishchi kuchiga bo'lgan talabning kamayishi natijasida yuzaga keladi).

Ishsizlik darajasi – ishsizlik sonining iqtisodiy faol aholi soniga nisbati. 16 va undan yuqori yoshdagilar, lekin ishga ega bo'lмаганлар, faol ish qidirayotganlar, ishni boshlashga tayyor turganlar ishsizlar deb ataladi.

Ishsizlikning tabiiy darajasi – real va potensial yalpi milliy mahsulotning o'sishi bir-biriga mos keladigan iqtisodiy rivojlanish davri oraliqlariga xos bo'lgan ishsizlik darajasi. U iqtisodiy rivojlanishning haqiqiy va strukturaviy ishsizlik ko'rsatkichlari yig'indisi sifatida ham hisoblanishi mumkin. Shuningdek, NARU (natural rate of unemployment) atamasi ishsizlikning o'smaydigan darajasi ko'rsatkichi tarzida ham qo'llaniladi. Bu ko'rsatkich ijtimoiy jihatdan nisbatan neytral bo'lib, inflyatsiyaning turg'un, barqaror darajalari hamda real va potensial yalpi milliy mahsulot (YaMM) mos tushgan holatidagi ishsizlik darajasini aks ettiradi.

Iste'mol – ijtimoiy ishlab chiqarish jarayonining oxirgi fazasi, ijtimoiy mahsulotdan aholining iqtisodiy talablarini qondirish jarayoni.

